

Omonulla MADAYEV

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI



O'ZBEKISON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Omonulla MADAYEV

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI LJODI

Universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika
institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun
o'quv qo'llanma



Toshkent
«MUMTOZ SO'Z»
2010

82.3(5Ў)

M14

Madayev, Omonulla

O'zbek xalq og'zaki ijodi: universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma / O.Madayev; mas'ul muharrir H.Boltaboyev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. – 228 b.

ББК 82.3(5Ў)

Mas'ul muharrir:

***Filologiya fanlari doktori, professor
Hamidulla BOLTABOYEV***

Taqrizchilar:

***Filologiya fanlari doktori, professor
Mamatqul Jo'rayev;
filologiya fanlari nomzodi
Abdumurod Tilavov***

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan
(2010 yil 30 sentyabr, 2-son bayonnoma)

ISBN 978-9943-363-90-8

© Omonulla MADAYEV, 2010

© «MUMTOZ SO'Z», 2010

Muallifdan

Yurtimiz mustaqil respublika sifatida shakllanib rivoj topayotganiga 20 yil bo‘lib qoldi. O‘tgan muddat davomida xalq xo‘jaligining hamma sohalarida, shu jumladan, adabiyotshunoslikda ham keskin sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Madaniyat, san‘at, adabiyot, xalq ijodiga bo‘lgan munosabat davlat maqomi darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston radio va televideniyesi, gazeta, jurnallarda millatimiz og‘zaki ijodi namunalari va ular haqidagi ma‘lumotlar muntazam ravishda yoritilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarining filologiya va jurnalistika fakultetlarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi kursi namunaviy dastur asosida o‘qitilmoqda. Mazkur dasturda asosiy e‘tibor xalqimiz og‘zaki ijodi milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi ekani, badiiy ijod ota-bobolarimizdan keyingi avlodga qoldirilgan ma‘naviy meros ekani alohida ta‘kidlanadi. Ammo o‘tgan vaqt davomida “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” kursi bo‘yicha yangicha talqin qilingan, zamon ruhi singdirilgan darslik va hatto qo‘llanmaning yozilmagani achinarli hol. Ana shu kamchilikni muayyan ravishda bartaraf qilish maqsadida mazkur qo‘llanmani tayyorlashga jur‘at qildik.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlarini nashr qilish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini anglashdagi ijobiy o‘zgarishlar tashabbuskori yurtboshimiz Islom Karimov bo‘ldi. 1990 yilda, hali mustaqillik qo‘lga kiritilmasdan avval taqiqlangan Navro‘z bayrami umum-xalq tantanasi darajasida nishonlandi. Keyinchalik “Alpomish” dostonining 1000 yillik to‘yi tantana qilindi. 2008-yil “Ma‘naviyat” nashriyoti tomonidan e‘lon qilingan “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” kitobida shunday deyiladi: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan qadimiy toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan minglab aso‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me‘morchilik va boshqa sohalariga oid qimmatbaho dos

asarlari bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir"¹. Muhimi, xalq ijodi, xususan, og'zaki ijod asarlari millat sifatidagi o'zbeklar tabiatining shakllanishidagi ahamiyatini yurtboshimiz mohiyat jihatdan yuksak baholaydi. Qo'lingizdagi qo'llanmada bu munosabat har bir mavzu bayonida o'z ifodasini topdi.

Shuningdek, qo'llanmani tayyorlashda, avvalo, hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi, Jurnalistika fakultetida 40 yildan ortiq muddat davomida "O'zbek xalq og'zaki ijodi", "Ommaviy axborot vositalari va o'zbek xalq og'zaki ijodi" fanidan o'qigan ma'ruzalarimiz, o'tkazgan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, yaqin 50 yil davomida talabalarimiz ishtirokida tashkil etilgan folklor ekspeditsiyalari natijalari, O'zbek xalq og'zaki ijodidan nashr ettirilgan avvalgi darsliklardagi bugungi kunda o'z qadrini yo'qotmagan fikr-mulohazalar, taniqli olimlarimizdan H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev, K.Imomov, M.Murodov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul va boshqa taniqli folklorshunos olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qaydlar asos bo'ldi.

Muallif qo'llanmaning vujudga kelishida o'zining qimmatli maslahatlarini ayamagan mutaxassis kasbdoshlariga o'zining samimiy minnatdorchiligini izhor etadi.



¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshke- naviyat, 2008. – B. 31.

KIRISH

Ma'lumki, mazkur kurs respublikamiz viloyatlari universitetlari va pedagogika institutlarining O'zbek filologiyasi, ayrim oliy o'quv yurtlaridagi Jurnalistika fakultetlari talabalari uchun o'zbek adabiyoti tarixi haqidagi ilmiy tizimning tarkibiy qismi sifatida o'qitiladi. Unda xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlaridan tashqari maqol, topishmoq, askiya, latifa, lof, qo'shiq, ertak, doston kabi janrlar doirasida fikr yuritiladi.

O'tgan asrning 80-90-yillarida oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun xalq og'zaki ijodi fanidan darslik yaratish tajribasi amalga oshgan edi. Dastlab 1980-yilda "O'qituvchi" nashriyoti H.Razzoqov, T.Mirzayev, O.Sobirov, K.Imomovlarning muallifligida birinchi darslikni e'lon qildi. Keyinchalik 1990-yilda K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarovlar muallifligida "O'qituvchi" nashriyoti "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligini nashrdan chiqardi. Bu darsliklarda xalq og'zaki ijodiga oid ma'lumotlar folklorshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy asosda o'z ifodasini topgan. Zarur o'rinlarda biz ham ulardan foydalanganmiz. Ammo yurtimizda ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlar asarlarni tahlil qilishda yangicha yondashishni taqozo qiladi. Chunki o'tgan asrning 80-90-yillarida xalq og'zaki ijodidagi xos xususiyatlar, maqollardan tortib qo'shiqlargacha, ertaklardan dostonlargacha asosan sobiq tuzum mafkurasi tazyiqida o'rganilgan va tahlil qilingan. Xususan, juda ko'p o'rinlarda o'zbek xalqi yaratgan asarlar kambag'al va boylar sinfi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar zaminida baholangan. Hatto Navro'z bayramini ham asrlar davomida tajribadan o'tgan xalq tantanalari qatorida qayd qilingandan ko'ra islom dinidan avval paydo bo'lganligini, diniy marosimlarga aloqasi yo'qligini ta'kidlash bilan oqlab ko'rsatishga e'tibor berilgan. Biz o'z qo'llanmamizda asosiy diqqatni xalq og'zaki ijodi asarlarining millatimiz hayotida tutgan o'rnini, madaniy merosimiz tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyatini, badiiy adabiyot namunasi ekanligini yoritishga qaratdik. Zero, hozirgi paytda xalq maqollari, qo'shiqlari, ertaklari, doston va boshqa janrlarini bilish barkamol avlodning burchiga

aylanganiga guvohmiz. Xalq og‘zaki ijodi dasturiga binoan “Alla” haqida, bolalar folklori mavzusida fikr yuritiladi. Biz qo‘shiqlar yuzasidan bildirilgan mulohazalarda ham “Alla”larga qisman to‘xtab o‘tdik. Ayni chog‘da mavsum-marosim qo‘shiqlari yuzasidan ham ikki o‘rinda: “Qo‘shiqlar” va “Mavsum marosimiy folklori”da ma’lumot berishga majbur bo‘ldik. Shuning uchun mazkur qo‘llanmada uchraydigan ayrim takrorlar borligini qayd etmoqchimiz. Mazkur janrlar haqidagi tushunchalarga ega bo‘lish bugungi kun filolog va jurnalist mutaxassis uchun o‘ta zarur hisoblanadi. Chunki xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning vujudga kelishida va shakllanib rivojlanishida dastlabki bosqichni tashkil etadi. Jurnalist esa og‘zaki ijod sarchashmalaridan bahramand bo‘lmasdan o‘z sohasida muvaffaqiyat qozona olmaydi.

Demak, qo‘llanmadan asosiy maqsad o‘zbek xalqi tomonidan asrlar davomida yaratilgan og‘zaki ijod namunalari haqida ma’lumot berishdan iborat.



XALQ OG‘ZAKI IJODI HAQIDA UMUMIY MA‘LUMOT

Inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik so‘zlar, so‘z yig‘indisi, raqslar his-tuyg‘ularni ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarining paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo‘shiqclarini to‘qiydilar. Qabila-urug‘ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g‘aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo‘lib yashayotgan aholi o‘rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni “xalq og‘zaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz.

Xalq og‘zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmog‘chi bo‘lgan pand-nasihatlarini, el e‘zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz haqida san‘at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, uning ma‘nosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san‘at namunalari tushuniladi. Me‘morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari – hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san‘at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni “folklor” deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqsclarini, arxitektor xalq me‘morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor

asari deb hisoblaydi. Biz – so‘z san‘ati sirlarini o‘rganuvchi sohada ish yuritganimiz uchun maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo‘shiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib olamiz, tahlil qilamiz. “Folklor” atamasini talaffuz qilganimizda xalq og‘zaki ijodini tushunamiz. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Folklorshunoslik hozirgi paytda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Badiiy adabiyot xalq og‘zaki ijodidan boshlanadi. Binobarin, adabiyot tarixining birinchi qismini folklor tashkil etadi. Shuning uchun filologiya fakulteti talabalari mutaxassis sifatida shakllanish jarayonini xalq og‘zaki ijodini o‘rganishdan boshlaydilar.

Folklor so‘z san‘atining asosini tashkil etadi. Ayni chog‘da folklor asarlari hamisha jonli ijro bilan aloqada bo‘ladi. Shuning uchun ertak, qo‘shiq, doston va boshqa bir qator og‘zaki ijod asarlari ijro davomida sinkretik san‘at namunasi hisoblanadi. Sinkretik so‘zi birlashmoq, qorishmoq, aralashmoq tushunchasini bildiradi. Doston kuylanganda musiqa, so‘z, sahna san‘atlari qorishib uyg‘unlashadi. Ya‘ni baxshi do‘mbira, soz chalib xonanda sifatida yoqimli ovozda doston aytadi. Doston esa matndan – so‘zlardan iborat bo‘ladi, musiqa asbobida ijro etilgani uchun baxshi xonandalik, sozandalik qiladi. Ayni paytda dostondagi voqealarni tovush tovlanishi – sahna san‘ati – aktyorlik mahorati bilan hikoya qiladi. Natijada, sinkretik san‘at namunasi vujudga keladi (bu haqda keyingi mavzularda yana ma‘lumot beramiz). Shuningdek, qo‘shiqlar yoki xalq dramasiga oid asarlar ijrosida raqsga tushish, sahna harakatlari amalga oshiriladi. Binobarin, ijro etilayotgan asarning asosini so‘z tashkil qilgani bilan uning tinglovchilarga namoyish etilishini boshqa san‘at turlari bilan aloqasiz tasavvur qila olmaymiz. Xullas, bugungi kunda murakkablashib ketgan san‘at turlarining ko‘pchiligi dastlabki bosqichda xalq og‘zaki ijodi asarlarini ijro etish jarayonida paydo bo‘lgan, shakllangan, rivoj topgan va keyinchalik o‘ziga xos san‘at turiga aylangan bo‘lishi mumkin, desak u qadar katta xatoga yo‘l qo‘ymaymiz.

Xalq og‘zaki ijodi – so‘z san‘ati

Xalq og‘zaki ijodining so‘z san‘ati ekanligini tushunishdan avval san‘atning o‘zi nimaligini bilish lozim. 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (3-jild. 442-b): “San‘at” [سِنْعَت] – ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko‘rsatilgan. Agar izohdagi so‘zlarga e‘tibor bersak, san‘at

deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni tushunish angla-shiladi. San'atni mahoratsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ustozlarimiz "San'at – inson aqlu zakovatining buyuk kashfiyotidir", deyishdan toliqmasdilar. Ayni paytda, "San'at mahoratning eng oliy darajasida vujudga keladi" degan gapni ham ko'p takrorlar edilar. Haqiqatan ham, san'atni tushunish san'atni yaratishdek murakkab ekanini bilishimiz kerak. Ayniqsa, filologiya, jurnalistika, tarix, falsafa kabi soha egalari san'atni tushunish, to'g'rirog'i, his qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari alohida fazilatdir. Odatda maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan odamlar oddiy tasvirlarni san'at asari deb tushunadilar. Masalan, magazinlarning old qismidagi reklama maqsadida namoyish qilinadigan rasmlar: kostyum kiygan yigitlar, ko'ylakli qizlar, nonlarning turli xillari, kiyim-kechaklar tasvirlari va hokazolar. Bularning biron-tasi san'at asari hisoblanmaydi. Hatto buyuk rassomlar ishlagan tasviriy san'at asarlarining jo'ngina nusxalari – kopyalari ham san'at asari hisoblanmaydi. Haddan tashqari chiroyli bezaklangan choynak, piyola, laganlar minglab nusxalarda sotiladi, ular san'at asari hisoblanmaydi. Chunki san'at asarlari san'atkor tomonidan mahorat bilan yaratilishi shart. Shuning uchun san'at asarlari faqat san'atkor yaratgan yagona nusxada bo'ladi.

Ma'lumki, san'atning naqsh, musiqa, haykaltaroshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, raqs, badiiy adabiyot kabi o'nlab turlari bor. Ularning har biri o'z quroliga ega. Ammo ayrim imoratlar oldidagi savlat to'kib o'tirgan sherlar, raqs guruhlarida chetda turgan rahbariga qarab harakat qilayotgan raqqosalar, ma'nosiz qofiyalangan she'rlarning san'atga hech qanday aloqasi yo'q. Chunki qayd etilgan vaziyatlardagi "san'at" asarlari bizda hech qanday hayrat tuyg'usini uyg'otmaydi. Haqiqiy san'at asari bilan muomalada bo'lganimizda esa ruhiyatimizda muayyan hissiy o'zgarishlarni sezamiz. San'at asari odamda inson iqtidori, mahorati, aqli, zakovati, o'ziga xos kashfiyoti bilan mazkur asarga nisbatan hayrat, qoyil qolish tuyg'usini uyg'otishi kerak. Aynan shu fazilati bilan san'at namunasi ruhiyatimizni boshqaradi.

San'at asarining yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning qadri, bahosi hech qachon hajm, son, miqdor bilan o'lchanmaydi. O'nlab tasviriy san'at namunasini yaratish, qo'shiq aytish, badiiy asarlar yozish mumkin. Ammo ularning mualliflarini tanimasligimiz, yodimizda saqlamasligimiz ham mumkin. Biroq bor-yo'g'i bitta san'at asarini ijod qilish bilan xalq madaniyati xazinasidan munosib o'ringa ega bo'lish, tarixda iz qoldirish mumkin. Chunki san'at o'lchovi mahorat darajasining

yuksakligi, badiiylikning mukammalligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, san'at haqidagi asosiy ma'lumotga ega bo'ldik. Endi bevosita xalq og'zaki ijodining so'z san'ati namunasi ekanini bilishga urinamiz.

Avvalo, har bir san'at namunasi, san'at asari inson yaratgan mo'jiza hisoblanadi. Asarga qo'yiladigan talab uning kashfiyoti, oliy darajadagi mahsulot ekani bilan belgilanadi. Binobarin, og'zaki so'z san'atiga mansub asar ham shakli, mazmuni, ijrosi, unda ifodalangan hayot tasviri bilan bizda hayrat tuyg'usini uyg'otmog'i lozim. Agar ana shu hayratni aynan qanday fazilatlar hosil qilishini bilib olsak, fikr yuritish yo'nalishimizda aniq mulohazalar paydo bo'ladi, tahlil qilayotgan asarimiz qadri yanada aniqlashadi. Shu maqsadni nazarda tutib, avvalo, badiiy adabiyotga, xususan, xalq og'zaki ijodi asarlariga qo'yiladigan asosiy talablarni muxtasar shaklda ko'rsatib o'tmoqchimiz. Zero, badiiy adabiyot bilan o'z hayotini bog'lagan shaxs istalgan so'z san'ati namunasi bilan tanishganida, baho berish mezonining aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, har bir so'z san'ati namunasi, jumladan, xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik bo'lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatlarni baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida sonsiz-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanaveradi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda ko'p yangi-yangi fikrlarga duch kelamiz.

Masalan, "Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang balosi" maqolidagi asosiy fikr yomonga yaqinlashgan odamning taqdirida noxush voqealar ko'payishidan ogohlantirishdir. Lekin aslini olganda maqolning birinchi qismida ham ehtiyotlik belgisi aniq ko'rinib turibdi. Ya'ni xalq yosh va hali turmush tajribasiga ega bo'lmagan farzandga qozonga yaqinlashayotganda qora qurum tegishidan ehtiyot bo'lishni tavsiya qilmoqda. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, har bir inson muayyan vaziyatda ish qilar va qarorga kelar ekan, ehtiyot choralarini esidan chiqarmaslik lozimligi uqtirilmoqda. Ayni chog'da, og'zaki ijodimiz asarlari bilan tanishar ekanmiz, millat taqdiriga va ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq muhim ahamiyatga ega yangiliklar ifodalanishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "Alpomish" dostonidagi fikriy kashfiyot bu har bir farzand yurtning birligini e'zozlashi kerakligini uqtirishdir. Senga yurtni bo'lish haqidagi fikrini tushuntirmoqchi bo'lgan odam faqat sen uchun emas, millat uchun, xalq uchun, vatan uchun xavflidir. Agar sen o'z ona

yurting kelajagini o'ylasang, uni birlashtirish, jipslashtirish haqida bosh qotir, degan haqiqat ilgari suriladi. Hakimbek Qalmoq yurtiga ko'chgan yurtdoshlarini Qo'ng'iro't-Boysunga qaytarib olib keladi. Shuningdek, inson qadrini asrash, ota-ona hurmatini bajo keltirish, har bir farzandning Alpomishdek mard, jasur, so'ziga sodiq bo'lib o'sishini ta'minlash kabi hayotiy muammolar dostonida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchidan, asar shakli va mazmuni jihatdan mutanosib bo'lishi kerak. Badiiy adabiyotda jins (ayrim nazariy kitoblarda – adabiy tur) va janr tushunchasi bor. Jins deganda lirika, epos, drama tushuniladi. Lirika-kada his-tuyg'u, ichki kechinmalar; eposda voqea ifodasi, asar qahramonlarining taqdiri bayoni; dramada sahna sharoitida voqealarning rivoji, qahramonlar dialoglari vositasida hayotiy lavhalar tasviri tushuniladi. Janr esa jinsdan torroq ma'noni bildiradi. Yozma adabiyotda roman, qissa, hikoya kabilar; og'zaki ijodda doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq, askiya janrlari mavjud. Har bir janrga mansub asarlarni shakl (she'riy yoki nasriy), mazmun, hajm va yaratilishidan nazarda tutilgan maqsad birlashtirib turadi. Bir janrda yaratilgan asarlar muayyan shakl va mazmunga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu talab hamisha shaklning mazmunga mutanosib bo'lishini taqozo etadi. Odatda, shakl qanchalar ixcham, mazmun qanchalar keng ko'lamga ega bo'lsa, asar shunchalar qadrlidir. Xalqimiz og'zaki ijodida ko'pincha bunday fazilat maqollarda namoyon bo'ladi. Bir jumladan iborat maqolning mazmunini hayotiy dalil va misollar bilan soatlab tahlil qilish mumkin. Lekin hamma janrdagi asarlarga ham bu o'lchov bilan yondashish mumkin emas. Xususan, dostonlar ming-ming misralardan iborat she'riy va hajm jihatdan katta nasriy parchalardan tashkil topadi. Ularning mazmuni ham millatimiz vakillarining hayotini tasvirlovchi lavhalardan iborat. Xalq farzandlarining hayoti esa el va yurt taqdiri asosida yoritiladi. Shunday qilib, topishmoq, askiya, qo'shiq va boshqa janrdagi asarlar ham o'zlarida aks ettirayotgan mazmun bilan shaklan mutanosib bo'lishi zarur. Aytmoqchimizki, bir-ikki sahifa hajmiga ega maqol va topishmoq bo'lmagani kabi aynan shunday hajmdagi dostonni ham uchratmaymiz. Maqol va topishmoqlarning hajmi o'ta siqqligi, dostonlar esa hajman kengligi bilan asrlar davomida xalq xizmatini bajarib kelgan.

Uchinchidan, badiiy asar, xususan, xalq og'zaki ijodida umuminsoniy muammolar ifodalanadi. Albatta, har bir xalqning o'z milliy xususiyati, milliy tabiati, ya'ni milliy mentaliteti mavjud. Ammo bu milliylik badiiy adabiyotda umuminsoniy muammolarning aks etishiga mutlaqo

salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki yer kurrasining turli mintaqalarida yashaydigan, turli dinlarga ishonuvchi xalqlarning hayotiy munosabatlari juda mushtarak nuqtalar juda ko'p. Har bir millatda Vatan, xalq, otana, aka-uka, opa-singil, o'gay ota, o'gay ona, ustoz, shogird kabi tushunchalar bor. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning asosini adolat, andisha, haqiqat kabilar belgilaydi. Shuning uchun o'zbek maqollari qatorida dunyodagi juda ko'p millatlarda uchraydigan hikmatlar bor. "Zumrad va Qimmat" ertagimizdagi voqealar ko'p xalqlarda deyarli o'zgarishsiz takrorlanadi. "Alpomish" dostonidagi mardlik, jasurlik, odamiylik dunyo xalqlari eposi mavzulari va g'oyaviy yo'nalishi jihatdan o'xshash. Ertaklarning birida (o'zbeklarda) qo'y yoki echki, ikkinchisida (xitoylarda) gurunch, uchinchisida (gruzinlarda) uzum yetakchi unsur sifatida ishtirok etadi. O'zbek maqolida "Oyni etak bilan yopib bo'lmas" deyilsa, ruslarda "Shilo v meshke ne utaish" ("Bigizni qopda yashira olmaysan") maqoli mashhur. Har ikki maqolning mazmuni bir biriga yaqin. Ma'lum bo'ladiki, og'zaki ijod asarlarining bosh qahramoni, avvalo, inson hisoblanadi. Inson esa ma'lum bir millat vakili bo'lishi kerak. Og'zaki ijod asarlarini eshitganimizda, o'qiganimizda biz o'zimizning hayotimiz haqida mu'sshohada yuritishga, tasvirlanayotgan voqealarni mavjud maishiy muhit bilan qiyoslashga o'rganishimiz, har bir tanişuvdan foydali maslahat olishga intilishimiz lozim.

To'rtinchidan, xalq og'zaki ijodi so'z san'ati ekanini aytdik. Bu fikr og'zaki ijodning san'at sifatini ta'minlaydigan asosiy omil so'z ekanini tasdiqlaydi. Har bir san'at turining o'z quroli bo'lganidek, og'zaki ijodning ham o'z quroli bor. Bu qurol so'z hisoblanadi.

Fikrimizning qanchalar to'g'ri ekani xalqimiz ijodidagi askiya janri misolida to'liq isbotini topadi. Avvalo, askiya janri (bu haqda askiya mavzuida mukammal ma'lumot beriladi) dunyodagi birorta xalq og'zaki ijodida uchramaydi. Janrning asosini milliy tilimizdagi omonim so'zlarning nihoyatda ko'pligi tashkil etadi. So'zlarning shaklan bir xil, ammo mazmunan turli ma'nolarni bildirishi bir so'zni talaffuz qilishda birato'la bir necha fikrni ifodalash imkonini beradi. Natijada, so'z o'yini usuli bilan kulgi paydo bo'ladi va askiya vujudga keladi. O'zbek milliy tilining boy va rang-barang imkoniyatlarga ega ekani boshqa janrlarda ham namoyon bo'ladi. Doston, ertak, qo'shiq kabi turli janrlarga mansub asarlar so'zlarini boshqalari bilan almashtirish mumkin emas. Boshqa so'z qo'llanganda, asarning mazmuniga, shakliga, jozibasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni og'zaki ijodimizdagi istalgan namunaning istalgan

so‘ziga nisbatan kuzatish mumkin. Masalan: ertaklar “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...” degan so‘zlardan boshlanadi. Shu jumlaning o‘zida hikoya qilinayotgan voqeaning hayotda ro‘y berganiga shubha paydo bo‘lishi tabiiydir. Ertak davomida esa birinchi jumladagi fikr rivojlanadi va tasdiqlanadi. Yoki dostonlarda qayta-qayta quyidagi misralar takrorlanadi:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Boshing omon, davlatingni kam dema.

Bu matndagi so‘zlarni ham boshqalari bilan almashtirsak, misralarning fayzi, shukuhi yo‘qoladi. Xalqimiz yaratgan maqollarni tashkil etuvchi so‘zlar xususida esa, umuman, til lol qoladi. O‘zingiz tasavvur qiling, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida 300 ga yaqin maqollar keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari shu kungacha millatimiz nutqida aynan takrorlanadi. Demak, ming yil avval bobolarimiz, momolarimiz bir maqolni qanday yo‘sinda talaffuz qilgan va qanday maqsadda aytgan bo‘lsa, siz ham shunday holatda qo‘llayapsiz. Xullas, “Yurakkinamning taftiga tandir qiziydi, Ko‘zginamning yoshiga o‘rdak suziydi” kabi qo‘shiq misralariga duch kelar ekansiz, tilimizning qanchalar keng va bitmas-tuganmas boylikka ega ekaniga ishonch hosil qilasiz.

Beshinchidan, xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning tarkibiy qismidir. “Badiiy” so‘zining go‘zal, ajoyib ma‘nolarga ega bo‘lishi lug‘atlarda qayd etilgan. Asar matnini go‘zal qilib turadigan omil esa, ko‘pincha, badiiy tasvir vositalariga bog‘liq. Badiiy tasvir vositalarini mutaxassislar “badiiy san’atlar”, “tasvir vositalari”, “she‘r san’atlari” deb ham ataydilar. Ularning sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a kabi o‘nlab turlari mavjud. Aslini olganda, har bir badiiy san‘at namunasi ham o‘ziga xos kashfiyot hisoblanadi. Ertakchi tasvirlayotgan malikaning go‘zalligini o‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshatadi. Qiz shu qadar latofatga ega bo‘ladiki, kulsa, atrofga gul, yig‘lasa, dur sochiladi. U yurganida oyog‘i ostidagi izlar o‘rnidan rayhon, jambillar o‘sib chiqadi. Doston qahramonlari shu qadar jahldorki, g‘azabga to‘lganida mo‘ylovining ustini qirov bosadi, tikilganida tog‘- Toshlar qumdek maydalanib ketadi.

“Bozircon” dostonida Go‘ro‘g‘li o‘ttiz qo‘yning terisidan bo‘lgan po‘stinni, o‘n besh qo‘yning terisidan bo‘lgan cho‘girma (poyabzal) kiyib daryo yoqalab ketaveradi. Bozircon bo‘lsa bir oyog‘ini daryoning o‘ng, ikkinchi oyog‘ini chap qirg‘og‘iga qo‘yib, tuyalarni o‘tkazayotgan bo‘ladi. Yuqorida qayd qilingan tasvir vositalari og‘zaki ijod asarlariga

o'ziga xos fayz bag'ishlaydi. Tinglovchi otning osmonda uchishiga, qari odamlarning go'dak chaqaloqlarga aylanishiga, oynakdan daryo, taroqdan butazorlar paydo bo'lishidek to'qimalarga qoyil qoladi.

Albatta, badiiy adabiyotning, xususan, og'zaki ijodning so'z san'ati sifatidagi fazilatlarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan belgilar bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, og'zaki asarlarda ham, yozma adabiyotda ham ijodkor majoziy fikr yuritish usulidan foydalanishi mumkin. Majoz so'zi lug'aviy jihatdan "o'tish joyi" ma'nosini ifodalaydi. Lekin bu so'zning boshqacha aytish, ko'chma ma'no ifodalash ma'nosi ham bor. Badiiy adabiyotda majoz, asosan, vosita tushunchasida qo'llanadi. Ya'ni biror fikrni bildirish uchun boshqacha yo'l tanlanadi. Masalan, masallarda turli jonivorlar, narsa-predmetlar vositasida odamlar o'rtasidagi munosabatlar yoritiladi. Xalq og'zaki ijodidagi ko'p janrlarda majoziy fikr yuritishdan keng foydalanilgan. Ayniqsa, maqollarda bu usul yetakchi hisoblanadi. "Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga", "Otning yag'iri toyga qolar", "Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zar" kabi yuzlab maqollar mazmun-mohiyatan ko'chma ma'no ifodalovchi hikmatlardan iboratdir. Shu bois badiiy asarlar bilan tanishganda, muallif bir fikrni ifodalash bilan qanday maqsadni nazarda tutganini tushunmasak, asarning asl bahosini bera olmaymiz.

"Xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati" deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo'shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilarning tinglovchilarga bag'ishlayotgan ma'naviy lazzatini ham unutmazlik lozim. Xalq qo'shiqlarida aks etgan his-tuyg'u, ichki kechinmalar; ertaklardagi g'aroyib voqealar; dostonlardagi go'zal tasvirlar, eng avvalo, zargarona tanlangan so'zlardan iboratligi, ikkinchidan, ularning mahorat bilan ijro qilinishi asrlar davomida xalqimizga zavq bag'ishlagan. Shuning uchun ham mazkur asarlar o'zbek xalqi ma'naviy xazinasining bebaho qadriyatlarini sifatida hamisha e'zozlangan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, jurnalist nima uchun xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak?*
- 2. Nima uchun xalq og'zaki ijodini badiiy adabiyotning ilk namunalari deb baholaymiz?*
- 3. Folklor atamasiga izoh bering.*

4. Sinkretik janr deganda nimani tushunasiz?
5. San'at asari qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?
6. Xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati ekanini qanday belgilar dalillaydi?

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 5-66.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ НМАК, 1997.
3. Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т.: Ma'naviyat, 2008.
4. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.



XALQ OG'ZAKI IJODI VA QADRIYATLARI DAVLAT MAQOMIDA

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rmini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televideniye, internet kabi ta'lim, ma'rifat tizimi bo'lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og'zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. Odatda, xalqning mustaqilligi, uning ravnaqi badiiy adabiyot bilan uzviy bog'lanadi. Og'zaki ijod esa, badiiy adabiyotning ajralmas qismidir. Shuning uchun xalq ustidan hukm yuritishga harakat qilgan hokimiyat, avvalo, uning adabiyotini boshqarishga uringan. Sobiq sho'ro tuzumi sharoitida xalq bayrami – Navro'z, "Alpomish", "Ravshan" dostonlarimiz taqiqga uchragan. Folklor ekspeditsiyasiga xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish maqsadida chiqqanimizda, islom diniga oid asarlarni yozib olish ma'qul ko'rilmadi. Bu harakatlarning hammasi og'zaki adabiyotimizni yo'q qilish niyatini amalga oshirish choralari edi, xolos.


1991-yil 1-sentyabrda O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Yurtimiz ijtimoiy hayotidagi bu o'zgarishni o'zbek xalqi o'nlab yillar davomida orziqib kutgan edi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz o'tmish qadriyatlarini qaytadan tiklash, odamlar qalbida tutqunlikda yotgan madaniy merosimizga keng yo'l ochish

siyosatini amalga oshirdi. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa
bo'shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ularning kashfiyotlari haqidagi
na'lumotlar qatori turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar
ham tilga olina boshlandi. Bu tadbirlar har bir o'zbek qalbida milliy
furur tuyg'usini uyg'otish maqsadini nazarda tutdi.

Aslida, o'zbeklarning dunyoda ilg'or, benazir madaniyatga ega
bo'lgan xalq ekanligini tasdiqlovchi fikrlar mustabid tuzum paytida ham
aytilgan. Ammo bunday hur gaplarning mualliflari qatag'on qilingan
edilar. Ularning ko'pchiligi sirli vaziyatlarda hayotdan ko'z yumdilar.
Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Otajon Hoshim, Sulaymon Xo'ja va boshqalar
esa o'ylab topilgan yolg'on jinoyatlarda ayblanib otildilar. Ayrımlari –
Usmon Nosir, keyinchalik Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad,
Shukrullo, Shuhrat kabilar uzoq muddatga qamoqqa olindilar. Ammo
erkinlikni, o'tmishdagi xalq allomalarining kashfiyotlarini targ'ib etuvchi
asarlar tizimi murakkab vaziyatda ham to'xtab qolmadi. XX asrning 60-
70-yillari adabiy hayotiga yosh ijodkorlar sifatida kirib kelgan Erkin
Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar "O'zbekim", "O'zbekiston" kabi
poetik asarlar yaratdilar, bu davrda yashagan yurtdoshlarimiz O'zbekis-
ton qadimdan ilm-ma'rifat, kashfiyotlar va qadriyatlar yurti ekaniga
komil ishonch bildira boshladilar. Xalqimizning haqiqiy farzandlari sa'y-
harakati bilan "Xalq og'zaki ijodi" turkumida "Alpomish" dostoni,
Ergash Jumanbulbul, Fozil shoir, Po'ltan, Islom shoir, Bola baxshi ijro
etgan epos namunalari, xalq qo'shiqlari, ertaklari, askiya, latifa,
topishmoqlarning nashr qilinishi nur ustiga nur bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan asrning 50-yillarida Ibrohim Mo'minov, Vohid
Zohidov, Hodi Zarif kabi taniqli ziyolilar turli sabab va vajlar bilan
Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" (Solih Mutallibov),
Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Qayum Karimov), Navoiyning
"Xamsa", Boburning "Boburnoma" (Parso Shamsiyev) kabi bir qator
asarlarini nashrga tayyorladilar va chop etdilar. Qizig'i shundaki, bizning
olimlarimiz mumtoz adabiyot namunalaridan sobiq sho'ro tuzumi siyo-
satiga mos kelmaydigan o'rnlarni atayin keskin tanqid qilishar, boylar va
yo'qsillar madaniyati haqida siyosatbop gaplarni topishar, ammo
asarlarni to'liq nashr qilishdek oliy niyatlariga ham erishar edilar.

Tabiiyki, "Sobiq sho'ro tuzumi davrida bevosita xalq orasida hukm-
ron siyosatni tanqid qiluvchi xalq og'zaki ijodi asarlari yaratilmadimi?" -
degan savol tug'iladi. Gap shundaki, xalq og'zaki ijodi asarlari yozib
olinmasa, ularning ommalashuvi uchun sharoit bo'lmasa, vaqt o'tishi



bilan bu asarlar o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi: aytuvchining yodidan ko'tariladi, taqdir taqozosi bilan aytuvchi vafot etadi va hokazo. Ularni yozib olish esa hamisha ham amalga oshavermaydi. Bugungi kunda o'sha paytda dohiy deb tan olingan tarixiy shaxslar haqida o'nlab latifalar to'qilganini, qo'shiqlarda maqtalayotgan kolxozlar, besh yilliklarning asl qiyofasi tanqid qilinganini e'tirof etish mumkin, xolos. Jumladan, o'z paytida Otajon Hoshim tomonidan yozib olingan qo'shiqlarda kolxoz tuzumiga, hamma ekin maydonlariga faqat paxta ekish siyosatiga salbiy munosabat bildirilgan qo'shiqlar borligi haqidagi xotiralar mavjud, xolos. Afsuski, taqdir taqozosi, turli sabablar bilan bu yozuvlar yo'qolgan.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asaridagi "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bo'limida: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi", - deyilgan. "Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik"² - deb belgilab qo'yilgan.

Yuqorida qayd etilgan to'rt negizning har biri yo bevosita, yo bavosita xalq og'zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy boyligi – pand, o'g'itlari, el-yurt qadrini e'zozlash, millatimiz g'ururini himoya qilishdek oliy tuyg'ular bilan bog'lanadi. Haqiqatan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezoni bilan o'lchanadi. Zero o'z qadrini bilmagan farzand o'zganing qadriga etmaydi. Xalqimiz og'zaki ijodidagi asarlarda esa aynan ana shu g'oya o'z ifodasini topgan.

"O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarida ilgari surilgan fikrlar izchillik bilan hayotga tatbiq etila boshlandi. Xalq yurtboshi tomonidan aytilgan har bir mulohaza bevosita davlat siyosati sifatida ro'yobga chiqishiga ishonadi. Bunday rejalar esa xalq og'zaki ijodi ham davlat maqomiga ega ekanini tasdiqlaydi.

Kadrlar tayyorlash "milliy dasturi"ga muvofiq O'zbekiston maorifi sohasida yangi bir tizim sifatida vujudga kelgan Akademik litseylarda yarim yil davomida "O'zbek xalq og'zaki ijodi" nomli maxsus kurs o'tish rejalashtirildi. Kasb-hunar kollejarida ham dars soatlari ajratildi. To'g'ri,

² Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 56.

umumta'lim maktablarida ham xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot beriladi. Ammo bu ma'lumot 5-9-sinflarda har yili 2-4 soat hajmda bo'lib, bir safar o'qitilgan mavzu kelgusi yilgacha o'quvchi yodidan ko'tariladi. Oliy o'quv yurtlarida esa xalq og'zaki ijodi darslari faqat filologiya, O'zbek tili va adabiyoti, Jurnalistika fakultetlarida mavjud. Hozirgi vaziyatda o'rta ma'lumotga ega har bir yosh yigit-qiz uchun og'zaki ijodimiz merosidan bahramand bo'lish imkoni yaratildi.

Keyingi yillarda davlat tomonidan xalq qadriyatlariga e'tibor berilishi natijasida og'zaki ijod durdonalariga bo'lgan qiziqish ancha jonlandi. Farg'ona, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Jizzax viloyatlariga uyushtirilgan ekspeditsiyalar materiallari ayrim folklorshunoslar bildirgan xalq og'zaki ijodida tanazzul jarayoni boshlangani haqidagi fikrlarning u qadar to'g'ri bo'lmay qolganini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, 2009, 2010-yillarda Toshkent viloyatining Angren, Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Chiroqchi tumanlariga, Shahrisabz shahri qishloqlariga qilingan safarlar doston, qo'shiq, ertak, topishmoq, o'lan janrlarida yozib olingan matnlarga boy bo'ldi.

1998-yilda Fozil Yo'ldosh ijro etgan "Alpomish" dostonining to'liq matni "Sharq" nashriyot - matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr ettirildi. Agar dostonning 1928-yilda Mahmud Zarifov yozib olganini, shu paytgacha faqat turli qisqartirishlar bilan nashr etib kelinganini nazarda tutsak, mazkur kitob biz uchun ne qadar aziz ekani ma'lum bo'ladi.

1999-yil 9-noyabr kuni esa "Alpomish"ning ming yillik to'yi nishonlandi. Bu tantanada so'zga chiqqan yurtboshimiz Islom Karimov dostonning millatimiz g'ururini tarbiyalashdagi ahamiyatini alohida ehtirosli so'zlar bilan izhor etdi:

"Alpomish" – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir"³.

Nutqda dostonning xalq tarixiga oid ma'lumotlarga boy ekani, yosh avlodni tarbiyalashda juda muhim ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Yurtimiz boshlig'ining dostonga nisbatan hurmati quyidagi jumlada o'z ifodasini topgan: "Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shohbaytidir"⁴.

³ Каримов И. "Алпомиш" дostonининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқ. // Халқ сўзи, – 1999. – 9 ноябрь.

⁴ Ўша нутқ.

Xalq og‘zaki ijodiga bu qadar yuqori baho berishning chuqur ildizi bor. 1997-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida Islom Karimov mamlakat kelajagini belgilovchi “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” – deb atalgan nutq so‘zlandi. Mazkur nutqda shunday fikr beriladi: “Chor Rossiyasining Turkiston o‘lkasidagi general-gubernatori M.Skobelev: “Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san‘atini, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi tanazzulga uchraydi”, – deb aytgan gapini eslashning o‘zi kifoya qiladi”⁵.

Ma‘lum bo‘ladiki, madaniyat, san‘at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili ekan. Xalq ijodi esa madaniyat, san‘at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir.

Shuning uchun ham 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “Ma‘naviy-axloqiy tarbiya va ma‘rifiy ishlar” alohida bo‘lim sifatida tasdiqlanishi bejiz emas. Unda yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an‘analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi ta‘kidlanadi.

Bugungi kunda esa mustaqil o‘zbek xalqi madaniy hayotida qator yangiliklar ro‘y bermoqda. Jumladan, “O‘zbekiston xalq baxshisi” unvonining ta‘sis etilishi, “Boysun bahori” bayramlarining o‘tkazilishi o‘zbek xalqi o‘tmishi bilan bugungi kunini bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda.

2008-yilda “Ma‘naviyat” nashriyoti Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” deb atalgan kitobini nashrdan chiqardi. Avvalo, aytish kerakki, kitobxon asarning boshidan oxirigacha xalq qadriyatlari, o‘tmish madaniyat, tarix haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar bilan tanishadi. Ayniqsa, muallifning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan hurmati har bir sahifada aniq ifodalanib turadi:

“Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar... bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir”⁶.

⁵ Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: 1997. – Б. 5.

⁶ Karimov Islom. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Т.: Ma‘naviyat, 2008. – Б. 31.

Shuningdek, mazkur asarda yurtboshimiz “Alpomish” dostoni haqida yangi fikrlarni bayon etar ekan, ibratli xulosaga keladi: “Demak, xalqimiz bor ekan, - deydi u, - “Alpomish” dostoni ham barhayot”⁷.

Muallif turli mavzular yo‘nalishida o‘z mulohazalarini izhor qilar ekan, ularning yanada tushunarli bo‘lishi uchun “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar”, “Qush uyasida ko‘rganini qilar”, “Mahalla – ham ota, ham ona”, “Tilga e‘tibor – elga e‘tibor”, “Uyat – o‘limdan qattiq”, “Kuch – adolatda” kabi maqol va buyuk ajdodlarimizning dono so‘zlaridan foydalangan. Natijada, bu namunalar yurtboshimizning avvalgi nutq va asarlaridan o‘rin olgan “Vatanni sevmog‘ iymondandir”, “milliy o‘zlik”, “xalq boshiga tushgan xavf”, “mudhish voqealar oldida holva bo‘lib qolish”, “chalamullalar”, “ishingiz bitsa, bo‘lgani” kabi xalqona ibora va hikmatli fikrlar qatorini to‘ldiradi.

Xullas, xalqimiz og‘zaki ijodining davlat maqomida e‘zozlanishini O‘zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin. Yurtimiz barkamol avlodini xalq og‘zaki ijodidan mukammal ma‘lumotga ega bo‘lmagan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki og‘zaki ijod dostonlarida vatanga xiyonat qilgandan ko‘ra o‘limni afzal bilgan Ravshan, butun harakatini parchalangan yurtini birlashtirishga bag‘ishlagan Alpomish, o‘z Vatani ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilgan Go‘ro‘g‘li, oilasini muqaddas bilgan Kuntug‘mish madh etiladi. O‘zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oliy himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg‘ulari qo‘shiqlarda eng oliy ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu-havaslarini namoyon bo‘ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o‘zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g‘urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun xalq og‘zaki ijodi davlat maqomiga erishdi?
2. Islom Karimovning xalq og‘zaki ijodi haqidagi fikrlari yuzasidan suhbat o‘tkazing.

⁷ Karimov Islom. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – B. 33.

3. *Sobiq sho'ro tuzumi davrida xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabat bilan bugungi kundagi munosabatni misollar asosida izohlang.*

4. *Xalq og'zaki ijodini o'rganishning inson ma'naviy dunyosiga ta'sirini sharhlab bering.*

5. *Islom Karimov nutqi va maqolalari misolida muallifning xalq qadriyatlariga bildirgan munosabati haqida so'zlang.*

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 5-66.

2. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: Шарқ НМАК, 1997.

3. Каримов И.А. “Алпомиш” достонининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. – 1999. – 9-ноябрь.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т.: Ma'naviyat. 2008.



XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O‘zining dastlabki yaratilish davridanoq xalq og‘zaki ijodi xalqning yozilmagan tarixiga aylandi. “Og‘zaki ijod”, “xalq og‘zaki ijodi”, “og‘zaki adabiyot”, “el adabiyoti” kabi nomlar bilan atalgan badiiy adabiyotning ilk namunalari ikkinchi tomondan turmush, hayot darsligi sifatida yosh avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarib keldi. Keyinchalik, yozuv madaniyati paydo bo‘lgach, o‘zida so‘z san’ati asarlarini yaratish iqtidorini his qilgan xalq orasidan chiqqan odamlar bevosita xalq og‘zaki adabiyotiga suyangan holda individual – yakka shaxs ijodiga mansub dastlabki asarlarini yaratdilar. Badiiy adabiyotning bu yo‘nalishi shakllanib rivojlangach, yozma adabiyot tushunchasi paydo bo‘ldi. Yaratilish usuliga ko‘ra farq qiluvchi og‘zaki va yozma adabiyot bir-birini inkor qilmadi, balki ijodiy hamkorlikni davom ettiraverdi. Ammo shu bilan birga har bir adabiyot o‘ziga xos xususiyatlarini ham yo‘qotmadi. Bu jihatdan xalq og‘zaki ijodi jahon folklorshunosligi fani tan olgan beshta xususiyatga ega. Ular:

1. An’anaviylik.
2. Og‘zakilik va badihago‘ylik.
3. Jamoalik va ommaviylik.
4. Variantlilik va versiyalilik.
5. Anonimlik (asarni yaratgan muallif ismining noma’lumligi).

Ayni paytda yillar davomida xalq og‘zaki ijodi asarlari bilan yaqindan munosabatda bo‘lish yana bir xususiyatning namoyon bo‘lishini tasdiqlamoqda. Bu xususiyatni shartlilik deb atash mumkin. Ammo ilmda shartlilik haqida etarli nazariy tadqiqot olib borilmagani sabab uni ham xos xususiyat sifatida ko‘rsatishni lozim topmadik. Shu bilan birga aziz talabaning tafakkurida paydo bo‘lgan qator-qator savollarga javob berishi mumkinligini hisobga olib shartlilik haqida ham ayrim mulohazalarni bayon etishni ma’qul ko‘rdik. Bu haqda keyinroq to‘xtalamiz.

Xalq og‘zaki ijodining xos xususiyatlari yuzasidan bevosita ma’lumot berishdan avval yana bir masalani qayd etib o‘tmoqchimiz. Gap

shundaki, sobiq sho'ro tuzumida siyosiy vaziyat nuqtai nazaridan yondashgan olimlar xalq og'zaki ijodining asosiy belgisi sifatida kollektiv (jamo) likni ilgari surgan edilar. Bu fikr o'tgan asrda e'lon qilingan oliy o'quv yurtlari dasturlari va darsliklarida muhim o'rin tutgan edi. Mazkur tamoyil og'zaki asarlarni yaratishda yakka shaxs ishtirokini shubhaga solgan. Shuningdek, millatning boy va kambag'al sinflarga ajratilishi bu g'oya bilan dalillangan. Go'yo bir xalq ijod qilgan asarlar ikki qarama-qarshi guruhga ajratilgan. Hatto bir asarning o'zi ham tarkibida bayon etilgan voqealar zaminida ikki xil baholangan. Bunday mezon bilan badiiy asarni tahlil qilish o'ta noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin edi. O'z vaqtida bunday xulosalarga kelindi ham. Xususan, "Alpomish", "Ravshan" dostonlari aynan ana shu nuqtai nazardan tahlil qilinib, "xalqchilik bayrog'i ostida" yaratilgan va xalqqa qarshi g'oya ilgari surilgan asar sifatida taqiqlandi. Ammo xalqimiz og'zaki ijodiga bo'lgan munosabat keskin ijobiy tomonga o'zgargan bugungi kunda og'zaki ijodning xos xususiyatlarini atroflicha, chuqur ilmiy asosda qaytadan ko'rib chiqish imkoniga egamiz.

An'anaviylik xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlari qatorida asosiy belgi sifatida ularning har biriga bildirilishi mumkin bo'lgan munosib bahoni inkor etmagan holda, avvalgidek jamoalikni emas, an'anaviylikni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki butun dunyo xalqlari ijodida bo'lganidek, o'zbeklarda ham og'zaki ijod asarlarining yaratilishi va ijrosi asrlar davomida shakllangan va bugungi kungacha davom etib kelayotgan an'analarga suyanadi.

Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviylikni uch yo'nalishda tahlil qilish lozim. Birinchidan, ming yillardan buyon maqoldan topishmoqqacha, qo'shiqdan dostonlargacha bo'lgan asarlar og'zaki an'anada yaratilmoqda, og'zaki tarzda yashab kelmoqda. Ikkinchidan, folklor asarlarining ijrosi ijro qilinish vaziyati (to'y va boshqa vaziyatlar) va ijro usuli jihatidan an'anaga ega. Uchinchidan, an'anaviylik og'zaki asarlarning matnida namoyon bo'ladi.

Avvalo, an'ana so'zining ma'nosi bilan tanishaylik. Bu so'zga o'zbek tilining izohli lug'atida: "Hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar"⁸ deb ta'rif berilgan. Agar ta'rifni to'y yoki boshqa yig'inlarni o'tkazish tartibiga tatbiq qilsak, mazkur tadbirni uyushtirish qoidalari tushuniladi. Biror og'zaki ijod namunasining ijro

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон давлат энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 89.

qilininishini nazarda tutsak, uni amalga oshirishdagi muhit, vaziyat, ijro usulini tasavvur qilamiz. Ijro an'anasi deganda, dastlab, uning maroqlilarga aloqasi bor yoki yo'qligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, "Yor-yor", "Kelin salom"lar to'yda, marsiyalar azada aytilsa, lirik qo'shiqlar, loflar, latifalar hayotda vujudga kelgan oddiy vaziyatda aytilishi mumkin. Topishmoqlarni, filologiya fanlari nomzodi Z.Husainova xabar berishiga ko'ra, qadimgi zamonlarda, asosan, to'ylarda aytish odati saqlangan bo'lsa, hozirgi kunda topishmoq aytish musobaqasini sinfda, dam olish paytlarida, ba'zan yo'l-yo'lakay o'tkazish mumkin bo'lmoqda. Shuningdek, o'tgan asrning o'rtalarigacha maxsus ertakchilar ertak aytish uchun tinglovchilarni tayyorlab olganlar, ijroning ko'ngilli chiqishi uchun alohida joy, turli narsalar (isiriq, tuz, kul, sochiq, suv, non va hokazolar)ni shaylab qo'yar edilar. Bugun esa bobo bolasini ovutish uchun istagan paytda ertak aytib beraveradi. Mashhur professional ertakchilar esa yo'q hisobida. Ijro an'anasi deganda, doston aytish haqida alohida to'xtash zarur bo'ladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan, Islom shoirlar an'anasi bugungi kunda ham Shoberdi baxshi, Shomurod baxshi, Qahhor baxshi ijrosida to'liq saqlangan. Doston ijrosidagi do'mbirada kuy chalish, terma aytish, she'riy parchalarning mazmuni, bo'g'in soniga qarab kuy tanlash hozir ham bor. Masalan, Chori baxshi hayotligida huzuriga tez-tez borar edik. Ammo biron marta terma aytmay doston boshlaganini ko'rmaganmiz.

Xorazm dostonchiligidagi an'ana ham deyarli to'liq saqlangan. Xorazm baxshilari dostonni ijro etishdan avval, albatta, "Aliqambar" kuyini tinglovchilarga chalib beradilar. Shundan so'ng doston aytish boshlanadi. Agar Qashqadaryo, Surxondaryo va shu hududlar atrofidagi baxshilar do'mbira jo'rligida bo'g'izda doston aytsalar, Gurlan, Xiva, Urganch atrofidagi baxshilar jo'rovoqlikda ochiq ovoz bilan doston ijro etadilar. Aytmoqchimizki, xalq og'zaki ijodi asarlarini ijro etish an'anasi, umuman olganda, yurtimiz viloyatlarida, asosan, avvalgi ko'rinishda yashab kelmoqda. Folklor ekspeditsiyasi paytida qo'shiq aytadigan momolardan marsiya matnini yozib ololmaganmiz. Ular irim qilib, bevaqt qo'ni-qo'shnilarning qo'shiq aytilayotgan joyga sarosimada yig'ilishlarini istamaganlar va marsiya aytishdan voz kechganlar. Bu holat bugun ham saqlanib qolganiga bir necha marta guvoh bo'ldik. Shunday qilib, og'zaki ijod asarlarining ijro an'anasi hali qayta-qayta o'rganishni talab qiladigan soha hisoblanadi.

An'anaviylikdagi matn an'anasi ijrodan ancha murakkab. Chunki xalq og'zaki ijodida asarning to'liq mohiyati uning matnida namoyon

bo'ladi. Asardan nazarda tutilgan g'oya, mazmun, obraz xususiyatlari, kompozitsiya unsurlari: bayon, portret, dialog, monolog; badiiy tasvir vositalari – bularning hammasi xalq ijodi qoidalariga suyangan holda, an'anaviylik tamoyiliga asoslangan tarzda so'z vositasida namoyon bo'ladi. Ehtimol, shuning uchun ham matn an'anasi ijronikidan ko'ra murakkab tizimga ega.

Xalq og'zaki ijodidagi matn an'anasining o'zini ham ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchidan, har bir asarning janr xususiyatlarini belgilovchi an'anaviylik (hajm, shakl, mazmun) bo'lsa, ikkinchidan, badiiy tasvir vositalari – badiiy san'atlarda namoyon bo'ladigan an'anaviylik.

Xalq og'zaki ijodidagi matn an'anasi har bir janrga mansub asarlarda namoyon bo'ladi. Xususan, maqollardagi hajm cheklanganligi, mazmun ko'lamining kengligi, qo'shiqlarning lirik mohiyati, ertaklar hajmining muayyan o'lchov bilan belgilanmagani (ularning mazmun va tasnif turiga ko'ra bir-ikki sahifadan, ellik-oltmish sahifagacha borishi), doston hajmining cheklanmagani, latifalardagi voqeani qisqa muddatda aytib ulgurish qoidasi va hokazolarning hammasi matn an'anasi bilan bog'liqdir. Shuningdek, ertaklarning "Bir bor ekan, bir yo'q ekan..."dan boshlanib, "...murodu maqsadiga yetibdi" bilan tugallanishi, tez aytishda ma'lum tovushlar talaffuziga e'tibor berilishi, termalarning ko'proq "Nima aytay?", "Kunlarim" mavzulariga bag'ishlanishi ham matn an'anasiga aloqador. Bulardan tashqari ertaklardagi "To'ng'ich botir yo'lida ketaversin, gapni kenjasidan eshiting", "Yo'l yuribdi, yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi"; dostonlardagi:

"Xudo qilgan ishga banda ko'nadi,
Bedov minib, endi, beklar jo'nadi".

"Davlat qo'nsa gar chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga"

kabi qolip gap va misralarning ertakdan ertakka, dostonan dostonga ko'chib o'tishi ham bevosita matn an'anasi bilan bog'lanadi. Ayniqsa, dostonlardagi "Qayga borasan?", "Qaydan bo'lasan?" mazmunidagi epik klishe - qoliplar, ot egarlash, ot yugurishi, jang lavhalaridagi misralarning aynan, deyarli o'zgarishsiz takrorlanishini matn an'anasining ta'siri sifatida baholash mumkin. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, tinglovchilar talabi bilan ertakchi yoki baxshi biror yangi asarni o'zicha ijod

qilib yaratganda ham matn an'anasidagi yuqorida qayd etilgan qoliplardan o'rni bilan foydalanishga majbur bo'ladi. Oqibatda, xalq og'zaki ijodida vujudga kelgan har qanday yangi namuna ham matn an'anasidan chetda yaratilmaydi. Bu esa yangi asarga yaratuvchi va ijrochining mutlaq mualliflik qilish imkonini cheklaydi.

Matn an'anasidagi ikkinchi yo'nalish xalq og'zaki ijodidagi o'ziga xos badiiy san'atlar majmuasi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, badiiy adabiyotda badiiy vositalarning takrorlanmas o'rni bor. Bu vositalar ma'naviy va lafziy san'atlardan tashkil topadi va so'z san'ati namunasiga joziba bag'ishlaydi. Yozma adabiyot vakillari lirik va epik asarlarda o'zlarining mahoratlarini badiiy san'atlarni kashf etishda ham namoyish etadilar. Xalq og'zaki ijodida ham alohida iqtidorga ega ijrochi o'rni kelganda bu sohada ijod qilish imkonidan foydalanadi. Ammo aksari hollarda ijrochining kashfiyot izlab o'zini qiynashiga hojat yo'q. Chunki og'zaki ijodimizda ajdodlarimiz bu san'atlarning go'zal namunalarini yaratib bo'lganlar. Sifatlash, o'xshatish, istiora, mubolag'a, ifrot, intoq, iyhom, alliteratsiya kabi badiiy tasvir vositalarining bitmas-tuganmas boyligi og'zaki ijodimiz namunalariga asrlar davomida fayz bag'ishlab turibdi. Qahramonning yillab, oylab emas, soatlab katta bo'lishi, go'zal qizning o'n to'rt kunlik oyga o'xshatilishi kabi o'nlab san'atlar o'z vaqtida ijodiy kashfiyotlar darajasida qabul qilingan bo'lsa-da, endilikda ular an'anaviy vositalar hisoblanadi. Xalq yaratgan asarlardagi odamning qushga aylanishi (transfiguratsiya)ni, mo'jizaviy narsalarni, hayvonlarning inson tilida gapirishini, ilon, bo'ri, ayiqlarning asar qahramoniga homiylik qilishini ham matn an'anasi sifatida baholash mumkin. Ma'lum bo'ladiki, xalq og'zaki ijodidagi matn an'anasi har bir asarning yaratilishida bosh mezonga aylanadi va yozma adabiyotdan tubdan farq qiladi. Og'zaki ijod asarlarini tadqiq etishda folklorshunos olim folklor namunasida o'z ifodasini topgan bu fazilatlarining mohiyatini his qilishi, tipologik ahamiyatini aniqlashi, qiyosiy tahlil usuli bilan o'zi o'rganayotgan asarga yondashishi muhim ahamiyatga egadir.

Og'zakilik. Xalq og'zaki ijodining ikkinchi muhim jihati uning og'zaki yaratilishidadir. Jahon folklorshunoslik ilmida oddiy haqiqat sifatida takrorlanadigan eng muhim fikrlardan biri folklorning og'zaki yaratilishi va og'zaki yashashi hisoblanadi. Chunki butun dunyodagi xalqlarning og'zaki ijodi shu yo'singa bo'ysunadi va shu qonuniyat asosida yaratiladi, yashaydi. Haqiqatan ham, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi hamma janrlarning inson ruhiga, ongiga, tabiatiga ta'siri, ko'pincha, uning

og‘zaki ijrosi bilan belgilanadi. Hatto shunday janrlar ham borki, ularning yozma, qolaversa, nashr qilingan matnini o‘qish mazkur asar haqida haqiqiy tasavvur hosil qilmaydi. Xususan, askiya, latifa, tez aytish, topishmoq kabi janrlarni ma‘lum bir muhitdagi asar ijrosi ta‘siri, ularni jonli vaziyatda eshitish, shu holat ishtirokchisi sifatida his etish bilan uning matnini yakka holda o‘qish o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bir qarashda *matn* jihatdan farqsiz bo‘lib ko‘ringan dostonlar ijrosida ham tabiiy ijro vaziyati bilan yozma matnni o‘qish o‘rtasida katta farq seziladi. Bu farq baxshilarning dostonni aytayotganlarida aniq ko‘rinadi. O‘zbekiston televideniyesi va radiogi orqali bir necha marta xalq baxshilari ishtirokida suhbat va ko‘rsatuv uyushtirilgan bo‘lsa, ularning biron-tasi traksiz, repetitsiyasiz amalga oshmagan. Ma‘lum bo‘lishicha, baxshi oddiy tinglovchilar o‘rtasida o‘zini erkin his qilgan ekan. Mikrofon taqdim etilishi zahoti, telekameraning fokusi baxshiga qaratilgani zamon ijrochi ruhiy holatida o‘zgarish ro‘y berar ekan. Bu holat hatto mashhur Bola baxshi, Qodir sozchi, Boltaboy baxshi, Chori baxshi ijrosida ham ko‘zga aniq tashlangan. Demak, og‘zaki ijro, ijro bo‘lganda ham tabiiy holatdagi ijro asar fayzida alohida o‘ringa ega.

Keyingi yillarda mutaxassis ertakchilar bilan muomala qilish imkoni bo‘lmagani sababli bu janrning og‘zaki ijrosi va matnni o‘qish o‘rtasidagi keskin farq haqida biror asosli fikr bildirishga oqizimiz. Ammo og‘zaki ijrodagi tovush tovlanishi, ayrim so‘zlarga beriladigan mantiqiy urg‘u, ijrochining xatti-harakatlari nazarda tutilsa, og‘zaki ijodning og‘zaki ijrodagi afzalligi baribir aniq namoyon bo‘laveradi. Xullas, to‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodi asarlarini og‘zaki ijroda eshitish mazkur asarning matnini o‘qishdan afzal hisoblanadi. Og‘zaki ijro folklor asarining yaratilishi, yashashida ikki oqibatni taqozo etadi. Birinchidan, og‘zaki ijro yozma adabiyotda kuzatilganidek, jiddiy mas‘uliyatdan xoli bo‘ladi: yozma adabiyot vakili ijod qilayotgan asariga to‘liq mas‘ul hisoblanadi. Og‘zaki ijroda esa bunday munosabat aynan asar og‘zaki ijro etilayotgani uchun nisbatan zaiflashadi. Xalq latifalarida muayyan ijtimoiy hayotda ro‘y bergan va berayotgan hodisalar keskin satirik tarzda tanqid qilinishi mumkin. Ammo yaratuvchi shaxsining mavhumligi – anonimligi eng ashaddiy tanqidiy latifalarda ham “emish” shiori ostida asarning yashashini ta‘minlayveradi. Og‘zaki ijro ayni paytda asarning ommalashuvida ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir ertak, doston, maqol, topishmoq, latifa ijro etilgani zahoti tinglovchilar orasidagi ma‘lum iqtidorga ega shaxs tomonidan qayta hikoya

qilinishi mumkin. Qayta hikoya qilayotgan ijrochi esa asarni og‘zaki eshitgani va og‘zaki ijro etayotgani uchun har bir so‘z, jumlani o‘zgarishsiz takrorlash lozimligidan o‘zini xoli hisoblaydi. Natijada, asarning mazmuni, g‘oyasi, qahramonlari tavsifi asosan saqlangani bilan yangi ijrochi o‘z asarida shaxsiy hayotiy kuzatishlarini, tajribalar xulosasini ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. “Alpomish” dostonini Fozil Yo‘ldosh qahramonli aytgan, Ergash shoir muhabbatli aytgan kabi mashhur mulohazalar bevosita og‘zakilik fazilatlaridan hisoblanishi mumkin.

Ammo, ikkinchidan, og‘zaki ijro asari yozib olinmagani taqdirda oxir pirovard o‘limga mahkum etilish ehtimoli bor. Uzoq o‘tmishda millatimiz baxtiga yozib qo‘yilgan o‘nlab asarlar taqdiri fikrimizni tasdiqlaydi. Oqilona fikr yuritib faraz qilaylik. Gerodot, Polien kabi mashhur tarixchilar To‘maris, Shiroq haqida ma‘lumot bermaganlarida, bu rivoyat bizgacha etib kelarmidi?! Mahmud Koshg‘ariy hazratlari tomonidan meros qilib qoldirilgan “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida 300 ga yaqin go‘zal maqollar yozib qoldirilgan. Ular orasida “Osh totug‘i tuz”, “Kishi alasi ichtin, yilqi alasi tashtin” kabi bugungi kunda hali foydalanilayotgan va “Tulki o‘z uyasiga qarab hursa, qo‘tir bo‘ladi”, “Yayov oti – choriq, kuchi – oziq” kabi unutilgan maqollar ham bor. Devondagi ko‘pgina maqollarning ma‘nosi saqlangan, ammo ular tarkibidagi so‘zlar o‘zgargan. Xullas, zamonlar o‘tishi bilan millat tilida ro‘y bergan o‘zgarishlar, ijtimoiy, maishiy hayotdagi yangiliklar, ayniqsa, og‘zaki ijod namunalari yoddan biladigan insonlarning vafot etishlari oqibatida ko‘p ajoyib asarlar yashashdan to‘xtashi tabiiy bir holdir. Ayniqsa, XX asrimizning o‘rtalarida xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabat sovugani oqibatida bir qator ajoyib asarlar yo‘qolib ketdi va ularni qayta tiklash mumkin bo‘lmay qoldi.

O‘nlab asarlarning yuzlab variantlari haqida gapirma ham bo‘ladi. Ayniqsa, ertak va dostonlarda og‘zakilikning salbiy tomoni alohida ko‘zga tashlanadi. To‘g‘ri, bu janrlardagi ijrochi tomonidan yo‘l-yo‘lakay kiritilgan ahamiyatsiz, ya‘ni asar syujetiga ta‘sir etmaydigan yangiliklar variant nusxasini bermaydi. Ammo iqtidorli ertakchi yoki baxshi tinglovchilarning qizg‘in e‘tiboridan ilhomlanib ba‘zan qolipga tushgan asar matniga ahamiyatli o‘zgarishlar kiritishi mumkinligini ham esdan chiqar-maslik lozim. Chori baxshi, Qahhor baxshi Qodir o‘g‘li ijrosida bu holat ko‘p ro‘y bergan. Muayyan vaziyat fayzidan ilhomlangan baxshilar yangidan-yangi epizodlarni, voqea bayonlarini ijro etilayotgan dostonga singdirib ketishgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li,

Islom shoir, Po'likan shoirlarda bunday vaziyatlar hamisha takrorlangani uchun xoh ijobiy, xoh salbiy ma'noda paydo bo'lgan variant ijro tugagani zahoti yo'q bo'lishi ham tabiiy bir hol hisoblanishi ajab emas.

Albatta, og'zakilik haqida fikr yuritganda, xalq asarlariga jon ato etib turuvchi improvizatsiya – badihago'ylikni unutish mumkin emas. Improvizatsiya hamisha ijroga shukuh, fayz bag'ishlagan. Qirq yildan ortiq vaqt mobaynida xalq og'zaki ijodi fanidan ma'ruza qilish davomidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtida dars beruvchi ustoz, o'rta ta'limda mashg'ulot o'tkazuvchi o'qituvchi nutqiga tinglovchilar kayfiyati doimiy ta'sirini o'tkazar ekan. Ilhom kelgan paytda oddiy mavzuni o'quvchilarga tushuntirish jarayonida qiziq-qiziq fikrlar bostirib keladi, keyinchalik esa bu fikrlar maqolalarga aylanadi. G'ulom Karimov, Subutoy Dolimov, Muhammadnodir Saidov, Ozod Sharafiddinov tajribasida bu holatning muttasil davom etganiga sanoqsiz ravishda guvoh bo'lganmiz. Aynan shunday vaziyat iste'dodli qo'shiqchilar, laparchilar, askiyabozlar, lofchilar, topishmoq aytuvchilar, ertakchilar va baxshilar hayotida ham ro'y beradi. Improvizatsiya ijrochining ilhomiga bog'liq. Mashhur Sulton kampirning qozoq oqiniga tog'ning yoshini bilmoqchi bo'lsang, og'zini ochib, tishini ko'r qabilidagi javoblari, baxshilarning tanish tinglovchilar fazilatlarini, yoki kamchiliklari haqida doston ijrosi davomida hikoya qilib ketishlari ijro fayziga fayz qo'shgan. Tinglovchilarning hayqiriqlari ostida ijro etilayotgan doston o'chmas taassurotlar qoldirgan. Ustoz Hodi Zarif bo'lajak Chori baxshi bilan tasodifan birinchi uchrashgan paytlarida undan mashina to'xtagan joyning nomini so'raganlarida, baxshi "Qora buloq" qishlog'ining ta'rifini qiyomiga yetkazib aytib bergan ekan. Hodi og'a shu zahoti notanish Choriga: "Sen baxshimisan?" – deb savol bergan ekanlar. Bu tanishuv keyinchalik bir necha yillik ijodiy hamkorlikka aylangani sir emas. Folklor ekspeditsiyalari paytlarida talabalarimiz qo'shiqchilarning o'ylamagan tarzda qo'shiq to'qib yuborganliklarini havas bilan eslashadi. Xalqimiz og'zaki ijodining bebaho go'zal janri askiyani-ku improvizatsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mashhur askiyabozlar Yusuf qiziq, Erka qori, G'anijon Toshmatov, Qayum askiyaboz, Ubaydulla Abdullayev, Ma'ruf Rahimov kabilarning ijodi to'liq improvizatsiya hisobiga gullagan.

Xullas, xalq og'zaki ijodidagi og'zakilik xususiyati asrlar davomida millatimiz tajribasidan o'tgan va muhim ahamiyatga ega belgi sifatida baholanishi mumkin.

Jamoalik. Jamoalik deganda, muayyan ish jarayonining bir guruh odamlar ishtirokida birgalikda bajarilishi nazarda tutiladi. Xalqimizda hashar uyushtirish an'anasi bor. Bu an'anaga binoan bir-ikki kunda xo'jalik imoratlarning asosi jamoa bo'lib qurib bitkazilgan. Bugungi kunda yurtimiz aholisi turli bayramlar munosabati bilan hasharga chiqadi va mahalla jamg'armalariga qilingan ish hisobidan mablag' o'tkazadilar. Xullas, jamoa bo'lib imorat qurish, hashar o'tkazib joylarni tartibga solish, ekin ekish, hosil yig'ish mumkin. Ammo san'at asarini hashar yo'li bilan yaratib bo'lmaydi. To'g'ri, tarixda ikki, ba'zan uch kishi bo'lib san'at asari yaratilgan holatlar bo'lgan. Lekin buning uchun hammuallif shaxslar bir-birlariga ruhan, ma'nan, dunyoqarash jihatdan o'ta yaqin edilar. Xo'sh, u holda xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiq va boshqa janr asarlarini qanday qilib jamoa ijodi mahsuli deyishimiz mumkin. Gap shundaki, xalq og'zaki ijodi asarlari, u asar qaysi janrda ekanidan qat'i nazar, bitta shaxs tomonidan yaratiladi. U shaxs, shubhasiz, badiiy ijod qilish, so'z san'atiga oid asar yaratish iqtidoriga ega bo'lgan. Ammo vaziyat taqozosi bilan bu odamning asar yaratgani hujjatlashtirilmagan. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, hujjatlashtirishning hojati ham bo'lmagan. Asar muallifining o'zi buni xohlamagan. Qolaversa, og'zaki asarni qanday qilib rasmiylashtirish masalasi o'ylab ham ko'rilmagan. Natijada, doston, ertak, qo'shiqlar yaratilavergan, bironta odam bu asarni men yaratdim, deb da'vo qilmagan. Ustiga ustak asar og'zaki bo'lgani uchun tinglovchilar orasidagi iqtidorli yurtdoshlar uni zudlik bilan qayta ijro etganlar. Bu ijro ikkinchi, uchinchi shaxslar iqtidoriga ko'ra qator o'zgarishlarga duch kelgan va badiiy jihatdan yo mukammallashgan, yo zaiflashgan. Ayni paytda, mazkur namunaning xalq ijodi qatoridan o'rin olishi uchun xizmat qilgan. Birinchi muallif esa o'zi yaratgan namunani yurtdoshlari tomonidan ijro etilganini bilib faxrlangan. Biz, o'zbeklar, ajdodlarimiz orasida shunday oliyhimmat insonlar borligidan g'ururlanishimiz va ulardan o'rnak olishimiz kerak. Shunday qilib, bugungi kunda milliy qadriyatlarimizning munosib tarkibiy qismi hisoblangan xalq og'zaki ijodi xazinasini vujudga kelgan.

Og'zaki ijod asarining badiiy jihatdan mukammallashib borishida, hatto yangi-yangi asarlarning paydo bo'lishida oddiy tinglovchi ommasining bivosita ishtirok etishini ham nazarda tutish kerak. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2009 yilda O'zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi bilan Jurnalistika va O'zbek filologiyasi fakultetlari talabalarining uchrashuvida dostonlardan parcha aytayotgan

baxshi to'satdan voqea tizimiga tinglovchilarni qo'shib yubordi. Muhimi, bu yangilikni hamma tabiiy hol deb qabul qildi. Aslida tinglovchi baxshiga hurmatini izhor etishi oqibatida yangi-yangi misralarning tug'ili-shiga sabab bo'lgan edi.

Ko'p yillik tajribamiz natijasi o'laroq yana bir masalaga diqqat-ingizni qaratmoqchimiz. Avvalgi sahifalarda qayd etganimizdek, matn an'anasida doimiy ravishda qolip shaklida qo'llanadigan parchalar, tasvir vositalari bor. Ertakchi, dostonchi, qo'shiqchi ijro davomida ulardan foy-dalanadi. Yaratilgan asar yangi bo'lsa-da, unda ana shu an'anaviy o'rinlar saqlanib qoladi. Natijada, o'z-o'zidan yangi doston to'qigan baxshi birinchi marta aytgan dostonini to'liq ravishda o'ziniki deb ayta olmaydi. Chunki u yaratgan asar an'anaviylik belgisi bilan avvalgi namunalardan jiddiy ozuqlangan bo'ladi. Demak, jamoalik xalq og'zaki ijodining yaratilishi nuqtai nazaridan qadimiyligi asosida vujudga kelgan xususiyat ekan. Eng muhimi, jamoalik deganda, o'tmishda ijod qilish iqtidoriga ega yakka shaxs – ajdodlarimiz xizmatini unutmashimiz lozim.

Variantlilik va versiyalilik. Bir asarning syujet va kompozitsiyasida muhim o'zgarishlar bilan bir necha nusxalarga ega bo'lishi variantlilik xususiyatini hosil qiladi. Og'zaki ijodda esa variantlilik asarni og'zaki ijro etish usulidan vujudga keladi.

Doston va ertakni aytayotgan ijrochi ziyraklik bilan tinglovchilarni ku-zatib boradi. Yuqorida ham qayd etganimizdek, tinglovchi auditoriyasining asarni eshishga bo'lgan munosabatiga qarab yo'l-yo'lakay qo'shimchalar bilan boyitishi yoki qisqartirib yuborishi mumkin. Bu o'rinda ijrochining kayfiyati, sog'lig'i ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hayotiy muam-mosi yechilgan baxshi o'z ehtirosini do'mbirani chertish, dostonni qayta aytish orqali ifodalaydi. Natijada, tinglovchi alohida mehr qo'shib ijro etilgan doston bilan tanishadi. Qolaversa, odatda, har bir baxshi o'zini el orasidagi hurmatini biladi. Ijro etayotgan dostonini boshqa baxshilardan farqli qilib aytishga harakat qiladi. Iqtidori, hayot tajribasi, baxshilik ma-horatini uyg'un qilib, imkoniyati darajasida boshqacha lavhalar bilan bo-yitish yo'llarini izlaydi. Masalan, Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan "Alpomish" dostonida zakot muammosi Hakimbekning taklifidan kelib chiqadi. Professor Muhammadnodir Saidov bu vaziyatni dostonidagi otalar va bolalar tamoyili bilan bog'lagan. Boysarining zakot to'lashdan bosh tortib, qalmoq yurtiga ko'chishiga Barchin qarshi chiqadi. Muhammadnodir Saidov Barchinni dostonidagi yoshlar vakili sifatida Hakimbekni qo'llash bilan bog'laydi. "Alpomish"ning Xushboq Mardonaqul o'g'li variantida

Boybo'ring xotini Kuntug'mish cho'rilarini xizmat qilish uchun Boysarinikiga jo'natadi. Boysarining xotini cho'rilarni urishga buyuradi. Aka-uka o'rtasidagi bosh kelishmovchilik shu lavhadan boshlanadi. Saidmurod Panoh o'g'li variantida esa zakotni to'g'ridanto'g'ri Boybo'ring o'zi o'ylab topadi. Bir qarashda bu farqlarning alohida muhim ahamiyati yo'qdek tuyiladi. Aslini olganda, Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosida "Alpomish" dostonida aks etgan davlatchilik jarayoni asosli ravishda o'z ifodasini topgan. Hakimbek bo'lg'usi davlatning paydo bo'lishida yetakchi vazifani bajardi, Boysun-Qo'ng'irotda zakotni joriy qildi, bu qarorga qarshi chiqqan Boysarini keyinchalik Qalmoqdan qaytarib keldi va yurtini birlashtirishga erishdi. Oxir oqibatda o'zining davlat boshlig'i sifatidagi hurmatiga sazovor bo'ldi. Fozil shoir "Alpomish"ni qahramonli. Ergash shoir muhabbatli aytgan, deyishda ham variant tushunchasini qayd etish mumkin.

Variantilik maqollarda ham uchrab turadi. "Yaqindagi qo'shnidan uzoqdagi qarindosh yaxshi" yoki "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi" maqoli vaziyatga ko'ra aytilaveradi.

Ayni chog'da, Xorazm dostonchiligida variantlilik tushunchasining mavjud emasligini ham qayd etish zarur. Xorazm baxshilari xalq kitoblari "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyod va Hamro" kabilarni yod olib doston kuylaydilar. Baxshi yakka o'zi doston aytishi ham ko'p uchramaydi. Asosan, jo'rovoz bilan birga ijro etiladi. Ikki kishining birgalikda kuylashi esa doston so'zlarini bir xil aytishni taqozo etadi. Qashqadaryo va Surxondaryodagi baxshilar o'z ijrolariga yo'l-yo'lakay o'zgarish kiritib badihago'ylik – improvizatsiyadan foydalanishlari mumkin bo'lgan bir paytda Xorazm dostonlari ijrochilarida bunday imkoniyat yo'q. U holda Xorazm baxshilarining mahorat darajasi qanday baholanadi, degan savol tug'iladi. Bu dostonchilikda mahorat, avvalo, asar matniga to'la amal qilish, sozchalish, ovoz, aktyorlik san'atidan foydalanishga bog'liq hisoblanadi.

Yozma adabiyotda ham variant tushunchasi bor. Lekin bu tushuncha juda tor ma'noda qo'llanadi. Chunki biror romanning varianti haqida gap aytish uchun bir yozuvchining o'zi asarni boshqa-boshqa nusxalarda yozib chiqishi kerak. Xususan, badiiy adabiyotda Said Ahmadning "Ufq" romani "Sharq yulduzi" jurnali variantida va alohida kitob ko'rinishida nashr ettirilgani ma'lum. Shuningdek, Yoqub Yakvalxo'jayevning "Qaytar dunyo" romanining "Yoshlik" jurnali va kitob varianti borligi ma'lum.

Versiya ham variantlilikning bir ko'rinishidir. Faqat variantlilik tor ma'noda, versiyalilik keng ma'noda tushuniladi. Asar nomi bir xil bo'lsa, undagi voqealar tizimi bir-biriga yaqin bo'lsa, qahramonlar xatti-haraka-

tida muayyan o'xshashlik saqlansa, variantlilik; asarning umumiy mazmunida qandaydir umumiylikka ishora sezilsa, versiya vujudga keladi. Masalan, "Alpomish" dostonining o'zbek xalqi doirasida 30 ga yaqin varianti bor. Ammo bu dostonning Oltoy, Qipchoq, O'g'uz versiyalari mavjudki, u versiyalar bilan tanishganimizda ayrim lavha va voqealarda umumiylikdan boshqa o'hshashlikka duch kelmaymiz. "Tohir va Zuhra" dostonining qozoqlarda "Qo'zi Ko'rpeh va Bayan Suluv" versiyasi bor.

Xullas, variant deganda, asar sujeti va kompozitsiyasidagi qisman farqlar borligi, versiya deganda, bir asarning katta o'zgarishlar bilan bir necha xalqlar og'zaki ijodidagi alohida-alohida nusxalari tushuniladi.

Anonimlik. Anonimlik asar muallifi nomining ma'lum emasligi demakdir. Xalqimiz og'zaki ijodidagi yuzlab ertak va dostonlarni birinchi bo'lib aytgan ijodkor nomi anonimdir. Xalq qo'shiqlari, maqollari, topishmoqlari ham bizga ma'lum bo'lmagan bobo-momolarimiz tomonidan yaratilgan. Ammo ular, biz avval aytganimizdek, o'z ismlarining saqlanib qolishini xohlamaganlar. Keyinchalik esa asarni birinchi yaratgan va aytgan shaxs nomining yoddan ko'tarilishi ham an'anaga aylangan. Ammo xalq og'zaki ijodidagi anonimlik bilan yozma adabiyotdagi asar muallifi nomining ma'lum emasligi mutlaqo boshqa-boshqa tushunchalardir. Og'zaki ijodda anonimlik oddiy holat bo'lsa, yozma adabiyotda adib nomining yo'qligi tasodif hisoblanadi. Masalan, "Yusuf va Zulayxo", "Gul va Navro'z" dostonlarini yozgan shoirlar nomi ma'lum bo'lmagan taqdirda ham, bu asarlar og'zaki ijod namunasi hisoblanmaydi. Chunki ularning matni og'zaki adabiyot an'anasiga mos kelmaydi.

Shunday qilib, og'zaki ijoddagi anonimlikni xalq farzandlarining o'z millatiga xolis va beminnat xizmat qilishi namunasi sifatida qadrlash maqsadga muvofiqdir.

Xalq og'zaki ijodining yana bir xususiyatini shartlilik deb belgilash mumkin. Bu xususiyat folklorshunoslar tomonidan yetarli tadqiq etilmaganligini mavzu boshida aytib o'tganmiz. Shartlilik xalq og'zaki ijodi asarlarida ijrochilar tomonidan aytilgan fikrni muhokamasiz qabul qilish bilan bog'lanadi. Bunday tasvirlarda tinglovchi "Nega?" degan savolni bermagan, yoki xayoliga ham keltirmagan. Tinglovchi baxshidan dostonni mahorat bilan ijro etishni kutgan, talab qilgan, ammo shu bilan birga baxshining ham inson ekanligini, uni ba'zan kechirish lozimligini ham unutmagan. Bunday paytlarda tinglovchi baxshini ortiqcha savollar bilan qiynamagan. Masalan, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ikan aytgan dostonning nomi "Temirxon Poshho" deb ataladi. Dostondagi voqealar

davomida esa Temirxon poshsho deyarli ishtirok etmaydi. Yoki Jo'ra Eshmirza o'g'li ijro etgan "Malla savdogar" dostonida ham Malla savdogar voqealar tizimida yetakchi qahramon sifatida namoyon bo'lmaydi. Ammo baxshiga "Nega dostonning nomini shunday atadingiz?" - deb savol berish odobdan hisoblanmagan va doston shartli ravishda shunday atalavergan. Go'ro'g'li turkumi dostonlarida, ko'pincha, G'iro't, G'irko'k nomlari chalkash keladi. Lekin buning sababi ham aniqlanmaydi. "Alpomish" dostonida Hakimbek qalmoq yurtida yetti yil zindonda yotadi. Oxirgi muddatdagina Kayqubod unga qo'y tashlab turadi. Ammo yetti yil zindonda inson ovqatsiz, suvsiz qanday yashashi mumkin degan savolni hech kim bermaydi. Bu o'rinda ham voqea baxshi tomonidan qanday bayon etilsa, shundayligicha qabul qilinaveradi. Natijada, xalq og'zaki ijodi asarlarining ijrosidan tinglovchi ma'naviy lazzat olgan, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholagan, muhokama qilgan, o'ziga namuna deb bilgan, ammo ayrim masalalarga ortiqcha sinchkovlik bilan ahamiyat bermagan. Ehtimol, shartlilik belgisi xalq og'zaki ijodi asarlarini e'zozlashda o'ziga xos o'lchov bo'lib xizmat qilgan bo'lishi ham mumkin.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlarini bilishning qanday nazariy va amaliy ahamiyati bor?*
- 2. An'anaviylik haqida mulohaza yuriting va xalq dostonlari, ertaklari matnlaridan bu xususiyatni izohlovchi misollar toping.*
- 3. Og'zaki shaklning ijobiy va salbiy jihatlarini sharhlang. Improvizatsiya yozma adabiyotda bo'lishi mumkin yoki mumkin emasligini tushuntiring.*
- 4. Shartlilik haqida mustaqil mulohaza yuriting.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 4-14.
2. Холмирзаева С.Ш. Ўзбек халқ эпосидаги бадиий шартlilikнинг ўзига хос хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Т., 1990.

ENG QADIMGI XALQ OG‘ZAKI LJODI NAMUNALARI. MIFLAR

Buyuk so‘z sohibi Alisher Navoiy g‘azallaridan birining dastlabki bayti – matla’sida

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajabkim, sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur,

- degan edi. Baytda mening sarvinozim o‘n sakkiz yoshda bo‘lgani uchun o‘n sakkiz ming dunyoning son-sanoqsiz g‘avg‘osi boshida charx urishidan ajablanmaslik kerak, degan ma’no ifodalangan. Bu haq gap. Chunki inson inson bo‘lib yaralgan ekan, yoshidan qat’i nazar yorug‘ olam muammolari bilan yashaydi. Dunyo qanday paydo bo‘lgan, insonni kim yaratgan, nima uchun quyosh har kuni bir tomondan chiqadi, ikkinchi tomonga botadi, yer nima uchun qimirlaydi, chaqmoq chaqishining sababi nima, qo‘yingki, ming-ming savol inson qalbiga tinchlik bermaydi. Hatto taxmin qilib aytish mumkinki, ana shu muammolardan chalg‘ish maqsadida qadimgi ajdodlarimiz raqsga tushishni, his-tuyg‘uni ifodalovchi misralar to‘qishni o‘ylab topgan bo‘lsalar ajab emas.

Qadim zamonlardayoq olamning paydo bo‘lishi, yil fasllaridagi o‘zgarishlar, yerdagi zilzilalarning mohiyatini anglamagan inson o‘zicha izoh izlashga uringan. Natijada, dastlab yerni nimadir ko‘tarib turgan bo‘lsa kerak, degan tushunchalar, keyinroq esa har bir hodisa sharhini ifodalovchi xudolar o‘ylab topilgan. Agar bir oz mulohaza yuritsak, inson qilgan dastlabki kashfiyotlarni bugungi kunda ham uchratishimiz mumkin. Xususan, safarga chiqqan sayyoh bo‘ri, burgutni ko‘rsa, o‘zini omadi kelgan hisoblaydi. Tulki ko‘rsa, shubhaga tushadi, ko‘ngilsiz voqea bo‘lishini kuta boshlaydi. Yigit tushida egarlangan ot minsa, hayotida ijobiy o‘zgarishlardan xabar olgandek sezadi o‘zini. Yigitlarimiz uylanish to‘ylarida hali hamon olov atrofida aylanadilar, ustlaridan sochqi sochadilar. Qariyalarimiz qaldirg‘och shipga in qursa, xursand bo‘ladilar. Ot

ko'rsalar, boshini silab qo'yadilar. Yaqin-yaqingacha Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida yangi tug'ilgan chaqaloq beshigining tagiga bo'ri terisini solish, tishini teshib beshikka bezak qilish odati saqlangan edi. Vaqti-vaqti bilan hozir ham oiladagi erkak uyiga baliq xarid qiladi. Va bu yaxshi xislat, odat sanaladi. Bunga o'xshagan odatlarimizni ko'plab sanash mumkin. To'g'risi, sanoqning tagiga yetish ham qiyin. Xo'sh, ular qanday paydo bo'lgan. Nima uchun xalqimiz suvni, nonni, tuzni e'zozlaydi. Pokiza saqlashga urinadi.

Inson hamisha har bir hodisadan o'ziga manfaatli jihatlarni topishga harakat qiladi. Xayolan bu manfaatlarni asoslashga sabab axtaradi. Vaqt o'tgani sari turmush tajribasi mazkur voqea-hodisalarni turlarga bo'lish, ulardan foydali va zararlilarini ajratish zaruratini tug'diradi. Oqibatda, xalq tasavvurida "bunday bo'lsa – yaxshi, bunday bo'lsa – yomon" degan hukmlar paydo bo'ladi. Masalan, birorta odamning hovlisida bulbul sayrasa, yaxshi; boyo'g'li sayrasa, yomon degan taxmin odat tusiga kirgan. Bir ko'rinishda ahamiyatsizdek tuyilgan holat turli urf-odatlariga, rasm-rusumlarga asos sifatida asrlar davomida millatimiz ongida shakllanib kelgan.

Dunyo, insoniyat, odamning paydo bo'lishi haqidagi qadimgi sodda hikoyalar ilmda "mif" deb ataladi. Mif (yunoncha *mythos* - so'z, afsona, rivoyat) so'zi lug'atda "Qadimgi kishilarning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budalar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi"⁹, - deb izohlangan. "Mifologiya" miflarni o'rganuvchi fandir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi "sav", avval aytganimizdek, "otalar so'zini eslash" ma'nosini bersa, uni turkiy tilimizdagi "mif"ni ifodalovchi so'z deyish mumkin. Arablardagi "asotir" ham shu ma'noni beradi. Ammo butun dunyodagi olimlar qadimgi hikoyalarni "mif" deb atashgani uchun o'zbek folklorshunosligida ham aynan shu atamani qo'llash ma'qul topilgan.

O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning o'tmish hayoti bilan bog'liq miflarning dastlabki namunalari "Avesto" kitobida berilgan. "Avesto" qadimgi Xorazmda yashagan ajdodlarimiz ijodi mahsulidir. Avval og'zaki tarzda vujudga kelgan asar yozuv madaniyati shakllangandan so'ng Zardusht tashabbusi bilan 12 000 mol teriga oltin harflar bilan bitildi. XI

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Беш жилдли. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 602-603.

asrdagi afsonalar qayd etilgan “Kitobi Dada Qo‘rqut” va XIII asrda yashagan O‘g‘uz xoqon haqidagi “O‘g‘uznoma” deb atalgan kitoblarda (ulardagi voqealar, afsonalar matnining ancha avval yaratilganini bildirsa ham ilmiy asarlarda XI va XIII asrlar qayd etilgan) turkiy qabila va urug‘lar tarixi haqidagi mifik tasavvur ifodalari o‘rin olgan. Bu kitoblar haqida bir oz keyin ma‘lumot beramiz. Avval mif haqidagi nazariy va amaliy tafsilotlarga to‘xtalmoqchimiz.

Mif tushunchasi tarkibini totemizm, fetishizm, animizm so‘zlari tashkil etadi.

“Totemizm” so‘zi lug‘at va qomusiy kitoblarda qayd etilishicha, “uning urug‘i”dan olingan ekan. Shimoliy Amerikada yashovchi qabilalardan biri kishilar bilan hayvon va o‘simliklarning muayyan turlari o‘rtasida qon-qarindoshlik bor deb hisoblaganlar. U hayvonlar ov qilinmagan, o‘ldirilmagan, go‘shiti yeilmagan. O‘simliklar esa e‘zozlangan. Bu odat dunyodagi hamma xalqlarning e‘tiqodida ham bor bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Hind xalqida, umuman, hayvonni so‘yish, ya‘ni qon chiqarish ma‘qullanmagan. Ayniqsa, sigirlar alohida e‘zozlangan. Avstraliyada kenguru alohida hurmatga ega hayvon hisoblanadi. O‘zbeklarda bo‘ri, tuya, ayiq, ot, qo‘y, ilon, baliq, qaldirg‘och, burgut, xo‘roz, musicha kabi hayvon va qushlarga hurmat bilan qaralgan. Mustaqil O‘zbekiston gerbida humo qushining tasviri borligi ham bejiz emas. Shuningdek, xalqimiz chinor, behi, anor, tol kabi mevali va mevasiz daraxtlarga ham alohida e‘tiqod bilan qaraydi. To‘g‘ri, yuqorida sanalgan hayvon, qush, daraxtlarning totem sifatida hurmatga sazovorligi bor. Ammo bir oz fikr yuritsak, ularga bo‘lgan e‘tiqod ildizlarida o‘zgacha, alohida ma‘no borligi ham anglashiladi. Jumladan, bo‘rining mustaqil hayotga bog‘liqligi, mardligi; tyaning suvsizlikka chidashi; otning insonga vafodorligi, ziyrakligi; burgutning baquvvat va jangari qush ekani; chinorning uzoq umr ko‘rishi; anorning ichida donalarining ko‘pligi (farzand belgisi sifatida), tolning salqini va undan beshik, do‘mbira yasalishi kabi fazilatlar xalq orasida shuhrat topgani ham ma‘lum. Qadimgi afsonalarda, ertaklarda bo‘ri, ilon, ayiq, ot, qaldirg‘och kabi obrazlarning ko‘plab uchrashi bejiz emas. Shu bilan birga xalq tushunchasida qo‘yning inson o‘rniga qurbonlik qilinishini ham esdan chiqarmaslik kerak. Farzand tug‘ilganda, turli ehson marosimlarida qurbonlik uchun qo‘y so‘yiladi. Xalq orasida qo‘y odamning o‘rniga qurbonlik qilish uchun yaratilgan, degan tushuncha bor. Bu tushunchalarning asosini totemizm izohlaydi. Ma‘lum sabablar bilan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolaga Bo‘riboy,

Bo'ritosh, Gurkiboy, Bo'rixon, Lochin, Arslon, Qo'ziboy, Barchin, Suq-sur degan ismlarning berilishida ham totemizm ta'siri aniq seziladi. Har bir daraxtning joni bor. Uni sindirish baxtsizlikka olib keladi. Uzoq yashagan daraxtni kesish xosiyatsizdir. Otni so'yishda biror aybni bo'yniga qo'yish kerak, degan e'tiqodlar ham totemizmga aloqador hisoblanadi.

"Fetishizm" so'zi lug'at va qomusiy kitoblarda portugulcha "feitico", fransuzcha "fetiche" - sehrlı narsa ma'nosini ifodalashi qayd qilingan. Uning asosini qadimgi zamon odamlarining jonsiz narsa-predmetlarda ilohiy fazilat bor deb tushunishlari tashkil etadi. Ma'lumki, inson hayoti davomida o'zi bilmagani holda quyosh, oy, yulduzlar, tog', suv kabi narsalar bilan ham munosabatda yashaydi. Ayniqsa, quyosh, suv inson taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o'zlaricha pichoq, non, o'choq, tandir, do'ppi, kitob, supra, ayniqsa, o'q, yoy kabi narsalarni ham muqaddas hisoblaganlar.

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida shunday lavha bor: "Men bilmagan ekanman. O'tning taftiga lippamdagi yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi.

- Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang bolang bo'ladi, shu yerda, shunday Fotimai Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?

Oyim boshimga o'qlov bilan urganda, qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachoqlangan edi"¹⁰.

Qissada G'afur G'ulom qahramoni Shum bolaning o'choq qarshisida nojo'ya ish qilib o'tirgani uchun onasi o'qlov bilan organini tasvirlagan. Chunki o'choq o'zbeklarda muqaddas hisoblangan.

Bunday aqidalar bo'yicha yigit kishining do'ppi, pichoq, kitob, qilich, yoy yo'qotishi, xoh o'ngida, xoh tushida bo'lsin, yomonlik belgisi hisoblangan. Yigit kishi zotli ot, keskir qilichga ega bo'lsa, u o'z tengdoshlari o'rtasida hurmatli inson sifatida ulug'langan. Uzoq safarga ketayotgan yigitga non tishlatish, kechki ovqat paytida bir kosada qo'shimcha ovqat suzib qo'yish, qiz bolaning so'zana tikishi yoki unga atab gilam xarid qilish, yo'lda sadaqa so'ragan kimsaga ehson berish, uzoq xasta yotgan odam vafot etganida, uning tobuti orqasidan tosh otish kabi odatlarimizning paydo bo'lishi ham *fetishizm* bilan aloqador.

Fetishizm tushunchasida turli narsa-predmetlardan tashqari ranglar, tush ham saqlanib qolgan. Oq, qora, ko'k, yashil, qizil, malla kabi ranglar

¹⁰ Гулом Ф. Шум бола. Биринчи китоб. - Т., 1963. - Б. 11.

muayyan ma'noni bildirgan. O'zbekiston bayrog'idagi yashil, oq, ko'k, ular oralig'idagi qizil, burchakdagi oy va 12 yulduzlarning hammasida ramziy ma'nolar mujassamlashgan. Odatda, yashil yoshlik, qizil, bir tomondan to'kilgan qon, ikkinchi tomondan, qizlik g'ururi, oq hayot, qora, bir tomondan fojia, ikkinchi tomondan, buyuklik, ulug'lik, malla yetuklik, balog'at ma'nolarini aks ettirgan. Agar Bobur asarlariga ishlangan qadimgi miniatyura rasmlariga zehn solsangiz, podshohlarning tepasida bir xizmatkorning oppoq sochiqqa o'xshash mato ko'tarib turganini ko'rasiz. Bu odat podshohning kelajagi g'alabalarga boy ekanini, yurtining tinchligini, o'zining mustaqilligini ta'kidlash maqsadini amalga oshirgan.

Xalqimizning qadimgi inonchlarida tush ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Aqlli odamlar insondagi tush ko'rish xususiyatini alohida fazilat deb bilganlar. Ular tushni xosiyatli, xosiyatsiz va e'tibor berilmaydigan turlarga bo'lganlar. Hatto tush ta'birlari bayon etilgan kitoblar ham yaratilgan. Eng qadimiy bunday kitoblarning biri "Irq bitig" deb nomlangan. Kitobda:

"Men Osmon o'g'li kunduz va kechqurun
Oltin taxtda o'tirib,
Shodlanyapman.
Bilib qo'ying: bu - yaxshi"...
"Otni noto'g'ri tushovladi.
Yurishga majoli yo'q, deyishadi.
Bilib qo'ying: bu - yomon".

kabi matnlar keltirilgan. Mazkur matnlarda odam tushida ko'rish mumkin bo'lgan lavhalar ijobiy va salbiy oqibatlar haqida xabar beruvchi omil bo'lib keladi.

Islom dini tarixida Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.)ga payg'ambar sharafiga ega bo'lish xabari ham tushda ayon bo'lgani haqida ko'plab ma'lumotlar bor.

Fetishizmdagi tush unsuridan badiiy adabiyotda ham ko'p foydalanilgan. "Alpomish" dostonining o'zida tush bir necha o'rinlarda qahramon taqdirini belgilovchi xabar sifatida baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan qo'llangan. Ergash Jumanbulbul o'g'li esa "Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mishning Xolbeka bilan uchrashishini tasvirlashda tushdan foydalangan. Yozma adabiyotda Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonida Bahromning botqoq fojiasidan so'ng uning tushiga kirganini

va Husayn Boyqaroga yurtning taqdiridan chetda qolgan podshohning qismati ayanchli ekanini aytishni so‘ragan. Bunday o‘rinlarda yozma adabiyot vakillari majoziy yo‘l bilan podshohlarga maslahat berish usulini kashf qilganlar, deyish mumkin.

“Animizm” lotin tilidagi “anima”dan olingan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda jon, ruh ma‘nosini anglatishi ta‘kidlanadi. Animizmga binoan qadimgi ajdodlarimiz dunyodagi hamma narsaning joni bor, deb bilganlar. Ibtidoiy davrda inson tana va ruhdan iborat hisoblangan. Ruh tanani tark etganda inson o‘ladi, deb o‘ylashgan. Har bir narsaga bu tushuncha tatbiq etilgan. Shuning uchun mifologiyadagi totemizm va fetishizm hodisalariga ishonch bildirishni, ularning mavjudligiga bo‘lgan e‘tiqodiy munosabatni animizm bilan bog‘lash ma‘qul. Soddarog qilib aytganimizda, odamning totemizm va fetishizm hodisalariga ishonishi uyg‘un holatda animizmda namoyon bo‘ladi. So‘zning magik – mo‘jizaviy kuchidan foydalanib inson ruhiyatiga ta‘sir etishi, uni xastalikdan xalos etishi, tabiatiga ruhiy tetiklik bag‘ishlashi animizm fazilatlari hisoblanadi. Shuning uchun xalq baxshilari deganda baxshilik, ya‘ni shifo bag‘ishlash ma‘nosi saqlanib qolgan.

Hayot taraqqiy etib, asta-sekin miflar, xudolar, afsonaviy qahramonlar, voqea-hodisalar o‘rnida ilmiy kashfiyotlar paydo bo‘ldi. Jumladan, yerning dumaloq ekani, oy va quyoshning tutilishi, yer qimir-lashlar zamon o‘tishi bilan olimlar tomonidan ilmiy asoslandi. Shu tariqa inson tabiat hodisalariga aralashdi. Dehqonchilik, chorvachilik sohasida hayotiy yangiliklar ro‘y bera boshladi. Miflarda tasvirlangan qahramonliklar esa urf-odatlarda saqlanib qoldi. Natijada, badiiy tafakkur rivojlangani sari og‘zaki ijodda mukammallik ustuvor o‘ringa chiqdi. Xullas, “Avesto”, “Kitobi Dada Qc‘rqut”, “O‘g‘uznoma” kabi asarlarning yozma nusxalari vujudga keldi.

“Avesto”ning yaratilganiga yaqin uch ming yil bo‘ldi. Unda Zardusht – otashparastlik dinining asosiy qonun-qoidalari aks etgan. Zardusht Mazda Ahuraga murojaat qilib, dunyo, inson, koinot, haqiqatning vujudga kelishi haqida son-sanoqsiz savollar beradi. Kitobning bugungi kundagi ahamiyati yurtimizda istiqomat qilgan ajdodlarimiz qadim zamonlarda ham mehnat, haqiqat, ozodlik, poklikka alohida hurmat bilan qaraganliklari haqida hozirgi farzandlariga xabar beradi. Xususan, yerga don ekish, hosil yig‘ish haqida shunday deyiladi: “Kimdakim bug‘doy eksa, u Ashah (haqiqat)ni ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko‘kartiradi...

Qachonki egatlarda urug‘ yetilsa, devlar o‘rinlaridan qo‘padilar.

Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar.

Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar.

Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar.

Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar.

Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan qochadilar.

Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi"¹¹.

Agar yuqoridagi matnni zehn bilan o'qisak, inson mehnati butun yomonlik va fojialarni daf etuvchi kuch ekani aniq seziladi. Bug'doy so'zini xohlang aynan qabul qiling, xohlang mehnat orqali oilani qo'llash ma'nosida tushuning, baribir har bir shaxs o'z oilasi hayoti, kelajagi uchun o'zi harakat qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu nasihatga amal qilish insonni, qon-qarindoshlarni turli yovuzliklardan asrashi devlarning xonadondan qochishi misolida aniq ko'rsatilgan.

"Avesto"da inson qasamining ahamiyati uning inson ekanligi bilan bog'liqlik ham ko'rsatilgan:

“– Ey dunyoni yaratgan Zot!

Ey haqiqat!

Qasamlarning sanog'i nechadir?

Ahura Mazda javob berdi:

- Mening qasamlarim oltita:

Birinchi - so'z qasami;

Ikkinchi - qo'l qasami;

Uchinchi - qo'y qasami;

To'rtinchi - sigir qasami;

Beshinchi - odam qasami;

Oltinchi - ekin qasami; eng yaxshi, eng obod, eng serhosil zamindagi ekin"¹².

Bu qasamlarning tartibiga e'tibor bering. Birinchisi - so'z qasami. Insonning so'zi uning ori, uyati, g'ururi ekani qayd etilmoqda. Oxirgi qasam esa inson oilasining bahosi bilan o'lchanmoqda. Zardusht bu qasamlarni buzish qanday jazolanishi haqida so'raganda, Ahura Mazda javob-

¹¹ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т.: Шарк НМАК, 2001. – Б. 115.

¹² Уша жойда. – Б. 117.

larini bayon etadi. Bu jazolarni o'qiganingizda, etlar jimirlashib ketadi. Qasamning buzilishi uni bergan odam uchun o'lim ekani aniq seziladi.

Umuman, "Avesto" bilan tanishish asarning qomusiy mazmunga ega ekanini ko'rsatadi. Ayrim parchalar xuddi bugungi kunda yozilgandek tuyiladi:

"Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob qiladi".

"O'zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi".

"Fikr, so'z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman".

"Yerga yaxshi va kuchli urug' sepmoq dunyodagi eng zarur qonun hisoblanadi".

Hatto, kitobda aytilishicha, qarz olib, qarzini bermagan odam o'g'irlik qilgan kishiga tenglashtiriladi. Olovga nopok narsani tashlab yoqish qoralanadi.

"Avesto" kitobida ezgulik olamini yaratuvchi Ahura Mazda bilan yomonlik olami xudosi Angra Manyu (Ahriman) qarama-qarshi qo'yilgan. Ular o'rtasidagi munosabatni tasvirlash davomida Mitra, Anahita, Kayumars, Jamshid, Gershasp kabi qahramonlar ishtirok etgan voqealar bayon etiladi. Xullas, "Avesto" uch ming yil muqaddam yashagan otobobolarimizning hayot tarzi qanday bo'lganidan aniq va daliliy xabar beruvchi go'zal tarixiy-adabiy yodgorlikdir. Uning hozirgi bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi 1324 yilda ko'chirilgan nusxasi Kopengagen shahrida saqlanadi.

Professor N.M. Mallaevning ma'lumot berishicha, miqlar haqida yana "Bundaxishn" kitobi ham bor. "Mifologiyaga ko'ra, Gaya Martan (Kayumars) yer yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'yo u Ahura Mazda (Hurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujudan: ho'kizdan va odamdan tashkil topgan ekan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo'lgan Ahriman Kayumarsni o'ldiradi. Kayumars jasadining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi; odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi"¹³.

Turkiy xalqlar mifik dunyosi aks etgan tarixiy-adabiy kitoblardan biri "Kitobi Dada Qo'rqu" hisoblanadi. Qo'rqu ota ismi bilan ham mashhur bo'lgan Dada Qo'rqu o'z vaqtida odamlarga yaxshilik qilish, mushkul-

¹³ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 45.

larini osonlashtirishda ko'makdosh bo'lgan. Kelgusi hayot haqida bashorat qiluvchi, Alloh nazar solgan tabarruk insonlardan biri sifatida hurmat topgan. Hazrat Alisher Navoiy "Nasoyimu-l-muhabbat" tazkirasida bu zot haqida shunday deydi: "Qo'rquq ota r.a.

Turk ulusi orasida shuhrati andin ortiqroqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo'lg'ay. Mashhur mundog'durki, necha o'zidin burunqini, necha yil o'zidin so'nggi kelurni debdurlar. Ko'p mav'izaomiz mag'izliq so'zlari aroda bor"¹⁴. Navoiy tomonidan aytilgan fikrdagi so'nggi jumlagaga e'tibor qilsak, Dada Qo'rquq o'z hayoti davomida qilgan ishlari, ma'noli so'zlari bilan yurtida mashhur ekanligi ma'lum bo'ladi. Haqiqatan ham, kitobda katta hayot tajribasiga ega ulug' yoshli insonning dunyo haqidagi xulosaviy fikrlari o'rin olgandek tuyiladi. "Alloh, alloh demaguncha, ish unmaydi, Qodir Tangri bermaguncha, yer boyimaydi", - deydi u. "Takabburlikni Tangri sevmaydi. Pag'a-pag'a qor yog'sa ham yozga qolmaydi. Qari dushman do'st bo'lmaydi" kabi dono fikrlarni bayon qiladi. Dada Qo'rquq tilga oid qiziq fikrlarni ham bildiradi. Xususan:

"Ayran so'zin duyran demadim, man Dada Qo'rquq

Tikan so'zin so'kan demadim, man Dada Qo'rquq", - deydi u.

Bu o'rinda "ayron" so'zida ayirmoq, "tikon" so'zida esa tikmoq ma'nosi borligiga ishora qilinmoqda. Aslida esa ayron qatiqqa yoki suzmaga suv qo'shishdan hosil bo'lishi, tikan esa jarohat etkazganda, tikmasligi, balki badanni so'kishi qayd etilmoqda. Shubhasiz, "Kitobi Dada Qo'rquq"ning qimmatini unda berilgan 12 afsona bilan yanada ortadi. "Bo'g'ochxon", "Tepa ko'z", "Emron", "Sogrek", "Bamsi Beyrek" kabi afsonalarda turkiy xalqlar og'zaki ijodining dastlabki namunalari, mifik dunyoqarashga asoslangan voqealar tasviri berilgan. Xususan, o'g'il-qizi bor odamlar bilan farzandsizlarni ajratish, otaga o'g'ilni yomonlab, otaning o'g'li qotiliga aylanishini tasvirlash, qonli ko'ylakni ko'rsatib, ko'ylak egasini o'ldiga chiqarish, siklop (peshonasida bir ko'zi bor alp) - tepa ko'zdan elni ozod qilish, qizni qo'riqlayotgan hayvonlarni yengib, qizga uylanish, turmushga chiqadigan qizni musobaqada engib, unga ega bo'lish kabi uzoq o'tmishga oid asarlarda tasvirlangan voqealar bilan tanishamiz. "Kitobi Dada Qo'rquq" turkiy xalqlar mifologiyasi aks etgan eng qadimgi mukammal kitoblardan biridir.

¹⁴ Алишер Навоий. Насойиму-л-муҳаббат. Мукамал асарлар тўплами. 17-том. – Т.: Фан, 2001, – Б. 421.

Turkiy mifologiyaga oid voqea-hodisalar tasvirlangan yana bir kitob “O‘g‘uznoma” deb ataladi. “O‘g‘uznoma”da voqealar bayoni qisqa-qisqa jumlar vositasida berilgan. Jami 42 maktubni eslatuvchi matnning har birida to‘qqiztadan jumla bor. Har bir jumla ifodalanayotgan voqea haqida muhim ma‘lumot berish vazifasini bajargan. O‘g‘uz ismli qahramon bo‘lib, nomada tasvirlanishicha, oyog‘i ho‘kiznikidek baquvvat, beli bo‘rinikidek ingichka, yag‘rini silovsinnikidek, ko‘kragi ayiqnikidek keng edi. U yilqi boqib yuradigan o‘rmonda karkidon yashardi. Karkidon el-yurtini azobga botirgandi. O‘g‘uz qog‘on yovuz hayvonni o‘ldirish uchun ovga chiqdi. Uni o‘ldirdi. Ko‘kdan bir nur tushdi. Uning ichida bir qiz bor edi. O‘g‘uz uni sevib qoldi, birga bo‘ldi. Kun, Oy, Yulduz ismli farzand ko‘rdi. Keyinroq bir daraxtni ko‘rdi. Uning kavagida bir qiz o‘tirar edi. O‘g‘uz u bilan birga bo‘ldi. Ko‘k, Tog‘, Tengiz ismli farzandlarga ega bo‘ldi. O‘g‘uz o‘zini xon deb e‘lon qildi. Itil daryosidan o‘tib ko‘p yerlarni bosib oldi. Unga butun safari davomida Ko‘k bo‘ri rahnamolik qildi. Qirg‘in urushlarda qatnashdi. Hammasida g‘olib chiqdi. Bir kun tush ko‘rdi. Tushida oltin yoy va uchta kumush o‘q ko‘rdi. Keyinchalik yoyni va o‘qni farzandlariga berdi. Yurtini ularga meros qoldirdi.

Qisqacha mazmundan ma‘lum bo‘lyaptiki, “O‘g‘uznoma”da turkiy xalqlar mifik dunyoqarashidagi bo‘ri, ot, ayiq totemlari, kun, oy, yulduz, ko‘k, tog‘, dengiz, yoy, o‘q fetishlari muhim o‘rin olgan. Nomada Ko‘k bo‘ri O‘g‘uzxonga bir necha marta yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, uni xavfdan ogoh qiladi, unga g‘alaba xabarini beradi. Bu bilan animizm belgilarining “O‘g‘uznoma”da yetakchi ekanini dalillash mumkin.

Xullas, o‘zbek mifik olamini alohida bir sirli olamga qiyoslash mumkin. Unda xalqimiz, yurtimiz, tariximiz o‘zining mukammal ramziy qiyofasini namoyon etadi. Ayni chog‘da o‘zbek xalqining qadim zamonlardan boy og‘zaki ijodga va mifik asarlarga ega boy xalq ekanini isbotlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Mif va mifologiya haqida qanday ma‘lumotlarga egasiz?*
2. *Totemizm, fetishizm, animizm tushunchalari haqida gapiring, ularning farqini tushuntiring.*
3. *“Avesto” haqida nimalar bilasiz?*
4. *“Kitobi Dada Qo‘rqut” qanday asar?*

5. "O'g'uznoma"ning qisqacha mazmunini aytib bering.
6. Mahalladagi qariyalardan ot, bo'ri, ilon, burgut va boshqa totem hayvonlar haqidagi hikoyalarni eshiting, yozib oling.
7. Turli narsalar, ranglar va tush xosiyati haqida ma'lumotlar to'plang.

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 43-56.
2. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. - Т.: Ўқитувчи, 1971. – Б. 41-55.
3. Махмудов Т. "Авесто" ҳақида (сўнги сўз) / Авесто. - Т.: Шарқ НМАК, 2001. – Б. 358-383.
4. Саримсоков Б. Ўзбек фольклорининг тарихий тараққиёти (қадимги давр фольклори) / Ўзбек фольклори очерклари. 1-том. - Т.: Фан, 1988. – Б. 25-35.
5. "Авесто" тарихий-адабий ёдгорлик. - Т.: Шарқ НМАК, 2001.
6. Dede Korkut Kitabı (Metin - Sözlük). Prof. Dr. Muharram Ergin. – Istanbul: Ebri, 1986.
7. Дада Кўркут ҳикоялари (таржимон З. Очилова). - Т., 2010.
8. Ўғузнома (нашрга тайёрловчи Бахтиёр Исабек). - Т.: O'zbekiston, 2007.



XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARI

Har bir fan, sohaning muhim nazariy masalalari bo'ladi. Badiiy adabiyotni o'rganuvchi fan adabiyotshunoslik deb ataladi. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasini folklorshunoslik deymiz. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblansa-da, o'rganish ob'ekti badiiy adabiyot bo'lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlari bor. Xususan, janrlar masalasi adabiyotshunoslik uchun ham, folklorshunoslik uchun ham muhim hisoblanadi. Faqat adabiyotshunoslikda yozma adabiyot vakillari qalamiga mansub g'azal, ruboiy, doston, noma kabi (mumtoz adabiyot); she'r, hikoya, roman, drama kabilar (zamonaviy adabiyot)ning janr xususiyalari o'rganiladi. Folklorshunoslikda esa xalq og'zaki adabiyotidagi maqol, qo'shiq, ertak, doston kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi. Ammo qaysi shaklda yaratilgan adabiyot ekanidan qat'i nazar har bir yo'nalishdagi yutuqlar va kashfiyotlar adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo'shilgan hissa sifatida baholana-veradi. Avvalo, badiiy asarlar yaratilish jinsi yoki turiga ko'ra uch xil bo'lishini esga olaylik. Badiiy adabiyot - so'z san'ati ekani haqida ma'lumot berganimizda jins va turlarni aytib o'tgan edik. Endi ana shu tushunchalarni mustahkamlaymiz. Umuman olganda, jahon adabiyotida uchta jinsning mavjudligi (epos, lirika, drama) qayd etilgan, tan olingan. Janr deganda, ana shu uchta jinsdagi asarlar tarkibini tashkil qiluvchi kichik turlar tushuniladi. Masalan, yozma adabiyotda epik asarlar turini roman, qissa, hikoya janrlari, og'zaki adabiyotda ertak, doston, latifalar tashkil etadi. Ya'ni jins nomi saqlanishi, tarkibi esa asar yaratilish usuliga ko'ra (og'zaki yoki yozma) boshqa-boshqa janrlardan iborat bo'lishi mumkin.

Epos - yunoncha "epos" - rivoya, hikoya, qo'shiq so'zidan iborat bo'lib, badiiy adabiyotda voqea, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash ma'nosini anglatadi. Ta'rifdagi "qo'shiq" so'ziga ajablanish kerak emas, chunki qadimgi yunonlar nazarda tutgan qo'shiqlar so'zning hozirgi paytda tushunilishidan farqli ravishda voqea-hodisani

bayon qilish xususiyatiga ega edi. Badiiy adabiyotdagi epik jinsda biron voqea badiiy soʻz vositasida hikoya-qilinadi. Xalq ogʻzaki ijodida bunday jinsga mansub janrlar afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, ayrim termalar, latifa, loflardan iboratdir. Mazkur nazariy masalani ilmiy asosda oʻrganagan olim Bahodir Sarimsoqov avval qayd etilgan uch jins qatoriga toʻrtinchisini ham qoʻshgan va “maxsus tur” deb atagan. Bu tur tarkibini: “oddiy oʻtirish olqishlari, qargʻish, soʻkish, maqol, matal, topishmoq va boshqa xildagi yumuq iboralar”¹⁵, – deb belgilagan. Haqiqatan ham, qayd etilgan janrlarda bir tomondan muayyan vaziyat, voqea-hodisa haqida tasavvur hosil qilish uchun aniq maʼlumot, axborot mavjud boʻlishiga qaramay, aytilgan matnning hajm jihatdan oʻta ixchamligi alohida koʻzga tashlanadi.

Taniqli folklorshunos olimlardan V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi dostonlarni “qahramonlik eposi” deb ataganlar. 1947 yilda Moskvada eʼlon qilingan katta hajmdagi kitobni “Oʻzbek xalq qahramonlik eposi” deb ataganlar va unda “Alpomish”, Goʻroʻgʻli turkumiga oid dostonlar, “Kuntugʻmish” kabi ishqiy-romanik dostonlar tahlil etilgan.

Lirika – lira deb atalgan qadimgi yunon musiqa asbobining nomidan olingan boʻlib, badiiy adabiyotda inson his-tuygʻusini, ichki kechinmalarini ifodalovchi asarlar nazarda tutiladi. Maʼlumki, hayotda turli voqea-hodisalar roʻy beradi. Lirik asarlarda ana shu turmush lahzalari taʼsirida shaxs qalbida paydo boʻlgan kechinmalar ifodalanadi. Ana shu xususiyati bilan lirika eposdan farqlanadi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir boʻlgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan ichki munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarning namoyon boʻlishini izohlaydi. Shuning uchun lirik asarlarda aks etgan voqea bayonini aynan emas, nisbiy tushunish lozim. Masalan, “Alpomish” dostoni “Burungi oʻtgan zamonda, oʻn olti urugʻ Qoʻngʻirot elida Dobonbiy degan oʻtdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan oʻgʻil farzand paydo boʻldi. Alpinbiydan ikki oʻgʻil paydo boʻldi: kattakonining otini Boyboʻri qoʻydi. Kichkinasining otini Boysari qoʻydi”, – deb boshlanadi. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, Fozil Yoʻldosh oʻgʻli tinglovchiga aytilajak asardagi voqealar qanday boshlangani yuzasidan maʼlumot bermoqchi. Matnda baxshi Qoʻngʻirot, Dobonbiy, Alpinbiylar bilan tinglovchini tanishtirmoqda. Aslini olganda, dostonning toʻliq mazmuni ana shunday xabarlar tizimidan iborat. Endi lirik qoʻshiqdan bir namuna keltiraylik:

¹⁵ Саримсоков Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави / Ўзбек фольклори очерклари китобида. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 66.

“Tolga chiqib tol bo‘ldim,
Tusholmay behol bo‘ldim.
O‘z tengimning ichida
Muncha betole bo‘ldim”¹⁶.

Qo‘shiq aytayotgan qizmi, yigitmi tolga chiqqani, tushgani haqida xabar berayotgandek tuyiladi. Vaholanki, uning maqsadi bizga qilgan harakatini aytish emas, balki o‘z tengini topa olmay qalban iztirob chekayotganini izhor qilishdir. Tol esa shunchaki bir vosita, xolos. Odatda, qo‘shiqlarning dastlabki misralari, ko‘pincha, tinglovchini chalg‘itish yoki nimanidir ifodalash maqsadida to‘qiladi. Asosiy maqsad oxirgi misrada, ba‘zan 3-4-misralarda ifodalanadi.

Yana bir qo‘shiq matniga murojaat qilaylik:

Dayrani ul yuzidan sel keladi,
Sel bilan ikki o‘rdak teng keladi.
O‘rdakka o‘rdak munosib, g‘ozga g‘oz,
Yigitga qayliq munosib, qizga noz.

Bu qo‘shiqda daryodan toshib kelayotgan sel, sel bilan teng ucha-yotgan o‘rdak, o‘rdakning o‘rdakka, g‘ozning g‘ozga munosibliigi, yigitning orzu qilgan qizda noz, istig‘noni ko‘rish havasi borligini ifodalovchi vosita - bir bahona, xolos. Yigitning asosiy niyati o‘ziga munosib deb bilgan yor tavsifi, uning o‘ta andishali qiz ekanini ta‘riflashdir. Shunday qilib, inson qaysi vosita bilan bo‘lmasin, o‘zining his-tug‘usini, ichki kechinmalarini, ruhiy holatini izhor qilar ekan, lirik asar namunasi vujudga keladi. Shuning uchun ham ayrim iqtidorsiz shaxslarning ma‘nosiz qofiyalar yig‘indisidan iborat she‘riy asarlarini lirika namunasi deb bo‘lmaydi. Haqiqiy ma‘nodagi lirik asar insonni loqayd qoldirmaydi, unga ma‘naviy huzur bag‘ishlaydi, estetik rohat beradi.

Xalq og‘zaki ijodidagi har bir lirik qo‘shiq qachonlardir dil so‘zlarini aytish bilan ruhiy olamidagi o‘zgarishlarni bildirmoqchi bo‘lgan yigit-qizlarning qalb daftaridagi muhrlangan misralardan iborat. Hatto bolalar folkloriga mansub allalarni olasizmi, “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga” qo‘shiqlarini olasizmi, lirik asarlar talabiga javob berishi shart deb hisoblash kerak.

¹⁶ Оқ олма, қизил олма. Қўшиқлар. – Т., 1972. – Б. 86.

Xullas, lirik qo‘shiqalar asrlar davomida xalq og‘zaki ijodidagi qalb izhorini ifodalovchi asosiy janr sifatida yashab kelgan so‘z durdonalaridir.

Drama. Yunoncha “drama” so‘zidan olingan bo‘lib, harakat, tanglik, mushkullik ma‘nolarini bildiradi. Badiiy adabiyotda “drama” so‘zidagi harakat ma‘nosi asos qilib olingan va muayyan voqea-hodisani sahnada harakat orqali ifodalash tushunchasi nazarda tutiladi. Shubhasiz, mazkur harakat orqali so‘z vositasining yetakchiligini inkor qilish mumkin emas. Dramatik asarlarda vaqt, makon cheklangan bo‘ladi. Voqeaning mohiyati drama ishtirokchilarining nutqlari bilan ochiladi.

Xalq og‘zaki ijodida dramatik janrlarni, Bahodir Sarimsoqov fikricha, og‘zaki drama, kulki - hikoya, qo‘g‘irchoqbozlik, askiya janrlari tashkil etadi. Bu asarlarni ijro qiluvchilar faqat og‘zaki nutqlari bilangina emas, tovush tovlanishi - intonatsiya, yuz, ko‘z, bosh, qo‘l harakatlarini ishga solib ham obraz yaratadilar. Oqibatda, tomoshabin tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladigan teatrlashgan tomosha ko‘rinishi vujudga keladi. Misol uchun Yo‘ldosh A‘zamov rejissyorlik qilgan “O‘tkan kunlar” badiiy filmidagi Xudoyorxon va Musulmonqul qiyofalari bilan o‘ynalgan qo‘g‘irchoqbozlikni eslashingiz mumkin. Xalq dramasi haqida yaxshiroq tushunchaga ega bo‘lishni istasangiz, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi “Xon ko‘ngil ochmoqchi” va “Qiziqalar”¹⁷ bobini o‘qib chiqishingizni maslahat beramiz.

Xalq dramasi qatnashchilari asar mazmunini o‘zlari o‘ylab topadilar. Tomoshaga yig‘ilgan odamlar o‘rtasida qallob qozi, jinoyatchi, jabrlanuvchi, sho‘rpehona ona yoki xotin, baxtsiz ota, landovur farzand kabi rollarni bajaradilar. Uzoq o‘tmishdan tortib o‘tgan asrning o‘rtalarigacha bozorlarda, guzarlarda qiziqchilarning sahna ko‘rinishlarini uyushtirishlari oddiy odat edi.

Askiya esa maxsus so‘z o‘yini musobaqasi tarzida to‘ylarda, sayilarda, yig‘inlarda o‘tkazilgan. Askiyabozlar ikki, ba‘zan uch-to‘rt guruhga bo‘linib tanlangan mavzu doirasida so‘z asos bo‘lgan bellashuvlarda kuch sinashganlar. Bunday anjumanlarda askiya ishtirokchilarining turgan joylari o‘z-o‘zidan sahnaga aylanib qolar edi. Tinglovchilar esa askiya jozibasiga mast bo‘lib, qayerda o‘tirganlarini ham bilmay qolar edilar. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan janrlar dramatik tur tarkibini tashkil etgan.

Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodidagi asarlarning jins va turlari, ulardagi janrlar tarkibi haqida umumiy fikrga ega bo‘ldik. Endi mazkur

¹⁷ Кодирий А. Уткая кунлар. Меҳробдан чаён. – Т., 1992. – Б. 418-426.

janrlarning o'zaro munosabati yuzasidan eng muhim tushunchalar haqida to'xtab o'tamiz. Avvalroq qayd etganimizdek, badiiy adabiyot yaratilish usuliga ko'ra og'zaki va yozma ijoddan iborat. Og'zaki ijod yozuv madaniyati shakllanishidan ancha oldin vujudga kelgan. Ammo og'zaki ijodning o'zi paydo bo'lishida qadimgi miflarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Filologiya fanlari doktori, professor B.Sarimsoqovning chuqur ilmiy tadqiqotida mif xalq og'zaki ijodi asosini tashkil etadi¹⁸. Mif badiiy ijod turiga kirmaydi. Chunki unda badiiylik darajasi nihoyatda past bosqichda namoyon bo'ladi. Binobarin, mif xalq og'zaki ijodi tarkibidan o'rin olmaydi. Lekin og'zaki ijod asarlarining shakllanishida diffuzion jarayon amalga oshgan. Diffuziya - lotincha "diffusion" - so'zidan olingan bo'lib, singish, tarqalish ma'nolarini beradi. Molekulalar, atomlar, ionlar va kolloid zarralarining tartibsiz issiqlik harakati natijasida bir moddaning ikkinchi moddaga o'z-o'zidan o'tishi, birining ikkinchisiga "singib ketishi". Qarangki, aniq fanlardagi diffuzion jarayon mifdan xalq og'zaki ijodi janrlarining paydo bo'lishida bosh omil bo'lgan ekan. Xususan, B.Sarimsoqov shunday yozadi: "Folkloristikada diffuziya termini biror janr, motiv yoki obrazning ikkinchi bir janr, motiv yoki obrazga kirib borishi, singishi natijasida ularning tabiatida sodir bo'ladigan struktural, semantik hamda funksional o'zgarishlarga nisbatan qo'llaniladi"¹⁹. Sodaroq qilib aytganda, mifdan voqea tasviri, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi murosasiz kurash, obrazning dastlabki elementlari tarkibida asta-sekin afsona; afsona tarkibida ertak; ertak rivoji natijasida doston janrlarining shakllanishi va alohida janr sifatida mustaqil taraqqiy etishini og'zaki ijoddagi diffuziya jarayoni bilan izohlash mumkin bo'ladi. Tanqli folklorshunos olimlar V.YA.Propp, E.M.Meletinskiy, Z.P.Sokolova xalq ertaklari bevosita mifdan vujudga kelganligini to'liq tasdiqlaganlar.

Taxmin qilish mumkinki, diffuziya tizimi asosida xalq og'zaki ijodidagi yirik hajmdagi epik asarlar shakllangan. Lirik janr qo'shiq, maqol, matal, topishmoq va boshqa kichik janrlar og'zaki ijodning badiiy ijod sifatida shakllanishi jarayonida asta-sekinlik bilan paydo bo'lgan. Maqol va topishmoqlar janri yuzasidan ma'lumot berganimizda, ertak va dostonlardan parcha keltirish bejiz emas. Bugungi kunda har bir asar mustaqil janr namunasi sifatiga ega bo'lsa ham, umuman, og'zaki ijodimiz asarlari matni bilan tanishganimiz sari janrlar o'rtasidagi aloqalar qanchalar uzviy ekaniga ishonch hosil qilib boramiz.

¹⁸ Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т.: Фан, 1981. – Б. 97-148.

¹⁹ Ўша жойда. – Б. 99.

Z.Husainova maqol va topishmoq o'rtasidagi yaqinlik haqida to'xtab shunday deydi: "Topishmoq ma'no va aytilishi jihatdan maqol bo'lib kelishi mumkin. Bunday maqollar dastlab topishmoq tarzida vujudga kelib, keyinchalik maqolga aylangan. Til haqidagi

Birovni suydirar,
Birovni kuydirar.

Asaldan shirin,
Zahardan achchiq

topishmoqlari

Suydirgan ham til,
Kuydirgan ham til.

Shirin so'z - shakar,
Achchiq so'z - zahar

shaklida maqol sifatida qo'laniladi"²⁰. Olima bolalar qo'shig'i topishmoq bo'lib kelishi mumkinligini aytib misol keltiradi:

Yomg'ir yog'aloq,
Tarvuz yumaloq,
Jaladan qo'rqmas,
Laqqa baqaloq²¹.

Janrlar o'rtasidagi yaqin aloqani bir asarning doston va ertak varianti borligidan bilsa ham bo'ladi. Jumladan, "Tohir va Zuhra"ning doston va ertak variantlari mashhur. Qizig'i shundaki, ertakdan Tohir va Zuhraning qo'shiq tarzidagi aytishuvi ham o'rin olgan:

Tohir:
Suv kelar axta-axta,
Sandig'im temir taxta,
Sendan boshqa yor qilsam,
Qon yutay laxta-laxta.

²⁰ Husainova Z. Topishmoqlar. Ўзбек фольклори очерклари. – Т., Фан, 1988. – Б. 110-111.

²¹ Ўша жойда. – Б. 113.

Zuhra:

Suv kelar tosh ustida,
Ro‘molim qosh ustida.
Tohir esimga tushsa,
Yig‘layman osh ustida²².

Dostonlarning xalq qo‘shiq-lari bilan uzviy aloqasini “Alpomish” dostonida aniq ko‘rish mumkin. Hakimbek Barchin bilan Ultontoz to‘yi kuni yurtiga qaytib keladi va to‘yda Qultoy qiyofasida qatnashadi. Shunda u avval Bodombekach bilan, keyin Barchin bilan yor-yor aytishadi:

“Qultoy”:

Oy Barchinim yor-yor,
Gul Barchinim yor-yor,
Aqling bo‘lsa, o‘yla-da,
Bil Barchinim yor-yor.
Ultontozga tekkancha,
O‘l, Barchinim yor-yor.

Barchin:

Uy demayin qaynag‘ a,
Buy deysana, yor-yor,
Bulbul qo‘nar to‘qayning
Jiydasina yor-yor.
Ultontozga tekkancha,
Qora yerga teg deysana yor-yor²³.

Doston va ertaklardagi tasviriy mushtaraklik ham alohida tadqiqot yuritishga arziydigan mavzudir. Qahramonlarning tashqi qiyofasi, qiz - malikalarning go‘zalligi tavsifi shu qadar o‘xshash tasvirlanadiki, ba‘zan matnni o‘qiyotganimizda asar doston yoki ertak ekanini unutib qo‘yamiz. Masalan, “Malika ayyor” dostonida Shozargar vaziyat taqozosi bilan sichqonga, uzukka, tishi olmos kalamushga, boshi olmos o‘q ilonga, va nihoyat, kal qiyofasidagi qimorbozga aylanadi. Dostonining bu sahifalari ko‘proq ertaklardagi transfiguratsiya (bir qiyofadan boshqa qiyofaga o‘tish) usulini eslatadi.

²² Ойжамол. Ҳаётний эртақлар. – Т., 1969. – Б. 63.

²³ Алпомиш. Достон. – Т.: Шарк НМАК, 1998. – Б. 381.

Bundan tashqari afsona, rivoyat, ertak, doston matnlarida oʻnlab maqollarning qoʻllanilishiga guvoh boʻlamiz. “Alpomish” dostonining oʻzida:

Sulton suyagini xoʻrlamas.

Gʻamli qulning oʻylaydigan oʻyi bor.

Kuchuk bosmas yoʻlbars, sherning izini,
Esi bor biladi gapning tuzini.

Oʻzingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga.

Doʻstga zor aylama, dushmanlarga xor.

Elakka borgan xotinning ellik ogʻiz gapi bor.

kabi bir qator maqol, matal, hikmatli soʻzlar asar matnini bezab turibdi.

Xalq ogʻzaki ijodi janrlari, ularning tarkibi, avvalo, ularning jins, tur, janrlarga boʻlinishidan tashqari bir butun meros ekanini tasdiqlaydi. Janrlararo yaqinlik ogʻzaki ijodning asrlar davomida dunyoqarashi jihatidan yaqin ijodkorlarning iqtidori mahsuli natijasi sifatida baholanishi mumkin. Ogʻzaki asar qaysi janrga taalluqli ekanidan qatʼi nazar yosh avlodning barkamol farzand boʻlib yetishishini taʼminlash maqsadini amalga oshirishda xalq xizmatida boʻlgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy adabiyotning, xususan, xalq ogʻzaki ijodining jins (tur), janrlarga boʻlinishini izohlang.

2. Epos, lirika, dramaning oʻxshash va farqli tomonlari haqida soʻzlang. Har bir jinsning xos xususiyatlarini taʼriflang.

3. Diffuziya jarayonini Siz qanday tushundingiz?

4. Xalq dostonlari, ertaklaridan namunalar oʻqing, ulardagi boshqa janrlar bilan aloqali oʻrinlarni aniqlang.

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзасв Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 84-99.
2. Саримсоқов Б., Ўзбек фольклорининг жанрлар состави / Ўзбек фольклори очерклари. 1-том. - Т.: Фан, 1988. – Б. 63-85.
3. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981. – Б. 97-148.
4. Хусайнова З. Топишмоқлар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-том. - Т.: Фан, 1988. – Б. 98-128.
5. Жўраев М., Нарзикулова М.. Миф, фольклор ва адабиёт. - Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2006.
6. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. - Т.: Фан, 2001.
7. Ойжамол. Ҳаётий эртақлар. - Т., 1969. – Б. 60-72.
8. Алпомиш. Достон. - Т.: Шарқ НМАК, 1998. – Б. 381.
9. Кодирий А. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. - Т., 1992. – Б. 418-426.

AFSONA VA RIVOYATLAR

Afsona fors tilidan olingan bo‘lib (افسانه) ma’no mohiyatida ikki tushuncha yetakchilik qiladi: 1 - biror voqeani, lavhani hikoya qilish; 2 - bu hikoya uydirma, to‘qimalardan iborat bo‘lishi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida so‘zning bir necha ma’nolari ko‘rsatilgan: “afsona bo‘lmoq”, “afsona to‘qimoq”, “afsonaviy” va boshqalar. Lekin asosiy ma’no tafakkur fantaziyasi bilan bog‘liq bo‘lib, aql bovar qilmaydigan uydirma voqealarni hikoya qilish va shu bilan shuhratga ega bo‘lish tushunchasi yetakchilik qiladi.

Afsona diffuzion jarayonda mif tarkibida paydo bo‘lgan, keyinchalik alohida janr sifatida ajralib chiqqan xalq og‘zaki ijodidagi birinchi mustaqil epik tur namunasi hisoblanadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida avvalgi sahifalarimizda esga olingan “caw” so‘ziga murojaat qilamiz:

ساقف caw - otalar so‘zi. Chunonchi, ساقفا مئذغ كتر cawda mundag‘ kelir - otalar so‘zida shungdog‘ keladi.

ساقف caw - qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish.

ساقف caw - hikoya. Biror voqeani aytib berish.

ساقف caw - risola, xat, kichik kitobcha.

ساقف caw - so‘z, nutq.

ساقا caw - ilgari xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi.

Bu janrga mansub asarlar fikriy, g'oyaviy ozuqani miflardan olgani uchun hayotning, insonning, osmon jismlarining paydo bo'lishi haqida ham hikoya qilish an'anasini saqlab qolgan. Ehtimol, shuning uchun ham afsonalarda diniy voqea-hodisalar tavsifi ko'proq uchraydi. Xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlarida qayd etilgan shartlilik belgisi afsonalarga ham xosdir. Afsona aytuvchi shaxs o'z hikoyasi qaysi mavzu va qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar aks ettirilayotgan lavhaga tinglovchining to'liq ishonishini xohlagan. Aytilayotgan xabardagi ayrim aniq ma'lumotlar esa muhokama qilish ortiqcha ekanini tasdiqlagan.

Afsonalar og'zaki ijodimizdagi eng ommaviy janrlardan biridir. Ifodadagi soddalik, voqealar sonining cheklanganligi, an'anaviy qism (boshlama)ning, yakuniy qismning mavjud emasligi, aytuvchidan maxsus tayyorgarlik va mahoratning talab etilmasligi bu janrdagi asarlar ijrosini osonlashtiradi. Hikoya qilish jarayonida alohida estetik ehtirosni inkor etadi. Shuning uchun afsonalarni istagan har bir millat vakili aytishi mumkin.

Afsonalar mazmunidagi eng qadimgi uydirma hodisalar, muayyan hudud nomini izohlovchi toponimik ma'lumotlar beriladi. "Kuygan yor", "Ellik paysa", "Tuya cho'kdi", "Oshoba", "Qonqus" kabi namunalar ana shunday mavzularni o'zida aks ettiradi. Folklor ekspeditsiyasi davomida deyarli har bir qishloq, buloq, tepalik, suv manbalari haqida hayratomuz afsonalarni yozib olish imkoniyatiga ega bo'lganmiz. Ertaklardan farqli o'laroq ularda syujet tizimining barqarorligi kuzatilmaydi. Ularning mavzu yo'nalishini uchga bo'lib tahlil qilish mumkin:

1. Sof mifologik afsonalar.
2. Tarixiy voqea-hodisalarni izohlovchi afsonalar.
3. Mahalliy hududlardagi geografik nomlar bilan bog'liq afsonalar.

Hazrat Xizr, Er Xubbi, Odami Od, Ilyos nomlari bilan bog'liq afsonalarda insonlarning hayotiga homiylik qilish, o'rni kelganda, yo'l ko'rsatish, mushkulni oson qilish g'oyasi ilgari suriladi. Xizr har bir odamning hayoti davomida bir necha marta uchraydi, degan aqida xalqimizda saqlangan. Folklorshunos olimlar M.Jo'raev va Sh.Shomusarov "O'zbek mifologiyasi va arab folklori" kitobida shunday afsonani misol keltirishadi:

"Xo'jai Xizr har kuni peshin namozini Buxorodagi Mag'oki Attori masjidida o'qir ekan. Bir kuni namoz o'qiydiganlar orasida Xo'jai Xizr haqida gap bo'lib qolibdi. Bir ulug' shayxning muridi shunday debdi:

- Men har kuni namozni shu yerda o'qiyman, lekin biror marta ham Xizrni uchratganim yo'q.

Shunda shayx o'z muridiga:

- Sen qirq kun toat-ibodat bilan namozingni o'qisang, albatta, Xizrni ko'rasan, - debdi.

Murid qirq kun namozni kanda qilmay o'qiydi. Qirqinchi kun juldur kiyingan bir chol uning yoniga namoz o'qish uchun o'tiribdi.

Murid:

- Men qirq kun namozni kanda qilmasdan o'qidim. Lekin baribir Xizrni ko'rmadim, - deb tashqariga chiqib ketibdi. Haligi juldur kiyingan chol ham muridning orqasidan chiqibdi. Murid bu choldan necha yoshga kirganligini so'rabdi. Chol bo'lsa:

- Necha yoshga kirganligimni bilmayman, lekin Buxoro yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganligini ko'rdim. Bu masjid daryoning eng chuqur joyida qurilganligini ham bilaman, - debdi.

Murid "bu chol juldur kiyimli desam, es-hushi ham joyida emas ekan", - deb shayxining huzuriga boribdi-da:

- Men qirq kun namozni kanda qilmasdan o'qidim, lekin Xizrni ko'rmadim, - debdi.

- Unda kimni ko'rding, - deb so'rabdi shayx.

- Bir juldur kiyimli cholni ko'rdim. U Buxoroning yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganini ko'rdim, deb aytdi, - debdi murid.

- Sen ko'rgan kishi Xizr bo'ladi. Buxoroning yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganligini Xizrdan boshqa kishi ko'rmagan. Sen gumroh esa buni bilmagansan, - debdi shayx".

Bunday mavzudagi afsonalarda xalqning har bir ishni, yaxshilik va ezgulikni sidqidildan, tamasiz qilish kerak, degan o'ta muhim g'oya singdirilgan bo'ladi. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, murid birinchi navbatda namoz o'qishini bir necha marta pisanda qildi. Ikkinchidan, u atayin Buxorodagi Mag'oki Attori masjidida namoz o'qiydi. Chunki u Hazrat Xizrning aynan shu yerda namoz o'qishini eshitgan. O'z-o'zidan muridning namozni ham bejiz o'qimasligi, masjidni ham sababsiz tanlamagani ma'lum bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham taqdir uni g'aflatda qoldirdi. Qirq kun Mag'oki Attori masjidida kanda qilmay namoz o'qigan odamga Xizr uchraydi, degan aqida haq bo'lib chiqdi. Lekin muridning toatida tama yashiringani bois u Xizrni uchratganini o'zi bilmay g'aflatda qoldi. Aslini olganda, afsonaning bosh g'oyasi - murid o'qigan hamma namozlar ham bekor bo'lib chiqqani ayonlashadi. Ya'ni toatni, xususan, birovga qilinadigan yaxshilikni beg'araz amalga oshirgandagina odam savobga ega bo'ladi, deb ta'kidlanmoqda.

Mavzu jihatdan ikkinchi turga mansub asarlarda tarixiy voqeahodisalar, turli udumlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holatlar hikoya qilinadi. Masalan, bahor faslida ekin-tikin ishlari boshlanib, dastlabki urug'lar yerga sepilgan bir vaqtda to'satdan havoning avzoyi buzilsa, Muso payg'ambar bilan bir dehqon o'rtasida ro'y bergan voqea esga olinadi:

“Kunlardan bir kun Muso payg'ambar Xudo oldiga ketayotgan ekan, erta bahor bo'lishiga qaramay, don ekayotgan dehqonni ko'rib qolibdi. Muso unga hali don ekishga erta ekanini aytibdi. Dehqon tajribasiga ishonib, uning gapini rad qilibdi. Xudo bilan suhbatda Muso bu munozara yechimini so'raganida, Xudo dehqonning haq ekanini, ammo Muso gapini endi inobatga olishi kerakligini bildiribdi. Shunday qilib, Muso Xudo oldidan qaytayotganida, havo sovugan, qor shamoli esayotganmish. Dehqon esa hayron bo'lib, osmonga qararmish. Shunda Muso o'zining haq ekanini dehqonga eslatibdi. Dehqon istehzo bilan kulib: “Don ekish vaqti kelishga-ku kelgan, havoning buzilishi mening sen bilan tortishganim oqibatidir”, - degan ekan. Shu-shu ekish vaqtida havo buzilsa, dehqonning payg'ambar gapiga ko'nmaganini eslasharkan”.

Afsonalar badiiy ijodning dastlabki namunasi sifatida odam qalbida ishonch tuyg'usini hosil qilishga, har bir insonning o'z qobiliyati, harakati natijasida baxtini topishi mumkinligiga umid paydo bo'lishiga xizmat qilgan. Masalan, qadimdan taqdir tushunchasi odamlarning ongida mavjud bo'lgan. Har bir ko'ngilsiz mushkulotni odam taqdir, deb qabul qilgan. Ammo shunday afsonalar borki, ularda inson taqdiri uning o'z qo'lida ekani ta'kidlanadi. Ya'ni inson xatti-harakati, niyati, ayniqsa, keskin qarori bilan qismatida o'zgarish yasashi mumkinligi uqtiriladi.

“Musu kunlardan bir kun Tangri oldiga ketayotganida, yo'lda oyoq-qo'li yo'q majruh bir odamni ko'ribdi. Odam undan o'zining taqdiriga jannat yoki do'zax yozilganini bilib berishni so'rabdi. Tangri payg'ambarga: “U odamning oxirgi joyi do'zax bo'ladi. Chunki umr bo'yi uni yemak-ichmakka muhtoj qilmadim, ammo biron marta “Xudoga shukr” demadi”, - debdi. Muso payg'ambar qaytishida haligi odam undan javob kutibdi. Payg'ambar bor gapni aytibdi. Shunda odam: “Bo'lmasa Xudoga ayt, men o'lganimda, tanamni shunaqa katta qilib yuborsinki, boshqa hech kimga do'zaxdan joy qolmasin”, - debdi. Ana shu gapdan keyin bechora banda jannati bo'lgan ekan”.

Ma'lum bo'ladiki, taqdir taqdir bilan, ammo inson muayyan vaziyatdagi o'zining noan'anaviy qarori yoki harakati bilan katta baxtga erishishi ham mumkin bo'ladi.

Yana bir tur afsonalar toponimik mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. "Nurota", "Hazorasp", "O'sh", "Baliqchi qishlog'i", "Obshir ota" kabi o'nlab afsonalarda shahar, qishloq yoki yana boshqa geografik joylarning nomlari izohi beriladi. Toponimik afsonalarning o'zi ham mavzuga ko'ra turlarga ajraladi. Hatto faqat suvli joylarga bag'ishlangan namunalarni oqar suvlar, buloqlar tizimi bilan tasnif qilish mumkin. Chunki o'zbek xalq og'zaki ijodidagi afsonalar mavzu va ifodalangan g'oya jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Masalan, Hazorasp haqida juda qadimdan shunday bir afsona yetib kelgan:

"Qadimda bu shahar o'rmini qalin saksovluzor egallagan bo'lib, bu yerda beshta buloq bor ekan. Sehrli qanotli otlar galasi uchib kelib, shu buloqdan suv icharkan. Sulaymon ismli bir kishi ularni qo'lga o'rgatmoqchi bo'libdi. Buning uchun u bir sehrgarning maslahati bilan buloq suviga may aralastiribdi. Shundan keyin mingga yaqin afsonaviy ot uchib kelib, buloq suvidan ichib, mast bo'lib qolishibdi. Parvoz qila olmay qolgan otlarni Sulaymon qo'lga tushirib, qanotlarini qirqib tashlabdi. Natijada, bu otlar qanotidan ayrilib, yerda yuradigan hayvon bo'lib qolishibdi. Shundan so'ng ot nasli odamning yaqin do'sti va xizmatkoriga aylanib qolgan ekan.

Otlar qo'lga tushirilgan buloqlar o'rnida paydo bo'lgan shaharga Hazorasp deb nom qo'yibdilar" (Hazorasp – mingga ot ma'nosini anglatadi).

Xullas, afsonalarni tasnif qilishda ularning mazmuni asos bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan birga bunday asarlarni yozib olish davomida kishining xayoliga kelmagan qiziq-qiziq mazmundagi afsonalarga duch kelishimiz mumkin:

"Xudo dunyodagi hamma xalqlarga yer yuzidagi yerlarni bo'lib beribdi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lgan o'zbek o'sha taqsimotga ham kechikib boribdi. Bu paytda o'zbek olishi mumkin bo'lgan yerning o'zi qolmagan ekan. Xudo rahmdil emasmi?! Shuning uchun o'zbekka:

- Mayli, men o'zimga ikki daryo oralig'idan bir parcha er olib qo'ygan edim, shu joyga sen egalik qila qol, - degan ekan. Shu-shu o'zbek hozir O'zbekiston deb ataluvchi yurtida istiqomat qilarmish. Bu o'lkaga Xudoning nazari tushgani uchun kuzda dalada qolib ketgan ketmon bahorda novda chiqarib gullarmish".

Albatta, bunday afsonalar "Shirin qiz" (Shirin ismli qiz bilan husnda musobaqalashmoqchi bo'lgan Oyning go'zallik tarozisi pallasida osmonga uchib ketgani haqidagi kosmogonik afsona) kabi keng ommalashma-

gandir, ammo o'ta topqir mahorat sohibi tomonidan o'ylab topilgan go'zal ijod namunasi darajasida baholanishi mumkin.

Xullas, afsonalar mazmun jihatdan, asosan, axborot yetkazuvchi o'ta sodda syujetli uydirmalardan tashkil topadi. Ularda ijod qilgan millatning, koinotdagi quyosh, oy, yulduz, sayyoralarning paydo bo'lishi, geografik nomlarning izohi, turli-tuman tarixiy voqealar, rasm-rusumlar sharhi o'zining ifodasini topadi. Qadim zamonlardan ajdodlarimiz o'z hayotiga tegishli har bir savolga, har bir muammoga, an'ana - udumlarga, hatto o'zi yashayotgan vatanga ongli munosabatda bo'lgan va xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari qatori afsonalar vositasida yakuniy xulosasini, tajribasini bildirgan. Folklorshunoslikda afsonalarni tadqiq etish og'zaki ijod tarixining nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Rivoyatlar. Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib (روایت), hikoya, qissa ma'nolarini ifolaydi. Rivoyatlar afsonalardan hayotga yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalarda ro'y berishi mumkin bo'lmagan hodisalar hikoya qilinsa, rivoyatlardagi voqealar, ko'pincha, tarixiy shaxslar, taniqli alomalar, davlat arboblarning hayotlaridagi muayyan lavhalar yuzasidan xabar beradi. Ba'zan bir voqeani eshitganimizda, uning aynan ro'y berishiga to'liq ishonamiz, ba'zan alohida fantastik tasvirdan xoli bo'lsa ham hikoyaga ishonmasligimiz mumkin. Shuning uchun afsona va rivoyat o'rtasida keskin farqni belgilash qiyin kechadi. Har holda ko'p yillik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, ishonilgan voqeani rivoyat, ishonish mumkin bo'lmaganini afsona deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun, syujet tizimi jihatdan afsona va rivoyatlarning farqi bo'lmaydi. Faqat rivoyatlar tarixiy dalil, isbot ildiziga ega hisoblanadilar. Chunki rivoyatlardagi voqealar, ko'pincha, uning ishtirokchisi, guvohi tomonidan yozib qoldiriladi yoki og'izdan og'izga o'tmishda ro'y bergan hayratomuz lavha sifatida o'tib yashaydi, ajdoddan avlodga madaniy meros tarzida saqlanadi.

Rivoyatlar o'zida aks ettirgan voqea bayoniga ko'ra afsonalar kabi epik jinsga mansubdirlar. Ular hajm jihatdan qisqa bo'ladi. Matn hajmi qisqa, ifodalangan voqea lavhalari son jihatdan chegaralangan. Badiiy tasvirga ortiqcha urg'u berilmaydi, chunki ularda voqea bayoni ustuvor hisoblanadi. Mazmun yo'nalishiga ko'ra tarixiy voqealar, ularda ishtirok etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o'rin-joylarning nomlanishini izohlash maqsadida yaratilgan rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi,

Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlari mardligi, shu bilan birga o'zining o'tkinchi hirsiy nafs yo'lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin, Guldursunga o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari hikoya qilinadi. Mard, jasurlarning ishlari ham, xoinlarning xiyonati ham unutilmaydi.

O'zbekiston – dunyoda o'zining ilmiy kashfiyotlari, fan rivojiga qo'shgan hissalari, badiiy ijodda yaratgan asarlari bilan mashhur farzandlar yurti. Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Behzod, Boburdek ulug' insonlar nomini sharaflavchi o'nlab rivoyatlar xalq qalbida saqlanib kelmoqda.

Yurtimiz tarixida ro'y bergan eng qadimgi ibratli voqea haqidagi rivoyat eradan avval mustaqillik uchun jon fido qilgan To'maris va Shiroq nomi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda aytish joizki, bu ikki go'zal insonlarning mardligi aks etgan jasorat tarixini bir olimlar afsona, ikkinchilari rivoyat deb ataganlar. Filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarov o'zining "To'maris ko'zlarida chaqnagan umid" maqolasida bu ikkilanishga ilmiy asosda chek qo'ydi. Maqolada voqea bayonining rivoyat janriga mansub ekani isbotlab berildi. G'ururlansa arziydigan jihati shundaki, qadimgi O'zbek yurtidagi To'marisning Eron shohi Kirga, Shiroqning Doroga qarshi qahramonligi qadimgi yunon tarixchisi Herodot (eradan avvalgi 484-431/426 yillar orasida yashagan)ning "Tarix", yunon tarixchisi Polien (eradan avvalgi II asr)ning "Harbiy hiylalar" kitobida saqlanib, bizgacha etib kelgan. Agar bu ikki tarixchi olim asarlari butun dunyoga mashhur ekanligini, eron shohlariga qarshi chiqqan vatanparvar shaxslar bizning ajdodimiz ekanini nazarda tutsak, O'rta Osiyoda istiqomat qilgan elning dovrug'i eradan avval ham shuhrat qozongani ma'lum bo'ladi.

To'maris Kirni 529 (e.a) yilda mag'lub etadi va o'ldiradi. Shiroqning yakka o'zi 513 (e.a) yilda Doroga qarshi ustidan g'alaba qozonadi. Agar To'maris harbiy san'ati bilan yurtini asragan bo'lsa, Shiroq burun, quloqlarini kesib, go'yo Doroga qarshi bo'lgani uchun o'zini jazolangandek qilib ko'rsatadi, shoh ishonchini qozonadi va eron qo'shinlarini sahroda adashtirib maqsadiga yetadi: yurtini qonxo'r va razil dushmanidan xalos etadi. Herodot va Polien bergan ma'lumotlar tarixiy asosga ega bo'lgani uchun bugun ularni rivoyat tarzida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalq yodida qolgan va keyinchalik rivoyatlarga aylangan ibratli voqealar, ko'pincha, buyuk insonlar hayoti bilan bog'lanadi. Mana ulardan bir misol: "Ibn Sino har kuni betob, xasta odamlarni qabul qilar ekan.

Ammo navbat bir yigitga yetib kelganida, uni chetlab o'tar ekan. Kunlardan bir kun yigitning onasi u yotgan to'shak yoniga bir kosa qatiq qo'yib, o'z yumushlari bilan band bo'libdi. Yigit kosadagi qatiqqa tikilib yotsa, shipdan bir ilon tushib qatiqqa zaharini solibdi. Jonidan to'ygan yigit alam ustida kosadagi zaharlangan qatiqni jon-jahdi bilan ichib yuboribdi. Ammo bir oz o'tmay o'zini tuzuk seza boshlabdi. Soat o'tgani sayin u sog'ayibdi. Ertasiga ancha o'ziga kelib, yana Ibn Sino qabuliga boribdi. Bu safar ham tabib uni chetlab o'tibdi. Ajablangan yigit unga e'tiroz bildiribdi. Shunda alloma:

- Siz kecha va avvallari kelganingizda, dardingizga davo yo'q edi. Shuning uchun sizni ko'rmagandim. Chunki men sizga qatiqni to'shak yoniga qo'yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni siz ichishingiz kerakligini ayta olmas edim-da. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni yetkazdi. Endi sizga tabibning keragi yo'q. Siz mutlaqo sog'siz. Shuning uchun sizni chetlab o'tdim, - debdi".

Rivoyat dunyoga mashhur, alloma Ibn Sinoning o'z ilmini qanchalar mukammal egallaganini, ayni paytda, unda har bir mijozdagi o'zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatish qobiliyati ham rivojlanganini bizga, keyingi avlodlarga ma'lum qilish maqsadida yaratilgan. Shu yo'l bilan bizning ongimiz, dunyoqarashimiz, kasbimizga bo'lgan munosabatni ham shakllantirishga xizmat qilishini inkor etolmaymiz. Tarixiy shaxslar bosh qahramon bo'lgan rivoyatlarda ularning ilmi, zakiyligi, nozik tabiati, ulug'vorligi, kechirimliligi, har bir ishni sidqidildan bajarishi, eng muhimi, shaxsiy manfaatni ko'zlashdan uzoqligi va tamasizligi kabi fazilatlar ulug'lanadi. Agar e'tibor qilsak, ularning har biri bizga insonning go'zal siyмосi, namunasi sifatida targ'ib etiladi.

Rivoyatlarning yana bir turi mahalliy hududlardagi o'rin-joylarning nomiga oidligi bilan ajralib turadi. Muhimi shundaki, bunday rivoyatlarda asosiy e'tibor tasvirlanayotgan voqeadagi fantastik jihatlariga emas, balki hayotni kuzatish, to'g'ri xulosalarga kelish, aqlni ishga solish fazilatlariga qaratiladi. Masalan: "Buxoro va Navoiy oralig'ida katta Malik cho'li yastanib yotibdi. Uning bir qismini O'rta cho'l, tog' yon bag'rini esa Qarnob cho'li ham deb yuritadilar. Malikcho'l yelkasidan esa Zarafshon oqadi. Malikning qoq o'rtasi - avtomobil yo'li yoqasida Malik darvozasi va yopiq hovuz xarobalari saqlangan. "Malik" rivoyatini bizga Qizil tepaning Kenagas qishlog'ida yashovchi mashhur Saidmurod Panoh baxshining o'g'li sakson yoshli usta Berdi ota aytib bergan edi:

- Bir kuni Buxoro amiri faytunda Nurota, Karmana, Ziyodin, Sul-tonobodni aylanib kelib charchaydiyu cho'lda soyabon o'rnatirib, dam oladi. Amirning shotirlaridan biri Malik degich yigit ekan. Amir uxlab qoladi. Shu paytda Amirning burnidan bir chivin chiqib, so'ng suv to'la kosa ustida turgan pichoq ustidan yurib o'tib, sichqon iniga kirib ketadi. Bir ozdan so'ng chivin sichqon inidan chiqib keladi-da, yana o'sha suv to'la kosa ustidagi pichoqdan yurib o'tib, podshoning burniga kirib ketadi. Malik botir bu hangomani ko'rib hayratda qoladi-yu, nima qilarini bilmaydi. Amir bo'lsa qattiq uxlagan, boshqa amaldoru xizmatkorlar ham chekkada dam olayotgan ekan. Malik o'sha chivinni o'ldiraman desa, amir uyg'onib qolib unga qo'l ko'targanini ko'rsa, tayinki, boshi ketadi.

Nihoyat, amir uyg'onibdi. Malik uning qo'liga suv quyibdi, amaldorlar davra quribdilar. Amir g'aroyib tushini aytibdi:

- Tushimda bir uzoq cho'lga chiqib ketganmishman. Ancha yurib daryoga yetibman. Daryo ustida temir ko'prik bor ekan. Ko'prikdan narigi sohilga o'tib, bir g'orga kirib ketibman. G'or ichida ikki xum tilla yotganmish. G'ordan chiqib, ko'prikdan o'tib, cho'ldan kechib yana taxtimga kelib o'tiribman. Tushimning ta'birini aytinglar-chi, ne kori hol bo'lar ekan?

Amirning hamrohlari birisi u, birisi bu deyishibdi. Malik dono yigit ekan, u sirni bilibdi-yu, o'zini kasalga solib yotib olibdi. "O'zimga kelib olsam, sizlarga yetib olaman", - debdi. Amir kishilari bilan jo'nab ketibdi. Malik darrov ketmon olib, o'sha chivin kirib chiqqan sichqon inini kavlashga tushibdi.

Haqiqatan u yerda ikki xum tilla bor ekan. Malik tilladan bir xaltasini olib, ahli nomdor, dongdor ustalarni boshlab kelib, shu yerga qishloq qurdiribdi, hovuzlar bunyod etibdi. Ana o'shandan buyon cho'lni "Cho'li Malik" deb atashibdilar".

Rivoyatlar haqida aytilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Rivoyatlar afsonalardan farqli ravishda bevosita hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarga asoslanadi.

2. Ular mavzu jihatdan turlarga bo'lingan holda yo biron tarixiy shaxs hayotidagi ibratli voqeani bayon etadi, yo geografik o'rin-joyning nomini izohlaydi.

3. Rivoyatlarda badiiy tasvirdan ko'ra ro'y bergan voqeani qisqa va ixcham, sodda va ravon tarzda bayon qilishga ko'proq e'tibor beriladi. Aslini olganda, aynan shu fazilatlar rivoyatlarning badiiyligini belgilaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Afsonalar haqidagi ma'lumotlarni o'qing va mustaqil ravishda ularning janr xususiyatlarini aniqlang.

2. Afsonalarning mavzuga ko'ra turlarini ko'rsatib bering va o'z fikringizni isbotlang.

3. Rivoyatlar bilan afsonalarning farqli jihatlarini izohlang.

4. Mahalliy joylardagi aholidan afsona, rivoyatlarni yozib oling.

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 174-186.

2. Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки прозаси. - Т.: Фан, 1981.

3. Умаров С. Ривоят ва ҳаёт. - Т.: Фан, 1988.

4. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. - Т.: Фан, 2001. – Б. 48-133.

5. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. - Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.

6. Сафаров О. Фольклор – бебаҳо ҳазина. - Т.: Муҳаррир, 2010. – Б. 13-46.

7. Ипак йўли афсоналари. - Т.: Фан, 1993.

8. Асотирлар ва ривоятлар. I китоб. - Т.: 1990.

MAQOLLAR

Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlariga aytiladi. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha [قول] - qavlun - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan.

Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda "qavlun" - gap, so'z ma'nosini ifodalasa, tojiklarning "zarbulmasal" atamalarida misol keltirish, ruslar "poslovitsa" sida so'zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi

“ota so‘zi”da esa ajdodlar fikrini eslash ma‘nosi yetakchi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan.

Xullas, maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan “so‘z” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida maqollar-chalik shaklan va mazmunan o‘zaro yaqin janr deyarli yo‘q. Masalan, ruscha “Шило в мешке не утаишь” (bigizni qopda yashirib bo‘lmas) - o‘zbekcha “Oyni etak bilan yopib bo‘lmas”; inglizlarda “East and West, home is best” (Sharqmi, G‘arbmi, uying eng yaxshisi) - o‘zbekcha “O‘z uying, o‘lan to‘shaging”; V‘yetnamda “Рисовал дракона, получился червяк” (Ajdar suratini ishlagandim, chuvalchang chiqdi) - o‘zbekcha “Men dedim o‘ttiz - Alloh dedi to‘qqiz”, osetinlarda “Его и в сени не пускают, а он лезет в комнату” - o‘zbekcha “O‘ziga yeng bo‘lmagan, o‘zgaga en bo‘lmas”; tatarlarda “Товуq тухум qo‘ymasdan, egasi jo‘ja sotmoqchi” - o‘zbekcha “Jo‘jani kuzda sana”; ruslarda “На чужой стране и весна не красна” (o‘zga yurtda bahor go‘zal emas) - o‘zbekcha “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l” ma‘nolarini ifodalaydi.

Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya - yunoncha chuqur ma‘noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal ma‘nosini beradi.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan.
2. Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma‘noni ifodalaydi.
3. Xalq maqollari shaklan she‘riy va nasriy bo‘ladi. Ammo nasriy maqollar ham she‘riy misralarni eslatadi. Masalan: Ko‘za kunda emas, kunida sinadi.

4. Maqollarda hayotiy voqea-hodisa haqida qat‘iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.

5. Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi.

6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

Xalq maqollari tarixi o‘nlab asrlar bilan o‘lchanadi. O‘rxun-Enasoy bitiglarida “O‘riq va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi”, “Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish” kabi maqolni eslatuvchi parchalarni o‘qiyimiz.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida o‘nlab hikmatli so‘zlarni uchratamiz:

“Yesa, ichsa oxir bari och to‘yar,
Ko‘zi och ochligin o‘lganda qo‘yar”.
“Kishiga chiroydir uyat-andisha,
U asrar nojo‘ya ishdan hamisha”.

Aynan shunga o‘xshash fikr Ahmad Yassaviy she‘rida shunday keladi: “Al hayoyu minal iymon” – Rasul aytdi”, ya‘ni hadisdan olingan parcha: “Hayo iymondan nishonadur”, – deyiladi. Ahmad Yugnakiy “Hibatu-l-haqoyiq” dostonida “Vale kiysang atlas, unutma bo‘zing” misrasini yozadi. Bu misra “Boy bo‘lsang, chorig‘ingni unutma”, “Ayoz, ko‘rgan kuningni unutma, Xom chorig‘ingni quritma” hikmatli so‘zlariga mos keladi.

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘oti-t-turk” tadqiqotida dala safarlarida yozib olgan 268 maqol matnini keltirgan. Bu namunalar qatorida biroz o‘zgarish bilan yashayotgan quyidagilarni uchratamiz: “Otug‘ uzguch birla o‘churmas” – O‘t alanga bilan o‘chirilmas; “Tog‘ toqqa qavushmas, kishi kishiga qavushar” – “Tog‘ tog‘ bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar”. Ayni paytda “Ot tesa, ag‘iz kuymas” – o‘t degan bilan og‘iz kuymaydi; “Tulki o‘z iniga ursa, uzuz o‘lur” – tulki o‘z iniga qarab hursa, qo‘tir bo‘ladi kabilar bugungi kunda unutilgan. Ular o‘rniga “Holva degan bilan og‘iz chuchimas”, “Vataniga tosh otgan vatangado bo‘ladi” degan maqollar ham bor.

Xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalari qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo‘q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o‘lchab bo‘lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e‘tiborga arzimaydigandek ko‘rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o‘z aksini topgan. Agar “Uyga palos yarashur, xotinga libos” maqoli maishiy hayotga taalluqli bo‘lsa, “Yozda miyang qaynasa, qishda qozoning qaynar” maqolida vaqtni bekor o‘tkazmaslik, aql bilan ish ko‘rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etiladi, “Vaqting ketdi - naqding ketdi” maqolida esa falsafiy mazmun ifodalangan bo‘lib, inson taqdirida Vaqt tushunchasining qanchalar muhim ekanligi ta‘kidlangan.

Maqollarni tasnif qilishning bir turida mazmun etakchi hisoblanadi. Unga ko‘ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, muhabbat va vafo, yaxshi so‘z - jami 30 ga yaqin mavzular qayd etilgan. Ammo bu mavzularni yana ko‘paytirish ham, kamaytirish ham

mumkin. Muhimi, mazmun yetakchi bo'lgan tasnifda masalani har tomonlama ifodalashga urinish aniq seziladi.

“Bulbul chamanni sevar,
Odam - vatanni”.

Mazkur maqolda inson ruhiy olamida Vatan tushunchasining ahamiyati qayd etilgan. Maqoldagi Vatan so'zida faqat muayyan hudud, manzil, o'rin-joy, tabiat aks etgan, desak yanglish bo'ladi. Bu so'z ma'no jihatdan ajdodlar ruhi, ma'naviy meros obidalar, qadriyatlar, millat birligi, mentalitet xususiyatlari bilan uyg'unlashadi. Bulbul chamanda qanchalar yayrasa, inson o'z vatanida shunchalar erkin his qiladi. Bulbulni bog'larsiz, gulzorsiz, chamansiz tasavvur etib bo'lmaganidek, odamni o'z ona diyorisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu maqolni aytganimiz zahoti Zokirjon Furqatning chet ellardagi azobini ta'riflab o'z vatanini sog'ingani yodga tushadi:

“G'amingda kecha - tong otg'uncha yig'lar,
Tong otg'och, dag'i kun botquncha yig'lar”.

Vatan haqidagi maqollarda qiyoslash, taqqos yetakchidir:
Kishi yurtida shoh bo'lguncha,
O'z yurtida gado bo'l.

Ma'lum bo'ladiki, bu maqol avvalgi namunadagi mazmunni chuqurlashtiradi. Moddiy ta'minotdan ko'ra ma'naviy ehtiyoj muhimroq ekani ifodalanadi. Tajribasiz odam hayotdagi hamma muammoni iqtisod bilan o'lchaydi. Uning uchun turmush to'kinligi har qanday tushunchadan afzaldek tuyiladi. Lekin Boburdek shoh o'z diyorini eslab azoblanganidan xulosa chiqarsak, maqoldagi fikrning qanchalar aniq va ibratli tarzda berilgani ma'lum bo'ladi.

Endi boshqa bir maqolga murojaat qilaylik:

Ona yurtning omon bo'lsa,
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Bu maqolda shaxsning ona yurtida yashashi va istiqomat qilishi undan ma'lum burchni ham talab qilishi ifodalangan. Inson o'z yurtida bema'lol yashashi mumkin. Ammo bu yurt omon bo'lsa, ya'ni tinch bo'lsa, erkin-ozod bo'lsa. Yurt tinchligi, erkinligi, ozodligi esa xalqning o'z yurtiga bo'lgan iymonli munosabati oqibatida vujudga keladi. Agar xalq og'zaki ijodi asarlarini tahlil qilsak, Vatan mavzuiga alohida e'tibor berylganiga guvoh bo'lamiz. Tarixiy ma'lumot va hujjatlar bevosita xalq

farzandlarining ajdodlar vasiyatiga sodiq ekanliklarini tasdiqlamoqda. Qayta-qayta ko'p namunalarda vatan ozodligi, erkinligi haqidagi ta'kidning kuchayishi bejiz emas. Ko'pincha, bu maqollarda vatan va el tushunchasi uyg'unlashadi:

Eling omon bo'lsa - sen omon.

Eling yurtning bo'lmasa,
Oying, kuning bo'lmasin.

Xullas, xalq maqollarida qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritilmasin, tanlangan muammo har tomonlama, atroflicha yoritiladi. Bularning hammasi o'zbek xalqining asrlar davomida naqadar dono va aqlli ijodkor farzandlarga ega ekanini dalillaydi.

Xalq maqollarining uzoq o'tmish mahsuli ekanligi ayrim namunalarni bugungi kunda tushunish oson emasligini ham izohlaydi. Ba'zan maqollar qatorida shundaylari ham uchraydiki, hatto umumiy fikr nima bilan bog'liq ekanligini anglash qiyin bo'lib qoladi. Masalan: "Bir pul berib yig'latdim, ming pul berib yupatdim" maqolini olaylik. Bu maqolning mohiyatini maqoldagi fikr yo'nalishi va qarshilantirish usulidan taxmin qilish mumkin, xolos. Ya'ni umumiy mazmunda nojo'ya qilingan harakat yoki tadbir oxir oqibatda insonga qo'shimcha tashvish keltirishi mumkinligi haqida ogohlantirilmoqda. Sen shunday harakat qilginki, bu harakating yomon oqibatlarga olib kelmasin, deyilmoqda. Ammo nima uchun bir pul berib yig'latsa, ming pul berib ovutadi yoki yupatadi. Bu muammoni hal qilish uchun tarixga murojaat qilamiz. Qadim zamonlarda aza paytida yig'lab beradigan maxsus odamlar bo'lgan ekan. Ularni "giyrandi" deb atashgan. Aslida "giyrandi" "giryandi"dan olingan bo'lib, "yig'lamoq" fe'li bilan ma'nodoshdir. Uyida biror yaqin odami o'lsa, mayit egasi giyrandini chaqirgan. U aza davomida ma'lum haq evaziga yig'lab berishni bo'yniga olgan. Lekin giyrandi o'z san'atini shunday egallashi ham mumkin ediki, mayit egasi bu aytuvlarga, bu dod-fig'onga, bu nolalarga chidamasdi. Shunda u giyrandidan yig'lamaslikni iltimos qilgan. Giyrandi esa atayin avjga chiqqan. Natijada uni yig'idan to'xtatish uchun ko'proq haq berilgan. Maqolda arzimagan haq evaziga yig'lovchini chaqirish, ammo uning jim bo'lishi uchun katta pul berish voqeasi aks etgan. Shunday qilib, maqollar mazmuni ularning o'zi va tabiati kabi sirli olamga egadir.

Xalq og‘zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya‘ni maqollar zamon o‘tishi bilan iste‘moldan chiqishi va ayni paytda yangi-yangi namunalari vujudga kelishi mumkin.

Maqollarning iste‘moldan chiqishida quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

1. Tarixiy hayotning o‘zgarishi. Ijtimoiy hayotda maqolni qo‘llash ehtiyojining yo‘qolishi oqibatida maqol xalq esidan chiqadi.

Omocho seni to‘ydirgay,
Omboringni to‘ldirgay.

Omocho ishlatish asta-sekin yo‘qola borgan sari bu maqol ham iste‘moldan chiqqan.

2. Tarixiy so‘zlar ishtirokidagi maqollar vaqt o‘tishi bilan yo‘qoladi.

Qoziga bersang suyar,
Bermasang - so‘yar.

3. Ayrim maqollar og‘zaki ijodning og‘zakiligi belgisi ta‘sirida yo‘qolishi ham mumkin. Bir avlod qo‘llamagan maqol o‘limga mahkum.

Xitoy xonining gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay kesilmaydi.

Ba‘zan maqolning bir qismi yashaydi, ikkinchisi yo‘qoladi.

Ash tatig‘i tuz jug‘rin jemes.

(Osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg‘iz tuzning o‘zi yeyilmaydi).

Bu maqolning birinchi qismi hozir ham bor, ammo ikkinchi qismni biz tasavvur ham qilmaymiz.

Yuqoridagi sabablar maqolning yo‘qolishiga olib keladi. Ayni paytda maqollarimiz namunalarining boyish manbalari ham yo‘q emas. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida yangi maqollar vujudga keladi. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng “Vatanni sevmoq iymondandir” hikmatli so‘zini qo‘llash ommalashdi. Dastlab, bu maqolsifat jumla Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”

kitabida Muhammad Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadisi ekani aytilgan edi. Ammo bu hikmatli so‘z xalqimiz orasida ko‘p qo‘llanmagan. Mustaqillikdan so‘ng eng ommaviy maqolga aylanib ketdi.

2. Xalq maqollarining yangi-yangi namunalari xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarning rivojlanishi natijasida paydo bo‘ldi. “Olma og‘ochidan olisga tushmas” maqoli “Яблока от яблони далеко не падает”ning tarjimasidir. Bugungi kunda bu maqolning kelib chiqishi bizni deyarli qiziqtirmaydi.

3. Yangi maqollarning paydo bo‘lishi allomalar, dono adiblar aytgan hikmatli so‘zlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Tarixda biz Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy ijodi bilan tanishar ekanmiz, aforizm deb atalmish muallifi aniq dono va hikmatli so‘zlarga duch kelamiz. “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur” kabi misollar shular jumlasidandir.

Maqollar o‘z va ko‘chma ma‘nolarga ega bo‘lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. “Yomon xotin olguncha, bo‘ydoq yurgan yaxshiroq”, “Qizi borning nozi bor”, “Quda bo‘lguncha, ko‘p sinash, quda bo‘lgach, ko‘p siylash” kabi maqollar o‘z ma‘nosida qo‘llanadi. Ayrim maqollar faqat ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas”, “Egrining omochi yerga botmas”, “O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar” kabi maqollar bilan tanishganimizda, ko‘chma ma‘no yashiringanini his qilamiz. Bir qarashda “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas” maqoli o‘z ma‘nosida ham qo‘llanadigandek tuyiladi. Ammo bu hikmatli so‘zni hech kim o‘z ma‘nosida deyarli qo‘llamaydi. Aslida, hayotda uchrab turadigan turli mish-mishlarning rost ekanligini ta‘kidlash maqsadida bu maqolni esga olish odat tusiga kirgan. “Tuhmatchining omochi yerga botmas” maqolida bir oz g‘alati fikr ilgari surilgandek tuyiladi. Omochning yerga botmasligi bilan tuhmatchining qanday aloqasi bo‘lishi mumkin, degan mulohaza paydo bo‘ladi. Ammo aynan shu o‘rinda “omoch” deganda, bevosita yer haydashda foydalaniladigan asbob emas, balki tuhmatning natijasi nazarda tutiladi. “Yer” so‘zi iymonli, rostgo‘y odamga nisbatan qo‘llangan. Ya‘ni tuhmatchining tuhmati rostgo‘y va pokiza odamga hech qanday salbiy ta‘sir ko‘rsata olmasligi ta‘kidlanmoqda. Binobarin, maqol matni bilan tanishganda, yoki uni eshitganda, qanday maqsadni nazarda tutib qo‘llanganiga e‘tibor berishimiz lozim. Aks holda aytilgan maqolning asl ma‘nosini tushunmay qolishimiz mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish ularni yozib olishdan boshlanadi. Asarning yozib olinishi esa folklorshunoslik fanining shakllanishidan darak beradi. Bu jihatdan qaraganda, o‘zbek folkloreshunosligidagi dastlabki harakat XI asrga taalluqlidir. XI asrda Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘oti-t-turk” asariga (1074) maqollar, qo‘shiqlar, rivoyat, afsona va boshqa janrga mansub asarlarni kiritdi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, dala sharoitida olim yozib olgan ijod namunalarida bevosita bizning ajdodlarimiz ham ishtirok etgan. Mahmud Koshg‘ariy otalar so‘zini eslamog ma’nosida, avvalroq aytganimizdek, “sav” atamasini keltiradi. Keyinchalik Alisher Navoiy maqoldan misol keltiradi va “masal” atamasidan foydalanadi. Filologiya fanlari doktori, professor X.G.Ko‘r-o‘g‘li Safaviylar davri (XV-XVI asr)da turkiy maqollar to‘plangani, ammo bu majmuaning yo‘qolgani haqida ma’lumot bergan. O‘zbek tilidagi hikmatli so‘zlar to‘plamini 1923 yilda “O‘zbekcha otalar so‘zi” (to‘plovchi va tuzuvchi Mullo Bekjon Rahmon o‘g‘li) deb nomlashgan bo‘lsalar, 1926 yilda “O‘zbek maqollari” (to‘plovchi va tuzuvchi Sherali Ro‘zi) deb atashdi. Shu paytdan “maqol” atamasi janr sifatida keng o‘rin oldi, deyish mumkin. Shundan keyin B.Karimov, SH.Rizo, O‘.Azimov, Holmatov, H.Zarif, M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, R.Jumaniyozov, M.Ahmadboyeva, E.Siddiqov, T.Mirzayev, K.Imomov, G‘.Jahongirov, S.Qosimov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo‘rayev kabi o‘nlab olim va ziyolilar xalq maqollarini to‘plash va o‘rganishda faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, 1987, 1988 yillarda ikki jild-dan iborat “O‘zbek xalq maqollari” kitoblarining nashr ettirilishini bu sohadagi alohida voqea sifatida ta’kidlash mumkin.

Xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so‘z san’atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma’noligi, mavzu jihatdan hayotiyiligi maqollarining asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib yashashini ta’minlagan omillardir. San’at asari qimmatini belgilovchi eng talabchan sinov vaqt hisoblanadi. Ayniqsa, vaqt sinovi talabiga og‘zaki asarning javob berishi o‘ta muhimdir. Har qancha tashviqotlarga qaramay sho‘ro tuzumida kolxoz afzalligi maqtalgan maqollarning umri qisqa bo‘ldi. Sho‘ro tuzumi haqidagi maqtov dostonlar ham yaratilgani zahoti esdan chiqib ketdi. Haqiqiy maqollarning shakllanishi uzoq davrni qamraydi, ammo badiiy mukammal va hayot tajribasi aks etgan maqolning umri boqiy bo‘ladi. “Qonni qon bilan yuvib bo‘lmas” maqolini Mahmud Koshg‘ariy “Qanig‘

qan bilan jumas” tarzda keltirgan. Bu maqol olim qalamiga tushguniga qadar necha asrlar yashaganini faqat taxmin qilish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, maqollarning badiiy mukammalligi ularning hayotiyligini, umrboqiyiligini izohlar ekan. Ayni chog‘da badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor. Ularning ayrimlarini esga olib o‘tamiz:

1. Qarshilantirish (tazod).

“Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘”.

Bu maqolda “yaxshi”, “yomon”; “bog‘”, “dog‘” so‘zlari qarama-qarshi ma‘nolarni bildiradi va shu bilan birga “bog‘” - “dog‘” so‘zlari chiroyli qofiyani ta‘minlaydi.

2. Tovushdoshlik (alliteratsiya, assonans).

“Boy boyga boqar, suv soyga oqar”.

Maqolda “B”, “Y”, “R”, “S” kabi undosh tovushlar alliteratsiya - undosh tovushlar uyg‘unligini, “O”, “A”lar esa assonans - unli tovushlar o‘xshashligini ko‘rsatadi va maqol ta‘sirchanligini oshiradi.

3. Metafora - ko‘chim (istiora).

“Otning yag‘iri toyga qolar”.

Bu maqolda “ot” so‘zidan qarindosh-urug‘chilikdagi katta avlod vakilining ramzi sifatida foydalanilgan. Odatda mahallada biror odamga baho berish lozim bo‘lsa, birinchi navbatda, u shaxsning ota-onasi esga olinadi. Katta avlod tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchilik shu zahoti farzandga ko‘chiriladi. Natijada, inson hayoti davomidagi har bir xatti-harakat mahalladoshlar, qarindoshlar tomonidan nazoratda ekani anglashiladi. Maqol mazmunan har bir inson yoshidan qat‘i nazar kelajakda ota, ona bo‘lishni orzu qilsa, keyingi avlodiga “yag‘iri”ni qoldirmasligi kerak, degan ma‘no anglashiladi va katta, yosh avlod tarbiyasining muayyan to‘g‘ri tizimda bo‘lishi uchun asos tayyorlanadi. Maqolda istiora san‘ati etakchilik qiladi.

“Et bilan tirnoqni ajratib bo‘lmas” maqolidagi “et” va “tirnoq” so‘zlari qarindosh-urug‘; ota-bola; aka-uka ma‘nolarini bildiradi. Bu misolda sinekdoxa san‘ati ham bor. Ya‘ni butunning tarkibiy qismi orqali yaxlit narsa ifodalangan.

4. Sifatlash.

“Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”.

Maqolda insonlar o‘rtasidagi munosabat faqat moddiy narsa bilan emas, shirin muomala bilan qadrlanishi qayd qilinmoqda. “Bug‘doy non”, “bug‘doy so‘z” birikmasida sifatlash san‘ati qo‘llangan.

5. Jonlantirish (tashxis).

“O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar”.

Bu maqolda odamlarni toifalarga: pulli-pulsiz, amalli-amalsiz, foydali-foydasizga ajratib muomala qilish o‘sha shaxsning xalqdan ajralib qolishiga sabab bo‘lishi aks etgan. Ikkinchidan, biror muammoni hal qilishda faol ishtirok etgan odam, ko‘pincha, ish bitganidan so‘ng esdan chiqishi ifodalangan. Ya‘ni o‘tin yorgan bolta ish bitganidan so‘ng o‘sha joyda qolishiga qiyoslangan.

Xullas, maqollar badiiyati ularning yaratilishi ustida avlod-avlod millat vakillarimizning ijod qilish saviyasi qanchalar yuqori bo‘lganidan darak beradi.

Yozma adabiyot vakillari asarlarida xalq maqollari og‘zaki va yozma adabiyot ijodiy hamkorligining ko‘prigi darajasida muhimdir. Har bir ijodkor mumtoz adabiyot davrida bo‘ladimi, hozirgi zamonda bo‘ladimi, xalq vakili hisoblanadi. U iqtidorli shaxs, avvalo, o‘zbekning tarbiyasida voyaga etadi. Xalq bilan birga yashaydi, millat vakili mentalitetini o‘zlashtiradi. Shu bilan birga ijodida asarlarini o‘qiyotgan ommaga o‘zining xalq vakili ekanini uqtirmoqchi ham bo‘ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda maqol eng samarali omil sifatida xizmat qiladi.

Yozma adabiyotda maqollardan foydalanishning uch ko‘rinishi mavjud:

1. Xalq maqoli aynan keltiriladi.

Alisher Navoiydan Muqimiygacha, Cho‘lpondan O‘tkir Hoshimovgacha o‘z asarlarida fikrni ixcham va tushunarli ifodalash maqsadida maqol matnidan aynan foydalanganlar.

“Masaldurkim, uyqu o‘limdir” (Alisher Navoiy).

“Otning o‘limi, itning bayrami” (Abdulla Qahhor).

2. Maqoldagi ayrim so‘zlar o‘zgaradi, ma‘no saqlanadi.

“Otalarda bir so‘z bor, eshit og‘ajon,
Bosgan izidan qaytmas, o‘lsa ham arslon” (Hamza).

Bu misralarda shoir “Arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan” maqolidan ijodiy foydalangan.

3. Shoir biror fikrni maqoldagi ma'nodan foydalanib ifolaydi. Bir qarashda bu fikr mustaqildek ko'rinadi. Fikr yuritsak, adibning xalq maqollaridagi ma'noni o'ziga xos boshqa so'zlar bilan ifolaganini anglaymiz. Masalan, Alisher Navoiy g'azallaridan birida "O'lturur mahramni sulton ganji pinhon aylagach", - degan misra bor. Unda xo'jayin, sulton, hokim xazinasini yashirishni mahramiga, ya'ni eng yaqin xizmatlarini bajaruvchi xizmatkoriga buyurishi, xazina biror erga ko'milganidan so'ng ortiqcha guvohdan qutulish uchun uni o'ldirishi aytilgan.

Ehtimol, shoir zamonasida aynan shunday maqol bo'lgandir. Ammo biz bu maqolning borligidan bexabarmiz. Lekin undagi ma'no bugungi kunda mavjud va biz avvalroq esga olgan "O'tin ayirgan bolta maydonda qolar" yoki "Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi" kabi maqollar mazmunini ifodalaydi.

Ba'zan mumtoz shoirlar g'azaldagi baytlarning har birida biror maqolni misol qilib ham keltirgan hollar uchraydi. Xususan, XIV-XV asrlarda yashagan taniqli shoir Lutfiyning quyidagi g'azaliga e'tibor bering:

Ayoqingg'a tushar har lahza gesu,
Masaldurkim: "Chiroq tubi qorong'u".

Tutarmen ko'zki ko'rsam orazingni
Ki, derlar: "Oqqon oriqqa oqar suv".

Yuzingni tuttum ortuq oyu kundin,
"Kishining ko'zidur ore torozu".

Ko'zung qonimdin iymonmas, ajabdur
Ki, "Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu".

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat
Ki, ayturlar: "Tilaganni tilogu".

Bu g'azalda ajoyib so'z sohibi mavlono Lutfiy o'zining ma'shuqasiga bo'lgan ko'ngil izhorini so'z marvaridlaridan tizilgan marjondek ifodalay olgan. G'azalning mazmuni go'zal va mo'jaz doston ma'nosini beradi:

Ayoqingg'a tushar har lahza gesu,
Masaldurkim: "Chiroq tubi qorong'u".

Baytda yorning qaddi tik shamga o'xshatilmoqda. Shamning yonayotgan pilikdan pastki qismi qorong'i bo'ladi. Yorning yuzi yonayotgan shamga qiyoslanmoqda. Uning sochi shu qadar uzunki, yuzi yornq, pastki qismi qorong'i ko'rinadi.

Tutarmen ko'zki ko'rsam orazingni
Ki, derlar: "Oqqon oriqqa oqar suv".

Shoir o'zini bir paytlar suv oqqan ariqqa o'xshatadi. U oqqan ariqqa suv oqishini kutib umid qilmoqda: ko'z tutib yorning visoliga etmoqchi. Ma'shuqaning oshiq huzuriga kelishi oshiq uchun qaqrab yotgan ariqdan yana suv oqishiga tenglashtirilmoqda.

Yuzingni tuttum ortuq oyu kundin,
"Kishining ko'zidur ore torozu".

Xalqda odamning ko'zini toroziga o'xshatish haqida maqol bor. Mening ko'zim taroziga o'xshagani uchun bir pallasida oy va quyosh bo'lsa, ikkinchi pallada ma'shuqa. Ma'shuqamning yuzini ortiq ko'rganim uchun tarozi pallasining shu tomoni bosib turibdi. Oy va quyosh esa ikkinchi pallaga joylashgan va ma'shuqa go'zalligiga chidash bermay osmonga uchib ketgan.

Ko'zung qonimdin iymonmas, ajabdur,
Ki, "Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu".

Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning ko'zi va xolini qoraligi uchun hindga o'xshatish an'anasi bor. Bu o'rinda shoir yorning ko'zini hindga o'xshatmoqda. Hind qondan qo'rqadi, degan tushuncha bor. Ammo men ajablanamanki, sening ko'zing hind bo'lsa ham ko'z yoshlarimning qondek oqishidan qo'rqmayapti. Agar qo'rqanida edi, rahm qilardi, men vaslingga etar edim va ko'z yoshlarim to'xtar edi.

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat
Ki, ayturlar: "Tilaganni tilogu".

Mazkur bayt g'azalda ifodalangan hamma orzu-istaklarning xulosasi hisoblanadi. Unda shoir o'z ma'shuqasidan oxirgi marta muruvvat, lutf qilishni so'ramoqda. Men odamlar "Tilagan tilagiga etadi" deganlaridek, senga vaslingga etish uchun iltijo qilaman va agar odamlarning gapida haqiqat bo'lsa, maqsadimga etaman, deb umid bildiraman, demoqchi.

Ma'lum bo'ladiki, bir jihatdan, maqollar shoir mahoratining namoyon bo'lishi uchun ajoyib vositaga aylangan. Ikkinchi jihatdan, g'azal vositasida biz XIV-XV asrlarda xalq orasida mashhur bo'lgan maqollar matni bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqdamiz.

Ayrim iqtidorli yozuvchilar badiiy asarlarida qahramon nutqida qo'lgan maqol orqali ularning dunyoqarashi, fe'li haqida kitobxonda tasavvur hosil qilishga erishganlar. Misol uchun Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek hoji nutqida "Zo'ri behuda miyon meshikanad" (tojik maqoli: ortiqcha zo'riqsang, belingni sindirasan), xizmatkor ayol To'ybeka nutqida "Teng tengi bilan, tezak qopi bilan" maqolini keltiradi. Maqollarni qo'llashdanoq Yusufbek hojining ilmi, fors tilini biluvchi ziyoli ekani, Mirzakarim qutidor xizmatkorining esa sodda, ilm ko'rmagan, bor gapni lo'nda va aniq aytishga o'rgangan ayol ekani seziladi. Xullas, xalq maqollari yozma adabiyot vakillari tomondan ularning iqtidorini namoyon qilishga yordam bergan. Folklorshunoslikda bunday foydalanishlar folklorizm deb yuritiladi.

Xalq maqollari shakl va mazmun jihatdan matallarga yaqin janr hisoblanadi. Matallar ham ixcham matnga ega ekanligi bilan maqolga o'xshaydi. Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda "Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar" degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini "Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi" tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamiz va "Falonchi yaxshi gapirdi" ma'nosini bildiramiz. Chunki "ilon inidan chiqadigan" so'z birikmasi alohida aytilsa, mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki, matal shaxs nutqini go'zallashtirish uchun xizmat qilar ekan, xolos. Maqol esa mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq maqollarining janr xususiyatlarini sanang, ularning har birini izohlab, misollar bilan dalillang.

2. *Maqollarning yo'qolib ketishi uchun qanday sabablar bor?*
3. *Xalq maqollarining boyish manbalariga izoh bering.*
4. *Maqollarning badiiy mukammalligi haqida qanday mulohazalarga egasiz. Maqollardan misol keltiring, badiiy san'atlarni ko'rsating.*
5. *Maqol tarixi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?*
6. *Yozma adabiyot vakillarining maqollardan foydalanish usullari haqida nimalar bilasiz? Birona roman yoki hikoya misolida fikringizni isbotlang.*
7. *Maqollar qanday xususiyati bilan mataldan farqlanadi.*
8. *Lutfiyning maqollar tizimidan tashkil topgan g'azalini yodlang, maqollarga izoh bering.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 91-99.
2. Саримсоқов Б, Мақоллар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. - Т.: Фан, 1988. – Б. 85-98.
3. Ўзбек халқ мақолари. - Т.: Фан, 1978.
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. - Т., 1990. – Б. 44.
5. Сафаров О. Халқ ганжига меҳр / Фольклор – бебаҳо хазина. - Т.: Мухаррир”, 2010, 285-298-бетлар.
6. Лутфий. Ғазаллар / Ўзбек адабиёти. 4 жилдлик. 1-жилд. - Т., 1959. – Б. 441.

TOPISHMOQLAR

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e'tibor bering. "Top" so'zining talaffuz etilishidanoq o'yla, axtar, solishtir, izla ma'nolari yetakchilik qiladi. Unga "ish" qo'shimchasi qo'shilganda, vazifa aniqlashadi. "-moq" harakat nomi qo'shimchasidan keyin "qo'lingdan kelsa", "eplasang", "uddalay olsang" tushunchalari ifodalanadi. Mahmud Koshg'ariy topishmoqni qadimda "tabzug" deyishganini qayd etadi. "Tabzug'uq

tabuzdim” (Men undan bir topishmoqni so‘radim) jumlasini keltiradi. Bu ma‘lumot topishmoqning tarixi qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she‘riy, nasriy ko‘rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo‘yiladi.

4. Mazmunida hayvonot, o‘simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da‘vat etiladi.

5. Topilishi lozim bo‘lgan narsa, ko‘pincha, bitta, ba‘zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo‘ladi.

6. Topishmoqlarda qo‘llangan asosiy badiiy san‘at istiora (metafora) hisoblanadi.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo‘lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san‘atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog‘lanadi. Masalan:

Qopcha,
Qopcha ichida uncha,
Uncha ichida ustuncha.

Bu matnda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o‘xshatilmoqda. Faqat un o‘rtasida ustuni ham bor ekan. Topishmoqni topayotgan odam matnda jiyda haqida gap ketayotganini topsa, fikriy musobaqada enggan bo‘ladi. Ko‘pincha, yashiringan narsaning faqat ko‘rinishi, xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi, lekin hech narsaning nomi qayd etilmaydi. Bunday vaziyatlarda izlovchi shaxs faqat o‘zi bilgan narsalarga xos belgilarni eslab yechimni topishi mumkin.

Og‘zi ola alomat,
Ichi qizil qiyomat,
Suv sepsam, quruq chiqar,
Yo alhazar, salomat.

Bu topishmoqda “alomat”, “qiyomat”, “salomat” so‘zlari asosan qofiya hosil qilish uchun keltirilganini bilishimiz kerak. Endi yashiringan narsaning og‘zi borligiga, bu og‘izning ko‘rinishi ola ekaniga, ichi qizilligiga, uning ichida suv sepiladigan narsa bo‘lishiga diqqat qilamiz. Suv sepsagu u narsa quruq chiqsa, demak “qizil qiyomat” olov bo‘lishi mumkin. Shundan so‘ng nimaning ichida olov bo‘lishini esga olamiz. Va yashiringan narsa tandir ekanini topamiz. Ammo baribir topishmoqning javobini topish oson emas. Topishmoqni topish uchun uning yaratilishida muallif bo‘lgan noma‘lum shaxsdek fikr yuritish usulini izlash kerak. Agar har bir topishmoqning zaminida muayyan fikriy kashfiyot yotishini nazarda tutsak, uni topadigan shaxs ham aynan shu yangilikni boshqa yo‘l bilan kashf qilishi kerak bo‘ladi. Binobarin, u ham muallif hayot tajribasiga, kuzatish nuqtai nazariga, fikr yuritish yo‘nalishiga ega bo‘lishi lozimligi sabab juda murakkab tarzda mulohaza yuritish jarayonini boshidan kechiradi.

Topishmoqlardagi savollar tizimi xususiyatlarni sanash tarzda amalga oshirilar ekan, hayratomuz qarama-qarshi mulohazalarga duch kelamiz. Masalan: “Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar”, “U yoqqa o‘tdim - bildingmi, bu yoqqa o‘tdim - bildingmi, Oq quvrayning boshini, chertib o‘tdim - bildingmi?” topishmoqlarida hayron qolishga majbur qiladigan muammolar juda ko‘pga o‘xshaydi. Xususan, bizni qanday qilib qo‘l bo‘lmasa, oyoq bo‘lmasa eshik ochish mumkin, axir eshik o‘zi nima bilan ochiladi? - degan savol o‘ylantiradi. Ikkinchi namunada esa nahotki u yoqdan bu yoqqa o‘tgan narsani men sezmasligim mumkin? U narsaga oq quvray - cho‘l-dashtda o‘sadigan yovvoyi o‘tning nima aloqasi bor? Yoki nega chertadi, uzmaydi yoki boshqa narsa qilmaydi, - degan savollar qiynaydi. Bu savollarga javob topish uchun biz savol bergan odamning fikr yuritish usulidan foydalanishimiz lozim bo‘ladi. Shundagina har ikki savolning javobi shamol ekanini topamiz. Ammo masalaning og‘irligi shundaki, ba’zi topishmoqlarda bayon qilingan ta’rifdan foydalanib qanday yo‘nalishda mulohaza yuritish lozimligini aniqlay olmaymiz. Quyidagi matnga diqqat qiling:

Bir yarim quyon,
Uch tulki,
To‘qqiz sigir,
Besh echki,
O‘n ikki tuya,
O‘n yilqi.

Bu topishmoqda odamning xayolini raqamlar egallaydi. Nega quyon bir yarim yoki tuya o'n ikki bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz. Keyin raqamlarni qo'shib biror natijaga erishmoqchi bo'lamiz. Aslini olganda esa, muammo oyni aniqlash bilan echiladi. Ya'ni quyon bir yarim, tulki uch, sigir to'qqiz, echki besh, tuya o'n ikki, yilqi o'n oyda tug'adi. Biz chorva, mol boqish bilan shug'ullangan bo'lsak, topishmoqni topish osonroq kechadi. Juda bo'lmaganda qayd qilingan hayvonlarning necha oyda tug'ishini bilib olamiz.

Topishmoqning paydo bo'lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma'lumotlar yo'q. Ayrim olimlar uning qadimiy ekanini qayd qiladilar. Ammo maqollar namunalari ko'plab keltirilgan "Devonu lug'otit turk" asarida "tabzug" so'zi uchragani holda topishmoq matni yo'q. Topishmoq hajman, shaklan maqolga o'xshaganligi uchun bu ikki janrning vujudga kelish vaqti ham bir xil bo'lishi kerak, degan taxmin bildirilgan. Biz ham shu fikrga qo'shilamiz. Ayni chog'da quyidagi ikki holatga diqqatingizni qaratmoqchimiz.

1. Ayoz ertagida Ayoz bir cholni yo'lda uchratib:

- Ota, uzoq yo'lni yaqin qilib ketaylik, - deydi. Bir ozdan keyin:

- Ota, ot bo'lmasa ham toy minib ketaylik, - deydi. Ammo bu safar ham chol indamaydi. Cholning qizi keyinroq otasiga Ayozning avval gaplashib ketaylik deganini, keyingi murojaatida cholga hassa yasab bermoqchi bo'lganini tushuntiradi.

Qiz otasiga ikki pul berib uch xil yeydigan narsa olib kelishini iltimos qiladi. Arzimagan pulga uch xil yeydigan ovqatni yana Ayoz topib beradi. Bu narsa handalak bo'lib chiqadi. Handalakning etini qiz bilan chol, po'chog'ini echki, urug'ini tovuq eydi.

Qiz qo'shni kampirdan chuchvarani zich joylab, ustiga yog' quyib, patir bilan yopib Ayozga olib borib berishni iltimos qiladi. Shunda kampir Ayozga: "Havo qorong'i, yulduz zich, oy butun", - deyishi kerak edi. Ammo kampir yo'lda chuchvara va patirdan eydi, yog'dan ichadi, ammo qiz buyurgan gapni aniq aytadi. Yuborilgan narsalarni yegan Ayoz kampirga: "Havo yorug', yulduzlar siyrak, oy yarimta", - ekan deng, - deydi. Ayozning javobidan qiz yo'lda kampirning dasturxondagi narsalardan yeganini anglaydi²⁴.

2. "Oychinor" dostonida yosh Oychinorga uylanmoqchi bo'lgan Nazarboydan qiz qalin evaziga "O'nta qo'zi, yigirmata bo'ri, o'ttizta arslon, qirqta qoplon, ellikta ayg'ir, oltmish beshta axta, saksonta sarka,

²⁴ Аёз. Эртақ / Олтин олма. - Т., 1966. - Б. 67-69.

to‘qsonta taxta...” so‘raydi. Bo‘ri, arslon, qoplonni topishga qurbi yetmagan boy doston qahramonlaridan biri Boburdan yordam so‘raydi. Nazarboy Boburga bir beva xotinga uylanmoqchi ekanini aytadi. Shunda Bobur boyning gaplarini mulohaza qilib, unga yolg‘on gapirganini, uylanmoqchi bo‘lgan ayoli beva emas, qiz ekanini aytadi. O‘z fikrini isbotlash uchun yigit o‘n yoshida qo‘ziday, yigirmada bo‘riday, o‘ttizida arslonday, qirqda qoplonday, elligida ayg‘irday, oltmish beshda axtaday, saksonida sarkaday, to‘qsonida taxtaday bo‘lishini misollar bilan isbotlaydi. Shundan keyin Nazarboy cholligini ham, qiz bola Oychinorga uylanmoqchi bo‘lganini ham tan oladi²⁵.

Yuqoridagi ikki misol topishmoqlarning paydo bo‘lishi haqidagi taxminlarga ma‘lum darajada aniqlik kiritadi. Aytmoqchimizki, topishmoqlar dastlab ertak, doston yoki yana qaysidir janrlar tarkibida vujudga kelgan. Keyinroq ana shu janr tarkibidan ajralib chiqib, alohida – mustaqil asarlar sifatida xalq og‘zaki ijodidan o‘rin olgan bo‘lishi mumkin.

Matnlardagi istiora san‘ati qo‘llangan toy, oy, yulduz, qo‘zi, bo‘ri, qoplon kabilar jumboqli muammoni yechuvchi vosita sifatida foydalanilgan. Muhimi shundaki, ertak va dostondagi topishmoqnamo fikrlar keyinchalik alohida janr bo‘lib yashay boshlaganda ham ularning yaratilishida asos vazifasini bajargan. Xususan, biron topishmoqning yaratilishi uchun topilishi lozim bo‘lgan narsa - predmetlarning xususiyatlari yetakchi ma‘lumot beruvchi omil bo‘lgan.

Topishmoqlarning yaratilishida topilishi lozim bo‘lgan narsa bir qator xususiyatlari bilan boshqa narsaga o‘xshatiladi. Bu xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin bo‘ladi:

1. Yashiringan narsaning tashqi qiyofasi. Uning hajmi, shakli, ko‘rinishi asos qilib olinadi.

Uzun terak yiqildi,
Uchi mening qo‘limda.
Zag‘izg‘oni sayradi,
Sochi mening qo‘limda.

Demak, topilishi lozim bo‘lgan narsa daraxtdan yasalar ekan. Uning bo‘yi ham balandgina terakni eslatadi. “Zag‘izg‘oni sayradi”, ma‘lum bo‘ldiki, undan ovoz chiqadi. “Sochi mening qo‘limda” deyilgandan

²⁵ Ойчинор. Достон (айтувчи Қодир Раҳимов, ёзиб олиб нашрга тайёрловчи Абдумўмин Қаххоров) / Ойсулув. - Т., 1984. – Б. 43-44.

sochni eslatuvchi narsa ham uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Natijada, topishmoqni topish uchun biz uning yog'ochdan yasalganini, bo'yi-basti borligini, ovoz chiqishini, uning simi borligini bilib oldik. Ozigina fikr yuritsak, narsaning musiqa asbobi ekanini, xususan, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak haqida gap ketayotganini anglaymiz.

2. Topishmoq matnida rang haqida ma'lumot beriladi. "Ko'k kosani to'ntardim", "Ko'k sandig'im ochildi, ichidan zar sochildi" topishmoqlarida osmon, quyosh haqida fikr yuritilmoqda.

"Qora uyda ming chiroq, uyni yoritmas" (Tunda osmondagi yulduzlar).

"Qora tuyam qochyapti, qumolog'in sochyapti" (Qora bulut va do'l).

3. Topmoqchi bo'lgan narsamizning tuzilishi, tarkibi yuzasidan ma'lumot beriladi:

"Oltindir,

Bu tolning o'n ikki shoxi bor.

Har shoxida to'rttadan uya bor,

Har uyada ettitadan tuxum bor.

Har tuxumning yarmi qoradir, ko'rsang,

Yarmi oppoqdir topgan bo'lsang" (Yil, o'n ikki oy, hafta, kun, kecha, kunduz).

"Tom ustida bir palak,

Unda o'n ikki handalak,

O'n birini yesa bo'lar,

Birini yemay, bo'lar halak" (Yil, o'n ikki oy, bir oy ro'za).

4. Narsaning bajaradigan vazifasi ta'riflanadi. Hayotdagi asosiy belgisi harakat misolida bayon etiladi:

"Lip etadi kirib ketadi,

Chiqazolmay esing ketadi" (Tikan).

Kunga qarab tolmaydi,

Kundan ko'zin olmaydi" (Kungaboqar).

5. Yashiringan narsaning qiyofasi, alohida belgisi qiyoslanadi:

“Ustidagi ko‘ylagi,
Xuddi qog‘ozga o‘xshar.
To‘g‘rasang, jahli chiqib,
Ko‘zingni darrov yoshlar” (Piyoz).

Topishmoqlarda bir narsaning bir emas, bir nechta belgilari, ikkinchi narsaga taqqoslanishi ham mumkin. Masalan: “Yer ostida oltin qoziq” topishmog‘ida sabzining shaklan qoziqqa o‘xshashi, uning rangi oltinni eslatishi va yer ostida o‘sishi uyg‘un tarzda qayd etilgan. Bunday topishmoqlarni topish nisbatan osonroq amalga oshadi. Yana bir xil topishmoqlarda inkor qiluvchi ma’no yetakchi bo‘ladi:

“Xo‘ppa semiz,
Tuki yo‘q.
Terisi qalin,
Tuki yo‘q”

yoki

“Qoni bor,
Joni yo‘q” (Tarvuz).

Odatda, topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini egallagani bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o‘z ifodasini topadi. Ko‘rpa, qulf, qozondan tortib qozi, sudxo‘rlarning kirdikorlarigacha topishmoqlarda aks etishi mumkin. Xalq topishmoqlarini mukammal o‘rgangan Zubayda Husainova 1981-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti tomonidan e‘lon qilingan “Topishmoqlar” kitobidagi matnlarni tartiblashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi: “An‘anaviy topishmoqlar” va “Yangi topishmoqlar”. Birinchi guruhda Osmon, er, suv; tabiat hodisalari, yil fasli va mavsum; odam, uning a‘zolari va xislatlari - jami 21 mavzu jamlanadi. Yangi topishmoqlarda elektrotexnika, radio-texnika, maktab va o‘quv qurollari - jami 9 mavzu jamlangan. Ma’lum bo‘ladiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzuning o‘zi yo‘q ekan.

Topishmoqlar shaklan nasriy va she‘riy bo‘lishi haqida aytgan edik. “Daraxt ustida langar” (anjir), “Soy ichida saksonboy” (burga), “Tog‘ ustida o‘rmon bor” (soch) kabi namunalarni nasriy topishmoqlar qatoriga qo‘shamiz.

“Uzun-uzun o‘z keldi,
Uzun bo‘yli qiz keldi.
Qoshi qaltirab keldi,
Ko‘zi yaltirab keldi” (Yomg‘ir).

yoki

“Uzun-uzun iz ketdi,
Uzun bo‘yli qiz ketdi.
Toshga tegdi tarq etdi,
Sirg‘alari yarq etdi” (Suv)

kabi namunalarni she'riy topishmoqlar deymiz.

Ma'lumki, hayotda biz munosabatda bo'lgan har bir narsa-predmet juda ko'p xususiyatlarga ega bo'ladi. Ularning rangi, ko'rinishi, vazifasi, vazni turlichadir. Shuning uchun har bir narsa haqida bir nechta topishmoq to'qish mumkin. Ayni paytda bir narsa haqidagi topishmoqda ifodalangan belgilar boshqa narsada ham mavjudligi uchun javob ham bir xil bo'lmasligi mumkin. Masalan, topishmoqlar to'plamida oddiy bir tomchi haqida 14 ta namuna keltirilgan. Agar bittasida “Tumshuqsiz chumchuq muz teshar” deyilsa, ikkinchisida “Jingila sichqon yer qazir” deyiladi, uchinchisida esa “O'tmas pichoq yer kavlar” deyiladi. Lekin ularning hammasida bir tomchi suv haqida fikr yuritiladi. Suv haqida esa 19 ta topishmoq keltirilgan. Ba'zan bir narsaning xususiyatlari birma-bir sanab o'tiladi va jumboqning oson topilishi ta'minlanadi:

“Ko'l emas, daryo emas,
Ichida muzlaydi suv.
Jazirama yozda ham,
Issiq o'tkazmaydi u.
Usti boshi temirdan,
Shundan joyi to'rdan” (muzlatgich).

Bunday topishmoqlarni narsa haqida to'qilgan hikoya deyishimiz mumkin. Chunki ta'rifda har bir belgi va xususiyat erinmay bayon etiladi. Yuqorida qayd qilganimizdek, bitta topishmoqning bir nechta javobi bo'lishi ham mumkin. Masalan, “Uzun terak, ichi g'ovak”. Bu topishmoqqa qamish, mo'ri, miltiq javoblarini berish xato bo'lmaydi. Yoki: “Tepdim, tepdim, terakka chiqdim”ning javobi narvon va egarlangan otga chiqish bilan javob berish mumkin.

Xalq orasida yashab kelayotgan topishmoqlar bir jumboqli va ko'p jumboqli bo'lishi mumkin. Avvalroq misol qilib keltirgan suv, jiyda, shamol, tanbur haqidagi topishmoqlar bir jumbog'li hisoblanadi. She'riy misralar soni bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etmaydi: 6 misradan iborat topishmoqning javobi muzlatgich edi. Ammo shunday topishmoqlar ham borki, ularga javob berish uchun ikki va undan ortiq narsalarni eslashga to'g'ri keladi:

- Tog'da talaymonni ko'rdim,
- Suvda sulaymonni ko'rdim.
- Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim,
- Yumalab yotgan toshni ko'rdim.

Bu topishmoqdagi to'rt misrada to'rtta narsa berilgan. Birinchisida bo'ri, ikkinchisida baliq, uchinchisida sumalak, to'rtinchisida toshbaqa so'zlari yashiringan. Olima Zubayda Husainova ba'zan topishmoqlarda arifmetik raqamlar sonini topish talab qilinishini yozadi. Masalan: "Bir to'da g'oz uchib borar ekan. Bir g'oz ro'baro' kelib: "Ey yuz g'oz, sog'-salomat bormisiz", - debdi. Shunda ulardan biri aytibdi: "Biz yuz g'oz emasmiz, yana bir miqdori g'oz bo'lsa, yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo'lsa, u vaqtda sen qo'shilsang, yuz g'oz bo'lamiz", - debdi. Havodagi g'oz qancha edi?

Javobi: $36 (36+36+18+9+1)=100^{26}$.

Xalq og'zaki ijodidagi topishmoqlar badiiy jihatdan ham so'z san'ati hisoblangan adabiyotda qo'llangan juda ko'p san'atlarga boy. Bu san'atlarning topishmoqda uchraydigan eng ommaviysi istioradir. Oyna - ko'z, ilon - soch, qizil toychoq - til kabi o'nlab misollarda istiora san'ati kelgan.

Yozma adabiyotda talmeh san'ati mashhur. Xususan, Alisher Navoiy g'azallarida shunday bayt bor:

Ko'p o'qudim Vomiqu, Farhodu, Majnun qissasin,
O'z ishimdin bul ajabroq dostone topmadim .

Baytdagi Vomiq, Farhod, Majnun ismlari talmeh san'atiga misol bo'ladi. Ya'ni shoir o'z his-tuyg'ularining oddiy emasligini ta'kidlash uchun ishq yo'lida iztirob chekkan oshiqlar ramziga aylangan qahramonlarning ismlarini misol qilib ko'rsatadi. "Talmeh" so'zining ma'nosi "qaratmoq"dir.

²⁶ Хусайнова З. Ўзбек топшмоқлари. - Т.: Фан, 1966. - Б. 29.

Topishmoqlarda ham ana shunday ismlar uchraydi. Taxmin qilish mumkinki, bu ismli odamlar bir vaqtlar mashhur bo'lganlar, lekin vaqt o'tishi bilan asta-asta xalq xotirasidan o'chganlar:

Sariboy akam ichkari,
Soqollari tashqari (sabzi, makkajo'xori).

Shuningdek, "Tokchama-tokcha, Samatjon boyvachcha" (sichqon), "Osmoni resmon, Mulla Abdurahmon - beustixon" (bit) kabi misollarda ham ismlar uchraydi.

Topishmoqlarda tazod (qarshilantirish) san'ati namunalaridan ham foydalanilgan:

Osh ichida tosh,
Tosh ichida osh (sumalak, toshbaqa, yong'oq).

Bu matnda hatto qofiya san'atining murakkab turi tarsi' (misralardagi hamma so'zlarning qofiyalanib kelishi) ham o'rin olgan.

Badiiy adabiyotdagi jonlantirish (tashxis) san'ati topishmoqlarning asosiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi.

Qoraboy otdan tushdi,
Bolalari yugurishdi (qozon, tovoq, kosa).

Ikki singil,
Og'ir - engil (tarozi).

Ba'zan jonlantirishning gapirtirish (intoq) usuli ham uchraydi:

Zuv etdi bildingmi,
Zuvillab ketdi bildingmi?
Ko'lankasi kumushdan,
Kulib ketdi bildingmi? (miltiq, o'qi)

Bunday misollar xalq topishmoqlarining haqiqiy so'z san'ati namunasi ekanini qayta-qayta dalillaydigan omillardir.

Yuqoridagi sahifalarda topishmoqlarning xalq ertaklari, dostonlari bilan aloqasi haqida ma'lumot bergan edik. Topishmoqlar ayni paytda

maqollar, qo‘shiqlar bilan ham yaqin munosabatda shakllangan. “Bo‘rining og‘zi yesa ham qon, yemasa ham qon” maqoli topishmoq o‘rnida ham kelishi mumkin va uning javobi yog‘ xumcha, kadi bo‘ladi. “Asaldan shirin, zahardan achchiq” (til) topishmog‘i esa “Shirin so‘z - shakar, achchiq so‘z - zahar” tarzda takrorlanadi.

Z.Husainova o‘zining topishmoqlar haqidagi tadqiqotida

G‘oq-g‘oq-g‘oq,
Dumog‘im choq,
Suvda suzib yuraman,
Ko‘p kayflar suraman (g‘oz)

topishmog‘i bolalar qo‘shiqlari sifatida ham aytilishini ko‘rsatib o‘tadi.

Xalq topishmoqlari maqollar kabi yozma adabiyot vakillari ijodiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan deyish mumkin. Topishmoqlarning yaralishi maqsadidagi “O‘yla, izla, top” tamoyili yozma adabiyotdagi lug‘z (chiston), muammo va tarix janrlarida yetakchi hisoblanadi. Xususan, Alisher Navoiy bir chiston (lug‘z)ida shunday yozadi:

Ne sho‘x erurki, ulus ko‘ngli ichra savdosi
Aning yuzidagi xatlar kabi muqarrardur.

Kumushdurur taniyu himmati aning lekin
O‘n ikki o‘z tanidek vajah ila muqarrardur.

Ishida ul o‘n ikki har birisidur dinor
Ki, adl sikkasidin yuzlarida zevardur.

Magarki angladi xumsul muborak asrorin
Ki, soni bu adad o‘lmish, agarchi yuz mardur.

Gadog‘a xumsidin ar saltanatdurur, ne ajab
Qachonki beklik aning rub‘idin mussardur.

Chistonda el ko‘ngliga savdo (aql dan ozish) soluvchi, yuzida tahrir qilingan muhri bor narsa nima, deb savol qo‘yilgan. Bu savolning javobi “Tanga” bo‘ladi. Ya‘ni shoir narsaning belgilarini sanagan va javob topishni so‘ramoqda. Uvaysiyning “Anor”, “Qaychi” chistonlari mashhur.

Muammo janrida shoir bayt yozadi, baytda muayyan amallarni bajarish lozimligi ko'rsatiladi. Agar ana shu amallar to'g'ri bajarilsa, ism vujudga keladi. Masalan, Alisher Navoiy baytini keltiraylik:

Bu gulshan ichraki yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot.

Baytning ikkinchi misrasidagi "saodat" so'zidan "ot" olinsa (chiqsa yaxshiliq bila ot), "Sa'd" ismi hosil bo'ladi.

Mumtoz adabiyotimizda oliy sarkardalarning g'alabalari, katta qurilishlarning yakunlanishi, oliy martabali odamlar oilasida farzandning tug'ilishi yoki mashhur olim - allomalarning vafot etishi munosabati bilan shoirlik iqtidori bor adiblar "tarix" yozganlar. Tarixni tashkil etuvchi har bir so'z tarkibidagi harflar alohida raqamlarni bildirgan. Bunday tizim ilmda abjad deb atalgan. Abjad hisobining asosini arab alifbosi tashkil etgan bo'lib, alif - 1, bo - 2, jim - 3, dol - 4, ho - 5, vov - 6 raqamlarini ifodalagan. Oxirgi harflar zod - 800, zo - 900 va g'ayn - 1000 raqamlarini anglatgan. Masalan: Durbek "Yusuf va Zulayho" dostonining yozilgan yilini abjad hisobi bilan quyidagi baytda bergan:

"Zod" (ض) edi tarix taqi "he" (ح) yu "dol" (د)

Muddati hijratdin o'tub mohu sol.

Baytda keltirilgan uch harf ifodalagan raqamlar qo'shilsa (ض - 800 + ح - 8 + د - 4), 812 chiqadi. Demak, doston hijriy 812 (milodiy 1409) yilda yozilgan ekan.

Shunday qilib, chiston, muammo, tarix janrlaridagi boshqotirgich vaziyati xalq og'zaki ijodidagi topishmoqlar bilan mushtaraklikni belgilaydi. Topishmoqlarda ham, yozma adabiyotdagi uchta janrda ham insonni o'ylashga, qiyoslashga, izlashga chorlovchi fazilat namoyon bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Topishmoqlarning maqollarga o'xshash va farqli jihatlarini aniqlang.
2. Topishmoqlarning janr xususiyatlarini sanang va izohlang.
3. Topishmoqlarning hayot bilan munosabati haqida so'zlang, ularning tarbiyaviy ahamiyatini toping.
4. Topishmoqlarda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llanadi?

5. *Yozma adabiyotdagi chiston, muammo, tarix janrlarini topishmoqlar bilan taqqoslang.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 100-109.
2. Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. - Т.: Фан, 1966.
3. Хусаинова З. Топишмоқлар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. - Т.: Фан, 1988. – Б. 98-128.
4. Кравцов Н.И., Лазутин С.Г. Русское устное народное творчество. – Москва: Высшая школа, 1977. – С. 86-95.
5. Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати (иккинчи нашри). - Т.: Ўқитувчи, 1970. – Б. 5-6, 119, 218.

ASKIYA

Askiya haqida fikr yuritishdan avval uning mohiyati haqida qisqacha mulohaza bildirish joiz. Askiya aytish qanchalar murakkab bo'lsa, uni tushunish ham oson emas. Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik so'z o'yini qo'llaniladi. So'z o'yinini tushunish esa uni o'ylab topishdek qiyin. So'z o'yinida uni o'ylab topgan odamning fikrlash usulini qo'llash lozim bo'ladi. Shu bois askiya paytida kimdir kuladi, kimdir gap nima to'g'ri-sida borayotganini anglay olmay garang bo'lib turaveradi. Askiya janri-ning bosh maqsadi, uning mohiyati so'z o'yini vositasida kulgi hosil qilishdir.

Kichik bir misolga murojaat qilaylik. Kunlardan bir kun dutorchi qizlar ansambli ishtirokchisi Sanobar Karimova musiqa mashqi o'tkaziladigan xonaga hammadan avval kelibdi. Ustozi G'anijon Toshmatovdan «Qizlar kelishmadimi?» – deb so'rabdi. Tabiatan askiyachi G'anijon aka shu zahoti iliq tabassum bilan: «Kelishgani kelishdi», – deb javob beribdi. Mana shu ikki so'zda askiyadagi eng muhim xususiyat aks etgan. Birinchidan, G'anijon aka Sanobarxon savolidagi «kelishgan» so'zidan juda unumli foydalangan. Javob ikki so'zdan iborat bo'lgani holda har ikki so'z shaklan bir xil ko'rinishda. Ikkinchidan, birinchi so'zning o'zi ikki ma'noni ifodalamoqda. Ya'ni «kelgan odam kelgan hisoblanadi, kelgan odam kelgan-da», degan ma'no ifodalangan. Uchinchidan, «kelishgan»

so'zining ko'plik qo'shimchasi bilan bitta Sanobarxonga nisbatan qo'llanilishiga ajablanish kerak emas. Chunki Farg'ona vodiysida bitta shaxsga nisbatan ko'plikda fikr bildirish odat hisoblanadi. To'rtinchidan, «kelishgan» so'zi bu o'rinda «kelgan» ma'nosidan tashqari qaddi-qomatida nuqsoni yo'q odam, o'zbeklarda «kelishgan qiz», «kelishgan yigit», «kelishgan odam» so'z birikmasida qo'llanganidek ma'noni ifodalamoqda. Ya'ni G'anijon aka qizning savoliga ajoyib lutf bilan javob bermoqda. Keyingi so'z «kelishdi» esa Andijon shevasida ko'plikni yakka shaxsga qo'llash mumkinligidan foydalanilgan holda so'z turkumidan fe'l ma'nosini bildirmoqda. Sanobarxonning soddagina savoliga ustoz mohirona javob topdi. Ayni chog'da avval xonaga kirgan shogirdga uning «kelishgan»ligi - xushbichim, qaddi-qomati chiroyli ekani ta'kidlandi va ayni paytda, savol beruvchiga qarab «yo'q» so'zi ham qo'llanmadi. Bu o'rinda katta avlod vakillarimizning, umuman, savol beruvchi shaxsga nisbatan javob berishda «yo'q» so'zini qo'llashdan o'zlarini saqlashga uringanlarini ham ta'kidlash o'rinlidir. «Kelishgani kelishdi»dagi so'zlar ma'nosini to'liq bilmagan odam uchun javobning o'zi tushunarsiz bo'lishi mumkin. Ammo so'zlarning haqiqiy fikr ifodalash imkoniyatini his qilgan o'zbek ustoz javobidan benazir lazzat oladi. O'zbek tili imkoniyatiga qoyil qoladi. Ustozning so'z qo'llash mahoratiga tahsinlar o'qiydi.

Askiya jahondagi bironta xalq og'zaki ijodida uchramaydigan, so'zdan so'z hosil qilish, so'z jilosidan to'liq foydalanish, so'z o'yiniga asoslangan janrdir. Boshqa xalqlarda bu janrning uchramasligini esa, asosan, o'zbek tilidagi so'z boyligi bilan izohlash maqsadga muvofiqdir. Xususan, maqol, topishmoq, ertak, qo'shiq, doston janrlari jahon xalqlari ijodida aynan yoki bir oz o'zgargan holda uchraydi, ammo olimlar shu kungacha askiyaning boshqa xalqlarda mavjudligini aniqlamaganlar. To'g'ri, ba'zi paytlarda latifalarda askiyaga o'xshash vaziyatlar uchrashi mumkin (пешка ходит е 2 – е 4; он ходит едва; едва - shaxmat o'ynidagi eng kichik sipoh e 2 xonasidan e 4 ga yuradi, biz nazarda tutgan odam esa zo'rg'a-zo'rg'a yuradi). Ammo muayyan xususiyatlarga ega alohida janr sifatida uchramaydi.

«Askiya» so'zining asosi arab tilidagi «zakiy»dan olingan bo'lib, sof fikrli, o'tkir zehqli, zakiy – nozik tabiat bilan fikr yuritish ma'nolarini anglatadi. «Azkiyo» esa ko'plik shaklidir. Fikrimizcha, «k» jarangsiz undosh tovushi ta'sirida «z» jaranglisi jarangsizlashib «s»ga aylangan bo'lishi mumkin.

Bu janrning ilk tadqiqotchisi Rasul Muhammadiev shunday yozadi: «Hozirjavoblik - askiyaning eng muhim sharti, chunki biror taraf o'z vaqtida chuqur ma'noli, kuchli javob qaytara olmasa (pauza bo'lsa), kulgi pasayadi, demak, raqibning fikrida kuchsizlik sezilib qoladi»²⁷.

Askiya san'atini ilmiy o'rgangan olim Rasul Muhammadiev o'zbeklarning askiya aytishi qadim zamonlardan boshlanganini qayd etgan. Xususan, XV asrda yashagan shoir Zayniddin Vosifiy o'z xotiralarida Hirot shahrida Mirsarbarahna, Burhoniy Gung, Hasan Voiz, Said G'iyosiddin, Sharfiy, Halil Sakhob, Muhammad Badaxshiy kabi o'tkir so'z ustalari borligini aytib o'tgan. Hunarmandchilik rivojlangani sari askiya ham keng ommalashdi. Ayniqsa, bo'z, atlas to'qiydigan kosiblar qo'l va oyoqlari muttasil harakatda bo'lgani bois yo qo'shiq, ashula aytishgan, yo askiya bilan ko'ngilni ovutishgan. Bu jihatdan Farg'ona vodiysi aholisi alohida ajralib turgan. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mamayunus Tillaboev, Erka qori Karimov, Amin buva, G'anijon Toshmatov, Tursun buva Aminov, Abdulhay Mahsum kabi mashhur so'z ustalari askiya san'atini rivojlantirishda munosib hissa qo'shdilar. Xalq hofizlari Jo'raxon Sultonov, Rasulqori Mamadaliev, Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojalilovlar, Orif Qosimov, Orif Alimahsumov va o'nlab xonandalar to'ylarda ajoyib askiyaboz sifatida ham mashhur edilar. Yurtimizda Mustaqillik, Navro'z, Hosil bayramlari munosabati bilan o'tkaziladigan ommaviy yig'inlarda askiya tomoshalarga fayz bag'ishlamoqda. Shuningdek, ulfatlarning gap-gashtaklarida, turli yig'inlarida, ziyofat ustida askiya aytish odati ham esdan chiqqan emas.

Askiya san'atining asosini badiiy adabiyotdagi iyhom deb ataluvchi badiiy tasvir vositasi tashkil etadi. Iyhom arab tilida «shubhaga solish» degan ma'noni bildiradi. Bu san'atga binoan shaklan bir xil so'zlarning turli ma'noda qo'llanishi orqali fikr ifodalash san'ati nazarda tutiladi: Zahiriddin Muhammad Boburning «Qaro zulfing» g'azalidagi ikkinchi baytda:

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdan qon ravon qildi,
Nega holim yamon qildi, men andin bir so'rorim bor.

misralari bor. Undagi «so'rorim bor» so'zlarida iyhom san'ati qo'llangan. Chunki bu so'z tashqi ifodasiga ko'ra «so'ramoq» ma'nosini beradi. Ya'ni sening labing bag'rimni qon qilgani, ko'zimdan qon oqizgani sa-

²⁷ Muhammadiev P. Askia. - T., 1962. - B. 7.

babini so‘ramoqchiman, demoqchi. Ammo bu so‘zning yashirin ma‘nosi ham yo‘q emas. Unga ko‘ra «so‘rorim» so‘zi endi «so‘rmoq» - o‘pmoq ma‘nosini ifodalamoqda. Shunday qilib, iychom san‘atini bir so‘zning ikki ma‘noni bir vaqtning o‘zida ifodalash mohiyati tashkil etadi.

Omonim so‘zlar badiiy adabiyotda keng qo‘llanadi. Mumtoz shoirlar ijodidagi tuyuq janrida bir shakldagi so‘z uch o‘rinda uch ma‘noni ifodalaydi. Og‘zaki ijodda ham Ergash Jumanbulbul quyidagi to‘rtlikni «Ravshan» dostonida keltirgan:

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yodingda tut farzandim,
Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas yolg‘iz ot.

Yuqoridagi to‘rtlikda e‘tiborimizni «ot» so‘zi o‘ziga qaratadi. Bu so‘z bir o‘rinda «ism», ikkinchi o‘rinda «otmoq» – fe‘l, uchinchi o‘rinda xalqimiz sevib minadigan ot ma‘nosini anglatadi. Bu misolda xalq baxshisi tajnis san‘atini qo‘llagan. Chunki omonim so‘zlarning she‘rda turli ma‘no anglatib o‘zaro qofiyalanishi tajnis deb ataladi. Askiyada esa ko‘proq iychom san‘atidagi so‘z o‘yini yetakchilik qiladi. Ba‘zan bu san‘at shu qadar murakkablashib ketadiki, uni aytilgani zahoti anglab olish ham qiyin bo‘ladi. Masalan, Rasul Muhammadiev 1962 yilda e‘lon qilgan «Askiya» kitobida quyidagi matnни keltiradi:

«Qodirjon aka:

– Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirishingiz bitta osh, qovoq ham solasiz-a!

Ikromiddin:

– Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz: bu sho‘rva, osh qovoqda.

Amin buva:

– Mulla Ikrom, Qodirjon akadan tashvish qilmang, bu kishiga oshqovoqdan olinsa bo‘ldi.

Qodirjon aka:

– Amin buva, ajoyib xushfe‘l odamsiz-da, indamay olaverasiz: oshga qovoq solinmaydi, deb.

Amin buva:

– Siz ham indamay tushiraversangiz-a, qovoqdan osh yaxshi, deb.

Qodirjon aka:

– Siz ham indamay tushiraversangiz-a, oshdan qovoq yaxshi, deb.

Amin buva:

– Siz ham indamay tushiraversangiz-a, qovoq oshmi, osh qovoqmi, deb.

Ikromiddin:

–... bir oz u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tiringlar, boshqa ovqat qilaman: qovoq-siz!

Endi askiyada qayta-qayta takrorlangan «qovoq» so‘ziga diqqat qilamiz. Avvalo, «qovoq» so‘zining ma‘nolarini ko‘rib chiqaylik. Birinchidan, palak otib o‘sadigan poliz o‘simligi. Ikkinchidan, shu o‘simlik qobig‘idan tayyorlangan idish. Unga, odatda, sut, ovqat solib saqlanadi. Uchinchidan, odamning qoshi ostidagi ko‘z kosasini qoplovchi teri. Askiya matnida uchta ma‘noning hammasi faol ishtirok etadi. Qodirjonning birinchi jumlasida oshga qovoq solish haqida gapiriladi. Ammo mehmonlarga jahl chiqqan holda, ya‘ni qovoq solib ovqat qilish yaxshi emasligi, shundan so‘ng «osh qovoqda» deyilganda, oshning qovoq po‘stidan yasalgan idishga solingani aytilmoqda. Askiyaning oxirgi jumlasini alohida ahamiyatga ega. Unda «qovoqsiz» so‘zi bor. Bir qarashda ovqatga qovoq solmayman ma‘nosi ifodalanadi. Ammo askiyachi bu so‘zni shunday talaffuz qiladiki, oqibatda, askiya boshlagan odam befahm, ya‘ni “qovoq” nomi bilan atalib qoladi. Natijada askiyadagi har bir «qovoq» so‘zini qo‘llashda yangi ma‘no, fikriy tovlanish aks etishi oqibatida atrofdagi tinglovchilarga kulgi bag‘ishlaydi.

Kulgi hosil qilishning yana bir usuli askiyabozlarning laqablari bilan bog‘liq so‘z o‘yinlaridir. Haqiqiy mohir askiyabozlar raqiblarning laqablarini askiya matniga shunday singdirib yuborishar ediki, faqat askiyani nozik tushunadigan tinglovchigina uning ma‘nosiga fikr qilib etib borar edi.

Mashhur hofiz Mamayunus (laqabi kal) poezdda ketishayotganda do‘sti Erka qorini (ko‘zi ojiz) askiyaga tortar ekan, qori akaning ko‘zi ojizligiga shama qilib:

– Turing, qori aka! Ko‘r otga (kurortga) keldingiz! – deydi. Erka qori yostiqdand boshini ko‘tarar ekan, shoshib-pishib kupe derazasidan tashqariga qaragan bo‘ldi-da, darhol yuzini Mamayunus aka tomon burib:

– Hovliqmay qoling, Mamayunus! Sho‘rtepa-ku! - dedi.

Matnni tahlil qilishda tinglovchi «ko‘r ot», «sho‘rtepa» so‘zlarining ma‘nosini shu zahoti zakiylik bilan ko‘zi ojiz, kal ma‘nolarida tushunib etmasa, askiyaning butun mohiyati o‘z qadrini yo‘qotadi. Natijada,

Mamayunus akaning mahoratini ham, Erka qorining topqirligini ham baholay olmaydi.

Askiya tarkibida kichik turlar mavjud. Ularning eng ommalashgani payrov, qolganlari gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz; o'xshatdim, qofiya, tatal, bo'lasizmi, rabbiya, afsona, safsata kabi nomlar bilan ataladi.

Payrovda askiyabozlar tinglovchilar auditoriyasining kasbi, hududi, mahalliy sharoit xususiyatlariga ko'ra o'zaro kelishib mavzu tanlashadi. Mavzular dehqonchilik, kosiblik, o'qituvchilik, badiiy asarlar, maqollar, paxta, imorat, tabobat va boshqa yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Ammo bir mavzu tanlandimi, boshlanishidan oxirigacha izchillik bilan davom etishi shart. Masalan, uchastka - imorat qurish payrovi chek olishdan boshlanadi. Keyin imoratning loyihasi tuziladi, devorlar uchun yer qaziladi, fundament (poydevor) quyiladi, to'sin tashlashadi, paxsa qilinadi yoki g'isht teriladi, eshik, deraza, darvoza o'rnatiladi, suvaladi, tom qoqiladi, suv, gaz, chiroq o'tkaziladi, bo'yaladi va hokazo ishlarning hammasi bajariladi. Hammasiga usta ishlatiladi. Bozordan qurilish ashyolari sotib olinadi. Xullas, imorat qurish: boshidan ichiga kirib joylashguniga qadar bo'lgan jarayon aks etadi. Muhimi, har bir bajariladigan ish askiya asosida ichakuzdi kulgilar jo'rligida amalga oshiriladi. Askiyabozlarning mahorati qurilishning ipidan ignasigacha bilishdan tashqari ularni bayon qilishni so'z o'yini bilan uyg'un olib borish va tinglovchilarni muttasil kuldirish bilan belgilanadi.

Askiyaning boshqa turlarida ham askiyachilar bir-birlarining izzat nafsini haqorat qilmagan holda tinglovchilarni kuldirish bilan o'z mahoratlarini namoyish qiladilar.

Kulgi uyg'otish usullarining hammasi askiyabozlar tomonidan foydalanilgan. Ulardan biri so'z talaffuzini atayin buzib aytish hisoblangan. Masalan, avvalgi misolda kurort so'zi «ko'r ot» tarzida aytilgan. Shuningdek «kishmish» - kishimish, ya'ni kimdir; karbyurator - kal biladir; ruscha «kurit» o'zbekcha talaffuz bilan «ko'r it» tarzida talaffuz qilingan. Ko'pincha, mevalarning nomlari ismlar urg'usi bilan aytilgan. Masalan, uzumlar: Hasayni - Hasan, Husayni - Husan, Qora chillaki - Qoravoy; qovunlar: Asati - Asadboy, Doniyor - Doniyor, Shakar palak - Shakarbek, Mirzacho'l - Mirzayo'ldosh va h.k.

Ayrim mutaxassislar askiya matnini tahlil qilishda ko'proq e'tiborni askiyachilarning so'z qo'llash mahoratiga qaratadilar. Bu - to'g'ri. Ammo tajriba askiya matnini jonli ijrodan ajragan holda tahlil qilish u qadar ma'qul emasligini tasdiqlaydi. Askiyabozning mahorati, avvalo,

tinglovchilar oldida namoyon bo'ladi. Askiya badiiy adabiyotning drama jinsiga mansub janr hisoblanadi. Binobarin, askiyani o'tkazish bahosi uning yozma matni bilan emas, jonli ijrosi bilan belgilanadi. Shuning uchun askiya haqida fikr yuritganda, askiyabozlarning mavzuni to'g'ri tanlagani, uni izchil ravishda mantiqiy yakunga etkaza olgani, badihago'ylik mahoratini qay darajada ishga solgani, tinglovchilarning maqtoviga sazovor bo'lgani bilan baholash ma'qul hisoblanadi.

Askiya yuzasidan ma'lumot berishda bir masalani esdan chiqar-maslik lozim. Gap shundaki, askiya tabiatida pornografiya - uyatli ma'no ifodalash xususiyati bor. Aytish kerakki, umuman, xalq og'zaki ijodidagi deyarli hamma janrlarda uyatli tushunchalarni pardali tasvirlash odatini inkor qilib bo'lmaydi. Ayrim qo'shiqlarda, topishmoqlarda, latifalarda, dostonlar va ertaklarda ba'zan ijrochilar tinglovchi auditoriyasini yanada qizdirish, e'tiborni o'ta jalb qilish, kulgi darajasini ko'tarish maqsadida bu usuldan foydalanganlar. Ammo odob chegarasi ularning juda erkin so'z ishlatish va harakatlariga yo'l qo'ymagan. Shu bilan birga askiya ijrosida iyhom san'atidan foydalangan holda pornografik ma'noli askiya matnini qo'llash tajribada ko'proq namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham askiya erkaklar o'rtasida aytilganda, ayollarning davrada qatnashishi ma'qul sanalmagan. Folklorshunoslikda ayollar o'rtasida alohida askiyalar bo'lib turgani haqida ham ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining so'z o'yini aso-sida shakllangan va ommalashgan o'ziga xos janri sifatida baholanishi mumkin. Askiya jozibasi asrlar davomida ota-bobolarimiz e'tiborini jalb etib kelgan. Uning taraqqiyotiga bugungi kunda Jo'raxon aka Po'latov, Bahodir Shokirov, Ne'matjon Toshmatov, Akromjon Anvarov, Mansurjon Oxunov, Sodiqjon Hasanov, Muhammadsiddiq Miryayev, Ubaydulla Abdullaev, Ma'ruf Rahimov, Jaloliddin Rahimov, Hotamjon Hakimjonov, Hotamjon Teshaboev kabi so'z san'atkorlari munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Askiya janrining faqat o'zbek xalq og'zaki ijodida mavjudligini izohlang.*
- 2. Askiyaning janr xususiyatlarini mustaqil ravishda aniqlang.*
- 3. Askiya tarkibidagi kichik turlarni ayting. Payrovga baho bering.*
- 4. Matnda kulgi uyg'otuvchi usullar haqida ma'lumot bering.*

Adabiyotlar:

1. Мухаммадиев Р. Аския. – Т., 1962.
2. Аскияда ижрочилик маҳоратини ошириш йўллари (методик тавсиянома). Тузувчилар: Жўраев М, Собитова Т. - Т, 1985.
3. Саид Анвар. Муҳиддин Дарвеш. - Т.: Шарқ НМАК, 2006.
4. Раззоков Х. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор. - Т.: Фан, 1965.

LATIFA VA LOFLAR

Latifa. Xalq og‘zaki ijodi hayotning hamma sharoitiga mos asarlar-dan tashkil topgani yuzasidan fikr bildirgan edik. Latifalar ana shu fikri-mizning yana bir dalili bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbeklar dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi ko‘radilar. Kulgi insonga sog‘lik, yaxshi kayfiyat, o‘z-o‘zidan qoniqish tuyg‘usini bag‘ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka buxor, G‘anijon Toshmatov kabilar hayot og‘ir kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ulashganlar. Bunday natijaga erishish o‘z vaqti uchun juda og‘ir kechgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni haqiqiy ma‘noda xalq sevgisini qozonish sharafiga muyassar qildi.

Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetroqqa su-rishda kulgili latifalar juda samarali vosita hisoblangan. «Latifa» atamasi arabcha «lutf» (لطف) so‘zidan olingan bo‘lib, mutoyiba, hazil, nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko‘rsatmoq, sharaflamoq ma‘no-larini anglatadi. Shuningdek, lug‘atlarda latifa nozik, ixcham, kichik, chuqur va keng ma‘nolarini ifodalaydi. Maxsus lug‘at hisoblangan Alisher Navoiy asarlariga tayyorlangan lug‘atda buyuk adibning shu o‘zakli so‘zlardan o‘n to‘rt ma‘noda foydalangani qayd etiladi. Ular qatorida nozik ma‘noli so‘zlar, ajoyib hikoyalardan tortib poklik, mehribonlik tushunchalarigacha o‘rin olgan. Xullas, og‘zaki ijodimizdagi bu janr atamasi har tomonlama uning shakli va mazmuni, maqsadi, vazifasiga mos ravishda tanlangan.

Latifalarning janr xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Latifalar badiiy adabiyotdagi epik tur (jins) ga mansub. Ammo ijroda dramatik - aktyorlik mahorati ahamiyatli.
2. Latifalar shaklan nasrda yaratiladi.

3. Hajm jihatdan cheklangan.

4. Voqea ifodasida dialoglardan keng foydalaniladi.

5. Favqulodda kutilmagan yechimi kulgi uyg'otadi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, latifalarning shakllanishi va rivojlanishi IX-XI asrlarga to'g'ri kelgan.

Xususan, shu davrda oliy ilm darajasiga erishgan allomalardan birini yoqtirib qolgan podshoh o'z saroyining qarshisiga olimga atab boloxonali uy qurib beradi. Alloma ilmi, dono, hurfikr ekan. Ammo uning tashqi ko'rinishi beso'naqay, xunuk ekan. Kunlardan bir kun podshoh tong paytida o'z tarafida turib tong havosidan to'yib nafas olayotsa, qarshisidagi boloxonadan olimning gavdasi ko'rinibdi. Shunda podsho uning beso'naqayligiga urg'u berib:

- Mavlono, ko'chaning narigi betida bir eshak turibdimi? - debdi. Alloma shu zahoti hech ikkilanmay:

- Yo'q, olampanoh, men bu tomonga katta ko'zgu - oyna qo'ydirganman, - degan ekan.

Nasriddin Afandi nomi bilan latifalar mazmunining bog'lanib, uyg'unlashuvi XIX asr oxiri, XX asr boshlari bilan belgilanadi. O'zbek folklorshunosligi fani asoschisi, professor Hodi Zarifov qayd qilishiga binoan, Nasriddin Afandi nomining o'zbek latifalarida shuhrat topishi yurtimizda matbaaning paydo bo'lishi, Nasriddin Afandi latifalarining kitob tarzda nashr ettirilishidan boshlangan. Aytish mumkinki, Ozarbayjonda e'lon qilingan «Mulla Nasriddin» jurnalining o'zbek ziyolilari orasida keng ommalashuvi bu jarayonni tezlashtirgan. O'tgan asr boshlarida «Nasriddin Afandi» nomi bilan kitoblar nashr ettiriladi. Keyinchalik Sharif Rizo, Sobir Abdulla, Adham Rahmat, Hoshimjon Razzoqov, Bahodir Sarimsoqov, Farida Yo'ldosheva kabi ziyoli, adib, olimlar tashabbusi bilan afandi latifalari bir necha marta nashr ettirildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, Farida Yo'ldosheva qalamiga mansub «O'zbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi» risolasi bu janr tarixi, matn tahlili, obraz yaratish mahoratini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek afandi latifalari rus tilida ham qayta-qayta nashr ettirildi. O'zbekfilm ijodkorlari «Nasriddin Buxoroda» (bosh rolda Sverdin Lev Naumovich), «Nasriddin sarguzashtlari» (bosh rolda Razzoq Hamroyev) badiiy filmlarini yaratdilar. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bu sa'y-harakatlar natijasida o'zbek Nasriddin Afandisi, qolaversa, latifalarimiz yurtimiz chegarasidan olislarda shuhrat topdi. Nasriddin Afandi latifalarini o'qigan har bir kitobxon bu shaxsning tarixi bilan

qiziqadi. Shayx Nasriddin, Xo‘ja Nasriddin, Mulla Nasriddin, Nasriddin Afandi nomlarining qayta-qayta takrorlanishi bu qiziqishni yana ham o‘rttiradi. Ilmiy ma‘lumotlarda Nasriddin ismli shaxs 1208-yilda vafot etgani, hatto hijriy hisob bilan uning maqbarasiga 386-yilda tug‘ilgan deb yozilgani, yil raqamlarining o‘rni atayin teskari tartibda berilgani haqida ma‘lumotlar bor. Bu dalillarni tadqiqotchi Farida Yo‘ldosheva shunday xulosalaydi: «Tarixda Xo‘ja Nasriddin ismli shaxslar, Nasriddin Afandi prototiplarining bir qanchasi o‘tgan bo‘lishi mumkin... Mana shu tarixiy shaxslarni xalq qahramoni Xo‘ja Nasriddinga hayot bag‘ishlagan prototiplar desak bo‘ladimi. Aksincha, xalq qahramoni Nasriddin tarixiy shaxslarga shuhrat keltirdi». Haqiqatan ham, xalq yaratgan Nasriddin afandi latifalaridagi turfa kulgili voqea-hodisalar shu qadar serko‘lam va ibratliki, ulardagi umumiy mazmun bir inson hayoti chegarasiga sig‘maydi. Shuning uchun mazkur latifalarning bosh qahramonini Nasriddin afandi ramzida mujassam topgan xalq deb tushunish haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Chunki tarixda Rashiddin Vatvot, Alisher Navoiy, Binoiy, Mashrab, Muqimiy, keyinchalik A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, M.Shayxzoda, A.Rahmat, H.Razzoqov, S.Ahmad, O.Sharafiddinov, E.Vohidov, O‘.Hoshimov, O.Matchon kabi insonlar hayotida ro‘y bergan kulgili, ibratli, hazil-mutoiba hodisalar tavsifi vaqt o‘tishi bilan latifalarda, xususan, Nasriddin afandi bilan bog‘liq og‘zaki ijod asarlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lishi tabiiydir. Har bir xalqda ham hayot lavhalaridan kulgili vaziyat yaratadigan insonlar bor. Ularning fikr yuritish usulida favqulodda komik holat hosil qilish sirlari bo‘ladi. Shuning uchun ham hindlarda Birbol, arablarda Jo‘ha, qozoqlarda Aldar ko‘sa, tojiklarda Mushfiqiy, turkmanlarda Mirali, qoraqalpoqlarda Umrbek nomlari bilan latifa qahramonlari shuhrat topgan, ammo latifa matnlarida mushtarak vaziyatlar juda ko‘p uchraydi. Bunday holatlarda qaysi xalq vakilidan boshqa xalq vakili muayyan voqeani o‘zlashtirgan yoki ko‘chirgan degan savolni qo‘yish to‘g‘ri emas. Ijtimoiy, maishiy hayotdagi o‘xshashliklar oqibatida bir xil latifalarning yaratilishini asoslash ma‘qulroq natija beradi. Masalan, Birbol latifalaridan birida kunlardan bir kun podshoh unga juda qaltis hazil o‘ylab topishni va bu hazilning kechirimi undan ham qaltisroq bo‘lishi lozimligini buyuradi. Birbol shoh taklifini qabul qiladi. Oradan bir necha kun o‘tganidan so‘ng Birbol hech kim yo‘q vaqtida podshohning belini chimchilab oladi. Shoh g‘azab bilan: «Bu nima qilganing?» - deb so‘raganida, Birbol: «Kechirasiz, shohim, sizni malikam, deb o‘ylabman», - deb javob beradi. Qizig‘i shundaki, aynan

shu mazmundagi latifa o'zbeklarda ham, turkmanlarda ham, ozarboyjonlarda ham mashhur. Bu misol latifalarning yashovchanligini, turli xalqlarda bir xil vaziyatlar bo'lishi tabiiyligini ko'rsatadi. Natijada, qaysi xalq mazkur latifani oldinroq yaratganligini aniqlash mumkin bo'lmaydi va aniqlashning hojati ham qolmaydi.

O'zbek Nasriddin afandi latifalarida bosh qahramon o'ta hozirjavob, o'ta zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Hayotda uni so'z bilan, xatti-harakat bilan echimi yo'q vaziyatga tushirish mumkin emas. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so'zga chechanligi, zakiy, ya'ni nozik fikr yuritish fazilati o'z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o'ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo'ladi. Latifalarning e'tiborli, tinglovchini o'ziga jalb qiladigan jihati shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini mutlaqo yechimi topilmas vaziyatga tushirishga urinadilar. Ayniqsa, Nasriddin afandi qismati latifaning yakuniy qismiga yetgunga qadar juda og'ir va chorasiz taqdir sharoitida tasvirlanadi. Ammo xalq Nasriddin afandi tarafida bo'lgani uchun ana shunday mushkul vaziyatdan ham o'z topqirligi, so'zga us-taligi bilan qahramonimiz yechim topib keta oladi. Bir misolga murojaat qilaylik. Kunlardan bir kun Afandining saroyga kirib kelayotganidan xabar topgan podsho u haqda o'zi topgan bir voqea bilan mulzam qilmoqchi bo'libdi: «Bugun tunda, - debdi u, - Afandi bilan ikkalamiz tush ko'rdik». Tabiiy, bunday paytlarda Afandi faqat tasdiq ma'nosini bildirishi shart hisoblangan. Podshoh davom etibdi: «Afandi bilan men tushimizda yangi tug'ilgan mushuk bolasiga aylanib qolibmiz. Osmondan bir kalxat tushib, ikkalamizni ikki changaliga olib osmonga parvoz qilibdi. Ammo shu yaqin orada paydo bo'lgan burgutning hamlasidan qochib, ikkalamizni changalidan bo'shatib yuboribdi. Men shinni o'raga tushibman, afandi nopok o'raga tushibdi». Shunda saroydagi mulozimlar afandi ustidan kulib, qah-qaha ko'tarishibdi. Afandi bamaylixotir: «Shohim, tushimizning davomini ham ayting-da», - debdi. To'satdan aytilgan gapdan hayron bo'lgan podshoh ikkilanib: «Xo'sh-xo'sh, davomida nima bo'lgan edi?» - deb so'rashga majbur bo'libdi. Afandi: «Siz shinni o'radan, men nopok o'radan chiqdik, to'g'rimi?» - debdi. «Ha-ha, - debdi podsho, - juda to'g'ri», - debdi. Shunda afandi: «Men sizni yaladim, siz meni yaladingiz», - deb javob bergan ekan.

Ma'lum bo'ladiki, Nasriddinning vaziyatni to'g'ri baholashiga, zudlik bilan to'g'ri yechim topa olishiga tasanno aytmasdan ilojimiz yo'q.

Afandi latifalarida soʻz, iboralarning aniq qoʻllanilishi xalq qahramonining oʻzbek tili imkoniyatlaridan, qochirimlaridan, soʻz oʻyinlaridan haqiqiy zarshunosdek foydalanishini dalillaydi. Afandi juda sodda koʻringani bilan tilimizning goʻzalligini, tovush tovlanishini mahorat bilan qoʻllaydi.

Kunlardan bir kun afandi katta bir amaldorni «Siz ahmoqsiz» deb ranjitibdi. Amaldor uni qoziga boshlab boribdi. Qozi amaldorning xizmatlarini afandiga yaxshilab tushuntiribdi. Nasihat qilibdi. Soʻzining oxirida afandiga amaldorga qarab «Siz ahmoq odam emassiz», - deyishni buyuribdi. Afandi shu zahoti qozining buyrugʻini bajarib: «Siz, ahmoq, odam emassiz» - degan ekan. Jumladagi ahmoq soʻzining undalma urgʻusi bilan talaffuz qilinishi oqibatida shoʻring qurgʻur amaldor avval faqat ahmoq deb atalgan boʻlsa, qozining buyrugʻini «bajargan» afandi endi uni odam oʻrnida ham koʻrmasligini maʼlum qildi. Bunday latifalarni toʻqigan odamlar oʻzbek tilini nihoyatda yaxshi biladigan va soʻz oʻyinlarini chuqur his qiladigan insonlar boʻlishgani aniq koʻrinib turadi.

Badiiy adabiyotda kitobxonni hayot tashvishlaridan maʼlum bir mud-dat davomida toʻliq xalos etadigan asarlar ham yaratiladi. Ayrim sahna asarlarini tomosha qilgan tomoshabin hamma tashvishlarini unutadi. Katta hayot muammolaridan forigʻ boʻladi. Xususan, bizningcha, «Toshbolta oshiq», «Kelinlar qoʻzgʻaloni», «Oltin devor» kabi dramalar aynan ana shu maqsadda sahnalashtirilgan. Bizni oʻziga maftun qiluvchi joziba asar qahramonlarining favqulodda sodda qarorga kelishlari, bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatda boʻlishlari bilan belgilanadi.

Afandi latifalarida afandidagi ikkinchi xislat - uning nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, noʻnoqligini namoyish qilish bilan izohlangan. Bunday namunalarda biz afandining soddaligidan, hayotdagi koʻngilsiz voqealarni oʻziga olmasligidan zavqlanamiz. Afandining afandiligi uning afandiligi bilan sharhlanadi. Yaʼni bironta es-hushi joyida odam qilishi mumkin boʻlmagan qarorni aynan afandi qabul qiladi.

Nasriddin afandi koʻchada ketayotib, kichkina bir koʻzgu - oyna topib olibdi. Uni qoʻliga olar ekan, oʻz aksini koʻrgani zahoti: «E, kechirasiz, oyna siznikimidi?» - deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda afandi: «Kerak boʻlmasa, ayta qolmaysizmi? Oʻzim olar edim-ku», - degan ekan.

Gap shundaki, xalqimiz ijtimoiy turmush tashvishlaridan zerikkan baʼzi paytlarda shunchaki koʻngil xushligi uchun ham kulgi yaratish istagini bildiradi. Bunday latifalardan murakkab vaziyat izohlarini izlash

to'g'ri emas. Chunki ularni xalq faqat yengil kulgiga tashnaligidan yaratgan, xolos. "Kunlardan bir kun tunda afandi suv olmoqchi bo'lib, quduq tepasiga kelsa, quduq tubida oy ko'rinibdi. Afandi xotinini chaqirib, arqon olib kelishini buyuribdi. U arqon yordamida oyni quduqdan chiqarmoqchi bo'lgan ekan-da. Quduqqa tashlangan arqon qaysidir ildizga ilinib qolibdi. Afandi zarb bilan arqonni tortgan ekan, chalqanchasiga yiqilib tushibdi. Shunda ko'zi osmondagi oyga tushibdi. «Hayriyat, chiqarib olibman-ku», - degan ekan afandi o'zidan mamnun bo'lib".

Bunday latifalar bilan tanishish, ayniqsa, hikoya qilish mahoratiga ega inson ijrosida tinglash odamga huzur bag'ishlaydi. Biz avval aytganimizdek, bu turdagi latifalarda tinglovchi sodda afandi qarorlaridan kuladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, xalq bu bilan nima demoqchi ekanini tushunib yetishga ham harakat qilish zarar keltirmaydi. Ehtimol, dono xalq shu kabi latifalar vositasida «Sen bunchalik sodda bo'lma!» demoqchimi? Xulosa chiqarish har kimning o'ziga havola.

Shunday qilib, xalq latifalari og'zaki ijodning ajralmas qismi sifatida qadimgi qadriyatlarning durdonalaridan hisoblanadi. Ularda afandi tim-solida xalqning o'z farzandlariga har qanday mushkul sharoitning ham munosib yechimi borligini uqtirishga da'vat seziladi. Eng muhimi, ana shu yechimni topa bilish mahoratida.

Millatning tabiatini bilmoqchi bo'lgan inson latifalarni tinglash, tushunish, his qilish, qolaversa, maiza qilib kulish orqali muhim ma'lumotlar bilan tanishadi.

Loflar. Badiiy adabiyotda qo'llanadigan san'atlardan biri «mubolag'a» deyiladi. Arab tilidan olingan bu so'z kuchaytirish, bo'rttirish, giperbola ma'nolarini anglatadi. Adabiyotshunoslikda mubolag'aning uch turi belgilangan:

Tablig' - biror og'ir ishni bajarish qayd etiladi, ammo shaxsning irodasi, xohishi va matonati bilan amalga oshirilsa, tablig' san'ati qo'llangan bo'ladi.

Ig'roq - bajarilgan qiyin ishni tasavvur qilishimiz mumkin, ammo haqiqatda esa uni amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

G'uluvv - mubolag'aning bu turida tasvirdagi bo'rttirish holatini ko'z oldimizga keltirish ham, uning hayotda ro'y berishi ham mumkin emas.

Xalq og'zaki ijodidagi loflar mubolag'a san'atiga asoslanadi. Lug'atda «lof» - fors tilidan olingan so'z bo'lib, quruq (puch) gap, safsata, maqtanchoqlik. 1.Folklordagi hajviy-yumoristik janrlardan biri:

haddan tashqari bo'rttirilgan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on gap»²⁸ deb izohlangan.

Loflar xalq og'zaki ijodining latifalar va askiya kabi kulgi uyg'otuvchi ommaviy janri hisoblanadi. Asosan, janrda qo'llanadigan san'at mubolag'aning ig'roq va g'uluvv turi hisoblanadi. Bu janr mohiyatida mubolag'a yetakchi o'rinni egallasa ham, badiiy adabiyotdagi mazkur san'atni qo'llash maqsadi bilan farqlanadi. Chunki xalq ijodidagi dostonlar, ertaklar, yozma adabiyotdagi she'rlar, dostonlarda mubolag'a qahramonning zimmasidagi og'ir vaziyat, u bajargan vazifa oddiy emasligini ta'kidlash maqsadini ko'zlaydi. Xususan, «90 molning terisidan po'stini, 15 molning terisidan kovushi», «14 botmon yoyni qo'liga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi... Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozası olamga ketdi» («Alpomish»). Yoki:

Mehr emas, ohim o'tidin ko'kka yetmish bir sharar,
Ayb emasdur gar desam: «Dam ursam aflok o'rtanur»

baytida Alisher Navoiy osmondagi quyosh aslida men - oshiq ohining bir uchqunidir. Agar rostmana dam ursam, oh cheksam, falak kuyib ketadi, demoqchi. Yuqoridagi misollarda xalq ijodkori, yozma adabiyot vakili tomonidan tasvirlanayotgan voqea ta'sirida tinglovchi, o'quvchida hayrat uyg'onishi uchun mubolag'a san'atidan foydalanilgan. Loflardagi qo'llangan mubolag'ada esa ikki maqsad nazarda tutiladi: birinchidan, lofdagi bo'rttirishning o'ylab topilganidan qoyil qolishimiz, hayratga tushishimiz kerak; ikkinchidan, bizda kulgi uyg'otishi ham zarur. Demak, loflardagi mubolag'aning bajaradigan vazifasi oddiy badiiy san'atnikidan murakkab ekan.

Hayot tajribasidan ma'lumki, inson odatda bajargan ishini, ko'pincha, bo'rttirib ko'rsatishga moyil bo'ladi. Kimdir shaxmat o'ynab, umrida yutqizmagani bilan, kimdir bir quloch baliq tutgani bilan, kimdir yigirma kosa norin egani bilan maqtanadi. Ammo bu gaplarni eshitgan ikkinchi kimsa, albatta: «Siz men bilan shaxmat o'ynamagan ko'rinasiz» yoki «Siz tutgan baliqlar bizning daryodagi baliqlarning yangi urug'dan chiqqaniga o'xshar ekan», yo «Norin yegan kosalaringizni angishivo-

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Иккинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 509.

naning ichiga joylab berishgandir» deb javob qaytargisi keladi. Natijada, xalq og‘zaki ijodidagi loflar janriga asos hosil bo‘ladi.

Loflar badiiy adabiyotning epik turi (jinsi)ga mansub janr. Uning hajmi cheklangan: ikki-uch, uch-to‘rt jumladan iborat. Asosan, dialogda qatnashgan ikki lofchi suhbatidan bir lavha tarzida bo‘ladi. Ularda bo‘rttirilgan yolg‘on voqea to‘qishda mohir, tajriba to‘plagan lofchi deb hisoblangan shaxslar musobaqalashadi. Har ikki taraf aytayotgan voqeasining yolg‘on va to‘qima ekanini juda yaxshi biladi, lekin mutlaqo bu fikrini ochiq aytmaydi. Bu shart buzilsa, lof butun mohiyatini, jozibasini yo‘qotadi. Aksincha, bir lofchi suhbatdoshining bo‘rttirilgan yolg‘on gapini aksariyat hollarda tasdiqlaydi, e‘tiroz bildirmaydi. Faqat lofning mazmunidan xabar topganidan so‘ng unikidan o‘tkirroq, yana ham mubolag‘ali, yolg‘onroq javob topishi lozim. Muhimi, ikkinchi lofchi keyin javob bergani uchun lof shu o‘rinda tugaydi. Ba‘zan dialoglar bir oz davom etishi mumkin, lekin bari bir so‘nggi fikr bildirgan lofchi g‘olib chiqaveradi.

Latifalarda, lofda, askiyada kulgiga sabab bo‘lgan jumlaning kashfiyot darajasida baholash mumkin. Ularni o‘ylab topgan shaxs katta hayot tajribasiga ega bo‘ladi, ayniqsa, vaziyatni to‘g‘ri baholab kulgi hosil qilish mahoratini namoyish etadi. Buning uchun u til boyligidan ham yaxshi foydalana olish fazilatiga ega bo‘lishi zarur. Lof to‘qilganidan so‘ng vaqt o‘tishi, birinchi ijodkor nomining ma‘lum emasligi oqibatida mazkur asarga jamoa, ya‘ni xalq muallif bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham millat vakili o‘ylab topgan asar o‘zbek xalqining zukkoligi, hozirjavobligi, topqirligi, mohir ijodkor ekanligini dalillaydi.

Loflarni, ko‘pincha, latifago‘ylar, askiyachilar, qiziqchilar ijro etishgan. Turli sayillarda, yig‘inlarda, gap-gashtalarda kimdir lof aytishni boshlagani zahoti vaziyat o‘zgargan, fikriy musobaqa boshlangan. Masalan, qiziqchilik va askiyadan ustoz san‘atkor hisoblangan marg‘ilonlik Yusufjon qiziq mohir askiyaboz Mamajon maxsum bilan lof aytishib qolibdi:

Yusufjon qiziq:

- Marg‘ilonning yeri xo‘b yer-da, bir bosh uzumi ikki zambar keladi-ya!

Mamajon maxsum:

- Tokini Andijondan parxish qilib olib ketgandirsiz-da, - debdi.

Bu misolda Mamajon maxsum fikriy kashfiyot jihatdan Yusufjon qiziqni yengdi. Chunki parxish qilingan tokning ildizi Andijonda qoladi.

Binobarin, Mamajon maxsum o'zining viloyatidagi yer hosildorligini Marg'ilonnikidan ustun qo'yan.

Yana bir misolga e'tibor qiling:

Bir lofchi ikkinchi bir lofchining eshigini taqillatibdi. Lofchi chiqib so'radi:

- Men bilan chandishaman deysan, yoshing nechada?
- Odam Atodan yetti muchal kattaman, - deb javob beribdi chaqirib kelgan lofchi. Bu javobdan uy egasi – lofchi ho'ngrab yig'lay boshladi.
- Nega muncha to'lib yig'layapsiz? - so'rabdi mehmon.
- Sen tug'ilgan yili mening bir uyli-joyli o'g'lim o'lgan edi. Shu esimga tushib ketdi, - deb javob beribdi mezbon.

Mazkur lofda eshikni taqillatgan lofchi shunday bir vaqt chegarasini tilga oldiki, undan oldingi muddatni topish mumkin emasdek tuyiladi. Chunki Odam Ato, umuman, odamzodning birinchi vakili hisoblanadi. Birinchi lofchi o'zini Odam Atodan ham yetti muchal katta ekanini aytdi. Ikkinchi lofchi – uy egasi unga mutlaqo e'tiroz bildirgani yo'q. Uning yolg'on gapini haqiqatdek qabul qildi. Ammo shu zahoti raqibi tug'ilgan yili uyli-joyli o'g'li o'lganini eslab yig'lay boshladi. Demak, uy egasi mehmondan kamida qirq yosh katta ekanini ta'kidlamogda.

Xalq o'z loflarida maqol, topishmoq, latifalarda bo'lganidek, maishiy hayotdagi turli lavhalar, vaziyatlar, voqea-hodisalar yuzasidan o'z mulohazalarini kulgili qilib ifodalaydi. Bu esa xalqning bunday holatlarga nisbatan munosabatini bilib olish imkonini beradi. Masalan, ba'zan ikki tanish nogoh uchrashib qolganida, dunyodagi bor-yo'q gaplarni eslab, soatlab gaplashib qoladi. Loflarning birida bu haqda shunday deyiladi:

«Toshkentlik bir mashhur lofchi Andijondagi do'stinikiga kelib, uni lof bilan mot qilmoqchi bo'libdi. Eshigini taqillatsa, haligi do'sti ustiga po'stin, boshiga telpak, oyog'iga etik kiyib chiqib qarshi oladi.

- Ha, yoz saratonida bu nima qilganing? - deb so'rabdi toshkentlik lofchi.

- Sen bilan bo'ladigan suhbat qizib ketib, shu bilan qishga kirib qolsak, sovqotib qolmay deb, bir yo'la kiyinib chiqdim, - deb javob beribdi andijonlik mezbon». Har holda loflarda ham latifalardagi kabi kutilmagan yakuniy xulosalarga kelish vositasida kulgi hosil qilinadi, bu bilan muvaffaqiyat qozoniladi.

Shubhasiz, yozma adabiyot vakillari loflardagi go'zal va jozibali lavhalardan foydalanishga harakat qilganlar. Agar, ko'pincha, adiblar mubolag'a san'atini qo'llashda turli yangiliklar o'ylab topgan bo'lsalar,

keyinchalik loflardagi kulgi uyg'otish usulidan ham foydalanishga erishganlar. Masalan, Maxmur «Avsofi Karimqul mehtar» hazilida qirchang'i otni tasvirlashda shunday yozadi:

Suv ham ichsa, tomog'iga tiqilur
Pashsha gar qo'nsa yolig'a yiqilur.

Zamondoshimiz Erkin Vohidov esa «Boshindadur» hajviyasida o'tgan asrning 60-yillarida o'zini zamonaviy yigit qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan kimsalarning kulgili qiyofasini shunday aks ettiradi:

Nay misol shim kiygan ul
Sandiqdayin tufli bilan.
Hurpayib turgan savatdek
Soch aning boshindadur.

Ma'lum bo'ladiki, yozma adabiyotimiz vakillari o'zbek xalqi tarbiyasida voyaga yetar ekanlar, og'zaki ijodimiz xazinasidan, xususan, loflardan ham unumli foydalanish yo'llarini izlaganlar.

Shunday qilib, loflarda o'zbekning kulgisevar xalq ekani yana bir bor o'z isbotini topganiga guvoh bo'lamiz. Loflar xalqimizning badiiy ijod sirlarini mukammal egallagan ijod sohibi ekanini dalillaydi. Xalq vakillarining so'zga chechanligini namoyish qilishda loflar yaxshigina vosita vazifasini bajargan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Latifalarda kulgi holatini yaratish usuli haqida nimalar bilasiz?*
- 2. Mavzular rang-barangligini o'rganing. Mavzular bo'yicha latifalarni tasnif qiling.*
- 3. Latifalardan namunalar yozib oling.*
- 4. Mubolag'a san'atining loflardagi ahamiyati haqida so'zlang.*
- 5. Loflarda kulgi qanday vaziyat hisobiga hosil bo'ladi?*
- 6. Latifalar va loflarning yozma adabiyotda foydalanilishiga misollar toping.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 216-226.
2. Йўлдошева Ф. Ўзбек латифаларида Насриддин афанди образи. - Т.: Фан, 1979.
3. Шох Акбар ва доно Бирбол. - Т., 1994.
4. Афанди латифалари. - Т., 1989.
5. Саримсоқов Б. Лоф / Ўзбек фольклори очерклари. 2-том. - Т.: Фан, 1989.
6. Ҳожирахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. - Т.: Шарқ НМАК, 1999. – Б. 9-14.

ERTAKLAR

Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og‘zaki ijodida keng tarqalganidek, o‘zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurtodoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. Ularning juda qadim zamonlardan yaratilgani «ertak» atamasining Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1074 yilda yozilgan «Devonu lug‘oti-turk» asarida «etuk» tarzda qo‘llanganidan bilsa bo‘ladi: «Etuk - hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan»²⁹. Bu janrning qadimiyligini qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar oilasiga kiruvchi millatlar og‘zaki ijodida ham ertak deb atalishi isbotlashi mumkin. Shuningdek, miflar, afsona, rivoyatlar haqida fikr yuritganimizda, diffuzion jarayonning keyingi bosqichi ertak ekanligini eslatib o‘tganmiz. Demak, agar xalqimiz og‘zaki ijodini qadimgi qadriyatlar sifatida e‘zozlasak, bu xazinaning noyob durdonasi sifatida hech ikkilanmay ertaklarni qayd etish mumkin ekan.

Ertak terminini O‘zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsa-da, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar «cho‘pchak», farg‘onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzda atashgan. Bulardan tashqari jonli so‘zlashuvda ba‘zan

²⁹ Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар луғати (Девону луғотит турк). III томлик. I -том. - Т.: Фан, 1960. – Б. 98.

afsona, o'tirik, tatal atamalari ham uchraydi. Hatto hazrat Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida «cho'pchak» so'zini qo'llaganlar:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo'lg'ay,
Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur cho'pchak³⁰

(Baytdagi «cho'pchak» «Navodiru-sh-shabob»ning 1959 yilgi nashrida «cho'rchak» shaklida yozilgan. Shuning uchun Alisher Navoiy zamonida «cho'rchak» yoki «cho'pchak» atamasi bor edi deb xulosa qilish mumkin bo'ladi). Ayni paytda baytdagi «uyqu» so'ziga e'tibor bering. Ma'lum bo'ladiki, oqshom payti bolalarni uxlatishda ertakning sehrli ta'sir kuchidan bugungi kunda foydalanar ekanmiz, bu an'ana ham bejiz paydo bo'lmaganini qayd etamiz. Darvoqe, H.Olimjonning 1937 yilda yozgan «Oygul bilan Baxtiyor» ertagini eslashimiz ham o'rinli:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.

Esimda o'sha damlar,
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh³¹.

Shoir doston boshlanishida (dostonning bosh mazmuni ham «Ozoda chehra» ertagiga asoslanishini ta'kidlash mumkin) xalq ertaklari jozibasini shoirona kashfiyotlar bilan yoritib bergan. Bu misralarda «Tohir va Zuhra», «Yoriltosh» ertaklarining nomi tilga olinishidan tashqari «o'zi uchar gilamlar», «oyni uyaltirgan qosh»lar, «beqanot uchgan otlar», «so'ylaguvchi devorlar», «bola bo'p qolgan chollar» sanab o'tiladi. Haqiqatan ham, «Oygul bilan Baxtiyor» adabiy ertagini yozishda shoirga xalq ertaklarining sirli olami ilhom bag'ishlagan va Hamid Olimjon o'z o'quvchisiga bu ilhom izohini go'zal so'zlar bilan yetkazishga harakat qilgan. Yuqorida keltirgan fikrlarimiz xalq ertaklarining haqiqiy so'z

³⁰ Аlisher Навоий. Мукаммал асарлар тўшлами. Йигирма томлик. Наводир-ш-шабоб / Тўртинчи том. - Т.: Фан, 1989. - Б. 235.

³¹ Хамид Олимжон. Танланган асарлар. Уч томлик. 2-том. - Т., 1958. - Б. 101.

san'ati sifatida qadimdan yashab kelayotganini, xalq hayotida ularda tasvirlangan olam muayyan ahamiyat kasb etganini dalillaydi.

Xalq ertaklarimizning badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

2. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina («Yoritosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.

3. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan» boshlamasi va «murod-maqсадiga yetibdi» yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.

4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo'llanadigan ustuvor usuldir.

5. Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi. Har bir ertak I - initsial - boshlanma; M - medial - asosiy qism; F - final - yakunlanmadan iborat bo'ladi.

Ertaklarning miflardan ijod usulini o'zlashtirganligi haqida fikr yuritgan edik. Bu an'ana o'zbek xalq ertaklarining umumiy mazmunida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Ehtimol, bu janr asarlarining yashovchanligini ta'minlagan asosiy xususiyat ham shundan iboratdir. Xalq o'z ertaklarida chegarasiz ravishda xayolot olamini kezib chiqadi. Ya'ni ularda xalq fantaziyasi mahsuli bo'lgan chegara bilmas uydirmalar, transfiguratsiya (bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish) holatlari tinglovchini o'ziga jalb etadi. Vaholanki, ertak boshlanmalaridagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir och ekan, bir to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan..." (olimlar boshlanmadagi tarkibiy "ekan" qismlarning 20 ga yaqin bo'lishini belgilashgan) ibora va jumlar mutaxassislar fikricha, ertakda bayon qilingan voqealarning aslida umuman bo'lmagani va ro'y berishi mumkin emasligini anglatar ekan. Haqiqatan ham, dostonlarda biz bu mazmundagi boshlanma - zachinlarni uchratmaymiz. Shu bois odatga ko'ra dostonlardagi voqealar hayotda bo'lgan deb qabul qilinadi. Ertakda esa tamom boshqa holat hukm suradi. Chunki bu janr boshlanmasidagi "bor-yo'q", "och-to'q" so'zlarining o'zi hikoya qilinayotgan voqeaga nisbatan shubha uyg'otadi. Ammo masalaning qiziq tomoni shundaki, voqea boshlanmasdan atayin shubha uyg'otishga bo'lgan harakat tinglovchiga deyarli ta'sir qilmaydi. Biz ertaklardagi uydirmalarga to'la ishonamiz, asar qahramonlarining taqdiriga befarq qaray olmaymiz, sevikli malika yoki cho'pon muvaffaqiyat qozonsa, bu g'alaba o'zimiznikidek quvonaveramiz.

Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o'z ifodasini topadi, desak xato bo'lmaydi. Shuning uchun ham yer yuzining hamma mintaqalarida yashaydigan xalqlarda umumiy hayot tarzi yaqin bo'lgani sabab bir xil mazmundagi ertaklar ko'p uchraydi. Fransuz, ingliz, xitoy, yapon ertaklari aksariyat hollarda o'zbeklar ijodidagi bu janrdagi asarlar mazmunini takrorlaydi. Faqat fransuzlarda pishloq, uzum; xitoylarda guruch; o'zbeklarda tuxum yoki qatiq kabi narsalar farqi seziladi. Agar o'zga xalqlardagi ertaklar matnida shu yoki boshqa narsalar nomini milliy predmetlar bilan alishtirsak, ko'pincha, boshqa xalqlar namunalari ham o'zbekniki bo'ladi-qoladi. Bu holat sababini avval qayd qilganimizdek, bir xalqdan ikkinchi xalqning o'zlashtirishi deb emas, umumiy hayot tarzining yaqinligi bilan asoslash ma'qulroqdir. Masalan, yoqut xalqidagi "Bekinmashoq", ruslardagi "O'n ikki oy" ("Morozbobo") va o'zbekdagi "Zumrad va Qimmat" ertaklarida voqea tugunidan tortib yechimigacha bir xil yo'nalishda kechadi. Ammo bu asarlarning har biri bevosita o'sha xalq ijodi namunasi deb tan olinadi.

O'zbek folklorshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan Mansur Afzalov o'zbek xalq ertaklari yuzasidan ilmiy ish yozar ekan, bu janrning o'rganilishi tarixiga alohida to'xtagan. Olimning ma'lumot berishicha, o'zbek ertaklariga bo'lgan ilmiy e'tibor XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu o'rinda A.A.Kushakevich, N.Lapunova, A.Vasilev, A.N.Samoylovich, V.V.Bartold kabi bir qator ziyoli va taniqli olimlar ismlari keltirilgan. Shuningdek, «Farhod va Shirin», «Shirin qiz», «Samarqand», «Shahzoda Nazar Muhammad va Malika Nazarbibi», «Annamurod bova haqida», «Erni er qilgan xotin», «Donishmand Cho'pon» kabi afsona va ertaklar matnlarining yozib olinishi, dastlabki tadqiq qilish jarayoni haqida ma'lumotlar qayd etilgan³². O'zbek ertaklari o'z vaqtida Miyon Buzruk Solihov, Hodi Zarifov, Xolid Rasul, Buyuk Karimov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, T.G'oziboev, G'.Jalolov, X.Egamov, H.Razzoqov, J.Yusupov kabi olimlar davom ettirishdi.

Xalq tabiatan hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Ertaklar yaratilish jihatdan miflarga asoslansa, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo'nalishlar, hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo'ysunadi. Qalloblik, vijdonsizlik, xiyonat, yolg'onchilik, ma'naviy nopoklik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, poklik fazilatlarini hurmat bilan tilga olinadi.

³² Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. — Т.: Фан, 1964. — Б. 14-19.

Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarini ulug'lash bilan yechimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o'ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma lavhalar, sehrli narsa-buyumlar, jodular, g'ayritabiiy hodisalar esa tom ma'noda yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqtalishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi.

Xalq ertaklarining mazmun va hayotdagi voqealarni tasvirlash yo'nalishiga ko'ra uch turi mavjudligi M.Afzalov, K.Imomov tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Bu tasnifga ko'ra ertaklar sehrli va hayotiy turlarga bo'linadi. Ammo ayrim adabiyotlarda hayvonlar haqidagi, sehrli, maishiy turlarga bo'linadi. Mansur Afzalov tasnifida yana hayvonlar, sehrli-fantastik, hayotiy-satirik turlar ham ko'rsatilgan. Umumiy tahlilning oson va tushunarli bo'lishi uchun biz ana shu tasnifga binoan ish ko'rishni ma'qul topdik. Ertaklarni tasnif qilish qanchalar murakkab ekanligini ularni tahlil qilish jarayonida o'zingiz anglab yetasiz.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Hayvonlar haqidagi ertaklarni ayrim mutaxassislar sehrli-fantastik ertaklar turkumiga mansub hisoblaydilar. Xususan, K.Imomov, G'.Jalolov o'zlarining tadqiqotlarida hayvonlar ishtirok etadigan ertaklarni sehrli ertaklar qatorida tahlil qiladilar³³. Bu asarlarda hayvonlar ishtiroki, ularning asar qahramonlari bilan suhbatda bo'lishlari olimlarning sehrli ertaklar deb atashlariga asos beradi. Biz bu atamani shartli ravishda qabul qilamiz, chunki sehrli ertaklarning hayvonlar ishtirok etmagan mazmundagilari ham yetarli bo'lib, ularni alohida tahlil qilish mumkin. M.Afzalov hayvonlar haqidagi ertaklarning o'zida turli farqlanuvchi asarlar borligini qayd etadi. Ularning birinchi turiga mifologik mazmun ifodalanganlarini qo'shadi. Ma'lumki, qadim zamonlar totemizm va fetishizm tushunchasi nuqtai nazaridan ajdodlarimiz har bir narsa - predmetni, shu jumladan, hayvonlarni o'zlariga homiy deb bilganlar. Ular tasavvurida odamlar totem va fetish yordamida muayyan yutuqlarga erishishlari mumkin hisoblangan. Bu haqda miflar haqida to'xtaganimizda ham ma'lumot berganmiz. O'zbek ajdodlari bo'ri, ilon, ot va boshqa bir qator hayvonlarni o'zlariga homiylik qilishini ruhan his etganlar. Ertaklarning dastlabki namunalarida aynan ana shu dunyoqarash asosida asarlar yaratganlar. «Bo'ri», «Cho'loq bo'ri», «Ilon og'a», «Ayiq polvon» kabi ertaklar shular jumlasidandir.

«Quyosh yerining pahlavoni» ertagida ona ayiq Rustamni parvarish qiladi, uning hayotida homiy sifatida o'rin egallaydi: Rustam va otasi -

³³ Имомов К. Sehrli ertaklar / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981. - Б. 65-72. Жалолов Г. Sehrli-fantastik ertaklar / Ўзбек халқ ertakлари поэтикаси. - Т.: Фан, 1976. - Б. 39-96.

yamoqchi cholga qo‘lidan kelgancha yaxshiliklar qilib dushmandan asraydi. Mansur Afzalov «Ilon og‘a» ertagini alohida ajratib ko‘rsatadi. «Ilon - kuyov niqobini olsa, insonga aylanadi. Qiz ilonning niqobini kuydirib yuborsa, u kaptar bo‘lib uchib ketadi. Ilon og‘aning onasi va xolasi yalmog‘iz kampir bo‘ladi. Ular Ilon og‘a bilan qizga ko‘p to‘sqinlik qiladilar. Lekin Ilon og‘a va qiz o‘z tadbirlari orqali yalmog‘iz kampirni yengib, murod-maqsadlariga yetadilar»³⁴. Xususan, «Cho‘loq bo‘ri» ertagida podshohning kenja o‘g‘li afsonaviy tilla qushni olib kelish uchun safarga chiqqanida cho‘loq bo‘riga duch keladi. Unga non beradi. Bo‘ri undan yordamini ayamaydi. Qush uchun safarga chiqqan bola bir qiz va ot bilan uyiga qaytadi. Yo‘lda akalarining holidan xabar oladi. Ammo akalari uning ko‘zlarini o‘yib, chohga tashlaydilar. Ertak oxirida kenja o‘g‘il baribir murod-maqsadiga yetishadi, akalari jazolanadilar³⁵. Bu turdagi ertaklarning mohiyati totem hisoblangan hayvon va qushlarning asar qahramoniga o‘zlarining sehrli fazilatlarini tufayli yordam berish bilan izohlanadi. Shu mazmundagi yana bir ertak «Kenja botir» deb ataladi. Unda homiy sifatida ot qatnashadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yana bir turida majoziy fikr yuritish usuli ustuvordir. Bunday ertaklar farzandlarga pand-nasihat, tarbiya berish maqsadida yaratilgan. Har qanday vaziyatda birga bo‘lish, do‘stlikni qadrlash kerakligi ertakning bosh g‘oyalari hisoblanadi. Inson bir-biriga yaxshilik qilsa, albatta, o‘zining orzusiga yetishadi, degan falsafa asosida to‘qima voqealar, qiziq-qiziq obrazlar o‘ylab topiladi. «Susambil» ertagi ana shunday asarlar qatoridan o‘rin olgan. Ho‘kiz, eshak afsonaviy Susambil shahrida erkin, to‘kin hayot kechirmoqchi bo‘ladilar. Ularga xo‘roz, kalamush, arilar ergashadilar. Uzoq qiyinchilikdan so‘ng maqsadga yetadilar. Ammo bu yerda ularga bo‘rilar hujum qiladi. Shunda Ho‘kiz ularni suzadi. Kalamushlar yer kovlab, bo‘rilarni go‘rga tiqmoqchidek qo‘rqitadilar. Arilar chaqadi. Xo‘roz qichqirib, eshak hangrab bo‘rilarni bezovta qiladi. Oxir-oqibat bo‘rilar ahil birodarlardan zo‘rg‘a qochib qutuladilar. O‘z galalariga borib vahima soladilar. Natijada, barcha bo‘rilar Susambildan qochishga majbur bo‘ladilar. Hayvonlar esa to‘kin hayot kechiradilar³⁶. Bu ertakda baxtga erishish oson emas, ammo erishilgan baxtni saqlab qolish undan qam qiyinroqdir, degan dono fikr hayvonlar misolida majoziy tarzda o‘z ifodasini topgan. «Ovchi, Ko‘kcha va Dono» ertagida ham kaptar, sichqon, qarg‘a, toshbaqa, kiyikning

³⁴ Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. - Т.: Фан, 1964. - Б. 25.

³⁵ Ўзбек халқ эртаклари. I том. - Т., 1960. - Б. 579-581.

³⁶ Ўзбек халқ эртаклари. I том. Т., 1960. - Б. 47-56.

do'stligi ularni bir necha marta o'limdan qutqaradi. Faqat samimiy, beg'araz do'stlik oqibatida kaptarlar to'rdan, kiyik tuzoqdan, toshbaqa ovchi solgan haltadan qutuladi. Bu fikrlar zamirida ham faqat do'stlikni qadrlash g'oyasi o'z ifodasini topgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning keyingi turi ko'proq ma'rifiy maqsadni amalga oshirish uchun yaratilgan. Otalar farzandlariga o'z hayot tajribalaridan saboq berishlari kerak. Farzand o'z oilasida katta bo'layotgani sabab ularning atrofida yashayotgan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lmaydilar. To'g'ri, ular qo'y, ot, echki, tovuq, eshakni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar, muayyan tasavvurga egalar. Ammo bo'ri, ayiq, ilon, tulki, burgutni ular bilmaydilar. Shuning uchun ertaklarda ularning hayot kechirish tarzi yuzasidan zarur ma'lumotlarni berish lozim bo'ladi. Bu tasnifdagi hayvonlar haqidagi ertaklarda bo'rining vahshiyliigi, odamga hujum qilishi mumkinligi, tulkining ayyorligi, laylak tumshug'ining uzunligi, kiyik dumining to'mtoqligi izohlangan asarlar vujudga kelgan. Darvoqe, ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, bunday ertaklarning asosiy qahramoni sifatida, ko'pincha, echki ishtirok etadi. Bir qator ertaklarda nima uchun qarg'a qora, kiyik dumi cho'ltoq, musicha ko'kragi nima uchun chakichlanganga o'xshaydi kabi savollarga javob beriladi. Ular qatorida «Bo'ri bilan tulki», «Kiyik bilan kadi», «Xo'roz bilan tulki», «Laylak bilan tulki», «Buzoq, echki va qo'zi» kabi namunalar bor. Masalan, «Kiyik bilan kadi» ertagida Kadi kiyikni qo'rqitadi. Kiyik kadidan o'ch olmoqchi bo'ladi va uni dumiga bog'lab cho'ktiradi. Kadi kiyikni suv tagiga tortadi. Kiyik qirg'oqqa intiladi. Oxiri kiyikning dumi uzilib cho'ltoq bo'lib qoladi. Kiyik dumi kaltaligini masxara qilgan barcha kiyiklarning dumini bir-biriga bog'lab qo'yadi-da, «mergan kelyapti», - deb qochadi. Dumi bog'langan kiyiklar ham har tomonga qochadilar va dumlaridan ayriladilar. Shunday qilib, kiyiklarning dumi cho'ltoq bo'lib qolgan ekan»³⁷.

Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e'tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. Ba'zan bu maqsad kulgili mazmunga ega holda bayon etiladi. Tulki bilan bo'riga bag'ishlangan ertaklarning birida go'sht tishlab ketayotgan bo'ridan tulki: «Bo'rivoy, qayerdan kelayapsan?» - deb so'raydi. Bo'ri: «Popdan», - deb javob beradi va og'zidagi go'shtini tushirib yuboradi. Ikkinchi marta xuddi shunday vaziyatda tulki yana so'raydi. Shunda bo'ri: «G'ijduvondan», - deb javob beradi. Kulgili vaziyat ifodalangan bunday ertak-

³⁷ Ойжамол / Хаётий эртақлар. Иккинчи китоб. - Т., 1969. - Б. 313-314.

larda, bir tomondan, shunchaki hazil nazarda tutilgandek tuyiladi. Ammo ularning zaminida odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati aks etadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yuqorida qayd etilgan uch turidan tashqari qahramonlarning ishtirokiga ko'ra ham muayyan turlari bor. Xususan, faqat hayvonlarga ishtirok etganlari, hayvonlar bilan odamlar ishtirok etgani va h.k.

Xullas, hayvonlar haqidagi ertaklar mazkur janr shakllanishidagi dastlabki namunalarni tashkil etgan. Ularda qadimgi ajdodlarimizning mifik dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Keyingi namunalarda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy, maishiy munosabatlar majoziy tarzda aks ettiriladi. Ularda, asosan, ko'proq tarbiyaviy maqsadlar nazarda tutilgan. Va, nihoyat, bu turdagi ertaklarning nisbatan keyin yaratilgan namunalarida ma'rifiy ma'lumot berish maqsadi amalga oshirilgan.

Sehrlı ertaklar. Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiy o'xshashlik haqida fikr borganida, ko'proq sehrlı ertaklar nazarda tutiladi. Inson qadim zamonlarda ham xayol surgan, o'zicha turli-tuman g'aroyib voqealarni o'ylab topgan. Aslida, miflarning vujudga kelishida ham ajdodlarimizdagi aynan ana shu xususiyat yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik fantastik voqealar totem, fetish obrazlardan uchar gilamlarga, sehrlı dasturxonlarga, oltin qaynaydigan xumlarga, istagan odamni istagan paytda ko'rish mumkin bo'lgan jomlarga, oynalarga o'tgan. Bunday voqealarni o'ylab topish ajdodlarimiz orzulari, havaslari bilan asoslangan. Yo'l azobidan aziyat chekkan inson uchar gilam, ot, manzilga ko'z ochib ochguncha yetkazgan bo'rini o'ylab topgan. Oziq-ovqat topishga qiynalgan odam esa ochil dasturxonning ijodkoriga aylangan. Natijada, sehrlı ertaklardagi voqea-hodisalar haqiqiy ma'noda ajdodlarimiz orzu-havaslarining majmuasini tashkil qilgan.

Ilm-fan taraqqiyotida katta kashfiyotlar, odatda, olim xayolida paydo bo'lgan reja - gipotezadan boshlanadi. Gipoteza asta-sekin rivojlanadi va hayotga tatbiq etilishining loyihasi shakllanadi. Olim ana shu loyihaning ilmiy zaminini topganidan so'ng kashfiyotning amalga oshishi uchun sharoit yaratilgan bo'ladi. Sehrlı ertaklar bir jihatdan inson ongida yaratiluvchi ana shu gipotezalar yo'nalishini boshqargan, deb xulosa qilish uchun yetarli asos bor. Gap shundaki, bugungi kunda oddiy hayot haqiqatiga aylangan velosipeddan tortib avtoullov, poezd, samolyotlar; telefon, telegraf, radio, televidenie, elektr chiroqlarning kashf etilishini bevosita ertaklarda aks etgan orzular bilan dalillaymiz. Uyali telefonni aytmayisizmi, to'quv dastgohlari, har xil kimyoviy, fizikaviy kashfiyotlar

bosqichma-bosqich tahlil etilsa, ularning hammasini biz bir oz oldinroq sehrli ertaklar voqealarida uchratganimizga amin bo'lamiz.

Sehrli ertaklar bosh qahramonga nimadir (ko'pincha, farzand) yetishmasligi, qahramonning yetishmayotgan narsasiga ega bo'lishi, unga nimadir qilishning (gapirish, alohida bir eshikni ochish, biror narsaga qarash va h.k) taqiqlanishi, taqiqning buzilishi, kuchli raqibga duch kelish, xavfli safarga chiqish, safar yakuni, raqib bilan olishuv, murod-maqsadga yetish kabi lavhalardan iborat bo'ladi. Taniqli olim V.YA.Propp yuqoridagi tartibning jahon xalqlari ijodidagi sehrli ertaklar matni tarkibini tashkil qiluvchi asosiy unsurlar ekanini chuqur ilmiy asosda misollar bilan isbotlab berdi³⁸. Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan g'ayritabiiy mo'jizalar ro'y berishi, afsungarchilik, sehrli voqealar, bir narsaning ikkinchisiga aylanishi, bular hammasining muayyan tizim (V.YA.Propp tavsiyasi) tartibida hikoya qilinishi sehrli ertaklar xususiyatini hosil qiladi. Hamid Olimjon ifodalagan «O'zi uchar gilamlar», «O't bog'lagan qanotlar», «Beqanot uchgan otlar», «Qiz bo'lib ochilgan gul», «So'ylaguvchi devorlar», «Bola bo'p qolgan chollar» kabi tasvirlar aynan sehrli ertaklar matnlari bilan bog'liq ekani ma'lum bo'ladi.

Aksariyat hollarda sehrli ertak voqeasi farzandsizlik motividan boshlanadi. Ammo tez orada asar qahramoni farzandga ega bo'ladi. Bu hodisa olma, arpa yoki biror narsa yeyishdan, ba'zan o'z-o'zidan ro'yobga chiqadi. Tug'ilgan bola bilan dastlabki tanishishdanoq uning g'ayrioddiy fazilatlar borligi ayon bo'ladi. Bu fazilat, avvalo, uning o'ta tez sur'atlar bilan katta bo'lishida ko'rinadi. Farzand voyaga yetgach esa o'zi yashayotgan muhitga ta'sir etadi va hayotdagi keskin o'zgarishlarga erishadi.

Sehrli ertak qahramonlari o'lib qayta tirilish xususiyatiga ega ekanliklari bilan ham bizni o'ziga jalb qiladi. To'g'ri, o'lgan odamga jon ato etilishi qadimgi ajdodlarimiz dunyoqarashi ifodasi sifatida baholanadi. Ammo ayni paytda o'lgan odam ruhining kun, oy, yillar davomida o'zi yashagan xonadondan ajramasligi, turli shakl-holatlarda qarindoshlariga ko'rinib turishi sehrli ertaklarda oddiy tasvir vositalariga aylanganini ham qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Xalq ongida insonning biron yaxshiligi, albatta, taqdirlanishi lozim. Asar qahramoni semurg'ga, ayiqqa, laylakka ko'rsatgan yordami evaziga mushkullari oson bo'ladi. Uning yordamidan foydalangan hayvonlar keyinchalik sehrli imkoniyatlari bilan qahramon hamrohiga va biron

³⁸ Пропп В.Я. Морфология сказки. – Москва.: Наука, 1969.

olijanob maqsadni qo'lg'a kiritish vositasiga aylanadilar. Ayrim ertaklarda esa adolat aynan ana shu yaxshilik evaziga g'alaba qozonadi. Xususan, «Ur to'qmoq» ertagidagi cholga o'zi davolagan laylak bir martagina lutf ko'rsatib qolmaydi. Balki o'z sehri ta'sirini oxirigacha amalga oshirib, uning qo'shnisi qilgan xiyonatni oxirigacha fosh etadi va jazolaydi. Bunday ertaklarda adolat tasodifiy emas, qonuniy ajrim ekani voqealar mohiyatiga singdirib yuboriladi.

Sehrlilik ertaklar jozibasi, ko'pincha, asardan o'rin olgan mo'jizaviy safarlar, hayratomuz to'kinlik aks etgan lavhalar, xayol bovar qilmaydigan jodu va afsonaviy uchrashuvlar tasvirida o'z ifodasini topadi. Ertaklarda hayot shu qadar mazmunli va bebaho ehsonki, unda bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisalar tizimining o'zi yo'q, yechimi topilmas muammo uchramaydi, degan xalq falsafasi nafas oladi. «Mohistara» ertagida Odil ismli podshohning farzandi bo'lmaydi. Oxiri Diloru ismli kichik xotini o'g'il tug'adi va uning ismini Shavkat qo'yishadi. E'tibor bering: shoh ismi Odil, kichik xotini - Diloru, kutib-kutib ko'rgan farzandi - Shavkat. Ota o'z farzandini aqlli, ilimli, harbiy san'atning mohir egasi, xulqli-axloqli qilib tarbiyalaydi. Yana e'tibor bering: podshoh o'z o'g'lini davlatiga ishonib erka va ishyoqmas qilib o'stirmadi. Podshohlik davlati o'tkinchi ekanini ta'kidlaydi. Shavkat o'n etti-o'n sakkiz yoshga yetganida ovga chiqadi. Ovda to'rttala tuyog'i sadafdan, har bir oyog'ida to'rttadan oltin halqasi bor, shoxiga oltindan, kumushdan, marvariddan, olmosdan naqshlar ishlangan kiyik uchrabdi. Shundan keyin odamni hayratga solgan ov boshlanadi. Kiyik xuddi Shavkatning yonidan qochib o'tib ketadi. Shavkat dunyoni unutilib uni quvlaydi va jannatmakon boqqa boradi. Uni fayzli chol kutib oladi. Kiyik uning qizi Sayyora ekan. Ertak voqeasi aslida shu yerda yechimini topishi kerak edi. Ammo Shavkat cholning taqdiri bilan qiziqadi. Ota unga Mohistara ismli go'zal haqida xabar beradi. Chol yigitlik paytida Mohistaraga oshiq bo'lgan ekan. Mohistara ismli ma'shuqadan xabar topgan Shavkat uning ishqida ikkinchi safarga o'tlanadi. Yo'lda sirli yoy, gilam, jom va qalpoqlarga ega bo'ladi. Yoydan otilgan o'q, albatta, nishonga tegar edi. Gilam uchadi. Qalpoq uni kiygan odamni g'oyib qiladi. Jom istalgan tilakni bajaradi. Shavkat bu narsalar yordamida Mohistaraga ega bo'lish rejasini tuzadi. Xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlari haqida to'xtaganimizda shartlilikni tilga olgan edik. Chol yoshligida Mohistara qanchalar go'zal bo'lsa, Shavkat uning yurtini topib borganida ham o'zgarmagan edi. Xullas, Shavkat o'z aqli, topqirligi, mardligi, zehni bilan Mohistaraga uylanadi. Murod-maq-

sadiga yetadi³⁹. Ertakni o'qigan, aslida, tinglagan odam yaqin bir kun davomida (ertakning hajmi katta) o'zini sirli bir olamda yurgandek his qiladi. Qimmatbaho toshlar, serhosil mevali daraxtlar, to'kin dasturxon, parichehra go'zal qizlar, dabdabali saroylar, sirli yoy, gilam, qalpoq, jomlar uni o'rab turadi. Ertakni eshitar ekanmiz, Shavkat Shavkat emas, biz o'zimizni Shavkatdek his qilamiz. Sehrli ertak badiiyati, undagi so'zlar magiyasi bizni ruhan o'z og'ushiga oladi. Ertakni tinglagan odam xalqning cheksiz xayoliy voqealar o'ylab topishiga qoyil qoladi, ijrochisiga tashsinlar o'qiydi. Eng muhimi, bezaklangan kiyik, bexato otadigan o'q-yoy, odamni g'oyib qiladigan telpak, uchadigan gilam, niyatni bajaradigan jom, boshqa ertaklardagi daryoga aylangan sochiq, changalzor bo'lib qolgan taroq - hamma-hammasiga tinglovchi ham, kitobni o'qigan o'quvchi ham deyarli ishonadi. To'g'risini aytsak, ertak bilan muloqot qilayotgan paytda undagi voqealarga ishonmaslik uchun vaqt ham bo'lmaydi.

Shunday qilib, sehrli ertaklarni mazkur janr shakllanayotgan davr mahsuli deb baholasak, xato bo'lmaydi. Ulardagi hayratomuz go'zal tasvirlar asarni ijro qilish davomida ertakchining mahorat darajasiga ko'ra qo'shib borgan bo'lishi mumkin. Tajribali va iste'dodli aytuvchi o'zi eshitgan va endilikda aytmoqchi bo'lgan ertagiga ijodiy yangiliklar qo'shgani ehtimoldan xoli emas. Sehrli ertaklar inson fantaziyasi cheksiz ekanini isbotlaydi. Ular turmush tashvishlaridan mushkul holatga tushgan ota-bobolarimizning ovunish vositasi bo'lgan. Ertakni aytish yoki maza qilib eshitish ajdodlarimizga iroda, kelajakka ishonch bag'ishlagan. Ayni paytda xalq og'zaki ijodi namunalarining tom ma'noda so'z san'ati ekanini isbotlovchi dalil sifatida ham xizmat qilgan. Millatdagi katta avlodning keyingi farzandlar uchun pand-nasihati merosiga aylangan.

Maishiy ertaklar. Maishiy ertaklar mazmun jihatdan hayvonlar, sehrli ertaklardan bevosita hayotiy voqea-hodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. To'g'ri, bu turdagi ertaklarda sehrli-fantastik belgilarining mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo umumiy ifoda chegarasi maishiy ertaklarda ancha cheklangan. Chunki ularda xalq, avvalo, oddiy odamlar qo'lidan keladigan ishlar yuzasidan fikr yuritadi. Bevosita real hayot, turmushda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar asos qilib olingani uchun ham bunday asarlar turkumiga maishiy ertaklar atamasi berylgan. Ularda haqiqiy hayotdagi inson - millat vakili (xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin), uning imkoniyati darajasidagi jismoniy kuchi, ilmi, aqliga voqealar zaminida tavsif beriladi. Aksariyat hollarda asar qahramonlarining

³⁹ Мохи́стара. Эрта́к / Сув кизи. - Т., 1966. - Б. 5-52.

ismlari ham qayd etilmaydi. Chol, kampir, bir odam, o'g'il, qiz, kambag'al, kosib kabi insonlar mazkur ertaklarning qahramonlari bo'lib kelaveradi. Bu bilan dono xalq ertakda bevosita tinglovchi aholining har biri asar qahramoni ekanini ta'kidlagan bo'lishi mumkin. Ba'zan esa shaxs haqidagi ma'lumotlar o'ta aniq shaklda beriladi. Ertakchi bu usul bilan ham qahramon taqdiri to'qima emasligini uqtirgandek bo'ladi. Filologiya fanlari doktori Komil Imomov shunday deydi: «Hayotiy-maishiy ertaklarda qahramon obrazi folklorga xos individuallashtirilgan bo'lib, uning ismi, avlod-ajdodi, elat, urug'i hamda voqealar sodir bo'ladigan o'rin-joy nomlarigacha mukammal aniq beriladi. «O'tgan zamonda, Bog'dod tomonda, Mo'majon kampir degan ayol yashar ekan. U qizidan qolgan nabirasi G'aflatjonni bola qilib boqar ekan»⁴⁰. Ma'lum bo'ladiki, qahramon ismi berilsa ham, berilmasa ham asosiy maqsad ertakdagi hikoya qilinayotgan voqea oddiy maishiy turmush sharoitida kechganini ta'kidlashdan iborat bo'ladi. Keyingi maqsad asar ishtirokchilari boshidan kechirgan turmush lavhalari vositasida yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishuvi uchun tarbiyaviy zamin hozirlashdan iboratdir.

«Uch og'a-ini botirlar» ertagida mo'ysafid ota o'z o'g'illarini qo'rqmas, jasur qilib o'stiradi. O'z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: «To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang, baxtsiz bo'lmaysiz». Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Xalqimizda «Och qornim, tinch qulog'im» degan maqol bor. Maqolda odam ba'zan nochor turmush kechirishi mumkin. Lekin bezovta kechgan soniyadan ko'ra och qorin bilan yashash afzal ekani ko'rsatilmogda. Ota nasihatining birinchisi ana shu vaziyatni izohlaydi. Ya'ni tinchlikdan ulug' ne'mat yo'qligi qayd etilmogda. Bu falsafaning aniqligini o'zingiz hayotda sinagan bo'lsangiz, ajab emas. Xalqimizda «Maqtanma g'oz, hunaring oz» maqoli ham bor. Yo'q va amalga oshmagan ishlar qancha maqtalgani bilan amalga oshib qolmaydi. Maqtangan odam yuzi shuvit bo'ladi. Xalqimiz «Mehnat – mehnatning tagi rohat», deydi. Ya'ni: «Qimirlagan qir oshar» deganlaridek, har bir kimsa hayotga ishonishi, harakat qilishni kanda qilmasligi lozim. Quduqdan suv topa olmagan sahrodagi yo'lovchi umidsizlikka uchrab to'xtab qolmasligi kerak. Ma'lum bo'ladiki, ertakni yaratishdan nazarda tutilgan

⁴⁰ Имомов К. Ўзбек халқ эртаклари / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981. - Б. 79.

bosh maqsad farzandga qiyinchiliksiz hayot kechirish kalitini tutqizishdan iborat ekan. Nasihatga amal qilish esa ertakda bayon etilgan voqealarda namoyon bo'ladi. Og'a-inilar ajdar, sher, qaroqchilar to'sig'idan o'z tadbirkorliklari bilan oson o'tadilar. Ammo kenja botir bog'da uxlab yotgan podshohga zahar solmoqchi bo'lgan ilonni qilich bilan chopib, qurolini qiniga solayotganida podshoh uyg'onib qoladi va kuyovini qotillik qilmoqchi bo'lishda ayblaydi. Ana shu voqeada ham haqiqat, adolat oxir pirovardi g'alaba qiladi. Ertak mohiyati unda ifodalangan lavhalar davomida yechilib boradi.

Hayotiy ertaklarda to'g'rilik va egrilik, mehnatsevarlik va dangasalik, poklik va nopoklik, mardlik va xiyonat doimiy ravishda qaramaqarshi qo'yiladi. Xalq ertak davomida kichik, e'tiborga arzimaydigan unsurlardan ustalik bilan foydalanadi, vaziyat yechimini ular orqali hal qiladi.

«Tuhmatga uchragan kishi» ertagida boy ko'chada jiyanining xotinini ko'rib, unga uylanmoqchi bo'ladi. Insofga kelgan amakidek jiyanini savdoga jo'natib yuboradi, ammo keliniga uylana olmaydi. Kelin karvonboshining qo'liga tushadi. Bu yerda ham tuhmatga uchraydi. Zo'rg'a qochib qutuladi. Yo'lda bir o'g'rini o'limdan qutqaradi. Lekin o'g'ri unga tuhmat qilib karvonga sotib yuboradi. Taqdir kelinni qutqaradi. Ammo bu safar kelin o'g'rilar to'dasiga duch keladi. Yana ozodlikka chiqadi va oxir pirovardida bir shaharga podshoh bo'ladi. Ertak oxirida kelinga tuhmat qilgan odamlarning hammasi bir joyga to'planadilar va haqiqat ro'yobga chiqadi. Ertakning bosh g'oyasi ma'naviy poklikni ulug'lash. Xalq «Haqiqat bukiladi, ammo sinmaydi» maqolining izohini bu ertakda ifodalashga harakat qilgan. Har bir lavha muayyan maqsadni amalga oshiradi. Inson idroki chegarasiz quvvatga ega ekanligi isbotlanadi. Bir yoshgina kelinning boshidan o'tgan mudhish hodisalar, uning turli tuhmatlarga bardosh berishi tinglovchiga «Sening peshonangdagi mushkulot kelinniki oldida arzimaydi-ku» degan fikrni ta'kidlagandek bo'ladi. Ertak yakunida yana bir ibratli hikmat bor. Kelinning eri tuhmatchilarni jazolash haqida gapirganida, xotini:

– Yo'q, ular bilan teng bo'lish kerak emas, – deb javob beribdi»⁴¹. Demak, xalq yomon va yovuz odam bilan muomalada bo'lishni, hatto, uni jazolashni ham unga teng bo'lish alomati deb baholaydi. Aynan shu bois o'zbek xalqi, millat mintaliteti haqida gap borganda, oliy himmatlilik, bag'rikenglik tilga olinadi. Binobarin, hayotiy ertaklar (ularni

⁴¹ Тухматга учраган келин. Эртак / Ойжамол (ҳаётий эртаклар, иккинчи китоб). - Т., 1969. - Б. 108.

folklorshunoslikda «hayotiy-maishiy», «hayotiy-satirik», «maishiy» ertaklar deb ham yuritadilar) qahramonlari o'zbek millatining ramziy vakili ekan. Ular xalqqa iymon, vijdon, erk, idrok, iroda, qanoat, aql, hunar, ilm haqida tarbiyaviy tushunchalar beradi.

Xalq ertaklari badiiy so'z san'atining go'zal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir och ekan, bir to'q ekan...» jumlasidan boshlanar ekan, ertak «murod-maqsadiga yetibdi» degan yakungacha tinglovchi diqqati voqealarga to'liq ravishda jalb etiladi. Undan keyin nima bo'ladi, bu hodisa qanday tugaydi, degan savollar tinglovchi xayolini band etib turadi. Ertaklarning yashovchanligiga sabab ham ularning badiiy mukammalligi bilan belgilanadi. Mazmun jihatdan hayotning turli masalalari ertaklar tematik diapazonini ta'minlaydi. Ularning hajmi mazmunda ifodalangan voqealar tizimiga, muammolarning yechimiga bog'liqdir. Shuning uchun ham o'zbek xalqi ertaklari bir necha daqiqada aytib tugallanishi mumkin. Ayni chog'da guvoh zamondoshlarimiz xotirasiga ishonsak, bir necha kechalar davomida aytiladigan namunalar ham bor. Folklorshunoslikda ertak janri bugungi kunda asta-sekin yo'qolib bormoqda, degan mulohazalar yo'q emas. Ammo 2006, 2009, 2010-yillarda Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalari bu fikrni bildirishga hali erta ekanini ham ko'rsatdi. Talabalarimiz bir qator ertaklarni ham yozib olishga muvaffaq bo'ldilar. Bu ijobiy holatning bosh sababini ham ertaklar badiiyatidan axtarish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ertaklar syujeti puxta o'ylab tuzilgan rejaga bo'ysunadi. Har bir voqea ikkinchisi bilan uzviy bog'lanadi, keyingi lavhalar avvalgilaridagi tushunchalarni rivojlantirib boradi. Ertaklarda xalq milliy tiliga mansub so'zlardan o'rnida foydalanish seziladi. Aytuvchi o'z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlarda, albatta, qizlar o'n to'rt kunlik oydan go'zal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ertaklarda juda boy va turli-turli o'xshatish, sifatlash, mubolag'alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham og'zaki ijodimiz tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma'noda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar - injulari darajasida e'zozlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Xalq ertaklari haqida fikr-mulohazalaringiz, ularni o'qishdan hosil bo'lgan taassurotlaringiz yuzasidan suhbat qiling.*

2. *Ertaklarning janr xususiyatlarini moddama-modda ayting, ularning har birini izohlang.*

3. *Hayvonlar haqidagi ertaklar boshqa tur ertaklardan qanday farqlanadi. Boshqa tur ertaklar bilan o'xshashligi bormi?*

4. *Sehrli ertaklar haqida o'qiganingiz bilan avvalgi taassurotlar o'rtasida farq bormi?*

5. *Hayotiy ertaklarning g'oyaviy va badiiy qimmatini haqida nimalar deyish mumkin?*

6. *Xalq ertaklari - so'z san'atining namunasi ekanini isbotlang.*

7. *O'zingiz yashaydigan hududda ertak janri saqlanganmi? Saqlangan bo'lsa, ularni yozib oling va nashr qilingan namunalar bilan taqqoslang.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 187-215.

2. Афзалов М. Ўзбек халқ эртақлари ҳақида. - Т.: Фан, 1964.

3. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. - Т.: Фан, 1976.

4. Юсупов Ж. Хоразм эртаги ва ҳаёт ҳақиқати. - Т.: Фан, 1997.

5. Имомов К. Ўзбек халқ эртақлари / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981. – Б. 62-96.

6. Ўзбек халқ эртақлари. I том. - Т., 1960.

7. Ўзбек халқ эртақлари. II том. - Т., 1963.

8. Олтин олма / Ҳаётий эртақлар. Биринчи китоб. - Т. 1966.

9. Ойжамол / Ҳаётий эртақлар. Иккинчи китоб. - Т. 1969.

10. Сув қизи / Сехрли эртақлар. - Т., 1966.

11. Кулса – гул, йиғласа – дур / Эртақлар. - Т., 1983.

12. Олтин бешик / Эртақлар. - Т., 1985.

XALQ QO'SHIQLARI

Inson borki ishq bor, muhabbat bor. Avloddan keyin kichik avlod, nasldan keyin nasl keladi, ammo insondagi muhabbat tuyg'usi, qalbdagi ehtirosli his-tuyg'ular uyg'onishi o'zgarmaydi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'oti-t-turk» asarida shunday to'rtlik bor:

Bulnar meni ulas ko'z,
Qora mengiz qizil yuz.
Andin tomar tugal tuz,
Bulnap yana ul qachar.

Mazmuni:

Bu mast ko'zli (seviklim)
Qora xoli va qizil yuzi bilan (meni asir qildi).

Yanoqlaridan shirinlik tomib, meni asir qildi-yu,
Lekin keyinidan (tutqich bermay), mendan qochib ketdi.

Misralardagi so'zlarni tushunish qiyin ekanini hisobga olmasak, qo'shiqdagi his-tuyg'u kechagina yaxshi ko'rgan qizi qochib ketgan shoirtabiat yigitning ko'ngil izhoridan farq qilmaydi. Yana bir to'rtlikka diqqat qiling:

Yog'mur yog'ib sachildi.
Turluk chachak suchuldi.
Inju qobi ochildi.
Chindan yipor yugrushur.

Mazmuni:

Yomg'ir tomchilari to'kila boshladi.
Turli chechaklar undi.

Inju qutichalari (g'unchalar) ochildi.
Har tomonda shifobaxsh atir hidlar gurkiradi⁴².

⁴² Малласев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. - Т.: Ўқитувчи. 1976. - Б. 64-65.

Keyingi to'rtlikdagi so'zlar shunchalar sodda va bizga tushunarliki, asl matnni o'qiganda ham asosiy fikrni aniq tasavvur qilishimiz mumkin. Ya'ni hayotning tinimsiz o'tishi sevgi dardiga muhtalo bo'lgan yigit yoki navro'z ayyomida tabiatdagi go'zal o'zgarishlarni ruhan his qilgan inson qalbidagi ichki kechinmalarning jo'sh urishiga mutlaqo ta'sir qilmaydi. Zamon o'zgaraveradi, ammo bahor kelgani zahoti yosh bolalar turli ko'rinishdagi varraklarni uchiraverishadi, ayni paytda, «Boychechak»ni aytishaveradi. Demochimizki, inson paydo bo'libdiki, his-tuyg'ularni ifodalash vositasi hisoblanmish - qo'shiqlar unga hamroh edi.

Biz qo'shiq deb atayotgan janr adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «shlok», «takshut», «ir» (yir), «kug» kabi atamalar bilan qadimdan atalib kelgan. Mahmud Koshg'ariy esa bunday asarlarni «qo'shuq» - qo'shiq, qasida, she'r tarzida beradi. So'zning ma'nosini sharhlashdagi to'rtlikda «malikaga mendan maqto'v yetkaz»⁴³ mazmunidagi misra borki, izohdagi qasida atamasini qo'llash ham o'zini oqlaydi.

Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodimizdagi lirika jinsiga mansub janrdir. Bu janrning boshqa turdagi asarlardan farq qiluvchi bosh xususiyati unda ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashdan iborat. Bu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Boshqa janrdagi asarlarda qahramonning ruhiy holatini aks ettirish belgisi yo'qmi? Boshqa janrlardagi asarlarda asosiy yo'nalish voqeani bayon qilishdan iborat bo'ladi. Faqat ayrim o'rinlardagina his-hayajon tasviri bilan bog'liq parchalarni uchratamiz. Bu o'rinlarda lirik tasvir qahramon qiyofasini ochishda usul bo'lib xizmat qiladi. Xorazm dostonlari bundan istisno. Chunki xorazmlik baxshilar ijro etgan dostonlarning she'riy parchalari qo'shiq qilib aytiladi va ular ham lirik jins namunasi hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari esa to'liq ravishda lirik ijod sifatida belgilangan. Taniqli olima, xalq qo'shiqlarining yirik tadqiqotchisi, butun umrini xalq qo'shiqlarini yozib olish, o'rganish, nashr qilishga bag'ishlagan fidoyi inson Muzayyana Alaviya mazkur asarlarga: «...oddiy hayot hodisalari tug'dirgan hissiyotni ifodalagan, kuyga solishga qulay, qisqa, esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo'lgan she'r qo'shiq bo'la oladi»⁴⁴, - deb ta'rif beradi.

Haqiqatan ham, qo'shiqning paydo bo'lishiga bosh sabab inson kayfiyatidagi chuqur iztirob yoki to'satdan paydo bo'lgan ko'tarinki ruhdur. Inson noxush damlarda ko'proq sukut saqlaydi, xayolda vaziyat yechimini topishga urinadi. Bunday daqiqalarda mungli kuy tasalli beradi,

⁴³ Махмуд Косғарий. Девону луғати-т- турк. I том. - Т.: Фан, 1960. - Б. 357.

⁴⁴ Алавия М. Қўшиқларнинг мазмуни ва шакли масаласига доир / Ўзбек халқ ижоди. - Т.: Фан, 1967. - Б. 73.

ko'ngilni bir oz bo'lsa-da yozadi. Xursandchilik onlarida esa sho'x qo'shiq, raqs hamroh bo'ladi. Ayni ana shunday manfiy va musbat holatlar shaxs qalbida lirik kechinmalarning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi: oqibatda qo'shiqning yaratilishiga sabab bo'ladi. Xalqimizda «Kuygan - qo'shiqchi, suygan - baxshi» hikmati bejiz aytilmaydi.

Qo'shiq haqida nazariy ma'lumot berilgan deyarli hamma adabiyotlarda uning «qo'shmoq» fe'lidan hosil bo'lgani aytiladi. Qo'shiq atamasining tarixi qanchayin sodda tuyilmasin, og'zaki ijodimizdagi bu janr juda murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. O'qilganda, eshitilganda tushunish oson sezilgan to'rtliklar zaminida olam-olam ma'no, murakkab qismat yotadi. Shu bois har qanday qo'shiq bilan tanishganimizda tezlik bilan shoshib xulosa chiqarish to'g'ri bo'lmaydi.

Xalq og'zaki ijodidagi lirik tur hisoblangan qo'shiq quyidagi janr xususiyatlariga ega:

1. Qo'shiqlarda inson kechinmalari, qalb izhorlari aks etadi. Shuning uchun ular lirik jinsga mansub janr deb hisoblanadi.

2. Qo'shiq shaklan she'riy ko'rinishda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznda, ba'zan aruzda yaratiladi.

3. Ko'pincha, xalq qo'shiqlari to'rt misradan iboratdir. Go'zal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega. Ayni paytda bir necha bandlardan iborat muayyan mavzuni yorituvchi qo'shiqlar ham bor. Ba'zan 6, 8 misrali namunalar ham uchraydi. 4 misralilari $a b a b$; $a a b b$; $v v g g$; $a a a b$; $a a a a$ tarzda qofiyalanadi.

Qo'shiqning kuyi bo'ladi. Biror asbob jo'rligida aytiladi. Aksari xalq qo'shiqlari ijrosida asbob jo'rligi shart emas. Ijrochi xonish usulida qo'shiq aytishi mumkin.

Qo'shiq tarixiga bir nazar. Turkiy xalqlar tarixi avval sak, massaget, so'g'd, keyinchalik turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'iz qabilalaridan tashkil topgan mahalliy aholi o'tmishidan iborat. Bugungi kunda mazkur qabilalardan 20 dan ortiq millat vakillari ajralib chiqqan. XIV-XV asrgacha turkiylar tarkibida yashagan har bir xalq bu davrgacha yaratilgan ilmiy, madaniy xazinaga merosxo'r hisoblanadi. O'zbeklar ham ana shu bebaho ma'naviy boylikni yaratgan iqtidorli ajdodlarning avlodidir. Bu jihatdan qaraganda, xalq yaratgan qo'shiqlar tarixi ming-ming yillar bilan o'lchanadi desak, xato bo'lmaydi.

Taniqli uyg'ur olimi Turg'un Olmos 1986 yil «Qashqar-uyg'ur» nashriyotida chop etilgan «Hunlarning qisqacha tarixi» asarida miloddan

oldingi 119-yil yurtning ijtimoiy vaziyati yomonlashishi oqibatida quyidagi qo‘shiq to‘qilganini ma’lum qiladi:

Ayrib qolg‘onda Tilav tog‘idan
Avumas bo‘p qoldi chorva molimiz.
Ayrib qolg‘onda Alchi tog‘idan
Munglanib sarg‘aydi qiz, ayolimiz⁴⁵.

Shubhasiz, qo‘shiq matnidagi so‘zlarning olim tomonidan o‘quvchi qulayligi uchun o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkinligini qayd qilgan holda, ajdodlar ikki ming yil avval ham hayotdagi xoh ijobiy, xoh salbiy vaziyatlarga o‘z munosabatlarini bildirishganiga ishonch hosil qilamiz. Qolaversa, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asaridagi o‘nlab qo‘shiqlarni olim XI asrda yozib olgan. Ammo bu namunalar olim qalamiga tushguniga qadar qadimdan xalq orasida aytilganini hech kim inkor qilolmaydi. «Devonu lug‘oti-t-turk»da esa biz qahramonlik, mehnat, mavsum-marosim, lirik qo‘shiqlar bilan tanishamiz va XI asr turkiy xalqlar og‘zaki ijodida bu janr namunalari boy va mavzuga ko‘ra xilma-xil ekanini ko‘ramiz.

Filologiya fanlari doktori, professor B.Sarimsoqov «Alpomish» dostonining xalqimiz o‘tmishidagi ahamiyatini ta’kidlab shunday deydi: «...o‘zbek xalqi eposi ham ko‘pgina xalqlar eposlari bosib o‘tgan uchta taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, bizgacha yetib keldi. Birinchi bosqichda - qahramonlik, ikkinchi bosqichda - romanik, uchinchi bosqichda esa tarixiy epos tiplari vujudga keldi. Qahramonlik eposi patriarxal - urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi natijasida muayyan elat va xalqning vujudga kelishini badiiy tafakkur nuqtai nazardan asoslab, o‘zining syujeti asosidagi voqealarni real etnik birliklar hayotidagi ulkan voqealardan oladi»⁴⁶. E’tibor bering. Olim qahramonlik eposini elat va xalqning vujudga kelishini badiiy tafakkur nuqtai nazardan asoslovchi omil ekaniga diqqatni qaratmoqda. Ikkinchi masala epos syujetidagi asosiy voqealar real etnik birliklar hayotidagi ulkan voqealardan olinishini qayd etmoqda. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, mazkur «ulkan voqealar» eposga asos bo‘lguniga qadar xalq qo‘shiqlarining yaratilishini taqozo etgan. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida

⁴⁵ مَشْفَر. هونلارنىڭ تىسقىچە تارىخى. تورغون الماس. 1986. 64-بەت.

⁴⁶ Саримсоқов Б. «Алпомиш» эпоси ҳақида уч этюд / «Алпомиш» - ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. - Т.: Фан, 1999. – Б. 118-119.

bugungi kunda xalq repertuaridan mutlaqo o'chib ketgan o'nlab qahramonlik qo'shiqlaridan namunalar keltirilgan. Abdurauf Fitrat o'zining «Eng eski turk adabiyoti namunalari» kitobida bu qo'shiqlarni mavzu jihatdan ajratib tasnif qiladi. Namunalar qatorida shunday to'rtlik bor:

Qo'zi qiyqirib o'g'ush tirdim.
Yog'i qaru kirish qo'rdim.
To'qush ichra urush berdim.
Aran ko'rib bashi tig'di.

Mazmuni:

Tog' tepasidan tubanga qarab qichqirdim, qabilamni to'pladim.
Yov tomon sakrab yugurdim-da yoyimni
Kirishladim (otishga tayyorladim. - muallif.)
Maydong'a kirib urush ochdim.
Yov botirlari meni ko'rgach, boshlarining
O'tkurligi ketdi (boshlarini ko'tarolmay qoldilar)⁴⁷.

Yuqorida keltirilgan to'rtlik mazmunini to'ldiruvchi o'nlab misollar Fitrat kitobidan o'rin olgan. Agar qadimgi qo'shiqlarda lirik yo'nalish bilan bir qatorda epik mazmun ham ifodalanishi mumkinligini nazarda tutsak, «Devon»dagi ko'plab parchalarni ma'lum syujet chizig'iga joylashtirish mumkin bo'ladi. Ularda dushman ustidan g'alaba qozonishning sirlari, raqibni avval do'q-po'pisa bilan ruhan yengib olish usullari, uni g'aflat uyqusida ekanida to'satdan mag'lub qilish taktikasi, g'alaba osonlikcha qo'lga kiritilmasligi, kiritilganda esa butun xalq yayrashi hikoya qilinadi. Aytish mumkinki, Mahmud Koshg'ariy «Alpomish» eposi paydo bo'lishidan oldin ajdodlarimizning mustaqillikka erishishida muhim ahamiyat kasb etgan og'zaki qo'shiqlar tizimini bizga atayin meros qoldirgan va epos paydo bo'lishidan avvalgi ijodiy jarayon haqida ma'lumot bergan. Keyinchalik esa bu asarlardagi qahramonlik ifodasi «Alpomish»dan, yana keyinroq Go'ro'g'li turkumi dostonlaridan o'rin olgan.

Fikrimizni yanada dalillash uchun quyidagi to'rtlikka murojaat qilamiz:

Takra avib akralim,
Attin tushub yukralim,

⁴⁷ Фитрат. Энг эски турк адабиёти namunalari. - Т.: MUMTOZ SO'Z, 2008. – Б. 46.

Arslanlayu kukaralim,
Ko'ji ani kavilsin.

Mazmuni:

Yovning atrofini aylantirib olaylik-da,
Otdan tushib,
Arslonlar kabi baqirishib yuguraylik.
Oning kuchi bo'shahib qolsun⁴⁸.

Bu misolda qadimgi ajdodlarimizning dushman ustidan g'alaba qozonishini ta'minlaydigan usul aks etgan. Bizningcha, bor-yo'g'i shu to'rt misrada uchta harbiy san'at ifodalangan. Birinchidan, dushman qo'shinini qamal holida tor-mor qilish. Ikkinchidan, otdan tushib ovoz chiqarmay hujumga tayyorlanish. Uchinchidan, ruhiyatiga ta'sir qilgan vaziyatda raqibni na'ra tortib talvasaga solish. Lekin ijodkor yana voqeaning oddiy bayonini emas, emosional ko'tarinki ruhiy sharoitni ko'z oldimizga keltirmoqda. Shuning uchun ham qahramonlik qo'shiqlari qahramonlik eposi uchun ijodiy tayyorgarlik belgisi sifatida baholansa, arziydi.

O'zbek folklorshunosligida M.Alaviya, B.Sarimsoqov alohida e'tibor bilan o'rgangan mavsum-marosim qo'shiqlarining tarixi uzoq qadimga borib taqalar ekan. Yil fasllaridagi o'zgarishlar hozirgi paytdagidek odamlarni loqayd qoldirmagan. «Devon»da bahor ayyomidagi go'zal manzara badiiy misralarda aks etganidan tashqari yoz va qish o'rtasidagi munozara ham o'rin olgan:

Yoy qish bilan qarishdi.
Ardam yosin qurishdi.
Chirik tutib ko'rushti
O'qtag'ali o'trushur.

Mazmuni:

Yoz qish bilan qarama-qarshi bo'ldi.
(ularning har biri) maqtanish yoyini qurishdi.
Qo'shin tuzib (bir birini) ta'qib qilishdi.
(Yoy) otish uchun (bir biriga) yaqinlashdi.

⁴⁸ Уша жойда. – Б. 65-66.

Munozarada qish o'zining hokim paytida odamning, hayvonlarning kuchga kirishini, kasallarning yo'qolishini aytib maqtanadi. Yozda chivin, pashshalar ko'payishini, kasallar kuchayishini tanqid qiladi. Qor qishda yog'adi, bug'doy qordan foydalanib unadi, hosil beradi. Yoz esa odamlar uning faslida yayrashini, bulbullar sayrashini aytib qishga e'tiroz bildiradi. Qo'shiqlarda marsiya namunalari ham uchraydi. Afrosiyob (Alp Erto'nga - Artunga)ning o'limi munosabati bilan to'qilgan aza qo'shig'i keltiriladi:

Ulishib eran bo'rlayu,
Yirtin yaqo urlayu,
Siqrib uni yurlayu,
Siqtab ko'zi o'rtilur.

Mazmuni:

Mardlar yig'lab, bo'ridek uvlashdilar.
Yoqalarini yirtib baqirishdilar.
Faryod chekdilar.
Qattiq yig'idan ko'zlari xiralashib, (go'yo) parda bosdi.

Mazkur qo'shiqda so'g'd elining botir farzandi Alp Erto'nga (Afrosiyob) o'limidan keyingi marosim payti ifodasini topgan. Bu jasur va mard insonning eramizdan avval bosqinchilik urushlarini qilgan Iskandar Makedonskiy (eradan avvalgi 356-323)ga qarshi yurtini himoya qilganini nazarda tutsak, marsiyaning tarixi ikki ming yildan ziyod ekani, ayni chog'da marosim qo'shiqlari ham boshqa mazmundagi qo'shiqlar singari uzoq o'tmishga egaligi ma'lum bo'ladi.

Marosimlar qatorida to'ylar ham muhim ahamiyatga ega. El-yurt bor ekan, jamoa bo'lib yashash bor ekan, to'y qilish odati yashayveradi. Tabiiyki, to'y marosimi o'yin-kulgilar, raqslar, teatrlashtirilgan sahnalardan iboratdir. Ularning asosini o'lan aytishlar, yor-yorlar tashkil etadi. Mumtoz adabiyotimiz vakillarining badiiy ijodiga nazar tashlasak, ba'zan o'sha asarlardan namunalar uchraydi. Masalan, Alisher Navoiy «Xamsa»ning beshinchi dostoni «Saddi Iskandariy»da Iskandarning uylanish to'yida o'lan, yor-yor aytish bilan tomoshalar ko'rsatilganini tasvirlaydi:

Mug‘anniy tuzib chinga vaznida chang
Navo chekki, hay-hay o‘lang, jon o‘lang
Desang senki: «Jon qardoshim, yor-yor!»
Men aytayki: «Munglug‘ boshim, yor-yor!»

Albatta, hayot rivoji ta‘sirida marosimlar ham doimiy ravishda o‘zgarib boradi. Marosim qo‘shiqlari ijrosi ham, an‘anasi ham yangilanadi. Lekin Alisher Navoiy baytlari zamonamizdagi o‘lanlar, yor-yorlar ham qadim tarixga ega so‘z san‘ati namunalari ekani haqida tasavvur uyg‘otadi.

Shunday qilib, qadimgi qo‘shiqlar mavzu rang-barangligi jihatidan zamonaviy xalq qo‘shiqlaridan qolishmasligi ma‘lum bo‘ladi. Bu namunalar til jihatdan biz aytadigan qo‘shiqlardan farq qilishiga qaramay, umuman olganda, hozirgi qo‘shiqlarga o‘xshashdir. Ularning hammasini inson ichki kechinmalarini ifodalash fazilati birlashtirib turadi. Chunki bu lirik asarlarda bevosita hayotda ro‘y bergan hodisalargina emas, balki ana shu hodisaga his-tuyg‘u orqali munosabat bildirish yetakchidir. Xalq qo‘shiqlarining bugungi kunda ijro etilayotgan namunalari asosini qadimgi zamonlarda omma orasida yashagan qo‘shiqlar tashkil etadi. Qo‘shiq xalqimizning quvonchli va tashvishli kunlarida, mehnatida hamroh bo‘lgan. Shunday ekan, xalq qo‘shiqlarini millatimiz tarixi sahifalarining go‘zal kuzatuvchilari deyishimiz mumkin. Shuning uchun ham ular xalq qadriyatlarining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi.

*Qo‘shiq*lar tasnifi. Xalq qo‘shiqlari og‘zaki ijoddagi boshqa janrlar kabi mavzu yo‘nalishiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Avvalgi sahifalarda ko‘rib chiqqanimizdek, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida sharhlanishi lozim bo‘lgan bir so‘z ishtirokida keltirilgan qo‘shiqlar o‘zida lirik his-hayajonni ifodalashdan tashqari muayyan mazmunni ham yoritadi. Mavzu yo‘nalishiga ko‘ra qadimiy namunalarni qahramonlik, mehnat, mavsumiy, marosimiy, muhabbat qo‘shiqlariga ajratish mumkin. Bu tasnif hozirgi paytda xalq vakillari tomonidan ijro etiladigan qo‘shiqlarga to‘liq ravishda mos kelmaydi. To‘g‘ri, mazmunan qadimiy qo‘shiqlarga yaqin asarlar ham yo‘q emas. Lekin zamonaviy xalq qo‘shiqlari avvalgilardan hayotni ifodalashda, so‘z qo‘llashda, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda muayyan farqlarga ega. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan fikrlarga suyangan holda og‘zaki ijodimizdagi xalq qo‘shiqlarini quyidagi turlarga bo‘lib tasnif qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Mehnat qo‘shiq-lari.
2. Mavsum-marosim qo‘shiq-lari.
3. Lirik (ishqiy) qo‘shiq-lar.
4. Tarixiy qo‘shiq-lar.

Mehnat qo‘shiq-lari. O‘zbek xalqi tarixini shartli ravishda mehnat qilish tarixidan iborat deyish mumkin. O‘zbeklar to‘y marosimlarini, gap-gashtaklarni, sayillarni, turli bayramlarni o‘tkazishda o‘ta tashkilotchi va ijodkor xalq sifatida shuhrat topgan. Dam olish, hordiq chiqarishni o‘rniga qo‘ygan xalq, odatda, mehnat qilishni ham biladi.

Mehnat esa dehqonchilik, chorvachilik, kasb-hunar; ilm-fan rivoji yo‘lida faoliyat ko‘rsatish bilan uzviy bog‘lanadi. Xalq mehnat samarasini muttasil ravishda oshirish chorasini ko‘rib kelgan. O‘tgan asr o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan yozuvchi Oybek «Qutlug‘ qon» romanida kosib Shokir otaning mahsi tikish bilan band bo‘lgan paytlarini tasvirlaganda shunday deb yozadi: «Yupqa devor bilan hovlidan ajralgan do‘konxonada Shokir ota ishlaydi. Ba‘zi vaqt uning qo‘shig‘i Unsin qulog‘iga yetadi. Chol xasta ovoz bilan kuylaydi. Ovozini bir qo‘yib, yana to‘satdan jim bo‘ladi. ...Unsin diqqat bilan tinglab, mana shu misralarni uqib oladi:

Ko‘rmasaydim bu umr sahrosini,
 Chekmagaydim ko‘kka o‘tlik ohini.
 Pora-pora yirtdi ko‘ksimni sitam,
 So‘rg‘uchi bormi ko‘ngilning zorini?⁴⁹

Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida quyidagi nozik matnni o‘qiymiz: «Uzoqda qo‘sh haydab yurgan yigitning ashulasi eshitaladir: «Ikki yorni ajratuvchi bu falakning gardishi!» Ruhlik, kuchlik ko‘krakdan chiqqan bu ashula tevarakni zir-r etdirib yuborgandek, Otabekka ham boshqacha bir ta‘sir beradir. Go‘yo bu dehqon uning istiqbolidan hikoya qilgandek bo‘ladir»⁵⁰.

Ma‘lum bo‘ladiki, mohir yozuvchilar badiiy asarlarda obraz yaratish jarayonida mehnatkash ommaning vakillarini xalq qo‘shiq-larini aytish bilan bog‘laganlar. Qanday mehnat turi bilan shug‘ullanmasin, millatimiz vakillari qo‘shiq-ni hayot hamrohi deb bilganlar. Ayniqsa, bevosita mehnat qo‘shiq-lari boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi ish jarayonini o‘zida

⁴⁹ Oйбек. Қутлуг қон. Роман / Асарлар. Тўрт томлик. Иккинчи том. - Т., 1957. - Б. 288-289.

⁵⁰ Қодирий А. Ўткан кунлар. Мехробдан чаён / Романлар. - Т., 1992. - Б. 113.

ifodalashi bilan mashhur. Mehnat esa o'ziga yarasha jismoniy harakatdan, ba'zan zerikarli bir xil faoliyatdan iborat bo'ladi. Bu esa odamni toliqtirgan ishni to'xtatmasdan ovunish choralari ni izlashga majburlagan. Ana shunday murakkab vaziyatlarda qo'shiq aytish samarali yechim vazifasini o'tagan. Tanob-tanob yerga don sochish, keyinchalik hosil o'rish, chelak-chelak sut sog'ish, metrlab gilam to'qish faqat aytishga oson. Aslida, bu ishlar dehqon, sut sog'uvchi, gilam to'quvchi, bug'doyni un qiluvchidan kuchli iroda, katta jismoniy kuch, malaka va tajriba talab qilgan. Shuning uchun tadbirkor xalq mehnatni qo'shiq jo'riligida amalga oshirish yo'lini o'ylab topgan.

Mehnat qo'shiqlari o'z tarkibida bir necha janrlardan iborat bo'ladi. Har bir janrni bevosita mehnatning qaysi turi bilan band bo'lish belgilaydi. Xususan, o'rmak qo'shig'i gilam to'qishda aytilar ekan, aynan shu namuna kashta tikuvchi, qo'sh haydovchi shaxs tomonidan ijro etilmaydi. Ya'ni har bir mehnat sohasi o'zining maxsus qo'shig'iga egaligi bilan ajraladi. Shuningdek, ko'p qo'shiqlarda ish qurollariga murojaat qilish odati bor. Bug'doy yanchayotgan dehqon ho'kizi bilan tillashadi, un chiqarayotgan ayol yorg'ichoqqa murojaat qilishi mumkin. Binobarin, mehnat qo'shiqlarining ichki turlarini matnda esga olingan ish quroli vositasida ham aniqlash imkoni bor. Yana bir xususiyatni eslab o'tish joiz. Mehnat qo'shiqlari uzoq muddat davomidagi ishni bajarishda o'ziga xos vosita bo'lgani sababli ularda qayta-qayta bir matnni takrorlashdan chaqlanish, ish qilayotgan odamning sergakligini oshirish uchun turli xitoblarga murojaat qilish ham an'ana hisoblanadi.

Folklorshunos Bahodir Sarimsoqov mehnat qo'shiqlarini o'rganish, tahlil qilishning qulayroq yo'lini belgilash maqsadida ularni quyidagi turlarga bo'lishni ma'qul topgan:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
2. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar⁵¹.

Olimning ta'kidlashicha, ovchilik, savdo-sotiq kabi mehnat turlari bilan ham bog'liq asarlar bo'lgan, ammo bu namunalar bugungi kunda saqlanmagan. Xususan, ularning ayrimlarini faqat Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'oti-t-turk» asaridagina uchratish mumkin.

Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar. Qo'llanmaning avvalgi sahifalarida «Avesto» haqida to'xtaganmiz. Qadimgi asarda bug'doyni

⁵¹ Саримсоқов Б. Қўшиқлар / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. - Б. 144.

ekishga berilgan ahamiyat inson taqdiri bilan uyg'unlashgan. Bu esa o'zbek xalqi ajdodlarining dehqonchilik bilan shug'ullanishi yuzlab emas, minglab yillarga tengligini isbotlaydi. Binobarin, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarda ekin-tikin jarayoni boshidan oxirigacha bosqichma-bosqich aks etishi tabiiydir. O'zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov bevosita hayot aks etgan qo'shiq namunalari alohida e'tibor bilan yondashar ekan, dehqonchilik haqidagi asarlarni yozib olishni qadrlagan edi. Shuning uchun o'zbek olimlari bisotidagi dehqonlar aytadigan qo'shiqlar nisbatan to'liq yozilganligi bilan ajralib turadi. Ularni Bahodir Sarimsoqov qo'sh, o'rim, yanchiq, yorg'ichoq qo'shiqlari tarzida ichki turlarga bo'lib tahlil qilgan⁵².

Dehqonning mehnati yer qa'ridan taft kelishi bilan bog'liq. Tajribali bobolarimiz fikricha, bahor yerdan bug' ko'tarilishidan boshlanadi. Qishning oxirida yerdan bug' ko'tarildimi, dehqon qo'shni dalaga olib chiqadi. Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida Aminning Qobil boboga bergan masxaraomuz:

- Yaxshi ho'kizmidi, yo yomon ho'kizmidi? - savoliga chol:

- Qo'sh mahali, - deb javob qaytaradi. Ya'ni yer haydash boshlangan paytda ho'kizning yaxshi-yomoniga e'tibor berilmaydi, demoqchi. Shu ikki og'iz so'z bilan yer haydashning og'irligi, hosil uchun bu ishning muhimligi o'z ifodasini topgan. Dehqon yerni haydashdan kelajakka umid bildiradi. Mehnatning mashaqqati bu umid oldida orqaga chekinadi. Shu bois ho'kizning shoxiga yog' surib hosil mo'lligini ruhan ta'minlamoqchi bo'lgan dehqon qo'shiq bilan o'zini ovutgan bo'lishi mumkin. To'g'ri, bu qo'shiqlar, ko'pincha, ho'kiz tilidan aytilgan. Og'ir qismatdan dehqon hayvon nutqi vositasida noligan:

Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,
Ustida o'ynar qaldirg'och,

Hayday desam, qornim och,
Men qo'shga qanday yarayin.

Aslida, oxirgi ikki misra ho'kizning emas, dehqonning ahvolidan xabar bermoqda. Natijada, dehqon ho'kizdan hasrat qilish vositasi sifatida foydalanmoqda. Bu o'rinda qo'shiqdagi og'ir turmush sharoitining

⁵² Саримсоқов Б. Деҳқончилик билан боғлиқ кўшиқлар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди китобида. - Т.: Ўқитувчи, 1990. - Б. 144-150.

aks etishi qo'sh haydash paytida dehqonning mehnatini qanday qilib yengillashtirishi mumkin degan mantiqiy savol paydo bo'ladi. Savolga ikki xil javob berish mumkin. Birinchidan, inson tabiatida bir xil zerikarli ish qilayotgan paytda nimanidir aytib turish unga hamisha madad bag'ishlaydi. Dehqonning qanday qo'shiqni aytishi ahamiyatsiz. Muhimi, u qo'shiq aytsa, bu qo'shiq haqiqatdan xabar bersa, bas! Ikkinchidan, mabodo dehqon mazkur to'rtlikni aytdi, undagi mazmunga ham diqqat qildi, deylik. U taqdirda taxmin qilish mumkinki, aytuvchining harakatini endi alam boshqara boshlaydi. Oqibatda, u omoch tishlarini yerga chuqurroq botirishga, bemajol qo'l mushaklarini yaxshiroq harakat qildirishga urinadi. Ishning yakuniy bosqichida esa rahm, shafqat mazmuni o'z-o'zidan quyilib keladi:

Ho'kizginam, bo'yniginang ezildi.
Ko'zginangdan yoshlar qator tizildi.
Bo'yinturuq bilan omoch tortmasang,
Seni bilan menga go'rlar qazildi.

Bu mazmundagi to'rtlik ijrosida ham aytuvchining chuqur ruhiy ichki kechinmalari ifodalangan. His, tuyg'u o'rin olgan qo'shiq esa har qanday og'ir vaziyatda ham kishi kayfiyatiga dalda beradi, mehnat jarayonini nisbatan yengillashtiradi.

Yer haydalib, don sochilganidan so'ng yetilgan hosilni o'rish boshlanadi. Avvalo, o'rishni yer haydash bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Agar yer haydash bitta odam tomonidan bajarilsa, jismoniy quvvatni qo'llash og'ir bo'lsa, bahorda "ilik uzildi" (odam tanasidan quvvatning qochishi) paytiga to'g'ri kelsa, hosilga ko'proq umid bildirilsa, o'rim o'rishda dehqon har holda quvvatga kirgan, o'rgan har bir bug'doy poyasi uning kuchiga kuch qo'shadi, xirmondan aniq darak beradi. Ikkinchidan, o'rim jarayonida jamoa bo'lib ishlash imkoni bor. Bu omillar, shubhasiz, o'rim o'rishda dehqon kayfiyatini yaxshilaydi. Ustiga ustak qo'shiq aytilsa, nur ustiga nur bo'lib qo'shiladi. Shuning uchun o'rim qo'shiqlari qo'sh qo'shish paytida aytiladigan to'rtliklardan o'ynoqiligi, nisbatan sho'xligi bilan farq qiladi:

O'rog'im olmos,
O'rishdan qolmas,

Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas.

Yuqori sahifalarda qayd qilganimizdek, dehqon ish qurolini maqtaydi, undan qoniqayotganini izhor qiladi. O'roqning olmos kabi o'tkir ekanida o'zining charxlash mahoratini maqtash ohangi ham yo'q emas. O'rni kelganda, dehqon bug'doyga ham murojaat qiladi. Bug'doydan to'p bo'lib turishni so'raydi. Shunda uni o'rish oson kechishini ta'kidlaydi. Ayni paytda dehqonchilik qo'shiqlari qatorida «Qora daryo» turkumi ham mavjud bo'lib, unda ekinlar intoq⁵³ san'ati vositasida tilga kiradi va muayyan tajriba natijasini izhor qiladi. Mazkur to'rtliklarda arpa, bug'doy, sholg'om, mosh kabi ekinlar so'zlaydilar. Aksari hollarda ularning xasratlari bilan tanishamiz:

Sholg'om aytar shod bo'lmadim,
Bu g'amdan ozod bo'lmadim.

Suv ichib obod bo'lmadim,
Toshmadingmi, qora daryo?

Bahodir Sarimsoqovning ma'lumot berishicha, o'rim hashar qilib o'tkazilayotganda: «...o'rimchilarni zeriktirib qo'ymaslik, ishtiyoq bilan mehnatga chorlash maqsadida so'zga chechan kishilar turli lirik qo'shiqlardan yoki qiziqarli dostonlardan parchalar kuylab, o'roqchilarga dalda berganlar. Qashqadaryo, Surxondaryo va janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbeklar o'rim paytida «Yozi bilan Zebo» dostonidan parchalar kuylaganlar»⁵⁴.

Dehqonchilik qo'shiqlarining yana bir turi yanchiq paytida aytilgan. Ko'pincha, ularni xalqning o'zi «Mayda», «Mayda gul», «Maydalar», «Xo'p mayda» deb ataydi. Hosil yig'ish ko'ngildagidek natija berganida dehqon endi o'zini ruhan tetik his qiladi. Aksincha bo'lgan taqdirda ham o'zbeklarda «nasiba» degan shukronalikni ifodalovchi so'z bor. Shuning uchun mayda qo'shiqlarida biz qo'sh qo'shiqlarida, «Qora daryo»da bo'lganidek, qismatdan nolish, dard-hasrat ohanglari nisbatan kam o'rin

⁵³ Инток – нутқ сўзидан олинган бўлиб, нарса-предметларни инсон тилида сўзлатиш санъати ҳисобланади.

⁵⁴ Саримсоқов Б. Деҳқончилик билан боғлиқ кўшиқлар / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. Б. 147.

olganiga guvoh bo‘lamiz. Bunday qo‘shiqlarda tabiat bergan in‘omdan mamnunlik kayfiyati ustuvordir. Dehqon yana hayvonga murojaat qiladi:

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda, maydayo-mayda,
Qalqon qulog‘im hayda, maydayo-mayda.
Temir tuyog‘im hayda, maydayo-mayda,
Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda.

Ba‘zan esa dehqon o‘zining hazilini ham qo‘shiqlarda ifolashi mumkin. U ish hayvoni ustidan kulishga va shu usul bilan ko‘nglini yozishga uringan:

Mayda-mayda may bosar, maydayo-mayda,
Mayda senga yarashar, maydayo-mayda.
Sening qalin terilaring maydayo-mayda,
Etik qilsa yarashar, maydayo-mayda.

Odatda, mayda qo‘shiqlari dehqonning bevosita ko‘ngil izhoridan iborat bo‘lishi mumkin. Chunki yanchiq jarayonida o‘rimdagidek keng jamoa ishtiroki talab qilinmaydi. Ijrochi qo‘shiqlarini ho‘kiz yoki boshqa hayvondan tashqari yanchiqda deyarli hech kim eshitmaydi. Ayni paytda baribir bosh maqsad yil davomida qilingan mehnat mahsuliga tezroq ega bo‘lishni taqozo etadi. Qo‘shiq dehqondagi zerikish holatini yumshatish va har bir harakatning samarasini oshirish vositasi vazifasini bajargan. Ammo agar bu qo‘shiqlarda dehqon bajarayotgan mehnatgina aks etgan desak, xato bo‘ladi. Chunki har bir qo‘shiqda dehqon, albatta, o‘zining ichki kechinmalarini, hayot tajribasidan olgan taassurotlarini, turmush tashvishlarini ham bayon qiladi. Qo‘shiq aytuvchi sahnadagi san‘atkor xonanda emas, balki daladagi oddiy ijrochi va ayni shu paytning o‘zida uning o‘zi tinglovchi sifatida namoyon bo‘ladi. Aslini olganda, uning qo‘shiqlarini yer haydayotgan yoki bug‘doy yanchayotgan ho‘kiz eshitadi, xolos. Dehqonga ho‘kizidan boshqa tinglovchining keragi ham yo‘q. Chunki u dilidagi his-tuyg‘uni o‘ziga o‘zi aytadi va shu yo‘l bilan qilayotgan ishini yengillashtiradi, hasratini yozadi. Aytish mumkinki, bunday vaziyatda dehqon yonidagi hayvon uning vafodor sirdoshiga aylanadi.

Dehqonchilik qo‘shiqlarining so‘nggi turi «Yorg‘ichoq» qo‘shiqlari deb ataladi. Yorg‘ichoq bug‘doyni un qiladigan xonaki asbobning nomi.

Ikki ustma-ust qo'yilgan ichki qismi yo'nilgan toshning o'rtasi o'yilgan bo'ladi. Tepa qismdagi tosh chekkasiga yog'och dasta suqiladi. Shu dastani ushlab toshni aylantirishadi. O'rta teshikka solingan bug'doy doni markazdan qochish kuchi hisobiga ikki tosh o'rtasida maydalanib unga aylanadi. Bu ishni faqat ayollar bajaradi. Binobarin, og'ir mehnat davomida aytiladigan qo'shiqlarni ham ayollar ijro etadilar. Ularda ayol yorg'ichoqqa murojaat qiladi. U bilan gaplashadi, xasratlashadi, dardini to'kadi. Natijada, yorg'ichoq oiladagi onaning his-tuyg'usini samimiy ravishda bayon qilish vositasiga aylanadi:

Yorg'ichoq yalpoqqina,
Un qilar oppoqqina,
Yorg'ichoq xir-xir etar,
Mushtdakkina xamir etar.

Yorg'ichog'im guldur-guldur,
Bo'g'zim to'la oppoq undir,
Boy bobomning xonadoni,
Ikkimizni yeydir-yeydir.

Shunday qilib, yil fasllari o'zgaradi, dehqonning ish quroli (ho'kiz, omoch, o'roq, yorg'ichoq) o'zgaradi, ammo qo'shiqni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad (og'ir mehnatni yengillatish, turmush hasratini aytib yurakdagi g'amni yozish) o'zgarmaydi. Har qanday vaziyatda ijro etiladigan qo'shiq hayotning lirik ifodasi sifatida baholanadi.

Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar. «Alpomish» dostonida Boy-bo'ri yetti yoshga yetgan Hakimbekni «o'g'limga endi shohlik, sipohilik ilmini o'rgatayin», - deb mulladan chiqarib oladi. Boysari ham Barchin qizini «Qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin», - deydi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida «Igdishchilar birla qatilmaqni ayur» (Chorvadorlar bilan aralashmoqlikni aytadi) bobi bor bo'lib, unda:

Qimiz, sut ya yun yag' ya yug'rut qurut,
Yadim ya kidiz ham ezar evka tut

bayti bor. Bobning va baytning umumiy mazmuni xalq hayotining farovonligi bir dehqonga, bir chorvadorga bog'liq ekanini tushuntirishdir.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek qadim zamonlardan chorva bilan shug'ullangan. Bu soha xalq orasida alohida ilm va tajriba birligini tashkil etuvchi bebaho boylik hisoblangan. Chorva mollarini sog'ishda qo'shiq aytib turish ana shu tajribaning kashfiyotlaridan edi. Bugungi kunda jahon ilmfanida hatto suvning yaxshi va yomon gaplarni tushunishi, musiqaning farqiga borishi, o'ziga bo'lgan munosabatga ko'ra shifo qilish xususiyatini o'zgartib turishi isbotlandi. Vaholanki, xalq bunday yangiliklarni ming yillar oldin hayot tajribasidan kelib chiqib bilib bo'lgan edi. Faqat ilmiy asosda isbotlamagan bo'lishi mumkin. Xususan, sigir, qo'y, echkilarni sog'ish paytida sog'uvchi, odatda, bitta ko'ylakdan foydalgan, sog'ish vaziyatini hayvon ixtiyoriga ko'ra tanlagan, qo'shiq aytib sog'adigan molini iydrgan. Natijada, sog'iladigan sut miqdorini ko'paytirgan.

«Ho'sh-ho'sh» qo'shiqlari sigir sog'ishda aytilgan. Vaqt o'tishi bilan sigir qo'shiq ohangiga o'rgangan. Qo'shiq aytilgan zahoti tinchlangan, sutini o'ziga tortmagan. Sigir sog'uvchi sigirga siporish qilganda aytadigan asalli so'zlarini alohida mehr bilan kuylagan. Va sigir bu mehrni his qilgan. Oqibatda, har ikki taraf-sog'uvchi va sut beruvchi foydada bo'lgan:

Ho'shim molim govmishim,
Emchaklaring sovmishim,
Oralab yeding o'tingni,
Iyiblab bergin sutingni.

Seni siylab boqayin,
Ko'zmunchoqlar taqayin,
Quralay ko'z govmishim,
Tuyoqlari kumushim.

Zotli molim ho'sh-ho'sh,
Sutli molim ho'sh-ho'sh.

E'tibor bersak, dehqonchilikda ho'kiz «temir tuyog'im» deb erkalangan edi. Endi sog'ish paytida sigirga «quralay ko'z», «tuyoqlari kumushim» deb murojaat qilinmoqda. Shubhasiz, inson bu erkalashlarni ho'kiz yoki sigir tushunmasligini yaxshi biladi. Lekin qo'shiq ijrosi davomida tovush tovlanishining, ohangning hayvonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham yo'q

emas. Gap shundaki, ijtimoiy hayot og'ir, turmush o'tkazish juda qiyin bo'lgan bir paytlarda oiladagi bitta sigir butun oilani boqgan, o'limdan qutqargan. Shuning uchun uy bekasining qo'shig'ida sigiriga ich-ichidan rahmat aytish tuyg'usi ham o'z ifodasini topgan.

«Turey-turey» qo'shiqlari qo'ylarni sog'ish paytida aytilgan. Bahor fasli qorako'l sovliqlar uchun fojia davri bo'lgan. Qorako'lchilikda qimmatbaho teri olish uchun qo'zilar ko'p vaqt o'tmay so'yilgan. Sovliq ham bolasidan judo bo'lgan, ham yeliniga sut to'lib azob tortgan. Shuning uchun ona qo'ylarni sog'ishga chorvadorlikda alohida e'tibor berilgan. Sog'ish bilan bolasidan ajralgan qo'y qismati nisbatan yengillashgan. «Turey-turey»lar matnida sut sog'uvchi qo'yning qo'zidan ajralganiga hamdardlik bildirgan, unga achinish tuyg'usini ifodalagan. Har holda qo'yni maqtashga uringan:

Bolalilar bosh bo'lar, turey-turey,
Bolasizlar yosh bo'lar, turey-turey,
Kelar yili tuqqaning, turey-turey,
Qo'zingga yo'ldosh bo'lar, turey-turey.

Xalqimizning boshqa mavzu va turdagi qo'shiqlari singari turey-tureylarda ham qo'ylarni jonlantirish, ya'ni sut sog'uvchi uni o'ziga suhbatdosh odamdek tasavvur qilish usuli yetakchi hisoblanadi. Qo'shiq ohangi og'ir, vazmin aytiladi. Qo'yning aqlliligi, irodaliligi, o'z egasiga xayrixohligi oshirib ta'riflanadi. Hatto ona qo'y bog'da ochilgan gulga tenglashtiriladi. Aytish mumkinki, turey-tureylarda xalqning asrlar davomida qo'y boqish mashaqqatidagi tajriba badiiy yo'l bilan o'z aksini topadi. Tarixdan ma'lumki, bittagina o'ta sifatli qo'zi terisi o'rni kelganda katta-katta amaldagi odamlar o'rtasida muomalani boshqargan. Oy nurida tunda tovlanadigan terilar qimmatbaho zargarlik gavharlaridan ortiq baholangan. Qo'y egasi, ehtimol, ana shu hayot lavhalarini ham nazarda tutgan bo'lishi mumkin:

Esli molim - oqilim, turey-turey,
Yelkamdagi kokilim, turey-turey.
Shuncha molning ichida, turey-turey,
Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.

Churiyalar. Chorvachilikda churiya qo'shiqlarining ham o'ziga xos o'rni bor. Avvalo, sog'iladigan sigirga, qo'yga, echkiga alohida-alohida qo'shiq yaratilishiga e'tibor beraylik. Ho'sh qo'shiqlari qo'y sog'ishda aytilmaganidek, turey-tureylar va churiyalar sigir sog'ishda aytilmaydi. Tabiiyki, hayvon uchun qanday qo'shiq aytib sog'ish baribir emasmi? – degan savol tug'iladi. Yo'q, hayvon uchun ham baribir bo'lmagan. Egasi buni hisobga olgan. Gap shundaki, har bir chorvador qo'yga, echkiga o'ziga xos munosabatda bo'ladi. Ular hatto sigirning qaysi rangni yaxshi ko'rishini, qaysi qo'shiqni eshitganida ko'proq sut berishini bilganlar.

Churiya qo'shiqlarining mazmun-mohiyati ham echkini maqtashdan, uning odat va fazilatlarini oshirib ta'riflashdan iborat:

Og'ziginangda o'ting bor, churey-churey,
Yelinginangda suting bor, churey-churey.
Sersoqolim jonivor, churey-churey,
Kerilib turgan buting bor, churey-churey.

Bu qo'shiqlarda «og'zing» emas, «og'ziginang», «yelinging» emas, «yelinginang», «sersoqolim» kabi so'zlarga e'tibor bering.

Shoxlaring bor bir minora, churiya-churiya,
Minora qushlar qo'nara, churiya-churiya.
Bolang olib iskasang-a, churiya-churiya,
Kuygan yuraging qonar-a, churiya-churiya.

Mazkur to'rtlikka o'xshash qo'shiqlarda o'ziga xos kichik lirik asar yaratilgandek tasavvur hosil bo'ladi. Hatto sut sog'uvchining dardi «bolang olib iskasang-a» misrasida aks etmaganmikan, degan fikr paydo bo'ladi.

Xullas, chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar xalqimizning qadimdan bu kasbni egallab kelganidan, chorvachilikning sir-sinoatlaridan xabardor ekanidan darak beradi. Xalq har bir hayvonga xuddi odamdek muomalada bo'lgan. Uni erkalagan, maqtagan, ta'riflagan, sifatlagan. Eng muhimi, aytilayotgan qo'shiqning oxir oqibat natijaga ijobiy ta'sir qilishini bilgan.

Shubhasiz, «Ho'sh», «Turey-turey», «Churiya» qo'shiqlarini chorvadorlar orasida yashagan shoirtabiat odamlar to'qishgan. Bu qo'shiqlarda so'z san'atining boshqa namunalari bo'lganidek, turli badiiy vositalardan foydalanilgan. Xususan, «esli molim», «qalam qoshing», «zotli

molim» kabi sifatlashlar; «qozon-qozon suting bor», «aqlisan, donosan», «shoxlaring bor bir minor» kabi mubolag'alar; «yelkamdagi kokilim», «bog'da ochilgan gulim» kabi istioralar; «qalam qoshing suzilsin», «sutliligingni bildirgin» kabi jonlantirishlar qo'llangan. Qo'shiqlarda qo'fiya san'atiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu tasvir vositalari qo'shiqlarning estetik qiimmatini oshirgan, joziba bag'ishlagan. Ayni paytda xalq qo'shiqlari xazinasidan munosib o'rin olish imkonini ta'minlagan.

Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar. Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonida «Uzlar birla qatilmaqni ayur» (Hunarmandlar bilan aralashmoqni aytadi) bobini hunarmandlarga bag'ishlagan. Unda temirchi, etikchi, o'ymakor-duradgor, bo'yoqchi, rassom, o'qsoz-yoysozlar maqtovi berilgan. Dunyoning go'zalliklari bulardan chiqadi, olamdagi hayratomuz ishlar bulardan chiqadi, deb shoir hunarmandlarning hayotdagi o'rini yuqori baholaydi. Haqiqatan ham, hunarmandlar jahon sivilizasiyasi rivojiga munosib hissa qo'shgan kasb sohiblaridir. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan qog'ozdan tortib shohi atlasgacha, o'ymakorlikdan tortib to'qilgan gilamlargacha dunyoda mashhur bo'lgan. Hunarmand ustalarning shogird tanlash sinovida mumtoz she'riyatimizdan baytlar so'rash odati keng tarqalgan edi. Chunki biror hunarni mukammal egallamoqni faqat kasbiy mahorat bilan cheklash mumkin emas edi. Mohir hunarmand ma'naviy jihatdan ham komil inson bo'lishi talab qilingan. Shuning uchun ham hunar egalari qo'shiq aytgan, askiya sirlarini bilgan, musiqa chalgan. Bu an'ana bugungi kunda ham saqlangan. Qo'shiq jo'rligida tayyorlangan mahsulotga ustaning mehri qo'shilgan.

O'zbek mehnat qo'shiqlarining salmoqli qismini gilam to'qish, kash-ta tikish, charx yigirish kabi hunar bilan shug'ullanish davomida aytiladigan namunalar tashkil etadi. Ularning eng qadimgilaridan biri charx qo'shiqlari hisoblanadi. Bugungi kun tekstil sanoati paydo bo'lmasdan oldin paxta chigiti qo'lda ajratilgan. Maxsus yasalgan qurilma - charx aylantirilib, paxta tolasidan ip yigirishgan. Mehnat u qadar og'ir bo'l-magan, ammo juda zerikarli va unumsiz edi. Ish jarayoniga bir oz bo'lsa-da yengillik bag'ishlash maqsadida charx qo'shiqlari aytilgan:

Charx yigirib, charx yigirib,
Shul qo'lginam toladir.
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qoladir.

Odatda, ip yigiruvchi ayollar ip ishlatadigan kosiblarning buyurtmalarini bajarishgan. Ayniqsa, qish faslida yollanib bajaradigan ishlari kamaygan paytda ip yigirish oilada ro'zg'or tebratish vositasiga aylangan. Majburiyat uy bekasidan butun irodani ishga solib mehnat qilishga undagan:

Charxginam, ey charxginam,
Yurakkinam olasan.
Ayt-chi, sen bu yurtlardan
Qachongina yo'qolasan.

Yuqoridagi to'rtlikda charx aylantirayotgan ayolning qalbidagi butundard, alam yorilib chiqqandek taassurot uyg'otadi. «Qachongina yo'qolasan» so'z birikmasidagi fikr yo'nalishi charxga qaratilgan emas, balki butun qismatga, taqdirga nisbatan chiqarilgan hukm qimmatida baholanadi. Aslini olganda, ayol charxning yo'qolishini istamaydi. Chunki charx, ehtimol, ro'zg'orning so'nggi ilinji va umid vositasi bo'lishi mumkin.

Bo'z to'qish jarayoni ham charx yigirishdan oson bo'lmagan. Faqat bo'z to'qishda bir nechta do'kon deb atalgan bo'z to'qish qurilmalari bir xonaga joylashtirilgan bo'lib, bu yerda ikki va undan ortiq kosiblar birga ishlashi mumkin edi. Bo'z to'qilganda qo'l va oyoq muayyan maqsadga binoan bir xil harakatda bo'lgan. Kosiblar bu harakatlarga shu qadar ko'nikib ketar edilarki, ba'zan do'konda ishlamayotgan bo'lsalar ham odatiy harakatni takrorlayverardilar. Qo'shiq esa soatlab tinmay ishlash jarayonida ularning ovunchog'i vazifasini bajargan. Qo'shiq kuylashdan kosib estetik qoniqish hosil qilgan:

Bo'z to'qiyman qirog'ini o'xshatib,
Mokki otaman qo'lg'inamni qaqshatib,
Bozordagi shohilardan yaxshiroq,
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

Yuqoridagi qo'shiqda bo'zchining o'z mehnatiga bergan bahosi ham ifodalangan. Ma'lumki, bo'z paxta ipidan to'qilgan. Bunday matoni, odatda, iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlanmagan odamlar sotib olganlar. Bo'zning pishiq, ayni paytda, mayin chiqishi kosibning ustaligiga bog'liq edi. Uzilgan ipni o'sha zahoti ulash, mokkini bir xil otish, tepkini maromida bosish mahsulot sifatini belgilagan. Binobarin, bo'zchi o'z ish fao-

liyatini nazorat qilishi lozim edi. Ammo turmush tashvishi, buyurtmachilarning injiqligi, iqtisodiy tanqislik kosiblik ishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun mehnat qo'shiqlarining hamma turlarida bo'lganidek, ma'nosi bir xil, matni boshqa quyidagi qo'shiq vujudga kelgan:

Do'kon uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o'lmay qolsam, yaxshiydi,
Qarisi tillaga ketsa, yaxshiydi,
Shundan mening bo'zim arzon ketarmi?

Marg'ilon, Qo'qon shahridagi kekxa bo'zchi otalar bilan bo'lgan suhbatimizda, ular bo'z qo'shiqlarini doimiy ravishda xirgoyi qilmasliklarini eslashdi. Ish paytida ular «Galdir», «Omon yor», «Sumbula» qo'shiqlarini, askiya payrovlarini aytib g'ubor chiqarishar ekan. Bu holat boshqa kasbdagi odamlar uchun ham taalluqlidir. Xususan, charx yigiradiganlar faqat charx, bo'zchilar faqat bo'z, gilam, sholcha to'qiydiganlar faqat o'rmak qo'shiqlarini aytishgan, deb xulosa chiqarish to'g'ri emas. Ularning har biri o'z kasbiga mos qo'shiqni aytgan, ammo ko'ngil va xohish amri bilan mashhur lirik qo'shiqlar ijrosini ham yoddan chiqarishmagan.

O'rmak sholcha yoki gilam to'qish uchun tayyorlangan maxsus qurilma, dastgohdir. Uning yordamida, asosan, ayollar sholcha, gilam to'qiydilar. Biz ko'rishga odatlangan gilamlar millimetr ustiga millimetr jun ipining ustma-ust tushishi va keyingi qatlam ip bilan o'zaro birikuvidan paydo bo'ladi. Maxsus to'qmoqqa o'xshagan asbob bilan ming-ming martalab kaltaklanadi va iplarning o'rtasi jipslashtiriladi. Deyarli hamma viloyatlarda ayollar to'qigan gilam va sholchalar turmushga uzatiladigan qizlarga sep, ro'zg'ordagi biron kamchilikni to'ldirish vositasi bo'lgan. Qo'shiq ana shunday mashaqqatli mehnatni yengillatgan:

O'rmagimni o'ray-yo,
Men boshimga quray-yo,
O'rmakkinam o'ngin deb,
Endi sendan so'ray-yo.

Bir tur qo'shiqlarda ham odamlar turmush, nasiba, taqdir tashvishi va quvonchlarini izhor qilishgan. Ba'zan hazil, ba'zan chin qabilida ichki kechinmalar bayoniga duch kelamiz:

O'rmagim yotibdi o'ralib,
Men yuribman kerilib,
Qaynonam qaramaydi,
O'rmagimga o'yirilib⁵⁵.

Shunday qilib, mehnat qo'shiqlari haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Mehnat qo'shiqlari qaysi mavzuda va qaysi turda yaratilishidan qat'i nazar lirik asarlar hisoblanadi. Ularda qo'shiqchining qilayotgan mehnatiga, iqtisodiy holatiga, hayotiy voqealarga nisbatan bo'lgan munosabati his-tuyg'ulari orqali aks etadi.

Xalqimizning mehnat qilishi, chorvachilik, dehqonchilik, turli kasb-hunar bilan shug'ullanishi qanchalar qadimiy bo'lsa, qo'shiqning yaratilishi ham shunchalar tarixiydir.

Hayotning barcha sohalarida faoliyat bilan shug'ullangan ajdodlarimiz mashaqqatli va zerikarli mehnat jarayonining samarasini oshirish maqsadida maxsus kasb-hunarlar bilan bog'liq qo'shiqlar ijod qilganlar, kuylaganlar.

Mehnat qo'shiqlarida hayvonlarni va ish qurollarini erkalash, ularga murojaat qilish, ularni jonlantirish, ba'zan gapirtirish xususiyati yetakchilik qiladi.

Mehnat qo'shiqlarining tili sodda, kuyi yengil, fikrni ifodalash usuli oddiy bo'lib, asosiy maqsad ish jarayonini yengillatish, qo'shiq aytuvchi shaxs ruhiy holatini ko'tarishga qaratilgan bo'ladi.

Mavsum-marosim qo'shiqlari. Xalqimizda mavsum, marosim, bayram so'zlari bilan ifodalangan tushunchalar bor. Ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun bu so'zlarning ma'no ifodalash chegarasini belgilash zarur. «Mavsum» deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq bo'ladi. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bo'ladiki, «marosim» tushunchasi «bayram» so'zi ifodalagan ma'nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog'lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo'lishi lozim. To'g'ri, biz, ko'pincha, «bayram marosimi»

⁵⁵ Ўйрилиб – ўгирилиб, кайрилиб.

birikmasini qo‘llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta’kidlanadi.

Dunyoda bironta xalq yo‘qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o‘tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o‘yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o‘rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to‘ldiradi, mukammallashtiradi.

Olimlarning ma’lumot berishlaricha, mavsum-marosimga oid tadbirlar, xalq ommaviy bayramlarining tarixi minglab yillar bilan o‘lchanar ekan. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida «Navro‘z», «Ramush og‘am», «Boboxvora» kabi o‘ndan ortiq bayramlar xususida ma’lumot beriladi. Xalqimiz bugungi kunda mavsum-marosim, bayram va udumlarni o‘tkazishning uzoq qadimiy-larini qayta tiklamoqda, ularni tashkil qilishda mukammal rejalar bilan ish olib bormoqda.

O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, folklorshunos olim Muzayyana Alaviyaning «O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari»⁵⁶, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqovning «O‘zbek marosim folklori»⁵⁷, filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo‘raevning «O‘zbek mavsumiy marosim folklori»⁵⁸, olim Nasriddin Nazarovning «Laqaylar: etnografiya, lingvistika va folklor»⁵⁹ asarlarida chuqur ilmiy asosda tahlil etilgan.

Xalqimiz har bir faslning o‘ziga xos fazilatlarini ta’rif etgan, qish, bahor, yoz, kuz fasllarida tabiatda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni qo‘shiq-larda lirik tarzda ifodalagan. Xususan, qish faslida «Sherda» nomi bilan atalgan gap-gashtak, ulfatchilikda:

Qor yog‘mayin ola bo‘lgan tog‘lar-a,
G‘unchasidan xazon bo‘lgan bog‘lar-a,
Kuyistonda kuyib o‘tgan bedilxon,
Ustida qag‘illab o‘tgan g‘ozlar-a,
Begim, allayor, allayor

⁵⁶ Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. Т., «Фан», 1974.

⁵⁷ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Т., «Фан», 1986.

⁵⁸ Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. - Т.: Фан, 2008.

⁵⁹ Назаров Н. Лақайлар: этнография, лингвистика ва фольклор. - Т.: Tamaddin, 2010.

qo‘shig‘i ulfatlarning jo‘raboshisini saylashda aytilgan. Bahorda turna, boychechak, sumalak, shox moylash qo‘shiqlarini aytish odat bo‘lgan:

Adirlar to‘la chechak,
Biz keldik ucha-ucha,
Boychechagim, boychechak,
Kutib oling, hoy chechak.

Xalq odatlariga ko‘ra o‘tkaziladigan shamol to‘xtatish, shamol chaqirish, oblo baraka kabi yozgi marosimlarda o‘ziga xos qo‘shiqlar aytilgan:

Choy momo, choy, choy, choy,
Chayilib qolsin quv shamol,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol.

O‘zbekistonda kuzning fayzi alohida qayd qilinadi. Hosil yig‘ish, qovun sayli, to‘kinlik xalqqa mamnuniyat bag‘ishlaydi. Bu faslning ham o‘z qo‘shiqlari mashhur:

Qovun-qovunlar dedim,
Mazali qovunlar dedim,
Ey shirinnovvot dedim,
Gurvak qovunlar dedim⁶⁰.

Xalqimizda marosimlar juda ko‘p. Yil quruq kelib, bahorda yomg‘ir yog‘masa, «Yomg‘ir chaqirish» marosimi («Sust xotin»); bug‘doy, sholi boshloqlari yetilgan paytda shamol ularni payxon qilsa, «Shamol to‘xtatish» («Choy momo»); don mahsulotlarini shopirish vaqtida shamol bo‘lmasa, «Shamol chaqirish» («Yo, Haydar»); yil sovuq kelsa, omad yuz o‘girsas, qurbonlik keltirish marosimlari o‘tkazilgan. Ayniqsa, oilaviy marosimlarda: to‘y va azalarda qo‘shiqlar mehmon va mezbonlarning, mayit egasining doimiy hamrohiga aylangan.

To‘ylardagi yor-yorlar, o‘lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo‘lib qolgan. Hayot tajribasi oilaviy

⁶⁰ Жураев М. Мавсум кўшиқлари / Ўзбек мавсумий маросим фольклори. - Т.: Фан, 2008. - Б. 252.

turmush totuvlikdan boshlansa, mehr yetakchi bo'lsa, keyingi hayot ham inoqlikda o'tishini tasdiqlagan. Shuning uchun kuyov-kelin ko'nglini bir-biriga yaqin qilish orzusi qayta-qayta tilga olinadi:

Shoyi ko'ylak yengiga
Tut qoqaylik yor-yor,
Kelin-kuyov ko'ngliga
O't yoqaylik yor-yor.

Xalq qo'shiqlarini yozib olish tajribasi shuni ko'rsatadiki, yor-yorlar xalq orasida boshqa mazmundagi qo'shiqlardan kengroq ommalashgan-dir. Yaqin ellik yil atrofida o'tkazgan folklor ekspeditsiyalari davomida O'zbekistonning ko'p viloyatlarida bo'ldik, Janubiy Qozog'istondagi Chimkent, Turkiston hududlari, Tojikistonning Xo'jand, Isfara, Konibodom atrofi, Turkmanistondagi Ko'hna Urganch manzillarida yashayotgan o'zbeklar hamisha folklor amaliyotchilarini yor-yorlar bilan siylashgan. Ma'lumki, og'zaki ijoddagi qo'shiq o'zining tez fursatda, ba'zan badihago'ylik - improvizatsiya usulida yaratilishi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shoirlik iste'dodiga ega bo'lgan yor-yor ijrochisi to'y vaziyatiga qarab yangi-yangi to'rtliklarni to'qib ketavergan. Natijada, aynan to'y o'tkazilayotgan payt qo'shiq matnida foto tasvirdek aks etib qolgan:

Qish kunida sovuq yeb,
Horib keldik yor-yor,
Achchiq-tirsik kerakmas,
Koyib keldik yor-yor.

Albatta, hayot, ijtimoiy tuzum, siyosiy sharoitlar taqozosi bilan doimiy ravishda o'zgarib borgan. Turmushga chiqayotgan qiz o'z turmush o'rtog'ini faqat go'shangadagina ko'rishi mumkin bo'lgan zamonlar o'tdi. Ba'zan davlatmand odamlarning ikkinchi, uchinchi, hatto to'rtinchi xotini bo'lish taqdirida yozilgan qizlar ham bo'lgan. Bunday qismat ifodasi yor-yorda aks etmasligi mumkin emasdi:

Uzoqqa borgan qizning
Rangi sariq, yor-yor,
Ko'zidan oqqan yoshi
Misli ariq, yor-yor.

Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi, yor-yor,
Yangi tushgan kelinni
G'am bosibdi, yor-yor.

Turmushga chiqqan kelinning dardi, alami bilan g'am bosgani tokchada ishlatilmay qolgan qaychining zang bosishiga qiyoslanmoqda. Bunday tasvir vositasi folklorshunoslikda parallelizm deb nomlangan bo'lib, ikki yonma-yon narsaning o'xshashligini taqozo etadi.

Yor-yor matnlari mehnat va mavsum qo'shiqlaridan qofiyalanishi-dagi mukammallik bilan ajralib turadi. Jumladan, yor-yorlarda «baxt», «taxt»; «omon», «somon», «alvon», «polvon» kabi chiroyli qofiyali misollarni uchratamiz. Bu qo'shiq turlari ba'zan olti, ko'pincha etti bo'g'indan iborat bo'ladi. Turoq tizimi 4+3; 5+2 tarzida belgilanadi. Qofiyalanish shakli $a b$, $b a$ yoki $a b$, $v b$ tarzida shakllangan. Masalan:

Qat-qat ko'rpa ustida,
Piyolaman yor-yor.
Yorga salom bergani,
Uyolaman yor-yor.

Kelin salomlar ham to'y qo'shiqlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. An'anaviy kelin salomlar matnida Allohga, Muhammad payg'am-barimiz (s.a.v)ga, chahoryorlarga, avliyo va anbiyolarga murojaat qilish alohida o'ringa ega. Agar xalq qo'shiqlarining boshqa turlarini ko'pchilik bo'lib ijro qilish mumkin bo'lsa, kelin salomlar, asosan, bitta chechan qo'shiqchi, ba'zan ikkita ayol tomonidan ijro qilingan. Odatda, kelin salom aytuvchi ijrochi mazkur marosimga fayz kiritishi yoki, aksincha, qizita olmasdan uyatga qolishi kuzatiladi. Shuning uchun ijrochi butun tajribasini, mahoratini, xonandalik san'atini to'liq namoyish qilishga urinadi. Atrofdagi qatnashchilar ruhiyatini ko'tarish uchun yumor unsurlaridan foydalanadi. Kelin salomlar aksari uch misradan iboratdir. Shundan ikkitasi fikr ifodalash maqsadini nazarda tutsa, uchinchisi naqarot sifatida takrorlanadi:

Ko'ylaklari yamoqli,
Yopgan noni sanoqli,
Qaynonasiga salom.

Muhimi, bunday kulgili mazmundagi misralar marosim ishtirokchilari tomonidan hazil ma'nosida tushunilgan.

Marsiyalar. Ma'lumki, inson hayoti faqat bayramlardan, xursandchilik, sayillar, to'y-tomoshalardan iborat emas. Hayotda ko'ngilsiz voqealar ham ro'y berib turadi. Ularning eng musibatlisi o'limdir. O'zbek xalqi o'lim marosimida ham qo'shiq aytgan. Qadimda maxsus giryandi (giryandi)lar yig'lash marosimlarini qo'shiq aytib o'tkazganlar. Bunday qo'shiqlarni marsiyalar deb atashgan.

Marsiyalarning asosiy vazifasi hayotdan ko'z yumgan shaxsning fazilatlarini esga olish, ro'y bergan musibatga munosabat bildirishdir. Shuning uchun ota, ona, aka, uka, opa, singil, bola kabi qarindosh-urug'lik belgilari marsiyalarda alohida tilga olinadi. Marsiya matnlarida o'kinch, hasrat ifodasi alohida o'rin tutadi. Aytib yig'layotgan shaxs marhumga «suyangan tog'», «ishongan bog'», «osmondagi yulduz», «hayotdagi yorug' yulduz» istioralarini qo'llaydi. Farzandning ota-onasiga xizmat qila olmagan, aka va ukaning qadriga yetmagani, ayniqsa, farzandining orzu-havasini, uylanganini yoki kelin bo'lganini ko'ra olmagan o'ta ta'sirli so'zlar bilan bildiriladi:

Aytmay desam bo'lmaydi,
Dog'ingiz oti qo'ymaydi,
Ishongan bog'im, voy otam,
Suyangan tog'im, voy otam.

Yoki:

Hovlimdagi giyoh bo'ling, voy onam,
Har kun sizni iskayin, voy onam,
Yana qaytib bino bo'ling, voy onam,
Doim sizni eslayin, voy onam.

Marsiya matnlarini o'rganish ularning she'riy texnika jihatdan u qadar mukammal emasligini ko'rsatmoqda. Bo'g'inlar sonining mos emasligi, turoq tizimiga yetarli e'tibor berilmasligi, qofiya qoidasiga rioya qilmaslik odatiy holat ekanini aytish mumkin. Bizningcha, bu turdagi qo'shiqlarda ko'proq aytilayotgan to'rtlikning ma'nosi, kuydagi mung yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Yana bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Folklor ekspeditsiyasiga chiqqan paytimizda yozib olish eng qiyin kechgan qo'shiq turi marsiyadir. Aksari hollarda marsiya aytuvchilar amaliyotchilar iltimoslarini bajarmaydilar. Estdan chiqqanini bahona qilib, suhbat mavzuini o'zgartiradilar. Ehtimol, ular qadimgi irimlarga bo'ysunib zaruratsiz hollarda marsiya ayishdan saqlansalar kerak.

Shunday qilib, mavsum-marosim qo'shiqlari haqidagi ma'lumotlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– Mavsum va marosim qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy namunalaridandir.

– Xalq hayotidagi bayramlar, oilaviy marosimlar, yil fasliga oid mavsumlar alohida-alohida aniq mavzuni ifodalovchi mazmunga ega.

– Mavsum-marosim qo'shiqlari ba'zan ommaviy tarzda ijro etishga mo'ljallangan bo'lishi bilan birga maxsus tayyorgarlik ko'rgan mahoratli ijrochilar ijodini inkor qilmaydi.

– Xalqimizning o'tmish madaniy merosiga, qadriyatlariga munosabat mavsum-marosim qo'shiqlarida alohida namoyon bo'ladi.

– Mavsum-marosim qo'shiqlari badiiy mukammallik jihatidan so'z san'ati talablariga to'liq javob beradigan she'riy matnlardan iborat.

Lirik qo'shiqlar. Avvalo, ta'kidlash lozimki, xalq qo'shiqlari mavzuyida misol qilib keltirgan, nazariy ma'lumot berilgan, tahlilga jalb qilingan hamma to'rtlik shaklidagi she'riy asarlarning hammasi badiiy adabiyotning lirik jinsiga mansubdir. Shu bois «lirik qo'shiqlar» atamasini shartli tushunish maqsadga muvofiqdir. Aslida folklorshunoslikda lirik qo'shiq deganda, ishq-muhabbat izhor etilgan to'rtliklarni nazarda tutish qabul qilingan. Agar mehnat, marosim asarlarida yetakchi maqsad ish qurollari, mavsumdagi tabiat o'zgarishlari, marosim tartiblari his-tuyg'u vositasida aks etsa, lirik qo'shiqlarning asosiy vazifasi muhabbat tuyg'ularini ifodalash bilan belgilanadi. Binobarin, lirik qo'shiqlarda mohiyatan ichki kechinmalar, ishq-muhabbat dardiga yo'liqishdan mamnunlik kayfiyati ustuvordir.

Har bir yigit-qiz balog'at yoshiga yetganda muhabbat tuyg'usini boshidan kechiradi. Insonning sevishi yoki sevilishi, ishq kechinmalariga yo'liqish tashvishlari uni shoirlikka undaydi. Lirik qo'shiqlar matnini o'rganish ularni faqat muhabbat tuyg'usini yurak qon tomirlaridan his qilgan shaxslargina yaratishi mumkin, degan xulosaga olib keladi. Endi ikki tarafdin iborat bo'lgan ishq kechinmalarida bir tarafgina ishtirok etsa

yoki o'rtada muayyan to'siqlar paydo bo'lsa, muhabbat savdosi avj oladi, yechimsiz holatda insonni qiynaydi. Masalan:

Qizil gulni ekasan-da, ketasan.
Parvarish qilmasang, ekib netasan?
Yo'liga intizor qilgan qora ko'z,
Oxir mening bu boshimga yetasan

misralarini hayotdan qoniqqan, tashvishi yo'q odam aytishi mumkin emas. To'rt misradan iborat bu matnda inson taqdiri, qismati aks etganiga hech kim shubha qilmasa kerak. Ayni paytda ana shu azob unga shukuh, baxt bag'ishlayotganini ham aytish lozimdir. Chunki haqiqiy insongina bunday tuyg'ularga egalik qilishi mumkin.

Lirik qo'shiqlar og'zaki ijodning mustaqil janri sifatida bir qator xususiyatlarga ega:

1. Lirik qo'shiqlar deb atalmish xalq poetik she'riyatiga mansub asarlarni inson ruhiy olamisiz, ishqiy kechinmalarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

2. Agar boshqa mavzudagi qo'shiqlar ba'zan uch (kelin salomlar), olti, sakkiz misralardan iborat bo'lsa, ishqiy qo'shiqlar to'rt misradan tashkil topadi. Bir nom bilan bandlar birikuvidan iborat qo'shiqlarda ham to'rt misralilik an'ana hisoblanadi.

3. Biz nazarda tutayotgan lirik qo'shiqlar matni tugal fikr anglatish xususiyatiga egadir.

Olov yonsin yog' bilan
Bag'rim kuysin dog' bilan
O'ynamadim – kulmadim.
Ko'nglim suygan yor bilan.

Bir necha bandlardan iborat «Galdir», «Sumbula», «Omon yor» kabi lirik qo'shiqlardagi to'rtliklar nisbiy tugallikka ega bo'ladi.

4. Agar mehnat qo'shiqlarini bevosita o'sha kasb bilan shug'ullanuvchi dehqon, sog'uvchi, kosib, kashtachi, gilam to'quvchi aytsa, yor-yorlar, kelin salomlar asosan to'ylarga fayz bag'ishlasa, yig'i-yo'qlovlar o'lim marosimlariga taalluqli bo'lsa, lirik qo'shiqlar kasb, payt, o'rin tanlamaydi: ularni istalgan paytda, istagan shaxs xohishga ko'ra baland

ovozda yoki xirgoyi qilib ijro etaveradi. Shunday qilib, lirik qo‘shiqlar-ning ommalashuvi boshqa turdagilarga nisbatan kengroq imkoniyatga ega.

Qadimdan xalqimizda «Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga» degan chiroyli maqol bor. Ammo aksari yoshlar bu maqolning ma‘nosini aniq tasavvur qilmaydi. Aslida bu maqolda sevikli ma‘shuqa haqida fikr bor-moqda. Ya‘ni har kimning yori o‘ziga buyursin, o‘sha yorning husni qay darajada bo‘lmasin oshiqqa oy ko‘rinadi, ya‘ni har kim o‘z qalbidan o‘rin olishga ulgurgan yorga intiladi. Qizning qoshlari «Qaldirg‘och qanoti», yuzi tandirdan uzilgan «shirmoy», lablari «Arslonbob asali» bo‘lib tuyilaveradi.

Ayni shu paytda ma‘shuqaning nigohi yigitning «beqasam to‘ni», «yangi chiqqan maysadek kiprigi», «marvariddek» yaraqlab turgan tishlariga tushadi va ajoyib qo‘shiq namunasi vujudga keladi:

Qoshingni qaro deydilar,
Qora qosh ukam, yor-yor.
Ko‘rsat qoshingni, bir ko‘rayin
Jonim ukamey, yor-yor.

Yoki qizning qalbidan chiqqan muloyim misralarga diqqat qiling:

Beqasam to‘nlar kiyib,
Muncha meni kuydirasiz.
Gohi-gohda bir qarab,
Voy beajal o‘ldirasiz.

Ammo «Bu - hayot» deb qo‘yibdilar. Ishq bulog‘idan sug‘orilgan gul hamisha ham ochilavermasligi mumkin. Ya‘ni ikki sevishgan hamisha ham oila qurishga muyassar bo‘lmaganlar. Bu ko‘ngilsizlik ba‘zan yigitning, ba‘zan qizning ishqi ikkinchi tarafdin inkor etilishi, ba‘zan esa yana boshqa sabablar oqibatida ro‘y bergan bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatni ifodalovchi to‘rtliklar ham anchagina:

Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani,
Men - yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani.

Gap shundaki, qadimgi afsonalarda oydinda yotgan oq ilonni ko'rgan odam baxtli bo'ladi, degan aqida bordir. Ammo bu oq ilonni kim ko'rgan, hech kimga ma'lum emas. Ko'rmaganlar esa keng ommani tashkil etadi. O'z-o'zidan xalq baxtli odamdan ko'ra baxtsizlar ko'proqdir, degan xulosani o'ziga xos falsafiy tarzda ifodalash yo'lini topgan.

Lirik qo'shiqlar, eng avvalo, lirikligi bilan insonni o'ziga jalb qiladi. Ularda lirik qahramon fikri tuyg'u vositasida ifodasini topadi. Ayrim qo'shiqlar matnidagi muayyan misrani o'zgartirish ularning yaratilishi maqsadiga ham ta'sir qiladi, umumiy mazmun mohiyatiga ham ta'sir qiladi:

Gulijon o'zi chaqqon,
Qoqi gulini taqqan,
Bir kulishi bor uchun
Oyijoniga yoqqan.

Endi «Oyijoniga»ni «Sevgilisiga», «Dadajoniga», «Buvijoniga», «Opajoniga» va h.k. so'zlar bilan almashtiraylik. Yoki «Gulijon» ismini o'zgartiraylik. «Qoqi gul» o'rninga «atirgul» qo'yaylik. Xullas, bir qo'shiq asosida bir necha namunalar vujudga kelishi mumkin. Shunda gap sevikli haqida ketsa, ishqiy mazmun; onasi-otasi haqida ketsa qiz farzandni erkalash mazmuni yetakchi bo'lib qoladi. Ammo har ikkala holatda ham lirik qo'shiq mohiyatan katta o'zgarishga duch kelmaydi.

Allalarni ham lirik qo'shiqlar qatoridagi ajoyib namunalar sifatida baholash mumkin. To'g'ri, folklorshunoslikda onaning go'dak farzandini uxlatish maqsadida aytadigan allalarni bolalar folklori tarkibida tahlil qilish odati bor. Ammo allalar matnini o'rganish ularning so'z san'ati namunasi sifatidagi fazilatlarini lirik qo'shiq deb belgilash ham xato emasligini tasdiqlamoqda. Chunki alla matnini go'dak bola tushunmaydi. Binobarin, qo'shiqlarning bu turida onalik mehri, quvonchi, g'ururi; ayni chog'da dardi, alami, o'kinchi o'z ifodasini topadi:

Dilimdagi himmatim, alla.
Og'zimdagi novvotim, alla.
Daryo suvga to'layotir, alla.
O'g'lim menga kulayotir, alla.
O'g'lim menga qarab kulsa,
Ko'nglim nurga to'layotir, alla.

yoki:

Alla, alla, alvandi, alla.
Sochlarim daryo bandi, alla.
Men bu yerda turolmasman, alla.
Sen-ku oyog'im bandi, alla.

O'z-o'zidan ma'lumki, ona o'z oilasini muhabbat va inoqlikda qurilgan bo'lsa, ardoqlaydi. Aks holda, ko'ngil tushmagan oilada yashash yosh ona uchun jazoning o'zginasi. Mana shunday paytda tug'ilgan farzand ayol tasavvurida oila tomonidan qo'yilgan kishanga tengdir. Ruhiy holat tasviri bunday qo'shiqlarda alohida o'kinch ohangida ifodasini topadi. «Alla» so'zining «Oллоh»dan kelib chiqqanligi ham alohida ramziy ma'noga ega. Onada qoniqish bo'lsa, shukr alomati, o'z taqdiridan norozi bo'lsa, shunda ham farzandli bo'lish shukronasi va Allohdan najot so'rash ohangi yetakchi hisoblanadi.

Xullas, lirik qo'shiqlar mohiyat nuqtai nazardan inson qalbining izhori darajasida e'zozlangan asarlar turkumini tashkil qiladi.

Tarixiy qo'shiqlar. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi tarixiy qo'shiqlar bevosita bugungi kun repertuarida nisbatan kam uchraydigan ijro namunasidir. O'tmishda tarixiy qo'shiqlar ommaviy janr hisoblanganiga shubha yo'q. Bir tomondan, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'oti-t-turk» asaridagi Alp Erto'nga marsiyalarini ham tarixiy qo'shiqlar sirasiga qo'shish mumkin. Prof. Bahodir Sarimsoqov tarixiy qo'shiqlarga shunday ta'rif beradi: «Demak, konkret tarixiy shaxs yoki voqealar tasvirlangan she'riy asar tarixiy qo'shiq sanaladi». Marsiyada esa asar qahramonining ismi, u qilgan yaxshiliklar real hayotiy aniqlik bilan aks etgan. Xalq hayotdagi ijobiy o'zgarishga ham, salbiy o'zgarishga ham zudlik bilan o'z munosabatini bildirgan. Masalan, Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» romanida Normuhammad Qushbegining Toshkentdagi bekligi davri haqida quyidagi qo'shiq parchasini keltirgan:

Zamon-zamon dorilamon,
Normat to'ram bo'lsin eson.

XX asr boshlarida Namoz boshlagan harakatlar xalq tilida doston bo'lgan. Namoz yoki Niyozga bag'ishlab qo'shiqlar vujudga kelgan. Keyinchalik Isfandiyor va uning amaldorlari kirdikorlarini fosh etuvchi to'rtliklar yaratilgan:

Isfandiyor xon bo'ldi,
Bag'rimiz to'la qon bo'ldi.
Azroildan kam emas,
Olajagi jon bo'ldi.

yoki:

Isfandiyor bo'lgach bizning xonimiz,
Og'zimizdan oqar bo'ldi qonimiz,
Beva-bechoraning ahvoliga voy,
Yemakka topilmas burda nonimiz.

Bu to'rtliklar xalq ijtimoiy hayotining hamrohi bo'ldi. Tarixiy vaziyatga nisbatan ifodalangan g'azab va xonga nisbatan nafrat zamonga xalq bergan baho darajasida edi. Aniqrog'i, jazolov hukmi bo'lib jarangladi.

Umuman, XX asrning 15-25-yillari o'rtasida yaratilgan tarixiy qo'shiqlar son jihatdan ko'p, sifat jihatdan mazmunli edi. Ehtimol, bu holat yurtimiz tarixiga oid turli yo'nalishdagi tarixiy voqealarning ko'p ro'y berganiga bog'liqdir. Isfandiyor, Said Ahmad, Nikolay kabi podshoh va xonlarning adolatsizligi va bosqinchilik urushlariga bo'lgan keskin qoralovchi ayblar mazkur qo'shiqlarning bosh mazmunini tashkil qildi.

Shunday qilib, tarixiy qo'shiqlar bevosita aniq voqea hodisa yoki aniq qahramon ishtirok etgan tarixiy davr haqida yaratilgan asar namunasi hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Xalq qo'shiqlari shu muddatgacha o'rganilgan boshqa janrlardan qaysi xususiyati bilan ajralib turadi?*
- 2. Xalq qo'shiqlarining tasnifi qanday asoslanadi?*
- 3. Mehnat qo'shiqlari haqida so'zlang.*
- 4. Mavsum-marosim qo'shiqlarining xos xususiyatlarini ayting.*
- 5. Lirik qo'shiqlar haqida nimalar bilasiz? Yod olgan namunalaringizni hirgoyi qilib ayta olasizmi?*
- 6. Xalq qo'shiqlarini bilgan shaxslardan namunalar yozib oling.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.142-169.
2. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. - Т., 1959.

3. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. - Т.: Фан, 1974.
4. Саримсоқов Б. Меҳнат қўшиқлари / Ўзбек фольклри очерклари. - Т.: Фан, 1988. – Б. 223-244.
5. Алавия М. Лирик қўшиқлар / Ўзбек халқ қўшиқлари. - Т., 1959. – Б. 244-253.
6. Жуманазаров У. Тарихий қўшиқ / Ўзбек фольклори очерклари. Биринчи том. Т.: Фан, 1988. – Б. 254-261.
7. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. - Т.: MUMTOZ SO'Z, 2008.
8. Хоразм халқ қўшиқларидан намуналар. - Т.: Фан, 1965.
9. Оқ олма, қизил олма / Қўшиқлар. - Т., 1972.
10. Бойчечак / Болалар фольклори, меҳнат қўшиқлари. - Т., 1984.
11. Келиной қўшиқлари. - Т., 1981.

TERMALAR

Xalq og‘zaki ijodida qo‘shiq va doston o‘rtasida vujudga kelgan bir janr bor. Unda qo‘shiqdagi lirik ifoda, ayni paytda epik bayon qilish xususiyati uyg‘un namoyon bo‘ladi. Bunday asarlarga xalq *terma* deb nom bergan. So‘zning lug‘aviy ma‘nosi ko‘pdan terib olingan, ajratib saralangan tushunchalarini beradi. O‘zbek folklorining yirik tadqiqotchisi filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzaev termalar janriga shunday ta‘rif beradi: «Pand-nasihati, odob-axloq, soz va so‘z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta‘rifi va tanqidiga bag‘ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba‘zan undan ham ortiq misralargacha bo‘lgan lirik, liro-epik she‘rlarga terma deyiladi»⁶¹.

Ta‘rifda diqqatni jalb qiluvchi bir nechta fikriy nuqtalar bor. Avvalo, termalar mavzu jihatdan, ko‘pincha, pedagogik ahamiyatni nazarda tutgan hayotiy lavhalar bayonidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan, ularda yozma mumtoz adabiyotdagi qasida vazifasi bajariladi. Ya‘ni ayrim shaxslar, do‘mbira, ot yoki yana nimalargadir she‘riy maqtoqlar bag‘ishlanadi. Uchinchidan, termalar lirik parchalardan tashkil topishi mumkin. Demak, bunday termalarda ijrochining bosh maqsadi his, tuyg‘u, ichki kechinmalar ifodasiga qaratiladi. To‘rtinchidan, liro-epik she‘rlardan iborat bo‘lganda, voqealar bayoni his-tuyg‘u vositasida aks etadi. Va, nihoyat,

⁶¹ Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 169.

hajmi 10-12 va 150-200 misra atrofida, ya'ni ijrochi baxshining xohishi bilan belgilanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor Abiyr Musaqlulov esa xalq termalarining estetik ahamiyatiga diqqat qilib shunday deydi: «Termalar o'zbek folklori estetikasini o'rganish uchun g'oyat muhim manbadir. Go'zallik va xunuklik, baxt va baxtsizlik haqidagi termalar fikrimizga dalil bo'la oladi»⁶². Mazkur mulohaza muallifi termalarning xalq ommasi orasidagi haqiqiy insoniy fazilatlarini targ'ib qilish quroli ekanini alohida ta'kidlamogda. So'z san'atining bosh vazifasi ham aynan insonga go'zallik va xunuklik vositasida uning qalbiga yo'l topish orqali ruhiy ta'sir o'tkazishdir. Termalarning janr xususiyatlari ana shu tushunchalar orqali namoyon bo'ladi.

Termalarning estetik vazifasi uni ijro etayotgan baxshi bilan tinglovchi o'rtasida aloqa rishtalarini bog'lashdan iborat. Ayniqsa, baxshi o'zining doston aytishini bir oz orqaga surib, tinglovchilarga ruhiy ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladi. Bu fursat davomida «Nima aytay», «Doston terish», «Kunlarim», «Do'mbiram» ba'zan ijtimoiy hayotdagi yangiliklarga, o'zgarishlarga atab «Chigirtka»ga o'xshash termalar ijro etilgan. Masalan, 2000-yilning qish kunlaridan birida O'zbekiston Milliy universiteti magistrleri bilan Bo'ka tumanida istiqomat qiluvchi Chori baxshi Xo'jamberdiyev huzuriga mehmonga bordik. Baxshi qo'shni qishloqqa to'yga ketgan ekan. Ertalab soat 10 dan 2 gacha uni kutishga to'g'ri keldi. Baxshi uyiga qaytib, suhbat boshlanganida, undan «Alpomish» dostonidan parcha aytib berishni iltimos qilishdi. Ammo Chori og'a dostonni boshlashdan avval yaqin yarim soat davomida mehmon yigit-qizlardan kechga qolgani uchun uzr so'rash mazmunida termalar aytdi. Keyinroq esa kechagi to'y tafsilotlari, ziyoratga borgan magistrler ta'rifi, yurtimizdagi ijobiy o'zgarishlar bayoni keltirildi. Keyin savollarga berilgan javoblardan ma'lum bo'ldiki, terma aytilayotgan paytda «Alpomish» dostonidagi qaysi lavhani ijro qilish rejasi tuzilgan ekan. Ma'lum bo'lyaptiki, termalar ijrosi faqat tinglovchini muayyan vaqt davomida nima bilandir band qilishdan tashqari baxshi uchun o'z tinglovchilarini o'rganish, ular didini aniqlashga urinish va to'liq ijro jarayoniga reja tuzish imkonini berar ekan.

Folklorshunos olimlar ta'kidlashlaricha, termalarning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi «Nima aytay» hisoblanadi. Bu jarayon ham baxshiga mashq qilib ovozini charxlash, ham do'mbirani sozlash, ham tinglovchini o'rganish uchun xizmat qiladi:

⁶² Мусақулов А. Ўзбек фольклори очерклари. I том. - Т.: Фан, 1988. – Б. 269.

O'n beshida oydan to'lgan,
Olmosini belga solgan,
Go'ro'g'liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdga olgan.
So'rab o'tdi Avaz polvon,
Avaxzondan aytaymi?

Dostondan oldin aytiladigan termalarda baxshi do'mbirani maqtashi yoki uning o'jarligi, qaysarligini aytib tanqid qilishi mumkin edi:

Nomard yigit bu majlisga bo'ylamas,
Avni kelsa, Nurmon gapni o'ylamas,
Yorib yoqsam, biror choydish qaynamas,
Senda yog'och o'tin bo'lgan do'mbiram.

Shu bilan birga ko'p baxshilar aksari paytlarda tinglovchilarga o'z hayotlarini aytib berganlar. Taniqli ustozlar: Abubakr Divaev, Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozli olim Yunusov, Mansur Afzalov kabi olimlar harakati bilan o'nlab termalar yozib olingan va biz bu termalar matni vositasida ajoyib baxshilarimizning hayotiga oid nozik lavhalar bilan tanishmoqdamiz.

Professor Hodi Zarifov bergan ma'lumotlarga qaraganda, Jumanbulbul o'g'li Ergashni maktabdor O'tamurodning qizi Ziyatoyga uylantirganlar. Ammo baxshi yashaydigan hudud an'anasiga ko'ra kelin to'ydan keyin qaytib kelmas ekan. Uning kuyovnikiga kelishi uchun yana bir to'y o'tkazish odati bor ekan. Afsuski, birinchi to'ydan keyin Jumanbulbul vafot etadi. Ergashning esa keyingi to'yga mablag'i bo'lmaydi. Otasidan qolgan arzimasi bor-yo'q narsalarni qarz evaziga olib ketishadi:

Bo'lib-bo'lib olib ketdi haqini,
Biz bilmaymiz haqi bor yo yo'g'ini,
Zoti yo olistmi, bizga yaqini,
Bariga haq berib turgan kunlarim.

Ergash hayotida juda murakkab tanqis holat ro'y beradi:

Xotin qoldi otasining uyida,
Men bilmayman ne gaplar bor o'yida,

Ko'p va'dalar bo'lgan edi to'yida
Uyalib, borolmay yurgan kunlarim.

Shunday qilib, vaqtida jonkuyar insonlar harakati bilan yozib olingan termalar yordamida baxshi hayotidagi o'ta sirli va betakror hodisalar haqida ma'lumot olamiz. Bu xususiyat faqat Ergash Jumanbulbul ijodiga emas, umuman, baxshilarga xosdir. Jumladan, Fozil shoir o'zi haqida shunday deydi:

Olti yoshda qo'msab-qo'msab otamni,
Og'ir mehnat ezdi sho'rlik enamni.
Ena-bola topolmadik bir nonni,
Parcha non yeb, yig'lab o'tgan kunlarim.

Bu termadan biz Fozil shoir otasi Yo'ldoshdan juda erta yetim qolganini, turmush qiyinchiliklariga chidashi og'ir ekanini, onasi bilan nochor hayot kechirishga majbur bo'lganini bilamiz. Terma davomida birinchi bandedagi fikr rivojlanadi:

Yetti yoshda ortdi mening kulfatim,
Sakkiz yoshda og'ir mehnat ulfatim,

Mehnat uchun sinab ko'rdim quvvatim,
To'qqiz yoshga yig'lab yetgan kunlarim.

Shunday qilib, «Kunlarim» matni bilan tanishganimiz sari mashhur baxshining hayot solnomasidagi muhim sanalar bizga ma'lum bo'lib boradi.

Hodi Zarifov o'z xotirasida Ergash Jumanbulbulning Amin baxshi tomonidan kashf qilingan ajoyib mubolag'a san'atiga misol keltiradi:

Ariq tubida andiz,
Daryo tubinda qunduz,
Tog'larni osmonga oting,
Tutday to'kilsin yulduz.

«Alpomish» dostoni matnidan olingan mazkur parchani dostonan olingan terma sifatida baholash mumkin.

Mashhur baxshilar yurtida sodir bo'layotgan adolatsizliklarga beparvo qarab turolmaganlar. Ayrim termalar matnida O'zbekiston hududidagi

tarixiy voqealar ham aks etgan. Xususan, Hodi Zarifov qayd qilishicha, 1898-1908-yillarda O'rta Osiyoni chigirtka bosgan ekan. O'tgan asrda qariyalarning xotirasiga qaraganda, ayrim hududlardagi chigirtkani kuraklarda qopga solib ulgurishmagan ekan. Ana endi ofatni ekin maydonlarida tasavvur qiling. 1908-yilda Fozil Yo'ldosh o'g'li «Chigirtka» nomi bilan terma yaratadi:

Bozorchidan shayton qaytib,
Biriga uch baho aytib,
O'ttiz olib, to'qson sotib,
Davlatmandlar qabon bo'ldi.

Kambag'alning aqli shoshib,
O'g'il-qizman kengashib,
Kecha-kunduz zor yig'lashib,
Do'stlar qaddi kamon bo'ldi.

Bu qo'shiq-termada yurtimiz boshidan kechgan musibatli kunlar badiiy aksini topgan.

Baxshilar tomonidan kuylab kelingan «Do'mbiram», «Kunlarim», «Nima aytay?», «Go'ro'g'li», «Bormi jahonda?..» kabi termalarning hammasida ham ma'lum darajada real tarixiy voqealar, xalqning kechinmalari ifodalangan. Ularni yaratishda Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'lkan shoir, Islom shoir, Umir Safarov, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Rahmatilla Yusuf o'g'li, Qodir baxshi, Qahhor baxshi ijodi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, termalarni xalqimiz og'zaki ijodidagi mustaqil janr sifatida baholash mumkin. Ular xalq hayotining badiiy ifodasi sanaladi. Termalarning xalq dostonlari va haqqoniy hayot o'rtasidagi aloqa bog'lovchi vositachilik ahamiyati hoyatda muhimdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Termalarning qo'shiq, doston janrlari bilan munosabatini izohlang.

2. Termaning baxshi ijodida tutgan o'rni haqida nimalar deyish mumkin?

3. *Folklorshunos olimlar termalar haqida qanday fikrlar bildirishgan?*

4. *Termalardan namunalar yodlang.*

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. - Б. 169-173.

2. Ҳоди Зариф. Улкан халқ санъаткори / Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. - Т.: Фан, 1973. – Б. 8-39.

3. Ҳоди Зариф. Фозил шоир – машҳур достончи / Фозил шоир. - Т.: Фан, 1973. – Б. 5-29.

4. Мусақулов А. Терма / Ўзбек фольклори очерклари. - Т., 1988. – Б. 261-272.



XALQ DOSTONLARI

“Doston” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix”⁶³ ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy - ikki misradan iborat, faqat she‘riy shaklda yaratiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Navoiyning «Xamsa» asaridagi beshta doston va hokazolar. Yozma adabiyotdagi dostonlar aruz vaznida yoziladi. Individual ijod mahsuli hisoblanadi. Binobarin, yozma adabiyotdagi dostonlar yakka shaxs ijodi an‘analari asosida vujudga keladi.

Ikkinchi tur dostonlar og‘zaki ijod mahsuli sifatida folklor an‘analariga bo‘ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov ta‘rificha, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she‘riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba - matn bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo‘lishi lozim (Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik muzika asari bo‘lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur. To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘shiq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur⁶⁴.

Xalq og‘zaki ijodidagi doston folklorshunos olimlarning diqqatini alohida o‘ziga jalb qilgan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarkibida eng ko‘p o‘rganilgan, katta munozaralarga sabab bo‘lgan, qolaversa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi merosini butun dunyoga ma‘lum va mashhur qilgan janrdir.

Dostonni olimlar sinkretik janr deb biladilar. «Sinkretik» so‘zi yunoncha birlashgan; qism, bo‘laklarga ajralgan ma‘nosini beradi⁶⁵. Doston haqida gap borganda, sinkretik so‘zi bu janrdagi asarlarda so‘z, musiqa,

⁶³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. - Б. 649.

⁶⁴ Саидов М. Достон / Муҳаммаднодир Саидов – маърифат фидойиси. - Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2009. - Б. 7.

⁶⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. - Т.: 2007. - Б. 512.

xonandalik, hofizlik, badiiy o'qish, notiqlik, aktyorlik san'atlarining uyg'un namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Haqiqatan ham, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Chori baxshi Xo'jamberdiev, Shomurod baxshi Tog'aev, Qahhor baxshi Qodir baxshi o'g'li Rahimov ijrolarini bevosita ko'rish va eshitish jarayonida yuqorida qayd etilgan san'atlarning to'liq go'zallikda uyg'unlashuvini, qo'shimcha ravishda bu ijrochi va ijodkorlarda badiha san'ati mahorati to'liq namoyon bo'lganini ko'rganmiz. Ustoz Muhammadnodir Saidovning yuqorida qo'ygan to'rt talabiga doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar doirasida tabiiy vaziyatda ijro mahoratidan bahramand bo'lish shartini ham qo'shimcha ravishda qayd qilmoqchimiz. Bu shartning zarur ekanligi televidenie, radio, fonogrammalar orqali doston ijrosi bilan tanishish natijasida aniq seziladi. Baxshi texnik vositalar (kamera, mikrofon) guvohligidan ko'ra bevosita tinglovchilar uchun tabiiy sharoitda doston ijro etganida o'zini erkin his qiladi, badihago'ylik qobiliyatini yaxshiroq ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Baxshi doston kuylayotganida o'zining ijrosidan o'zi zavqlanadigan payt bo'ladi. Tinglovchilar baxshi mahoratidan bahra olib ehtirosli ovozlari chiqarishadi. Ana shunday holatda baxshining qaynashi ro'y beradi. Tabiiy sharoitda qaynash tezroq amalga oshadi. Undan tashqari do'mbira to'ntarish odati ham bor. Ijrochi bir oz dam olish bahonasi bilan do'mbira to'ntaradi va xonadan havo olish uchun tashqariga chiqadi. Bu vaqtda tinglovchilar o'z atagan hadyalarini to'plab do'mbira yoniga qiyiqchaga solib qo'yishadi. Bu odat ham tabiiy ijro paytida oson va qulay bajariladi. Xullas, baxshi uchun ham, tinglovchi uchun ham oddiy, samimiy, tabiiy sharoitda doston aytish ma'qul hisoblanadi.

“Doston” so‘zining yana bir ma’nosini ham bilib olish kerak. Bu – el orasida gapirilmoq, kuylanmoq, og‘izga tushmoq demakdir. Demak, dostonlarda ishtirok etgan qahramonlar, bir tomondan, asardagi obraz sifatida qayd etilsa, ikkinchi tomondan, el og‘iziga tushuvchi, shuhrat topuvchi inson tushunchasini ham o‘zida singdirgan bo‘ladi. Natijada, ayniqsa, ijobiy qahramonlarning og‘izga tushishi yoki muhabbat topishi xalq pedagogikasi talablariga ham javob beradigan inson bo‘lib tanilishi bilan bog‘lanadi.

Shunday qilib, «Alpomish», Go‘ro‘g‘li turkumidagi «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Malika Ayyor», «Ravshan» kabi o‘nlab asarlar, «Kuntug‘mish», «Rustamxon», «Oshiq G‘arib va Shohsanam» kabilar xalq og‘zaki ijodidagi doston janriga mansub namunalar bo‘lib, asrlar

davomida el qalbidan samimiy hurmatga sazovor, shuhratga erishgan durdonalardir.

Dostonni baxshilar kuylaydilar. Baxshilar esa o‘z ustozlaridan maxsus dostonchilik sirlarini o‘rgangan san’atkorlardir. Agar maqollarni, topishmoqlarni millatimizning istagan vakili aytishi, qo‘shiqlarni har bir oshiq yoki ma’shuqa ijro etishi mumkin bo‘lsa, doston ijrosi alohida shogirdlik faoliyatini boshidan kechirgan, maxsus ta’lim ko‘rgan va muayyan iqtidorga ega shaxsgagina nasib qiladi.

«Baxshi» so‘zi «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da to‘rt xil ma’no berishi ko‘rsatilgan: 1 - donishmand, 2 - dostonlarni kuylovchi, 3 - dam solib davolovchi tabib, 4 - Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi. Yuqoridagi to‘rt ma’nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak xato bo‘lmaydi. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqlli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” lug‘atda izoh berilishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlardan xalq tasavvuridagi baxshilar so‘zning mo‘jizaviy fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig‘ qiluvchi odamlar hisoblangan. Hozir va o‘tgan asrlarda baxshi davrasida ishtirok etgan odamlar doston eshitish bilan birga dardlaridan ham qutulganlar, turmush tashvishlaridan ozod bo‘lganlar, o‘zlarini yengil sezganlar. O‘zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning ma’lumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod”, “ma’rifatchi” ma’nolarida qo‘llangan. Ma’lum bo‘ladiki, baxshi xalq tomonidan cheksiz hurmatga ega, e’zoz topgan hunar egalari ekan.

Folklorshunoslikda baxshilarning turli nomlar bilan atalgani ham ma’lum. Jumladan, yuzboshi, soqi, jirov, jirchi, oqin shular jumlasidanidir. Ba’zan usta so‘zi ham qo‘llangan. Baxshilarning ustoz izidan chiqib, o‘ziga xos uslubda, badihago‘ylikdan keng foydalanuvchilari, ko‘pincha, shoir deb ham atalgan. Shuningdek, Xorazmda doston aytuvchi ayollar xalfa nomi bilan mashhurlar.

Dostonchilik maktablari. O‘zbek dostonchligida doston kuylash an’anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, hijjak, garmon, bulamon, qo‘shnay, doira jo‘rligida ba’zan yakka,

ba'zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Farg'ona vodiysida dutor jo'rligida ochiq ovozda aytilgan.

Shubhasiz, o'zbek dostonchiligida keng tarqalgan ijro usuli do'mbira jo'rligida bo'g'izda doston aytish hisoblanadi. Baxshining bo'g'izda ichdan kuch bilan ovoz chiqarishi juda qadim zamonlarda shimol xalqlari afsungarlari – shamanlarda mavjud edi. Demak, o'zbek baxshilarini uzoq o'tmish zamonlar bilan qandaydir janr yoki san'at ijrosi bog'laydi. Ehtimol, keyinchalik bu ijro usuli baxshilar uchun an'ana bo'lib qolgan. O'zbek dostonchiligi mif - afsona - rivoyat - naql - ertak - doston bosqichlaridan iborat diffuziya harakatining so'nggi bosqichida vujudga kelgan deb taxmin qilamiz. Mana shu jarayonning muayyan bosqichida ijro usuli hozirgi baxshilarimizning doston aytishlarini eslatishi mumkin bo'lgandir. Har holda bunday baxshichilik san'ati bir necha asrlik tajribaga ega ekanligi bilan boshqa ijrolardan ajralib turadi.

Filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzaev ma'lumotiga ko'ra, Bulung'ur dostonchiligida qahramonlik dostonlarini ijro etish ko'proq amalga oshgan⁶⁶. Bu maktabning so'nggi vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malika ayyor» kabi dostonlar yozib olingan. Fozil Yo'ldosh o'g'li Yo'ldosh, Qo'ldosh, Suyar shoirlarning tarbiyasini olgan. Ayniqsa, u ijro etgan «Alpomish» dostoni xalq ijodidagi eng mukammal asar sifatida butun dunyo folklorshunos olimlari tomonidan tan olingan.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining nomi hamisha Fozil shoir qatorida juft keladi. Ergash shoir (1868-1937) qo'rg'on maktabi vakili edi. Nurota hududining shuhrati aynan ana shu baxshi va Po'lkan shoir (1874-1941) ijodi bilan bog'liq. Bu yerda "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarini ijro qilish an'anasi keng rivojlangan edi. Folklorshunoslikda ayol baxshilar: Sulton kampir, Tilla kampir ham, shuningdek, Yodgor, Jumanbulbul, Jossoq baxshilar ijodi o'rganilgan.

Shahrisabz dostonchiligida Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957), Narpay dostonchiligida Islom shoir Nazar o'g'li (1874-1953) ijodi alohida qayd etilgan. "Orzigul", "Sohibqiron", "Erali va Sherali" kabi dostonlar ijrosini bu maktab vakillari yuqori san'at darajasiga yetkazib kuylaganlar.

⁶⁶ Мирзаев Т. Достонлар / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 236-238.

Bir baxshining ijodi butun tuman baxshichilik an'anasiga sezilarli ta'sir o'tkazishi hayot tajribasida tasdiqlangan holdir. Masalan, bir paytlar baxshilar sulolasi bilan g'ururlangan maktablar bugungi kunda inqirozga yuz tutgan bo'lishi mumkin. Xususan, hozirgi paytda Bulung'ur, Nurota tumanlaridagi mashhur baxshilar o'z faoliyatlarini to'xtatganlar. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Qodir baxshi Rahimov an'anasi to'la quvvat bilan farzandlari Qahhor, Abdumurod, Bahrom timsolida davom etmoqda.

Doston ijrosida Xorazm usuli Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi an'anadan tamomila farq qiladi. Bu yerda doston ijrosi professional xonandalik yo'lida amalga oshiriladi. Baxshi doston matnini yoddan ijro etadi, shu bilan birga do'mbira chertuvchi baxshilardan farqli ravishda dostonga yo'l-yo'lakay o'zgartirish kiritishdan o'zlarini saqlaydilar. Chunki Xorazm dostonchiligida doston matn, ko'pincha, xalq kitoblari turkumidagi XIX asrda chop etilgan kitoblarga asoslanadi. Matnga o'zgartirish kiritish bu an'ana qoidalari bo'yicha ma'qullanmaydi. Tabiiy savol tug'iladi: u holda Xorazm baxshilarining doston aytish mahoratini qaysi mezon belgilashi mumkin? Xorazm baxshilari o'z mahoratlarini dostonni aytishda mumtoz musiqaga, dostondagi she'riy parchalarni alohida qahramonning ariyasi darajasida kuylash bilan ko'rsatadilar. Xorazm baxshilarining ovozi mumtoz ashula aytuvchilar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Doston musiqasi ham mumtoz san'at usuliga asoslangan. Ahmad baxshi, Bola baxshi, Qodir sozchi, Boltavoy baxshi kabi san'atkorlar ijodi Xorazmda shuhrat topgan edi.

XX asr Xorazm dostonchiligi rivoji, shubhasiz, Bola baxshi – Qurbonnazar Abdullaev ijodi bilan bog'liqdir. Xorazmda ayollarning doston aytishi ham keng tus olgan edi. Bibi shoir, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova Xorazm dostonlarini kuylashda yetuk baxshilar qatoridan munosib o'ringa ega bo'ldilar. Bu an'ana bugungi kunda ham to'liq davom etmoqda. Qalandar baxshi Normatov, Norbek Abdullaev, Zulfiya Ortiqova, Nodira Bekova, Rohat Xo'janioyozovalar ustoz baxshilar va xalfalar san'atini davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Bozirgon" kabi dostonlar mahorat bilan ijro etilmoqda. Xalfalar esa dostonlardan parchalar, to'y qo'shiqlarini, lapar, yallalarni kuylashda xalqqa rohat bag'ishlamoqdalar.

Xorazm dostonlarini ijro etishda mahalliy sharoitda tajribadan o'tgan tarixiy odatlar haqida baxshilardan ma'lumot olganmiz. Unga ko'ra XIX-XX asrlarda Xorazmda katta to'y bergan odam marosimga uch-to'rt

guruh baxshilarni chaqirgan. Guruhlar bir-birlariga xalaqit bermaydigan masofada davra qurishgan. Tinglovchi bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib yurgan. Qaysi baxshi ma'qul bo'lsa, o'sha davrani ma'qul ko'rgan. Natijada, to'y oxirida mohir va no'noq baxshi atrofidagi tinglovchilar soniga ko'ra ajralib qolgan. E'lon qilinmagan musobaqada mag'lubiyatga uchragan baxshi o'z ustida ishlashga majbur bo'lgan. Shuningdek, Bola baxshining eslashicha, Muhammad Rahimhon Feruz xonlik paytida har yili hofiz, sozanda, baxshilarning ko'rigini o'tkazar ekan. Ko'rikdan o'ta olmagan san'atkor tinglovchilar oldida soz chalish, ashula aytish, doston kuylash huquqidan mahrum qilinar ekan. Bu san'atkor keyingi ko'rik-kacha muttasil mashq qilib o'zini oqlashga uringan. Darvoqe, 1909-yilda 9-10 yashar Qurbonnazar xon huzurida doston aytishga chaqirishadi. Feruz yosh baxshidan uning ismini so'raydi. Bola ismi Qurbonnazar ekanini aytganida, xon tabassum bilan: - Sening isming Qurbonnazar emas, Bola baxshi, - deb unga oq fotiha bergan ekan. Shu-shu Qurbonnazar Abdullaev Xorazm va Turkmanda "Bola baxshi" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Xorazm dostonchiligini chuqur ilmiy asosda o'rgangan filologiya fanlari doktori, professor Safarboy Ro'zimboev Xorazm dostonchiligi, o'z navbatida, Shimoliy va Janubiy an'analarga bo'linishi, ularning o'zaro farqlari va baxshilar, sozchi (garmon bilan doston aytuvchi ijrochi)lar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan⁶⁷.

O'zbek dostonchilik an'anasining yana bir turi Farg'ona vodiysida shakllangan. Namangan viloyatining shimoli Uychi, Yangiqo'rg'on, Chortoq atroflarida Dehqonboy Bahromov, Ikrom Rizaev, Omon baxshi Razzoqovlar ijod qilishgan. Mahalliy xalq og'zaki ijodini o'rgangan olim Abdushukur Sobirov taniqli folklorshunos olim Tojiboy G'oziboev bilan hamkorlikda mazkur dostonchilik an'anasini o'rganib, Qo'lbuqon, Sayram, Ariqbo'yi (Ariqmo'yin) maktablari mavjudligini qayd etadi⁶⁸.

Ahmadjon Meliboev "Safed Bulon hikoyalari" kitobida Peshqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qilgan Olim baxshidan "Yozi bilan Zebo" dostonini o'n ikki varaqli o'quv daftaridan o'ntasiga yozib olib, Muzayyana Alaviyaga yuborganini ma'lum qilgan⁶⁹. Ammo bugungi kunda Farg'ona vodiysidagi dostonchilik an'anasida doston ijro etadigan baxshilar ijod faoliyatlarini to'xtatganlar.

⁶⁷ Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. - Т.: Фан, 1985.

⁶⁸ Собиров А. Сўзбоши / Наманган халқ оғзаки ижоди намуналари. - Наманган, 1993. - Б. 3-

16

⁶⁹ Мелибоев А. Сафед Булон хикоялари. - Т. Tafakkur, 2009. - Б. 109-110.

Hamma o'zbek dostonchiligi an'analarida hajman cheklanish kuza-tilmaydi. Madaniy merosimiz xazinasida "Bozirgon", "Sohibqironning tug'ilishi" kabi kichik asarlar va ayni paytda, "Alpomish", "Malika Ayyor"dek yirik dostonlar bor. Dostonlar hajmidagi nisbiy o'lchov inobatga olinsa, do'mbira chertib ijro etiladigan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda aytiladigan dostonlar hajmi Xorazm dostonlaridan ham, Farg'ona vodiysi dostonlaridan ham kengligi bilan ajralib turadi. Hajman Farg'ona vodiysidagilar ancha kichik hisoblanadi.

Doston matni she'riy va nasriy parchalardan iborat bo'ladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li Bulung'ur tumanidan bo'lgani uchun do'mbira chertib ijro etiladigan dostonlarni shartli ravishda Samarqand dostonchiligi deb ataymiz. Bu an'ana asarlarida she'riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan, voqealar bayonini ifodalash, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlash jihatdan teng hisoblanadi. Fikrimizni dalillash uchun Ergash Jumanbulbul kuylagan "Ravshan" dostonidan nasriy parcha keltiramiz: "Oq qiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sog' qiz, eri yo'q o'zi - toq qiz, yaxshi - tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q - ahmoq qiz, qora ko'z, bodomqovoq qiz, sinli - siyoq qiz, o'zi semiz - turishi yog' qiz; o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'yan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas - jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz..."⁷⁰

Bu dostondagi she'riy qismlardan biriga diqqat qiling:

Chu deb otin uradi,
Oyog'ini tiradi.
Suvsiz cho'lda G'irko'k ot
Irg'ib, sakrab boradi.

Suvsiz cho'lda mard Hasan,
Qattiq qistab boradi.
Obro' ber, deb yo'llarda,
Hasan ketib boradi⁷¹.

⁷⁰ Ravshan. Doston / Булбул тароналари. 2-том. - Т.: Фан, 1972. - Б. 454.

⁷¹ Уша жойда. - Б. 530.

Ba'zi o'rinlarda do'mbira chertib aytiladigan dostonlarda lirik mazmundagi she'rlar ham uchraydi:

Paydo bo'ldi ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchdim manzilkonadan.
O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan,
Bir armonim, yolg'iz edim enamdan⁷².

Yuqorida keltirilgan parchadan bitta maqsadni nazarda tutamiz. Mazkur an'anadagi asarlarda she'riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan bir-biriga mutanosib turadi. Nasriy parchada qofiyalashgan nasr - ilmiy adabiyotda saj' deb ataladigan usul qo'llangan. "Oqqiz, naq qiz, sog' qiz, chog' qiz, bog' qiz" kabi qator qofiyalarning qo'llanishi, matnda kulgili lavhalarining yaratilishi baxshi mahorati darajasini ko'rsatish bilan izohlanadi. She'riy o'rinlarda voqealar rivoji, sodir bo'layotgan hodisalar bayoni bilan tanishdik. Otning, Hasanning suvsiz cho'lda shiddat bilan ketishiga guvoh bo'ldik. Keyingi to'rtlikda esa qahramon his-tuyg'usi ifodalanganini ko'rdik. Ma'lum bo'ladiki, qadimgi Bulung'ur, Nur ota hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchiligida she'r va nasr shaklidagi parchalar badiiy jihatdan teng turadi. Badiiy mukammallik har ikki shaklga xos fazilat sifatida belgilanaveradi.

Bu fikrni Xorazm dostonlariga nisbatan ayta olmaymiz. Chunki "Oshiq G'arib", "Oshiq Alband", "Kampir", "Bozirgon" dostonlaridagi voqealar rivoji faqat nasriy parchalar zimmasiga yuklatilgan. Agar o'quvchi dostonning mazmuni bilangina tanishish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, dostondagi nasriy parchalarni o'qish kifoyadir. She'rda esa asar qahramonlarining ruhiy holati, ichki kechinmalari ifodasini topadi. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida Shohsanam kanizlaridan uyalib o'z holini shunday bildiradi:

To dunyodan ko'z yummayin,
Qayg'udan judo bo'lurmu?
Go'zal yorning firoqida
O'lmaklik ravo bo'lurmu⁷³.

⁷² Уша жойда. – Б. 477.

⁷³ Ошиқ Ғариб ва Шохсанам. Достон / Хоразм достонлари. Ошиқнома. - Урганч, 2006. - Б. 42.

Nasrda quyidagilarni o'qiymiz: "Andin so'ng Shohsanamning ahvolini eshitib, Aqcha sadoqatli bo'lib, mahram libosini kiyib Shirvon, Shemoxa ketti. Necha kunlar yurib Shirvon, Shemoxa yetti"⁷⁴. Bu an'ana hamma Xorazm dostonlariga xos hisoblanadi. She'riy parchalarda lirik ehtiros aks etadi. Nasr esa dostondagi voqeani bayon etish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun nasr badiiy mukammallik bilan ajralmaydi. Agar Xorazm dostonlaridagi she'riy parchalar alohida musiqa jo'rligida aytilishini nazarda tutsak, bir doston o'ziga xos qo'shiq konsertidan iborat bo'lib qoladi. Baxshining doston voqeasi haqidagi hikoya esa konsertning o'ziga xosligini ta'minlovchi bir belgi, xolos.

Endi Namangan dostonchiligi an'anasiga oid "Zamonbek"dan olingan parchaga diqqat qiling: "Go'ro'g'li yigitlarining g'ayrati kelib, o'tday tutashib, Shodmon polvon degan yigit Mamaniyoz orqasidan quvib turgan joyi ekan:

Ko'ring Shodmon polvon ishini,
Uni-buni deganiga qo'ymaydi.

Ko'p yigiti bir aylanib kelganda,
Mamaniyoz bir ag'darib tashlaydi"⁷⁵.

Nasr va she'dan iborat parcha mazmunidan ko'rinib turibdiki, Farg'ona vodiysidagi Namangan dostonchiligida nasr va nazmning badiiy vazifasida farq yo'q ekan. Har ikkala shaklda ham voqea rivoji, doston mazmunidagi lavhalar tasviri ifodasini topaveradi.

Yuqorida misollar bilan ko'rsatilgan uch an'ana haqida tasavvur paydo bo'lganidan so'ng o'zbek dostonchiligi, uning xalq og'zaki ijodi merosida tutgan o'rni yuzasidan to'liq tushunchaga ega bo'lamiz. Eng muhimi, do'mbira ijro etiladigan va Xorazm, Farg'ona vodiysidagi an'analarni birlashtirib turgan umumiylik, dostonchilikda she'riy va nasriy parchalar birikuvidan epik asarlar paydo bo'lgani bilan izohlanadi.

Xorazm dostonlarini o'rganish tajribasi har bir baxshi ijodiga alohida-alohida yondashish lozimligini tasdiqlamoqda. Doston ijrosi qaysi an'ana, qaysi maktabga taalluqli ekanidan qat'i nazar doston ijrosiga bo'lgan munosabatni baxshining mahorati, sozandalik darajasi, aktyorligi, ovozi belgilaydi. 1970 yilda Xorazm televideniyesi taklifi bilan

⁷⁴ Уша жойда. – Б. 55.

⁷⁵ Наманган халқ оғзаки бадий ижоди. - Наманган, 1993. – Б. 95.

Bola baxshi ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuv tashkil etdik. Ssenariy loyihasi bo'yicha Qurbonnazar ota Abdullaev yoshligidan doston aytib xalq orasida shuhrat topgani ko'rsatilishi lozim edi. Biz Bola baxshining o'rni-ga uning farzandlarini "yosh Bola baxshi" deb ekranda ko'rsatdik. Ammo "Mani yorim bog' saylina galarmish" qo'shig'i ijrosi rejissyorga ma'qul bo'lmadi. Uch-to'rt marta takrorlangandan so'ng o'g'lidan ko'ngli to'l-magan Bola baxshining o'zi: "Men ko'rsatib beraymi?" – deb doston ijrosini namoyish qildi. Avvalo, tor ovozi tamoman jarangdor edi. Baxshining yuzi to'liq harakatda edi, ko'zlari o'ynardi, qoshlari bir balandda, bir pastda qoqilardi. Burun, mo'ylov, lab shunchalar jozibali ko'rinish kasb etdiki, butun studiya bu tomoshani ko'rgani yig'ildi. Ustiga ustak, bir payt baxshi qo'lidagi soz tepaga uchib ketdi. Soz usuli buzilmagan holda yana qo'lga qaytdi. 70 yoshdan o'tgan Qurbonnazar ota: "Mening yorim bog' saylina galarmish" – deganida, studiyadagilarning hammasi o'zini Oshiq G'arib deb his qildi. Dekabr oyining oxirgi kunlari bo'lishiga qaramay shu zahoti tashqariga chiqib, gul terish havasida yondilar. Baxshilar bilan bunday muloqot umr bo'yi esda turishi tabiiydir.

2009-yil yanvar oyida O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika, O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari O'zbekiston Xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimov, 2010-yilda O'zbekiston Xalq baxshisi Shomurod baxshi Tog'aev bilan amaliy mashg'ulot - uchrashuv o'tkazdi. Baxshilarning sahnadagi chiqishlari butun tinglovchilarni lol qoldirdi. Soz, ovoz, badiha, mahorat, baxshining o'zi doston degan mo'jizaviy san'atning sehiri ekaniga hamma ishonch hosil qildi.

Dostonlar tasnifi. O'zbek dostonchiligi ijro usuliga ko'ra xilma-xil ko'rinishga ega ekanini ko'rib chiqdik. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqovning o'rganish natijalariga ko'ra dostonlar mazmunan ham maqol, ertak, qo'shiq singari turlarga bo'linadi. Olimlarimiz tasniflarida farqlar borligini qayd qilgan holda, umuman, dostonlarni mazmunan quyidagi turlarga bo'lishni ma'qul hisoblaymiz:

1. Qahramonlik dostonlari ("Alpomish").
2. Ishqiy-romanik dostonlar ("Ravshan", "Kuntug'mish").
3. Jangnoma dostonlari ("Yakka Ahmad").
4. Kitobiy dostonlar ("Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyod va Hamro").
5. Tarixiy dostonlar ("Oysuluv").

Yuqoridagi tasnifning asosini dostonlarda tasvirlangan voqealarning mohiyati belgilaydi. Avvalo, sevgi-muhabbat, qahramonlik, sarguzasht, jang lavhalari aks etmagan dostonlarning o'zi yo'q. Qaysi dostonni eshitmang yoki o'qimang, albatta, asar qahramoni mardligi, jasorati bilan bizda hurmat qozonadi. Albatta, u kimnidir sevadi va uzoq safarga otlanadi. Ammo shunga qaramay, asarning umumiy mazmuni zaminida muayyan mavzu yetakchi hisoblanadi. Masalan, "Alpomish" dostonini olaylik. Doston farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Lekin aynan shu motiv "Kuntug'mish", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Tohir va Zuhra" dostonlarida ham bor. "Alpomish"da Hakimbek qalmoq yurtiga ko'chib ketgan Barchinni olish uchun safarga otlanadi. Safar motivi "Ravshan", "Kuntug'mish" dostonida ham bor. "Nigor va Zamon" dostonidagi safar ma'shuqani olib kelishga bag'ishlanmasa ham, Hasan podshohning Nigor qizini uzatishga roziligida G'irotni olib kelish sharti bilan bog'lanadi. Demak, safar ham dostonlarda ko'p uchraydi. Ammo "Alpomish" dostonida Barchinga uylanish maqsadi Hakimbek safarida yetakchidek tuyilgani bilan asosiy masala Boysari bosh bo'lgan va Qo'ng'irotdan ko'chgan aholini o'z yurtiga qaytarishdan iborat edi. Bu esa xalqni birlashtirish, yurt mustaqilligini ta'minlashdan iborat qahramonlik eposining asosiy belgilaridan hisoblanadi. Shuning uchun olimlar dostonidagi muhabbat, jang, safar motivlarini inkor qilmagan holda "Alpomish"ni *qahramonlik asari* sifatida e'tirof etishgan. Keyingi paytlarda "Malika Ayyor", "Chambil qamali" kabi dostonlarda ham qahramonlik motivi yetakchi ekanligi ko'rsatilayotgan ilmiy asarlar ham borligini ta'kidlash joiz.

Shuningdek, "Ravshan" dostonida ham jang lavhalari bor. Ravshan bir lavhada sevgi deb vatanidan kechadigan nomard emasligini aytadi va mardligini dalillaydi. Ammo dostonidagi yetakchi masala baribir uning Zulxumor ishqidagi sarguzashtlari bilan bog'liq. Shu bois "Ravshan"ni ishqiy-romanik turga mansub berish ma'qul.

Qahramonlik eposi xalq og'zaki ijodi tarixida folklorshunoslik nuqtai nazaridan alohida bosqich sifatida baholanadi. Yunonlardagi "Odissey" va "Iliada" asarlari bu jihatdan qayta-qayta ta'kidlangan. Qirg'iz xalq ijodidagi "Manas"ga ham shunday baho berish mumkin. Bunday asarlarda qahramonlik va favqulodda mardlik ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, son va kuch jihatdan ustun turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. O'zbeklarda qahramonlik eposiga "Alpomish" dostoni misol bo'ladi. Unda yurtimizdagi milliy

an'analarning shakllanishi, tashqi dushmanga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismi sevgi-romanik turga mansubdir. "Roman" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, eposning bir turi ma'nosini bildiradi. Keyinchalik badiiy adabiyotda roman janr sifatida ajralib rivojlandi. Endi sevgi-sarguzasht voqealari, yetakchi asarlar bu nom bilan ataldi. Xalq ijodida sevgi-romanik atamasi bilan atalgan doston deganda, asosan, muhabbat bilan aloqador sarguzashtlar aks etgan asarlar nazarda tutiladi. Ularda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Keyinchalik qahramon ishqiy sarguzashtlarga boy safarga o'tlanadi. Bu yo'lda baxshi kashfiyotlariga boy lavhalar o'ylab topiladi. Masalan, Islom shoir ijrosidagi "Nigor va Zamon" dostonida yigit va qiz bir-biriga ko'ngil qo'yadi. Ammo qizning otasi Zamondan Go'ro'g'lining G'irotni olib kelib berishni talab qiladi. Baxshi Zamon sarguzashtida devlar bilan olishuv, palakqush, Go'ro'g'lining jang qilish san'atlarini mahorat bilan doston syujetiga singdirib yuboradi. Tur jihatdan dostonni sevgi-romanik deb atashdan boshqa iloj yo'q. Ammo asosiy yo'nalish ko'proq safar sarguzashtlaridan iboratdir. "Ravshan", "Kuntug'mish" esa mazkur dostonlar turining go'zal namunalari sifatida tan olingan.

Jangnoma dostonlarida jang lavhalari tasviriga e'tibor qaratiladi. Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Hayratli janglar tasviri, asar qahramonlarining botirliklari baxshi tomonidan fantastik talqinda ifodalanadi. "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Qirq ming" kabi epos namunalari shular jumlasidandir.

Xalq kitoblari. XVIII asr oxiri XIX asrda yozma va og'zaki adabiyotlar ijodiy hamkorligi mahsuli sifatida yangi bir yo'nalishdagi dostonlar paydo bo'la boshladi. Ularda xalq og'zaki ijodidagi cheklanmagan fantastik tasvirlar va yozma adabiyotdagi individual tasvir uyg'unlashgan edi. Adabiyotshunoslikda badiiy ijodning bu namunalari xalq kitoblari nomi bilan o'rganildi. Yozma adabiyot vakillari tomonidan yaratilgan dostonlardagi qiziqarli va ibratli voqealar bilan tanishgan baxshilar ularga suyangan holda o'z nusxa (variant)larini yaratdilar. Shu bois xalq kitoblari ko'proq folklorshunoslik tomonidan tahlil etildi. "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyod va Hamro", "Vomiq va Uzro" dostonlari shu tarzda vujudga keldi va o'rganildi. Xorazm dostonchiligi, asosan, xalq kitoblarini yoddan ijro qilish zaminida shakllandi.

Tarixiy dostonlar. Xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiq, ertak janrlarida tarixiy voqealar o‘z ifodasini topgani kabi dostonlarda ham o‘tmish muhrlangan asarlar bor. Bunday asarlar folklorshunoslikda tarixiy dostonlar deb yuritiladi. Qizig‘i shundaki, tarixiy dostonlarning mumtoz namunasi “Oysuluv” yurtimizda ikki yarim ming yil oldin ro‘y bergan mustaqillik uchun olib borilgan kurashning badiiy ifodasi bo‘lib chiqdi. Herodotning “Tarix” kitobidagi To‘maris voqeasi “Oysuluv” dostonidagiga juda o‘xshaydi. To‘g‘risini aytsak, agar “To‘maris” haqidagi rivoyat matni saqlanmaganida “Oysuluv”ning yaratilishida tarixiy voqea asos bo‘lganini aniqlash juda mushkul kechardi. Taniqli olimlar T.Mirzaev va B.Sarimsoqov “Oysuluv” dostonining vujudga kelishida To‘maris nomi bilan mashhur tarix asos bo‘lganini ilmiy dalillab berganlar⁷⁶. Tarixiy dostonlar repertuari keyinchalik yaratilgan “Tulumbiy”, “Shayboniyxon”, “Oychinor” kabi asarlar bilan boyidi. XX asr boshlarida esa “Namoz”, “Mamatkarim polvon”, “Jizzax qo‘zg‘aloni” kabi dostonlar paydo bo‘ldi.

Shunday qilib, dostonlar og‘zaki ijod merosidagi murakkab janr hisoblanadi. Ularda xalqning xalq sifatida shakllanish jarayonidan tortib, tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ijtimoiy hayot haqidagi falsafiy qarashlari keng ko‘lamda aks etgan. Baxshilar o‘z ijrolari bilan bevosita xalq ommasining estetik saviyasini oshirishga hissa qo‘shdilar. Xalq pedagogikasining talablarini keng ommaga ma‘lum qilib bordilar. O‘zbek dostonlari ijro an‘anasiga ko‘ra xilma-xilligi, mavzulari rang-barangligi bilan shubrat topdi.

Xalq epik ijodining shoh asarlari dostonlar misolida o‘zbek millatining jahon xalqlari ma‘naviy va madaniy xazinasiga qo‘shgan munosib hissasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Mazkur merosni o‘rganishda H.Zarifov, M.Alaviya, M.Afzalov, T.G‘oziboev, O.Sobirov, Z.Husainova, M.Saidov, J.Qobulniyozov, M.Murodov, B.Sarimsoqov, A.Qahhorov kabi marhum olimlar va T.Mirzaev boshchiligida bugungi kunda tinimsiz mehnat olib borayotgan S.Ro‘zimboev, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo‘raev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul, A.Ergashev kabi tadqiqotchilar xalq oldidagi burchlarini ado etish yo‘lida xizmat qilmoqdalar.

⁷⁶ Мирзаев Т., Саримсоков Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққийети / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981. - Б. 32.

Savol va topshiriqlar:

1. Dostonning boshqa janr asarlaridan farqini ayting.
2. Mustaqil ravishda doston haqidagi to'liq tasavvur omillarini sanang.
3. Dostonchilik an'analari, maktablari, mashhur baxshilar haqida nimalar bilasiz?
4. Mavzuga ko'ra xalq dostonlari qanday turlardan iborat?
5. Dostonlardan namunalar o'qing. Ular yuzasidan suhbat qiling.

Adabiyotlar:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 227-268.
2. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947.
3. Ҳоди Зариф. Фозил шоир – машҳур дostonчи / Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб: Фозил шоир. – Т.: Фан, 1973. – Б. 5-29.
4. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари / Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 7-китоб. – Т.: Фан, 1981.
5. Саидов М. Ўзбек дostonчилигида бадий маҳорат. – Т.: Фан, 1969.
6. Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. – Т.: Фан, 1985.
7. Муҳаммаднодир Саидов – маърифат фидойиси. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2009. – Б. 5-91.
8. Наманган халқ оғзаки бадий ижоди намуналари / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Т.Ғозибоев, А.Собиров. – Наманган, 1993.

"ALPOMISH" dostoni

Xalq og'zaki ijodidagi biron asarning yoki lug'at boyligimizdagi so'zning qadimiyligini aniqlash uchun uni yondosh xalqlar ijodida yoki o'sha millat tilida mavjudligini o'rganish yaxshi natija beradi. Bu jihatdan "Alpomish" dostoni mazmuniga oid asosiy voqealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yara-

tilganini dalillaydi. Prof. To‘ra Mirzaev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning "Alpomish", "Alpamis", "Alpamis botir", "Alip - manash", "Alpamsha", "Alpamisha va Barsin xiluv" kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto "Dada Qo‘rqut kitobi"ning uchinchi bo‘y (doston)i "Bamsi Bayrak" o‘zining syujet voqealari jihatdan "Alpomish"ga yaqin turishini ta’kidlaydi⁷⁷. Olimlarning ma’lumot berishiga qaraganda, XIX asr oxirida Ye.F.Kal o‘zbek-qo‘ng‘irot urug‘i aynli aymog‘iga mansub baxshi Omonnazardan dutor jo‘rligida doston tinglagani va bu doston "Alpomish" dostoni bo‘lishi kerakligi haqida ma’lumotlar ham bor⁷⁸. Shunday qilib, "Alpomish" dostoni o‘zbek qahramonlik eposining eng qadimgi va mukammal namunasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. O‘zbek folklorshunosligida uning o‘nlab variantlari to‘liq va parcha holda yozib olingan. Qadimgi an‘analar asosida doston kuylagan Jasoq baxshi, Yo‘ldosh baxshi, Jumanbulbul, Ernazar baxshilar o‘z tajribalarini Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir, Po‘lkan, Abdulla shoir, Nurman Abduvov o‘g‘liga meros qilib qoldirganlar. "Alpomish" bu bebaho merosning noyob va betakror mo‘jizasi bo‘lib shuhrat topdi. 1928-yilda Mahmud Zarifov ustoz Hodi Zarif rahbarligida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan ikki oy davomida "Alpomish"ning to‘liq matnini yozib oldi. Bugungi kunda dostonning Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Xushboq Mardonaqul o‘g‘li, Berdi baxshi (Berdiyori Pirimqul o‘g‘li), Saidmurod Panoh o‘g‘li, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li variantlari nashr etilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan doston esa bir necha marta ustoz H.Zarifov va T.Mirzaev nashrga tayyorlagan shaklda e‘lon qilindi.

Aytish mumkinki, agar baxshilar mahoratini belgilashda "Alpomish" dostonini ijro eta olish yozilmagan qoidalardan muhimi hisoblansa, folkloreshunoslikda bu doston haqida maqola yozish yoki kitob e‘lon qilish har qanday o‘zbek olimi havas qilgan voqea belgisidir. Shuning uchun o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rgangan, ilm rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimlar H.Zarifov, G‘ozi Olim Yunusov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, M.Saidov, B.Sarimsoqov bugungi kunda esa T.Mirzaev, M.Jo‘raev, SH.Turdimov, J.Eshonqul kabi mutaxassislar mazkur doston tahliliga bag‘ishlangan maqolalari, tadqiqotlari, asarni nashrga tayyorlashdagi ishtiroklari bilan folklorshunoslik ilmimizni boyitdilar. Ayni paytda H.Olimjon, M.Shayxzodaning doston yuzasidan bildirgan mulohazalari hali o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

⁷⁷ Мирзаев Т. Достонлар гултожи. Алпомиш / Сўзбоши. – Т.: Шарқ НМАК, 1998. – Б. 7-8.

⁷⁸ Мирзаев Т. Алпомиш достони, унинг версия ва вариантлари. Алпомиш – Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси китобида. – Т.: Фан, 1999. – Б. 6.

“Alpomish” dostoni haqida mazkur qo‘llanmadagi fikrlar Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantiga asoslanishini qayd etish ham maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, “Alpomish” dostoni deyarli hamma epos bilan shug‘ullanuvchi olimlarning e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan ekan, asar o‘ta murakkab bo‘lgani sababli bildirilgan mulohazalarda ham turli yondashishlar, munozarali tahlillarning mavjudligi ham tabiiydir. 1952-yil “Zvezda Vostoka” jurnalining 2-sonida A.Abdunabiev va A.Stepanovning “Xalqchillik bayrog‘i ostida” maqolalari e‘lon qilingan. Bu maqola avvalroq “Pravda Vostoka”, “Literaturnaya gazeta” sahifalarida ham chop etilgan edi. Mazkur maqolada mualliflar sobiq sho‘ro tuzumidagi siyosiy muhit hukmiga asoslanib, avval xo‘jako‘rsinga folklorshunos olimlarning yaqin qirq yillik xizmatini shunchaki maqtaydilar va birdan ularni mafkuraviy ongsizlikda ayblashga o‘tadilar. Ular folklorshunos ustozlarimizning eng katta xatosi sifatida “Alpomish”ga bo‘lgan munosabatni olishadi. “Xalqqa qarshi asarlardan biri “qahramonlik eposi” namunasi deb atalmish “Alpomish”dir”, - deyiladi maqolada. Shundan keyin M.Afzalov, M.Shayxzoda, V.Jirmunskiy, H.Zarifov, H.Olimjon kabi haqiqiy olimlar asossiz tanqid qilinadi. Bu tanqiddan “Alpomish” muzikali dramasini yozgan Sobir Abdulla ham bebahra qolmaydi. “Tanqidchilar” dostonidagi Hakimbek va Qorajon, Boybo‘ri va Boysari munosabatlarini, Kayqubodning Qalmoq yurtiga podshoh bo‘lishi voqealarini, xalq og‘zaki ijodidagi o‘ziga xos xususiyatlarni, tasvir uslublarini, hayotni ko‘rsatishdagi yo‘nalishlarni mutlaqo tushunmagan, aslida, tushunishni istamagan holda xulosalar chiqaradilar. Masalan, epos qahramonining an‘anaviy hisoblangan “Dunyoni kezay, dushmani jazolay” - gapi “Qalmoq yurtini bosib olay”, - deb tushuniladi. Vaholanki, dostonlarda dunyoni kezish va raqibni mag‘lub etish tushunchasi asar qahramonining biron yurti bosib olish niyatida ekaniga mutlaqo mos kelmaydi. Qorajonning Alpomishga ko‘rsatgan yordami mualliflar tomonidan “qulning egasi xizmatini bajarish” deb baholanadi. Alohida ta‘kidlash lozimki, maqolani yozgan “olimlar” “Alpomish”ni xalq dushmani deb e‘lon qilish bilan uzoq muddatli rejalarini amalga oshirishni boshlagan edilar. Keyingi navbatda “Avazxon”, “Zulfizar”, “Ravshan”, “Rustami doston”dek asarlar turganini ham ochiq aytib o‘tishadi. A.Abdunabiev va A.Stepanovlarning xalq og‘zaki ijodining tabiatini tushunmagan holda maqola yozishga kirishganlarini To‘ra Mirzaev shunday bayon etadi: “Shuni ochiq-oydin aytish kerakki, A.Abdunabiev va A.Stepanovlar “Alpomish” dostoni haqida maxsus tadqiqotlar olib bormaganlar, xalq orasidan biror band qo‘shiq

yoki bitta maqolni ham yozib olmaganlar. Xabardor kishilarning ma'lumotlariga qaraganda, ular dostonning arxivdagi biror varianti qo'lyozmasini o'qib ham chiqmaganlar, faqat Fozil shoir variantining ruscha tarjimasida qoralab yozganlar, xolos"⁷⁹.

Adabiy hayotda kimdir maqola yozadi, kimdir kitob nashr qiladi. Adabiyotda ana shu maqola yoki kitobga javob qaytargan ikkinchi olim ham bo'ladi. Natijada ilm rivojlanadi. Ammo "Xalqchilik bayrog'i ostida" oddiy maqolalardan emas edi. Avvalo, o'sha paytda Said Ahmad, Hamid Sulaymon, Shuhrat, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo kabi shoir, yozuvchi, olimlar taqdirida ozodlikdan mahrum bo'lishdek mudhish voqealar ro'y berayotgan edi. Siyosiy hujum ishtirokchilari endi "Alpomish"ni qoralash bilan g'azab mo'ljalini xalqqa qaratmoqchi edilar. Bu maqsadga erishdilar ham. Vaziyatning ketishidan cho'chigan ayrim olimlar daryo oqimiga qarshi bora olmadilar. "Alpomish"ni xalqqa qarshi bosqinchilik g'oyasi aks etgan doston darajasiga etkazishdi. Ana shunday paytda, akademik Aziz Qayumovning xotirasida aytilishicha, juda chuqur mulohaza yuritib muammoning echimini topish talab qilingan va bu yechimni G'afur G'ulom topishga muyassar bo'lgan. Oybek va G'afur G'ulom davlat odamlariga "Alpomish"ning faqat Fozil Yo'ldosh o'g'li variantiga asoslanib hukm chiqarish to'g'ri emasligini bahona qilishib vaqtdan yutishga erishishgan⁸⁰. Ko'p o'tmay vaziyat o'zgargan va "Alpomish" (qisqartirilgan shaklda bo'lsa ham) xalqqa qaytarilgan.

1956-yilning sentyabr oyida o'zbek olimlarining sa'y-harakatlari bilan "Alpomish" dostoni haqida hududiy kengash o'tkazilgan. Kengash natijasi o'laroq "Alpomish" eposi haqida" deb nomlangan maqolalar to'plami nashr ettirildi. To'plamda H.T.Zarifov, V.M.Jirmunskiy, A.K.Borovkov, Sh.M.Abdullaeva, H.S.Sulaymonov, M.Shayxzoda, M.Afzalov va boshqa olimlar bir ovozdan "Alpomish"ni himoya qilib chiqdilar va "Zvezda Vostoka" jumali maqolasidagi qoralovning asossiz ekanini isbotladilar. Afsus, bu olimlar erishgan g'alabani Fozil Yo'ldosh o'g'li ko'rishga muyassar bo'lmadi. Ammo, eng muhimi, go'zal doston ustidagi qora bulutlar tarqaldi, "Alpomish" ozodlikka chiqdi.

"Alpomish" dostoni haqidagi keyingi munozarali fikrlar endi ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Dostondagi "zakot" voqeasi dostonning qahramonlik eposi sifatida o'zbek xalqining xalq bo'lib shakllanishidagi aha-

⁷⁹ Мирзаев Т. Алпомиш достони, унинг версия ва вариантлари / Алпомиш – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Т.: Фан, 1999. – Б. 16-17.

⁸⁰ Қаюмов А. Академик Ғафур Ғулом / Хотиралар. – Т.: А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 29-30.

miyati, asardagi Alpomishning ikki safari, dostonning yaratilish yuzasidan bildirilgan mulohazalar, variantlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafvutlar bilan bog'liq munozarali qaydlar qahramonlik eposini o'rganish jarayonidagi tabiiy holat deb baholanishi mumkin. Bu o'rinda V.M.Jirmunskiy, M.Saidov, B.Sarimsoqov va boshqa olimlar chiqishlari haqiqatning qaror topishidagi harakat deb baholansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov: "Shu bois "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi"⁸¹, - degan edi. Bu fikrda dostonning mohiyati, g'oyasi, badiiyati, millatimiz tarixida tutgan o'rni mujassam etilgan. 1999-yilda dostonning ming yillik to'yi katta tantanalar bilan nishonlandi va o'zbek xalqining ajdodlar yodini, qadriyatlar qadrini o'rniga qo'yib esga ola boshlaganini isbotladi.

Qabila, urug', elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor B.Sarimsoqov doston o'zbekning birlashuvi, mustaqil xalq bo'lib uyg'unlashuvida qanday muhim vazifani bajarganligini ta'riflab, shunday deydi: "Dastlab qabila, so'ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan "Alpomish" dostoni keyinchalik o'zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi"⁸². Haqiqatan ham, doston mazmunida Amu yoqasida yashagan aholi tarixiga oid juda ko'p lavhalar aks etgan. Qahramonlarning o'zaro munosabatlari: ota - o'g'il; ota - qiz; ona - o'g'il; ona - qiz; aka - uka; er - xotin; yurtni boshqaruvchi - el; oilaviy burch - farzand burchi - el oldidagi burch - vatan oldidagi burch va boshqa yo'nalishlarda moddama-modda aniq tarzda ifodasini topgan. Natijada, doston shunchaki tinglovchining vaqtini o'tkazish uchun yaratilgan ermak emas, xalq qahramonlik eposiga yuklatiladigan vazifani bajaruvchi asarligi ravshan bo'lib qoladi.

Avvalo, dostondagi mifik dunyoqarash elementlarini aniqlashga urinaylik. Hakimbek, Qaldirg'och, Barchinoyning tug'ilishidagi ilohiy homiylik belgilarini eslang. Yoy, o'q, tush, qo'riq kabilar jonsiz narsa-predmetlarning homiyligi belgilari, ot, tuya, g'oz kabi hayvonlar totemizm tushunchalar ekani "Alpomish"ning juda qadimiy asar ekanini tasdiqlaydi. Hakimbek bobosi Alpinbiydan qolgan yoy yordamida

⁸¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 33.

⁸² Саримсоқов Б. "Алпомиш" эпоси ҳақида уч этюд / "Алпомиш" – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Т.: Фан, 1999. – Б. 115.

Alpomish nomini oldi. Tarixchi olimlarning ma'lumotiga ko'ra, o'ta qadim zamonlarda farzandlarga ism qo'yish odati bo'lmagan ekan. Yoki biron qahramonlik ko'rsatguniga qadar uning ismi vaqtinchalik hisoblanar ekan. Haqiqiy ismini esa yigit hammani qoyil qoldirib qahramonlik ko'rsatganida olgan. Hakimbek bo'lsa bor-yo'g'i etti yoshida Asqar tog'i cho'qqilarini o'z o'qi bilan uchirib yuborishi munosabati bilan "Alpomish" degan ismga ega bo'ldi. Alpomish ismi ikki qismdan iborat bo'lib, "Alp" - ulkan, "pomish" - bahodir, pahlavon ma'nosini bergan. Ikki qism qo'shilganda ulkan pahlavon ma'nosida qo'llangan. Doston qahramonlarining aksariyati ismi muayyan ma'noni ifodalagan. Alpinbiy - ulkan + qabila boshlig'i; Dobonbiy - dovon + qabila boshlig'i; Boybo'ri - katta bo'ri (ba'zi ma'lumotlarda oq bo'ri); Boysari - katta tepa yoki oq tepa; Kuntug'mish - kun (quyosh) tuqqan; Hakimbek - dono, ilmi, aqlli; Qaldirg'och - inson va Tangri o'rtasidagi aloqachi qush; Barchinoy - yovvoyi o'rdak kabi ma'nolar bilan bog'lanadi⁸³.

"Alpomish" dostoni faqat ijro jihatidan emas, mazmun, g'aroyib tasodifiy voqealar tasviri, qahramonlar sarguzashtlari, hayotiy muammolarning qo'yilishi bilan ham murakkabdir. Masalan, ilm tarixida bir ayolning bir nechta aka-ukalar bilan bitta oila bo'lib turmush qurishi - poliandriya haqida ma'lumotlar bor. Biz Fozil Yo'ldosh o'g'lining bunday oila tizimi haqida ma'lumoti bor-yo'qligini bilmaymiz. Lekin ustozdan o'rganilgan matnga fidoyilik, ustoz fikrini ikki qilmaslik, ustoz gapini buzmaslik odati Fozil otani doston aytishda bir necha marta alp aka-ukalar nomidan Barchinga qarata: "...yo birimizga teg, yo barimizga teg", - deyishga majbur qilgan. Insoniyat tarixidagi minglab yillar oldin o'tgan poliandriya oila tushunchasi, qanday qilib, "Alpomish"da saqlanib qoldi. Yana qizig'i shundaki, na Boysari, na Barchin alp aka-ukalarning gaplariga ortiqcha asabiy munosabatda bo'lmaydilar, bu gapni oddiy maishiy hayot holati sifatida qabul qiladilar. Bunga o'xshagan hozirgi ijtimoiy hayot nuqtai nazaridan tushunish va atroflicha sharh berish o'ta qiyin voqea lavhalari dostonida juda ko'p. Olimlar ularga imkon darajada ilmiy izoh berishga harakat qilib kelmoqdalar.

Dostonning tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb etuvchi nuqtasi baxshi tomonidan hikoya qilinadigan dastlabki voqealar bayonidan boshlanadi. Shoir qadimgi o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy, Alpinbiy,

⁸³ Каранг. Сайдов М. "Алпомиш" дostonидаги исмлар хақида қайдлар / Мухаммаднодлар Сайдов – маърифат фидойиси. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2009. – Б. 64, 82-91.

Boybo'ri, Boysari biylar (urug' boshliqlari) o'tganini hikoya qiladi. Demak, aka-uka Boybo'ri va Boysarigacha Boysun-Qo'ng'iroq elatidagi hayot bir maromda favqulodda hodisalarsiz kechgan ekan. Ammo Boybo'ri va Boysariga kelganda, ular farzand ko'rmadilar. Mana shu holatning o'zi bizga "endi nimadir bo'ladi" degan xabarni berayotgandek tuyiladi. Bundan keyingi hayotda muayyan o'zgarishlar bo'lishiga farzand yo'qligi bilan tayyorgarlik ko'rilmogda. Chunki xalqimizda uzoq kutilgan yoki Yaratgandan tilab-tilab olingan farzand hamisha favqulodda ro'y beradigan yangiliklardan xabar beruvchi omil sifatida baholanadi. Xalq bu farzandning dunyoga kelishi zarurligini asoslash uchun juda chiroyli badiiy vaziyatni o'ylab topgan: chupron to'yi mazkur holatning yechimiga aylanadi. Boybo'ri va Boysarini to'yda o'ta haqorat bilan kutib olishadi. Qashqadaryo, Surxondaryo va yana ko'p viloyat, hududlarda to'yga otda borgan mehmonning oti jilovini chavandozdan olib maxsus tayyorlangan joyga bog'lash va ulov oldiga beda tashlash odati bor. Bu udum hozir ham saqlangan. Boybo'ri va Boysariga esa hech kim e'tibor qilmaydi. To'yda etakdan joy tegadi. Oshning qoldig'ini suzib berishadi. Bunday munosabatdan aka-uka ranjyidi. Ayni shu paytda bir chapanitob boybachchani gapi haddan oshib ketadi. U odam: "Bu to'y o'g'illining o'g'lidan, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?" - deb ularning nafsoniyatiga tegadi. Aka-uka sakson tillani chupronga tashlab turadilar, lekin to'yda yeyilgan oshning qarzi faqat to'yda berilgan osh bilan uziladi. Buning uchun esa asosli sabab bo'lishi - yo o'g'ilga sunnat to'yi qilish, yo qiz uzatishda yurtga osh berib, to'y xabarini qilish shart.

Doston matnini o'qir ekanmiz, xalq og'zaki ijodidagi epik asarlarga xos xususiyatlardan biri - farzandning yetishmovchiligi oxir pirovardida xursandchilik bilan yakunlanishiga guvoh bo'lamiz. Asarni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzand dunyoga kelganidan keyin boshlanadi. "Alpomish"da ham Boybo'ri o'g'il va qiz ko'rdi, Boysari qizli bo'ldi. Ana shu yangilikdan so'ng qahramonlik eposi o'z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifani bajarishga kirishadi. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov bu vazifani qabila urug'chilik munosabatlarining yemirilishi va mamlakatni boshqaruvchi davlat tizimining vujudga kelishi bilan bog'laydilar. Bu g'oya keyinchalik M.Saidov tomonidan rivojlantirildi. Olimning fikricha, mamlakatni boshqaruvchi davlatni vujudga keltirish g'oyasi jamiyat yoshlari Hakimbek, Qaldirg'och, Barchin tomonidan ilgari suriladi. Hakimbek "zakot" tushunchasini o'ylab topdi. Uning otasiga aytgan zakoti ramziy ma'noni ifodalaydi.

Uni islom dinidagi zakot deb qabul qilish to'g'ri emas. Uzoq o'tmishda soliq yig'uvchini zakotchi deb atash odati bo'lganligini hisobga olsak, Alpomishning taklifi soliq ekani ravshanlashadi. Boysari nutqida bu ma'no yanada aniqlangan. U akasining o'g'li borligini yuziga solganini, akasiga zakot berguncha o'zga yurtda juz'ya berib yashagani ma'qul ekanini ta'kidlaydi. Vaholanki, islomda zakotdan hech kim voz kechgan emas. Aksincha, har bir odam Allohning zakot berishga yetkazgani uchun shukr qilgan. Qolaversa, islomiy zakot iqtisodiy qiyinchilikdagi odamga beriladi. Dostonda esa Boybo'ri zakotni o'ziga berishni talab qilmoqda. Ustiga-ustak belgilangan zakot hajmi bitta uloqdan iborat. Ma'lum bo'ladiki, Boysari bor-yo'g'i bittagina uloqni zakotchilarga topshirsa, o'zining Boybo'ri hukmida ekanini tan oladi. Boysari esa bu holat ro'y berishini istamaydi. U o'zini Boybo'riga har tomonlama teng deb biladi. Yana bir vaziyatga e'tibor bering. Boysarining qalmoq yurtiga ko'chishini Barchin ma'qullamaydi. Natijada, u Alpomishni qo'llaydi. Xullas, Alpomish tug'ilgunga qadar totuv yashayotgan el endilikda ikkiga bo'linadi. Endi Alpomish zimmasida bo'lingan aholini o'z harakati bilan birlashtirish vazifasi turadi. Bu vazifani bajarish uchun Alpomish Qalmoq yurtiga safar qilishi va musofirlikda yashayotgan yurtdoshlarini Boysun-Qo'ng'irotga qaytarishi kerak. Mazkur maqsadni amalga oshirish rejasi baxshi tomonidan juda asosli tuzilgan: Barchinga qalmoq alplari sovchi qo'yishadi. Barchin xat yozib, Alpomishni Qalmoqqa chaqiradi. Ammo Boybo'ri o'g'lining o'zga yurtga safar qilishini istamaydi. U maktabni sandiqqa yashirdi. Ana shu sabab bilan doston voqealarining faol rivojlanishi Qaldirg'och harakatiga bog'lanadi. Uning tashabbusi bilan Alpomish qo'riq vositasida Boychiborga ega bo'ladi va otasining ixtiyoriga qarama-qarshi ravishda Barchinga uylanish uchun Qalmoqqa jo'naydi. Qalmoqda esa uni katta sinov kutayotgan edi. Professor M.Saidov fikricha, bu sinovni, aslida, kelajakda davlat boshqarishni bo'yniga oladigan Alpomish uchun Barchin o'ylab topadi. Uning mulohazasiga ko'ra davlat boshqaruvchisi zotdor otga, sifatli yoyga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga u odam jang san'atini, ayni paytda yoydan o'q otishni bilishi, jismonan baquvvat bo'lishi shart. Barchin butun vujudi bilan u qo'yan to'rt shartni Alpomish bajarishini xohlasa-da, musobaqalarning hammasida o'zini betaraf, odil qilib ko'rsatadi. Ot poygasida qatnashayotgan Boychiborga yig'lab murojaat qiladi va undan marraga birinchi bo'lib kelishini so'raydi. Kurashda Alpomish bilan Ko'kaldoshning kuchi teng kelib turganda, sevgilisi oriyatiga tegib, g'olib kela olmasa raqib bilan

kuch sinashish navbatini o'ziga berishni talab qiladi. "Alpomish" dostonidagi bu kabi lavhalar davlatni boshqarish oson ish emasligini qayta-qayta ta'kidlash uchun kiritilgandek tuyiladi. Dostonning birinchi qismi asarni ijod qilgan ajdodlarimiz tomonidan qo'yilgan dastlabki dovonni egallash bilan belgilanadi. Ya'ni Alpomish Boysun-Qo'ng'irot aholisini bir davlat chegarasida boshqarishni niyat qildi va bu niyatiga Qalmoqqa ko'chib ketgan yurtdoshlarini qaytarish bilan erishdi.

"Alpomish" ijodkorlari Boysaridagi o'jarlikni atayin bo'rttirib ko'rsatadilar va uning Qalmoqda qolishini asoslaydilar. Natijada, Alpomishning Qalmoqqa ikkinchi safari dalillanadi. Muhimi shundaki, Alpomishda Qalmoq podshosi Toychixonning mamlakatini to'g'ridan-to'g'ri bosib olish niyati yo'q edi. Toychixon Boysari chorvasini zo'rlik bilan tortib oldi va o'ziga podachi qilib zulm o'tkazdi. Boysari zulmga chiday olmay qiziga maktub yozishga majbur bo'ldi. Ikkinchidan, Alpomish ikkinchi safarida Surxayil qo'ygan tuzoqqa ilindi. Yetti yil zindon azobini boshidan kechirishga majbur bo'ldi. Endi Alpomish Toychixonni jazolashga haqli edi. Doston ijodkoriga qoyil qolish kerakki, bosh qahramonning yetti yil zindonda yotishi davomida tinglovchini zeriktirmasdan ko'plab qiziqtiruvchi lavhalarini o'ylab topgan. Doston bilan yaqindan tanishgan tinglovchi yoki matn o'quvchisining diqqati bir daqiqa ham bo'shmaydi. Avvalo, Alpomishning zindonga tushishi, keyinchalik g'oz ishtirokidagi lavhalar, Shakaman tog'idagi kampir va ovchi yigit ishtiroki, Qorajonning do'stini ozod qilish maqsadida Qalmoqqa kelishi, Tavkaning doston mazmuniga aralashuvi, Surxayil va Toychi munosabatlari, bozor epizodlari, Kayqubodning Alpomishga yordami kabilar shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, biz, bir tomondan, Alpomish taqdiri guvohiga aylansak, ikkinchi tomondan, yirik epik tasvir yakunidagi qahramonlar harakatidan qoniqish hosil qilamiz.

Qadimgi zamonlarda biron yurt haqiqiy ma'noda mustaqil hisoblanishi uchun uning tasarrufida qaysidir mamlakat bo'lishi shart hisoblangan ekan. Bu masala mutlaqo bosqinchilik bilan bog'lanmagan. Go'ro'g'li turkumi dostonlarida Chambilga hujum qilgan podshohlar keyinchalik Go'ro'g'liga qaram bo'lganiga ko'p marta ishonch hosil qilganmiz. "Alpomish"da ham o'xshash holat ro'y beradi. Hakimbek Surxayil kampirni, Toychixonni o'ldiradi, Kayqubodni Tavkaga uylantiradi, Qalmoq yurtida Kayqubod Alpomishni zindonga tashlash hiylasini o'ylab topadi, bu yerga o'z odamini podshoh qiladi. Ikkinchi safari ham g'alaba bilan yakunlanadi. Natijada, qadimgi tushunchalar asosida Boysun-

Qo'ng'iroq mustaqilligini ta'minlagan bo'ladi. Dono xalqimizning har bir tadbiriga ana shunday bir qarashda ko'zga ko'rinmaydigan yechimlar vositasida hayotiy muammolarni hal qilish mahoratiga qoyil qolish kerak. Muhimi, xalqning ana shunday zukkolik bilan tuzgan doston mazmunini tashkil qiluvchi rejasi Alpomish vositasida hayotga tatbiq etiladi. Alpomish butun o'zbek xalqining ramziy timsoliga aylanadi. O'zbek, Qozoq, Qoraqalpoq variantlarida ham unga nisbatan o'zbek so'zining son-sanoqsiz tarzda qo'llanilishi fikrimiz dalilidir. Alpomishdagi tadbirkorlik, mardlik, o'z baxti, kelajak hayoti uchun kurashga chanqoqlik, vaqtinchalik muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik, imonini pokiza saqlash fazilatlarini, aslida, o'zbekka xos asosiy belgilardir. U zindonda yotganida yaralangan g'ozni davolaydi. Shunda Bobir ko'lida g'ozni ko'rganini eslaydi. Zindonda, tutqunlikda yotishni jarohatlangan g'ozga qiyoslaydi. Zindondan qutulib, Kayqubodni Qalmoqqa podshoh qilib o'z vataniga qaytganida ham tadbirkorlik bilan ish ko'radi. U Qultoy, Qaldirg'och, Boybo'ri, onasi Kuntug'mish, Ultontoz, Bodombikachlarning hammasi bilan yakkama-yakka uchrashib chiqadi. O'zini Qultoy qilib ko'rsatish bahonasi bilan do'st-dushmani xolis ajratib oladi. Zero, davlatni boshqaruvchi inson atrofidagi mulozimlari maslahati bilan ish ko'rsa, qachondir adolatsizlikka yo'l qo'yishi mumkin bo'ladi. Alpomish esa kim bilan qanday muomala qilishni o'zi bevosita sinagan voqeasiga ko'ra belgilab chiqadi.

Dostonda Alpomishning o'z oilasiga qaytishini tasvirlashda baxshi doston eshitayotgan tinglovchilarga turli yo'llar bilan hayotda ziyrak bo'lish kerak, degan o'gitni ham berib o'tadi. Xususan, Qultoy Alpomishning Alpomishligiga ishonmaydi. Shundan keyin Alpomish chap yelkasidagi Qultoy panjasining dog'ini ko'rsatadi. Shundan keyin Alpomish Qultoy qiyofasida yurtdoshlari bilan uchrashadi. Bu ko'rinishlar tasvirlangan doston sahifalari xuddi badiiy filmdagi ekran lavhalarini eslatadi va har safar "Qultoy"da Alpomish belgilari namoyon bo'ladi. To'yga ketayotgan xotinalarning tugunlarini mutlaq bo'shatadi. Bir qozon oshni pishmay turib quritadi va h.k. Xuddi shunga o'xshagan nozik belgi Yodgorning yoy ko'tarishida baxshining o'ta mahoratli tasviri bilan ifodalanadi. Yodgor Arpa ko'lida yotgan o'n to'rt botmon yoini to'yxonaga olib kelishi kerak edi. Baxshi bu o'rinda shunday deydi:

Jahon titrar Yodgor ovozasiga,
Quloq soling bu so'zning mazasiga.

O'n to'rt botmon parli yoyni sudrab
Kelib qoldi Qo'ng'irotdarbozasiga.

E'tibor bersak, baxshi bizga alohida so'zning mazasiga quloq solishni va o'n to'rt botmon yoyni sudrab kelganini ta'kidlamoqda. Xo'sh, nima uchun aynan yoyni sudrab kelganiga urg'u berilmoqda. Gap shundaki, bu ma'lumot bilan ham Alpomishning tirik ekani qayd etiladi. Agar yoy turkiy xalqlarda yurtga egalik belgisi hisoblansa, Alpomish tirik bo'lgani uchun ham Yodgor yoyni hali ko'tarish huquqiga ega emas. Yodgorning yoyni sudrab kelganiga urg'u berilishini shu holat bilan izohlash mumkin. Baxshining mahorati yana dostonidagi voqealar zaminida muttasil ravishda Alpomish ta'siri aniq sezilib turishi bilan namoyon bo'ladi. Qizig'i shundaki, biron voqea tasvirlanar ekan, Alpomish unda ishtirok etadimi-yo'qmi uning nigohi mazkur voqeani kuzatib turgandek tuyiladi o'quvchiga.

Dostonidagi Barchinoy bilan bog'liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan bayon etiladi. U zukkoligi, tadbirkorligi, donoligi, mardligi jihatdan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampir o'g'illari Barchinoyini zo'rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo'lganlarida, qiz alplardan birini ko'tarib yerga shunday zarb bilan uradiki, alpning og'zidan ko'pik sachraydi. Shundan so'ng alplar Barchinga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo'ladilar. Barchinoy Alpomishni sevadi, ammo bu iliqlik undagi mas'uliyat tuyg'usini inkor etmaydi. Chunki Barchin Alpomishni faqat oila boshlig'i sifatida emas, Boysun-Qo'ng'irotdar eli davlatining boshqaruvchisi, yangi tuzumdagi komil inson bo'lishini ham nazarda tutadi. Alpomish bilan oila qurganidan so'ng unda yangi fazilatlar paydo bo'ladi. Ayniqsa, Yodgor tug'ilganidan so'ng Barchin mehribon ona, umr yo'ldoshidan ajralgan ayolga aylanadi. Professor B.Sarimsoqov Barchinning Ultontozga majburan turmushga chiqishi munosabati bilan shunday deydi: "...Barchindek alp qizning doston syujetining ikkinchi qismida Ultontozdek tagi-zoti betayin bir xizmatkorning zo'ravonligiga ko'nib, taqdirga tan berib o'tirishi kishini ajablantiradi. Chunki o'z baxti uchun to'qson alpning zo'ravonligiga dosh berib, ularga shartlarini o'tkaza olgan bu ayol nega endi Ultontozga turmushga chiqishga ko'ndi?"⁸⁴ Olim o'z savoliga o'zi javob berib, bu rozilikni eposdagi shartlilik bilan izohlaydi. Shubhasiz, biz bu mulohazaga qo'shilamiz. Ammo, bizningcha, masalaning yana bir tomoniga ham

⁸⁴ Саримсоқов Б. "Алпомиш" эпоси хақида уч этюд / Алпомиш – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси" китобида. – Т.: Фан, 1999. – Б. 138-139.

e'tibor berish maqsadga muvofiq. Xususan, alplar bilan munosabatda Barchin rasman turmushga chiqmagan qiz edi. Qalmoqlar yurtida uni himoya qiluvchi kuch yo'q bo'lgani sabab alp aka-ukalarga qarshi o'zi kurashga otlangan. Ikkinchi qismda esa Barchin o'ldi deb hisoblagani bilan aslida Alpomish tirik-ku. O'z oilasini, o'z qo'rg'onini Alpomish dushmanlardan o'zi asrashi kerak. Qolaversa, Ultontozga bu safar ham Barchin qarshi chiqqanida, Alpomish bajarishi lozim bo'lgan katta kurash vazifasi o'z qadrini yo'qotar edi. Shunday qilib, baxshi dostonida Barchin ishtirokini tasvirlashda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'radi va uni eng go'zal fazilatlariga ega ayol sifatida tasvirlaydi.

Dostondagi Qorajon obraziga alohida ehtiyotkorlik bilan yondashishimiz lozim. Chunki Qorajon – makkor Surxayil kampirning o'g'li bo'lishiga qaramay tabiatan adolatli shaxs. Onasi Barchinoyga sovchilikka ketayotganida aynan Qorajon uni yo'ldan qaytaradi. U Qo'ng'irotdan kelganlarning tinchligini buzishni ma'qullamaydi. Biroq Surxayil Barchinni Qorajonga olib bermoqchi ekanini eshitib, onasiga oq yo'l tilaydi. Qorajon dostonida juda sodda va samimiy shaxs deb tasvirlanadi. U onasining sovchilikdan "bo'ri" bo'lib qaytganiga osongina ishonadi va butun Boysari urug'i orasida rosa kulgiga qoladi. Ammo taqdir uni Alpomish bilan yaqinligini qayta-qayta tasdiqlaydi: Alpomishning mozoristondagi tushini u ham ko'radi. Murod tepada uning navbatchiligi paytiga Alpomishning qalmoqqa safari to'g'ri kelib qoladi. Bularning hammasi yetti aka-ukadan Qorajonning boysunliklarga bo'lgan munosabatini belgilagan bo'lib chiqadi. Xalq og'zaki ijodida bir qahramon mardligi oldida ikkinchisining tan berishi umumiy an'ana hisoblanadi. Qorajon ham Hakimbek oldida o'zining qoyil ekanini tan oladi. U bilan aka-ukalari o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'ladi. Qorajon tushida islomni qabul qilgani uchun qalmoqlardan ko'ra boysunliklarga ko'proq ergashib ish tutadi.

Dostonida ijobiy qahramonlarning fazilati salbiylari bilan munosabatga kirishilganda aniqroq seziladi. Bu o'rinda Boybo'ri, Boysari, Ko'kaldosh va Surxayilni alohida qayd etish lozim. Badiiy adabiyotda qahramonning salbiy, ijobiyligidan qat'i nazar asarda tasvirlanish darajasi mukammallikka erishsa, go'zal obraz deb atash qabul qilingan. Masalan, "O'tkan kunlar"dagi Homid, "Mehrobdan chayon"dagi Abdurahmon go'zal obraz hisoblanadi. Chunki ular haqiqiy insonda nafrat uyg'otadi. Ya'ni bu o'rinda qahramonning fe'li emas, yaratilish jarayonidagi adib mahoratining namoyon bo'lishi asos hisoblanadi. Aytmoqchimizki,

“Alpomish” dostonidagi eng go‘zal obrazlardan biri bu Surxayildir. Agar xolis baho beradigan bo‘lsak, Surxayil nihoyatda aqlli, hushyor, tadbirkor, irodali, o‘z maqsadiga erishuvchan kampir. Doston sahifalarida uning ismini uchratganimiz zahoti ko‘nglimizda g‘ashlik paydo bo‘ladi. Bu g‘ashlik ko‘pincha o‘zini oqlaydi. Chunki hiyla o‘ylab topishda, xiyanat chegarasini belgilashda uning oldiga tushadigan qahramon faqat “Alpomish”dagina emas, umuman, xalqimiz og‘zaki ijodida boshqa uchramasa kerak. O‘z harakatlarini juda asoslaydi. Raqib kuchini to‘g‘ri baholaydi. Vujudga kelgan vaziyatni juda aniq belgilaydi va zudlikda undan foydalanish rejasini tuza oladi. Axir o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, Alpomish mast yotganida yoqishdi - yonmadi, uni qurol yaralay olmadi. Shunda Surxayil zindonni o‘ylab topadi. Undan oldin Alpomishni butun yigitlari bilan bandi qilish rejasini ham u tuzadi. Hatto Alpomishning ishonchini qozonish uchun Toychixon askarlari kelayotgani haqida xabar ham beradi. Bu xabardan avval Toychixon bilan kelishib olgan edi. Uning har bir harakati Alpomishga qarshi qaratilgan. Tavkaning Hakimbek zindoniga lahm kavlaganini ham Surxayil fosh etadi. Xullas, Surxayilning salbiy badiiy obraz darajasidagi fazilati shu qadar mukammal ishlenganki, undan har qanday mohir va tajribali adib mahorat maktabi sifatida foydalanishi mumkin. Ma‘lum bo‘ladiki, “Alpomish” qahramonlar tizimini yaratish bo‘yicha ham eng oliy darajadagi badiiy asar deb baholanishga loyiq ekan.

“Alpomish” dostoni badiiy jihatdan ham mukammal asar. Faqat siz badiiylik deganda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko‘laminigina tushunmasligingiz lozim. Chunki badiiylik tushunchasining o‘zi juda murakkabdır. “Alpomish” dostonida qabila-urug‘chilik munosabatlarining tugallanishi va davlatning vujudga kelishi aks etgan dedik. Masalaning qo‘yilishi boshqa, uni badiiy mukammal holda ishonarli qilib tasvirlash boshqa. “Alpomish” dostoni asrlar davomida xalqimizni mardlik, qahramonlik, adolat, irodalilik ruhida tarbiyalab keldi. Mana shunday vazifani sharaf bilan bajarib kelgan asar, albatta, badiiylik talabiga javob bera oladigan bo‘ladi, ya‘ni asar ijrosini tinglovchilar qiziqish bilan qabul qiladilar. Qahramonlarning g‘alabasidan qalblari quvonchga to‘lsa, mag‘lubiyatidan tashvishga tushadi. Asardagi voqealarga u to‘liq ishonadi. Ayrim kamchiliklar esa uning xayoliga ham kelmaydi yoki kamchiliklarni sezmaslikka urinadi. Aynan mana shunday ruhiy holatning vujudga kelishi ham asar badiiyati darajasidan ma‘lumot beradi.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li mohir va tajribali baxshi bo‘lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchi-

larining tashqi qiyofasini, ichki dunyosini, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta'riflaydi. Tomoshabin ko'z oldida jonli voqea tasvirini namoyon qiladi. Asardagi qahramon xatti-harakatlarini dalillashga e'tibor beradi, shuning uchun ham tinglovchi ko'nglida doston mazmuni bilan bog'liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

"Alpomish" dostoni badiiy tasvir vositalari: mubolag'a, o'xshatish, sifatlashlarga juda boy. Masalan: "Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyini qo'liga ushlab ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi, Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasini olamga ketdi"⁸⁵. Lug'atlarda og'irlik o'lchovi "botmon" O'rta Osiyoda 2 puddan 16 pudgacha vaznga ega ekani ko'rsatilgan. Agar 1 pud 16 kilogrammga teng bo'lsa, 14 botmon eng kichik hisobda 224 kilogramm bo'ladi. 7 yoshli Hakimbekning bronzadan quyilgan (birichdan bo'lgan) shu qadar og'ir yoyini ko'tara olishi, unga mos o'q joylashi va o'qni otib, katta tog'ning cho'qqisini uchirib yuborishi tinglovchilarda hayrat uyg'otadi. Ammo tinglovchi bu voqeaning sodir bo'lganiga shubha qilmaydi. Chunki Hakimbekning dunyoga kelishini avliyolar qo'llashgan. Shohimardon pirining o'zi qalandar qiyofasida kelib, Hakimbek deb ism qo'ygan. Mubolag'ali o'rinlar alplar gavdalari, Barchin, Qaldirg'och go'zalligi tasvirida, botirlarning kurashlarida, ot poygasida juda o'rinli yaratilgan. Dostonda ajoyib o'xshatishlar bor:

Ostingda bedoving xalloslar qushday,
Achchiqing chillali muzlagan qishday.

Bu satrlarda masofani tez bosib o'tadigan Boychibor qushga, Alpomishning g'azabi atrofni muzlatadigan qishga o'xshatilyapti.

Dostonda:

Davlat qo'nsa bir chivinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga.
Ot chopsa gumbirlar tog'ning darasi
Urushda bilinar mardning sarasi –

kabi hikmatli so'zlar tez-tez uchraydi. Ma'lum bo'ladiki, "Alpomish" dostonining o'ta qiziqarli voqealardan tashkil topgan mazmuni so'z

⁸⁵ Алпомиш. Достон. – Т.: 1998. – Б. 17-18.

san'atining go'zal badiiy vositalari bilan bezatilgan holda tinglovchiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham doston asrlar osha xalqimiz tomonidan sevib tinglanmoqda va o'qib kelinmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantini o'qing.
2. Dostonning bugungi kunda xalq qadriyatlari qatorida e'tiborga loyiq ekanini izohlang.
3. "Alpomish" dostonidagi mifik dunyoqarash belgilarini alohida-alohida ko'rsating. Ular haqida bilganlaringizni so'zlang.
4. Dostonning o'rganilishida olimlar fikrlarini ayting. Ularni baholashga urining.
5. Dostondan parcha yodlang.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Алпомиш. Достон. – Т.: Шарқ НМАК, 1998.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947. – Б. 60-108.
4. Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Т.: Фан, 1968.
5. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Т.: Фан, 2008.
6. Саидов М. Ўзбек дostonчилигида бadiий махорат. – Т.: Фан, 1969.
7. Мирзаев Т. Достонлар гултожи / Алпомиш. – Т.: 1998. – Б. 7-12.
8. "Алпомиш" – ўзбек халқ қахрамонлик эпоси. – Т.: 1999.
9. Мухаммаднодир Саидов – маърифат фидойиси. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2009. – Б. 5-91.
10. Мирзаев Т. Достонлар / Ўзбек халқ поэтик ижоди. – Т.: 1990. – Б. 227-268.
11. Самад А. Ўзбек халқининг қахрамонлик эпоси / Сабок самараси. – Т.: Фан, 2007. – Б.62-87.
12. Йўлдошев Қ. "Алпомиш" талқинлари. – Т.: Маъnavият, 2002.
13. Мадаев О. Алпомиш билан суҳбат. Т.: Маъnavият, 1999.



ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI

Ergash Jumanbulbul o'g'li deganda "Ravshan", "Kuntug'mish" dostonlari ko'z oldimizga keladi. Baxshilar "Ravshan"ni Ergashning otasi Jumanbulbul uch marta haydagan dostoni deb atashgan ekan. Ergash mana shunday mashhur oilada 1868 yilda dunyoga keldi. Shu hududda yashagan Sulton kampir, buvisi Tilla kampirdan tortib, bobosi Mulla Xolmurod, otasi Jumanbulbulgacha doston aytishgan, o'ziga xos termalar ijod qilishgan. Bu oila Nurota tumanidagi Qo'rg'on qishlog'ida istiqomat qilgan. Folklorshunoslikda Qo'rg'on dostonchilik maktabi deb nomlanishda qishloq nomidan ko'ra Jumanbulbul oilasi xizmati ko'proq edi. Ustoz Hodi Zarifov Ergash Jumanbulbul haqidagi mashhur "Ulkan xalq san'atkori" maqolasida Qulsamat baxshining onasi Sulton kampirning hayotidagi ibratli voqeani eslaydi: Qozoq oqini yig'indagi shoirlarni yengganida bir o'zbek baxshisi "Sen bizning Sulton kampir bilan teng ekansan", - deydi. Oqin Sulton kampirni chelak ko'tarib kelayotganida izlab topadi va unga savol beradi:

Sendan savol so'rayman, turgan zayip,
O'si turgan tovlaring necha jasar?

Shunda Sulton kampir:

Xudoyimning ishin ko'r,
Falakning gardishin ko'r,
Men bilmayman yoshini,
Og'zin ochib tishin ko'r,

degan ekan. Ustoz bu voqeaning hayotda ro'y bergan-bermaganidan qat'i nazar unda Qo'rg'on dostonchiligi vakilidagi ijodiy salohiyat qanchalar kuchli ekani namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Ergash Jumanbulbul o'g'li yoshligidan ijodkor muhitda tarbiyalandi, baxshilardan doston aytish sirlarini o'rgandi. Bizga noma'lum sabablarga ko'ra shoirning otasi ko'rgan farzandlar Jumanbulbul ellik yoshdan o'tgandan keyin tug'ilishgan. Abduxalil, Abdujalil, Mahkamoy ismli ukalari uzoq yashamaganlar.

Jumanbulbul katta o'g'li Ergashdagi aqliy kamolotni his qilib, uni yetti yoshida qishloq maktabiga beradi. 17 yoshida esa Buxorodagi madrasalardan birida o'qitadi. Natijada, Ergash Jumanbulbul o'g'li o'nlab xalq baxshilari orasida o'qishni va yozishni mukammal biladigan, Navoiy, Fuzuliy ijodidan boxabar yagona ijodkor sifatida yetiladi.

Ergash Jumanbulbul o'g'li folklorshunos olimlarga o'tgan asrning 20-yillaridan ma'lum bo'ldi. Undan Hodi Zarif, G'ozilim Yunusov, Muhammad Iso Ernazar o'g'li kabi olim va ziyolilar 33 nomdagi asarlarni yozib olishgan. Baxshi haqidagi maqolalar soni esa 200 ga yaqin. O'zbek baxshilaridan birontasi Ergash shoirdek 5 jildlik asarlar to'plamini nashr qilishga musharraf bo'lgan emas. O'zbek xalqi tarixidagi yorqin sahifalar aks etgan "Oysuluv" dostoni ham Ergash Jumanbulbul og'zidan ertak holida yozib olingan.

Ergash shoirning mashaqqatli hayoti Qo'rg'on qishlog'ida yashagan hamqishloqlaridan o'zgacha emas edi. "Kunlarim" termasidagi uylanish va otasi o'lganidan keyin qarz evaziga butun bor-yo'g'idan ajralishi tarixini eslang. Uning ustiga ukalari va singlisining vafot etishi baxshiga ruhiy ta'sir qildi. Ergash Jumanbulbul o'g'li ukasi Abduxalil o'limi bilan bog'liq yig'isida shunday deydi:

Emrandi tanimda jonim,
Xazonda bo'ldi gulistonim,
Yig'lashib yor-yoronim,
Bemahal qurib bo'stonim,
Qo'ldan uchdi bo'z tarlonim,
Eshitinglar qadrdonim,
Yolg'iz inim, suyanganim,
Shunqorimdan judo bo'ldim.

To'g'ri, 20 yoshga kirgan Abduxalil vafot etganida baxshi 30 yoshda edi. Hayot tajribasiga ega bo'lganiga qaramay navqiron inidan ajralish shoirga o'z kasrini o'tkazmasligi mumkin emas edi.

Turmush tashvishlari baxshidan tinimsiz mehnat qilishni talab qilar edi. Samarqand, Zarafshon atrofida qishin-yozin tirikchilik dardida doston, termalar aytish bilan band bo'ldi. Ammo iymonini yo'qotmadi, davlatmandlarga qulluq qilib yashamadi. Otasi Jumanbulbulga munosib farzand bo'ldi. Ustoz Hodi Zarif xotirasiga ko'ra (Hodi Zarif baxshi Ergash Jumanbulbul bilan juda yaqin aloqada bo'lgan. Haftalar davomida birga yashashgan. Ehtimol, shu sababdan baxshi otasi hayotidagi nozik voqea tafsilotlarini Hodi Zarifovga aytib bergan) Miltiqboy ismli bir zolim amaldor Jumanbulbulga duch kelib o'zini ta'riflashni so'rabdi. Maqtoev evaziga qorabayir otini mukofotga berishini ham aytibdi. Shunda Jumanbulbul:

Agar tuya bo'lganda jo'n bo'laring,
Otdan keyin eshakman teng bo'laring.
Qantar og'may xarish bo'p ag'nab yotib,
Qarg'a bilan quzg'unga yem bo'laring

Agar yilqi bo'lganda o'tmas eding,
Bahong qirq besh-ellikka yetmas eding,
Har kim olsa, o'zingni, aynib berib,
Chir aylanib ovuldan ketmas eding⁸⁶ - degan ekan.

Ergash shoir otasidagi haqqo'ylikdan g'ururlangan, faxrlangan. Shuning uchun el orasidagi hurmatini yuqori darajada saqlash baxti hayotidagi aziz tushuncha hisoblangan.

Ergash shoir Buxoro madrasalarida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab ijodi bilan yaqindan tanishdi. Bu fazilat, shubhasiz, baxshiga ijro etilajak dostonlar kompozitsiyasi, syujetining badiiy mukammal ishlanilishida foyda berdi. "Ravshan", "Kuntug'mish" dostonlari "uch marta haydalgan"ligi bilan ajralsa, "Alpomish", "Qunduz bilan Yulduz", "Dalli", "Xush keldi", "Avazxon", "Hasanxon"lar zaminini o'z mahorati bilan haydashga urindi. Folklorshunoslar Ergash shoir ijrosidagi asarlarining puxta ekanligini alohida ta'kidlaydilar. Shoir dostonlaridan biron lavhani olish ham, unga qo'shish ham mumkin emas. Ma'lum bo'ladiki, har bir ishga ijodiy yondashishga o'rgangan shoir madrasada olgan bilimlarini xalq dostonlari ijrosiga tatbiq etdi va bu janr namunalarining badiiy saviyasini ko'tarishga munosib hissa qo'shdi. Ustoz olim Hodi Zarif bu

⁸⁶ Ходи Зариф. Улкан халқ санъаткори. Эргаш шоир ва унинг ўзбек дostonчилигида тутган ўрни. – Т.: 1971. – Б. 17.

fikrni tasvir vositalaridan omonim soʻzlarni qoʻllashdagi shoir mahoratini dalillab quyidagicha koʻrsatadi: “Shu jihatdan qaraganda biz biigan oʻzbek xalq shoirlari orasida soʻzga boy Ergash Jumanbulbul oʻgʻlining tajnislari diqqatni jalb etadi. Biz uning tajnisli toʻrtliklaridan bir nechasini qayd etmoqchimiz:

Togʻning adiri oʻradi,
Oʻraga qoʻylar oʻradi.
Uch tol qilib sanamlar,
Chochini mayda oʻradi⁸⁷.

Ustoz birinchi misradagi “oʻradi” - togʻning adiri asta koʻtariladi maʼnosini, ikkinchi misradagi “oʻradi” - oralab yurishni, toʻrtinchi misrada - qizlarning soch oʻrishini anglatishini taʼkidlaydi. Badiiy sanʼatning bu turi adabiyotshunoslikda “tajnis” deyiladi, yaʼni jinsdosh - bir xil shakldagi omonim soʻzlar asosida sanʼat yaratiladi. Muhimi shundaki, Ergash shoir tajnisli qofiyadan faqat terma yaratishda emas, qulay imkoniyat kelgani zahoti dostonlarda ham foydalangan. Masalan “Ravshan” dostonida Hasanxon Zulxumorni olib kelish safariga otlangan oʻgʻliga nasihat qilishda shunday deydi:

Qoʻlingdan kelgan cha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yodingda tut, yolgʻizim,
Yolgʻiz yursa, chang chiqarmas, yaxshi ot⁸⁸.

Ergash shoir butun hayoti davomida oʻz vatanini, ona yurtini sevdi, eʼzozladi. U qalbidagi muhabbatni ijro etayotgan dostonlaridagi qahramonlar xatti-harakatini koʻrsatish orqali ifodaladi. U kuylagan Goʻroʻgʻli turkumidagi dostonlarida Goʻroʻgʻli, Yunus pari, Misqol pari, Hasanxon, Avaxxon kabilar mardligi, halolligi, toʻgʻrisoʻzligi bilan tinglovchilarni oʻziga maftun etadi. Odamlar oʻzlarining yangi tugʻilgan farzandlariga niyat qilib, dostonidagi ismlarni tanlashadi. “Ravshan” dostonida Hasanxon dorga olib kelinayotgan oʻgʻlini shu zahoti qutqarmoqchi boʻlganida, Jaynoq masxaraboz unga avval Ravshanni sinash kerakligini maslahat qiladi. Hasanxon rozi boʻladi. Qoraxon podshohning mulozimlari

⁸⁷ Уша жойда. – Б. 26.

⁸⁸ Булбул тароналари. 2-том. – Т.: Фац, 1972. – Б.386.

Ravshanga o'z yurtidan, Go'ro'g'lidan voz kechsa, Zulxumorni unga berishlarini, shu yurtga - Shirvonga Ravshanni podshoh qilishlarini aytadilar. Shunda yosh yigit dor o'stida turishiga qaramay:

Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Bir nechalar o'z holini tinglamas,
Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog'imga teng emas!⁸⁹

- deb, taklifni rad etadi.

Bunday mazmundagi misralar doston ijro etilayotgan hududlardagi yuzlab mard o'g'lonlar tarbiyasiga ta'sir qilgan. Shoir yurt mehri haqida ularga ortiqcha nasihatlar qilmay, yuraklariga ona diyor qimmatini naqadar ulug' ekanini singdirib qo'ya qoladi.

Professor Hodi Zarifov shoir hayotining so'nggi davri haqida hikoya qilib, baxshi o'z yurtiga borib, bir qator qo'lyozmalarni topmoqchi bo'lganini, yangi-yangi termalar, dostonlar aytib berishga va'dalar qilganini yozadi. Biroq og'ir kasallikdan Ergash Jumanbulbul o'g'li 1937 yil 12 may kuni 69 yoshda vafot etadi. Zukko baxshidan qolgan badiiy meros bugungi kunda yurtimiz kelajagi uchun xizmat qilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. *Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan dostonlar boshqa baxshilarnikidan qanday farqlarga ega?*
2. *Baxshining qaysi fazilati sizga ma'qul bo'ldi?*
3. *Ergash shoir kuylagan dostonlardan o'qing, qo'llanmadagi parchalarni yod oling.*

Adabiyotlar:

1. Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. Тадкикотлар. 2-китоб. – Т.: Фан, 1971.
2. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – С. 23-58.
3. Булбул тароналари. Беш томлик. – Т.: Фан, 1971.
4. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Икки жилдлик. – Т.: 1971.

⁸⁹ Ўша жойда. – Б. 554.



FOZIL YOʻLDOSH oʻgʻli

Badiiy adabiyotda ijodkorning soʻz sanʼati taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi yaratgan asarlarining soni, hajmi bilan oʻlchanmaydi. Badiiy adabiyotning rivojlanish darajasini, avvalo, mahorat mezoni belgilaydi. Bu oʻlchov, shubhasiz, xalq ogʻzaki ijodi namunalariga ham taalluqlidir. XIX asrdan XX asrgacha oʻzbek dostonchiligida yuzlab baxshilar ijod qilganlar, yuzlab dostonlarni aytganlar. Ammo bugungi kunda ulardan bor-yoʻgʻi oʻndan ortiq baxshilar nomi saqlanib qolgan. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli nomi esa eng taniqlilarning taniqlisi sifatida eʼzozlanadi.

Oʻzbek xalq qahramonlik eposi haqida fikr yuritilganda, avvalo, “Alpomish” dostoni tilga olinadi. Baxshilardan bu doston 30 dan ortiq variantlarda toʻliq yoki parchalar tarzida yozib olingan. Ammo ular orasida eng mashhur va mukammal nusxa 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan taniqli olim Hodi Zarif rahbarligida yozib olindi. Qizigʻi shundaki, dostonning Oʻgʻuz, Qipchoq, Oltoy, Qoʻnqiroq versiyalari orasida ham Fozil Yoʻldosh oʻgʻli aytgan nusxa folklorshunos olimlar tomonidan eng mukammali sifatida tan olingan.

Maʼlumki, 1952-yilda “Alpomish” dostoniga qarshi siyosiy hujum uyushtirildi. Bu paytda Fozil Yoʻldosh oʻgʻli tirik edi. Bizgacha yetib kelgan xotiralardan bilamizki, keksa baxshi bu paytda dostonni qoralovchi majlislarda soatlab oʻtirishga majbur boʻlgan ekan, ammo qoʻyilayotgan ayblarni mutlaqo tushuna olmagan ekan, chunki savodsiz, oʻqishni ham bilmagan Fozil shoir xalq qadriyatlarini tushunish sohasida tanqidchi “olim”lardan tasavvur qilib boʻlmaydigan darajada yuqori turgan.

Fozil Yoʻldosh oʻgʻli 1872-yilda Samarqand viloyati Bulungʻur tumaniga qarashli Boʻdana hududidagi Loyqa qishlogʻida dehqon Yoʻldosh aka oilasida tugʻiladi. 1873-yilda Loyqa qishloq aholisi Chelak qishlogʻi atrofiga koʻchishga majbur boʻladi. Ammo yashash manzilining oʻzga-

rishi oila maishiy sharoitida ijobiy o'zgarish yasamadi. Turmush qiyinchiligiga chiday olmagan Yo'ldosh aka 1877-yilda vafot etadi. Fozil oilasi yanada og'ir iqtisodiy ahvolda qoldi.

Fozil juda yosh bo'lishiga qaramay G'allaorol qishlog'iga borib yashash uchun non topish ilinjida og'ir mehnat qilishga majbur bo'ldi. Bu haqda keyinchalik "Kunlarim" termasida shunday deydi:

Olti yoshda qo'msab-qo'msab otamni,
Og'ir mehnat ezdi sho'rli enamni.
Ena-bola topolmadik bir nonni,
Parcha non deb o'tgan kunlarim.

Yetti yoshda ortdi mening kulfatim,
Sakkiz yoshda og'ir mehnat ulfatim,
Mehnat uchun sinab ko'rdim quvvatim,
To'qqiz yoshga yig'lab yetgan kunlarim.

To'qqizimda bel bog'ladim mehnatga,
Cho'pon bo'ldim, tushdim yana g'urbatga,
Ishlab yedim, lekin qoldim minnatga,
Parcha non deb minnat chekkan kunlarim.

Do'mbiram kuyladi mening holimni.
Men jo'r bo'lib so'kdim boyni - zolimni,
Topdim, do'stlar, shunda dardkashlarimni,
Haq-nohaqni kuylab chertgan kunlarim⁹⁰.

E'tibor bergan bo'lsangiz, Fozilning yoshligi mutlaqo bolalik quvonchlaridan mahrum holda o'tgan. O'rtoqlari bilan turli ko'ngil ochdi o'yinlar o'rniga bir parcha nonni go'dakligidan mehnat bilan topishga majbur bo'ldi. "Kunlarim" termasi esa uning bolaligi haqida bir asrdan oshgan bugungi kunda tasavvur hosil qilish imkonini beradi, ayni paytda, yoshlarimizni ota-bobolarining bolaligidan ibrat olishga chaqiradi. Fozil Yo'ldosh o'g'lida Ergash shoirning ijodiy muhiti bo'lmagan. Fozil shoirning baxshilar davrasiga kirish jarayoni ancha murakkab o'tgan. Uning dostonchilik sirlarini o'zlashtirishi turmush tashvishlarini boshidan kechirish bilan uyg'unlashgan. Professor Hodi Zarifovning ma'lumot beri-

⁹⁰ Фозил шоир / Ўзбек халқ ижоди буйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Т.: Фан, 1973. – Б. 7.

shicha, Fozil shoir baxshilikni o'zlashtirguniga qadar 19 yoshida o'z qishlog'iga qaytib, otasidan qolgan chorak tanob yerda dehqonchilik qilgan, chorvachilik bilan shug'ullangan. Hatto Loyqa qishlog'ining eng epchil o'roqchisi nomini olishga muyassar bo'ladi. Ammo yoshligida o'rgangan do'mbira mashqi unga tinchlik bermaydi. Havas yo'lidagi xarakatlari natija berib, o'z davridagi mashhur ustoz baxshi Yo'ldosh bulbul e'tiboriga tushadi. O'sha paytda Loyqa qishlog'idan Yo'ldosh, Qo'ldosh, Suyar baxshilar o'z ustozlari an'analarini davom ettirayotgan edilar. Ular qatoridagi Yo'ldosh baxshi o'z davrida Yo'ldosh bulbul darajasiga yetgan baxshiga shogirdlik qilgandi. Uning Fozilga nazari tushgani bo'lajak "Alpomish" ijrochisi uchun omad muhri bo'lib qoldi. Fozil shoirdagi iqtidor, ovoz, do'mbirachilik ishqi Yo'ldosh shoir maslahat va ko'rsatmalari zaminida rivojlandi. Oxir-oqibat 1897-yil atrofida 25-26 yoshlarida Fozil taniqli baxshilar nazariga tushdi, Fozil shoir nomini oldi.

Xalq baxshisi hamisha elining dardini, alamini, zamon tashvishlarini o'z ijodida aks ettirgan. Xalq ijtimoiy hayotning eng og'ir va musibatli davrlarida aynan baxshi termalaridan tasalli topgan, kelajakka umid bilan qaragan. Bu mas'uliyatni Fozil shoir butun vujudi bilan his qildi. 1898-1908-yillarda Samarqand viloyati ekin maydonlarini chigirtka ofati bosganida "Chigirtka" termasini yaratdi. Yurtda qashshoqlik avjiga chiqqani sari baxshi nolasi ham avj oldi:

Kambag'alning aqli shoshib,
O'g'il qiziman kengashib,
Kecha-kunduz zor yig'lashib,
Do'stlar, qaddi kamon bo'ldi⁹¹.

Aksiga olib chor hukumatining mahalliy aholi boshiga yog'dirayotgan zulmi, adolatsizligi ham ko'paydi. Xalq faqat mute' va qaram bo'lishga majbur edi. Norozilik bildirganlar shu zahoti jazoga tortildi. Ayniqsa, Jizzaxda bosh ko'targan aholining vahshiylarcha to'pga tutilishi dard ustiga chipqon darajasiga yetdi. Fozil shoir bu davr voqealarini "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo'zg'oloni" dostonlarida ifodaladi. Baxshi tajribasi unga o'z davrida ro'y bergan voqealarni o'ta jonli lavhalarda tasvirlash imkonini yaratdi:

⁹¹ Ўша жойда. – Б.16.

O'z holiga qo'yamay xalqni
Qayta-qayta chiqim soldi,
Urushda bo'lgan xarajat
Qaydan topib bersin elat?
Hamma bo'lib qoldi hayron,
Nechovning vatani vayron⁹².

“Jizzax qo'zg'oloni” dostonida soliq va ortiqcha zulm ustiga oq podshohning Germaniya bilan bo'layotgan urushga mardikor yuborish haqidagi farmoniga qarshi xalqning ko'tarilishi hikoya qilinadi. Baxshi notiqlarning nutqidan tortib chor amaldorlarining talvasaga tushguniga qadar hayot lavhalarini shunday bayon qildiki, dostonni eshitganlar yoki o'qiganlar o'zini o'sha tarixiy voqealar ishtirokchisidek his qildi.

Fozil Yo'ldosh o'zbek folklorshunosligi ilmiga 1922-yildan ma'lum bo'ldi. Dastlab, G'ozli Olim Yunusov, keyinchalik V.M. Jirmunskiy, Hodi Zarifov, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Muhammadnodir Saidov, Bahodir Sarimsoqov, bugungi kunda To'ra Mirzayev, Mamatqul Jo'rayev, Abiyr Musaqulov, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqul kabi olimlar baxshi ijodini o'rganishda muhim ilmiy tadqiqotlar yaratdilar.

“Alpomish”, “Yodgor”, “Shirin bilan Shakar”, “Murodxon”, “Rustamxon”, “Malika ayyor”, “Mashriqo”, “Intizor”, “Balogardon”, “Nurali”, “Jahongir”, “Farhod va Shirin” kabi qirqqa yaqin dostonni Fozil Yo'ldosh o'g'li istagan paytda, istalgan lavhadan aytib ketaverish salohiyatiga ega edi. Ayniqsa, “Alpomish”ni kuylash uning uchun alohida sharaf va huzur bag'ishlar edi. Fozil Yo'ldosh o'g'li qahramonlik eposi namunasini ijro etishda uning dostonini oddiy odamlar tinglayotganini yodidan chiqarmasdi. Odamlarning qalbini esa turli his-tuyg'ular egallagan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun baxshi dostonlarida faqat oliy mezon bilan o'lchanadigan jang lavhalaridan tashqari asar qahramonlarining ruhiy holatini ifodalashga ham diqqat qilar edi. “Alpomish” dostonidagi Barchinning Boychiborga alam bilan murojaat qilishi bu fazilatning dalili bo'lishga arzigulikdir:

“Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti,
Oq to'shim yayloving, sochim - shipirtki,
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
To o'lguncha sayising bo'p yurayin.

⁹² Ўша жойда. – Б.19.

Egam rahm aylasin qonli yoshima,
Sabab bo'lib qo'shgin dengi-do'shima,
Olmosday tuyoqing qorday to'shima,
Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti!

O'yilmay kuymasin kulbai xonam,
Oh urib yig'laydi mendayin sanam,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
O'n ikki oy seni Boyburi boqdi,
Gardaningga Qaldirg'och qo'tos taqdi.
Yig'latmagin Barchin gulday bebaxtdi,
Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti"⁹³.

Bu murojaatni befarq eshitish mumkin emas. Uni tinglaganda, juda bo'lmaganda bir oz e'tibor bilan o'qiganda, inson vujudida sehrli o'zgarish ro'y bergandek tuyiladi. O'zga yurtda g'arib bo'lib yashashdan cho'chigan norasida qizning yurak dardi ifodalangan.

Fozil Yo'ldosh o'g'lining nomi chiqqan baxshilar o'rtasida munosib hurmatga ega bo'lishi bejiz emas, albatta. Bu hurmat tinimsiz mehnat, favqulodda xotira egasi bo'lish, hayot tajribasini aytilayotgan asarga singdirish, mahorat va bukilmas iroda mahsuli ekani oddiy haqiqatdir. Fozil Yo'ldosh o'g'lining o'nlab dostonlari xalq og'zaki ijodi turkumida yuzlab bosma toboqlarda nashr etildi. Bugungi kunda baxshidan yozib olingan terma va dostonlar, uning ijodi tahlil qilingan kitob va maqolalar soni 500 ga etdi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li 1955-yilda 83 yoshda o'z qishlog'ida vafot etdi.

Xullas, Fozil Yo'ldosh o'g'li o'zbek dostonchiligida mashhur va ulkan baxshi sifatida shuhrat topgan xalqimizning asl farzandidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Fozil Yo'ldosh o'g'lining o'zbek xalq og'zaki ijodi rivojida tutgan o'rnini izohlang.

2. Baxshi ijodida ijtimoiy hayot va badiiylik tushunchasi qanday uyg'unlashgan.

⁹³ Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Т.: Шарк НМАК, 1998. – Б. 153.

3. Nima uchun “Alpomish” dostoni haqida mukammal tasavvur hosil qilishda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti muhim hisoblanadi?

4. Barchinning Boychiborga murojaatini yoki “Alpomish” dostonidan boshqa o‘zingizga yoqqan parchani yod oling.

Adabiyotlar:

1. Ҳоди Зариф. Фозил шоир – машҳур дostonчи / Фозил шоир. – Т.: Фан, 1973. – Б. 5-29.

2. Мирзаев Т. Дostonлар / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 227-268.

3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – С. 23-58.

4. Алпомиш. Дoston. – Т.: Шарқ НМАК, 1998.





MUHAMMADQUL JONMUROD o'g'li PO'LTKAN

O'zbek dostonchiligida xalq eposi namunalarini, mazkur san'at turini oliy darajada ijro etgan baxshilar juda ko'p bo'lgan. O'nlab ulkan san'atkorlar asrlar davomida asl farzandlar tomonidan yaratib kelingan dostonlarni mehr bilan aytib mahalliy aholi o'rtasida shuhrat topdilar. Ularni san'at muxlislari baxshi, shoir, nomlari bilan e'zozladilar. Alohida mahoratli baxshilar ismi nomiga bulbul so'zi qo'shib talaffuz qilindi. Ammo baxshilar kuylagan dostonlarga bir oz diqqat bilan nazar tashlasak, ularning har birida o'ziga xos yo'nalish, so'z tanlash, kuy ijro etish usuli borligini sezamiz. Bu haqda ba'zi fikrlarni qayd qilganmiz ham. Xususan, Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlarni qahramonli, Ergash Jumanbulbul muhabbatli qilib aytishlarini eslaganmiz. Bu jihatdan Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltkan aytgan dostonlar ko'proq o'tmish haqida hikoya qilishi bilan ajralib turadi. Baxshi ijro etgan "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Yunuspari", "Misqol pari", "Chambii qamali" kabi dostonlar aynan "Ravshan", "Kuntug'mish" dostonlaridan qadimiyroq turmush voqealarini bayon qilishi bilan farqlanadi. Aynan ana shunday dostonlarni kuylash Po'ltkanga alohida zavq bag'ishlagan ekan.

Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltkan 1874-yilda Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi Qatag'on qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keladi. Po'ltkan Fozil shoirga o'xshab yoshligidanoq yetim qoladi. U ham 10 yoshidan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Ko'p o'tmay cho'ponlik qila boshlaydi. Shuning uchun podani ma'lum o'tloqqa qo'yganidan so'ng, uni nazorat qilishdan boshqa ishi bo'lmaydi. Natijada, do'mbira chertib vaqt o'tkazishni odat qiladi. O'zicha terma va dostonlardan parcha aytishni o'rganadi. Ammo undagi tabiiy iqtidor tez orada mashhur baxshi-

larning e'tiborini o'ziga jalb qildi. Katta ustozlik tajribasiga ega Jassoq baxshi unga baxshilik sirlarini o'rgatadi. Muhimi, Jassoq baxshi Po'lkanning o'ziga xos doston aytish usuliga to'siq bo'lmay mustaqil ijro qobiliyatini rivojlantirdi. Natijada, ikki yil o'tar-o'tmay Po'lkan ustoz baxshilar sinovidan muvaffaqiyatli o'tib, shoir nomiga munosib topiladi. Bu muvaffaqiyat Po'lkanga o'z mashqlariga mas'uliyat bilan yondashish kerakligini ta'kidlagandek bo'ldi. Jassoq baxshining 4 yil u bilan mashq qilishi oqibatida baxshilik tajribasiga ega bo'ldi. 25 yoshida sinovdan o'tib taxminan 1899-1900-yillar atrofida nomdor baxshi sifatida tilga tushdi. Ammo u paytda Muhammadqul baxshi deb atalgan Po'lkan o'ziga o'ta talabchan inson edi. Shuning uchun mustaqil baxshilar faoliyat olib borish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'lsa-da, Jassoq baxshidan ajralmadi. Ustozining hamma dostonlari repertuarini to'liq o'zlashtirishga harakat qildi, eshitgan va o'rganganlariga muttasil yangiliklar kiritib bordi. Lekin hayot unga o'ta murakkab sinov lavhalarini tayyorlab qo'ygan edi. Gap shundaki, 1914-yilda Muhammadqul Jonmurod o'g'li 40 yoshda ekanida chor Rossiyasi podshohi farmoniga binoan Turkiston o'lkasidan birinchi jahon urushida qora ishlarni bajarish uchun mardikorlikka olingan mahalliy aholi qatorida ona yurtini tashlab ketishga majbur bo'ldi: qishlog'idagi Bo'riboy ismli bir badavlat odam mardikorlikdan ozod bo'lish mablag'ini to'laydi va uning o'rniga Muhammadqul mardikorlikka olinadi va Rossiyaga jo'natiladi. Bu safar natijasida baxshining "Mardikor" dostoni vujudga keladi. Unda oq podshoh zulmiga, o'zbek xalqiga hech qanday aloqasi yo'q urush tashvishlariga bo'lgan norozilik o'zining badiiy ifodasini topgan. Po'lkan nomi esa "polk" so'zidan olingan bo'lib, mardikor bo'lib yurgan zamonlardan xotira sifatida front orqasidagi polkda xizmat qilgani uchun unga taxallus bo'lib qoldi.

Po'lkan o'tgan asrning 20-yillaridan o'zbek folklorshunos olimlari e'tiboriga tushdi. Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, keyinchalik undan yozib olingan asarlarni Oxunjon Sobirov, Muhammadnodir Saidov, Malik Murodov o'rgandilar. Baxshi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Yunus pari", "Gulnor pari", "Avazxon" dostonlarini alohida mahorat bilan ijro etgan. Shuningdek, "Yodgor", "Shayboniyxon", "Qironxon", "Kuntug'mish" dostonlarini ham o'ziga xos usulda aytganligi ma'lum. O'zbek folklorshunosligi fani rivojiga munosib qissa qo'shgan olimlar V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifov 1947-yilda nashr qilingan "O'zbek qahramonlik eposi" kitobida Po'lkan ijrosidagi "Qironxon" dostoni 20000

misra she'rdan iborat ekanini alohida ta'kidlaganlar⁹⁴. Taniqli olim Mansur Afzalov "Po'ikan shoir" kitobida: "Po'ikan shoir chet el bosqinchilarining ayyorlik, qo'rquqlik sifatlarini ustalik bilan ko'rsatib, dushmanlar obrazini yorqin chizib beradi. "Rayhon arab qo'rquvdi", "O'lgandan qo'rqqan yomon", "Tishi toshday urishib" va boshqalar..."⁹⁵ – deydi.

Har bir baxshi o'z xalqini, yosh avlodini komil inson sifatida tarbiyalanishi uchun munosib hissa qo'shadigan asl insondir. Po'ikan o'zining ustozidan Qo'rg'on dostonchilik maktabiga xos usullarni mukammal o'zlashtirgani uchun butun ijodi davomida yoshlarni ajdodlarimiz qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat bilan qaradi. Ayniqsa, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" u yoddan bilgan 70 ta doston orasida o'zining voqealarni aniq ifodalashi, tilining soddaligi, qadimgi odatlarni ulug'lab tasvirlashiga ko'ra juda ibratlidir. Xususan, baxshi yashagan hududda Go'ro'g'lidek qahramonning dunyoga kelishi va tarixini bilishga qiziquvchilar juda ko'p edi. Dostonda esa Go'ro'g'lining Ravshan sinchi oilasida tug'ilishi, uning yoshligi, ulg'ayishi haqida hikoya qilinadi. Xalq himoyachisi va xaloskori - Go'ro'g'lini, G'iro't qahramonligini elga tanitish esa o'zbekning ota-bobolari nechog'lik mard, jasur ekanliklarini ko'rsatish vositasi edi. Vatanni mustaqil asrash baxshi dostonlarining bosh g'oyasi bo'ldi. Jumladan, "Chambil qamali" dostonidan quyidagi parcha fikrimiz dalilidir:

Yovgarchilik bo'ldi endi yoronlar,
G'ayrat qiling, Chambil elning xotini...
Qovoqlarni uyinglar,
Qiz-xotinni jiyinglar,
Po'pakni yig'ib tashlab,
Sochni boshga tuinglar.
Xotinlikni qo'yinglar,
Sarboz anjom kiyinglar,
G'ayrat qiling, ayollar⁹⁶.

Doston mazmuniga ko'ra, Go'ro'g'li Voyanganga ketganidan foydalanib dushman Chambilga hujum boshlaydi. Chambil mudofaasiga Yunus pari

⁹⁴ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – Б. 47.

⁹⁵ Афзалов М. Пулкан шоир. – Т.: Фан, 1955. – Б. 7.

⁹⁶ Уша жойда. – Б. 6.

ayollarni safarbar qilib, Go‘ro‘g‘lining yo‘qligini bildirmaydi. Go‘ro‘g‘li dushman haqida xabar topib kelguniga qadar Chambilni himoya qiladi.

Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li kuylagan dostonlar faqat mazmunan emas, badiiy jihatdan ham mukammal edi. Baxshi hayratomuz mubolag‘alar, chiroyli sifatlashlar, o‘xshatishlarni qo‘llashda tengi yo‘q san‘atkor edi. Jumladan, xalq maqollari uning she‘riy misralariga shunday singib ketar ediki, shoir mahoratiga qoyil qolmaslik mumkin bo‘lmasdi:

Ot boshiga kun tug‘sa,
Suvliq bilan suv ichar.
Er boshiga kun tug‘sa,
Etik bilan suv kechar⁹⁷.

Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkandan yozib olingan va nashr qilingan terma va dostonlar soni yuzdan ortiq. Po‘lkan ustoz va taniqli baxshilar qatoridan munosib o‘rin egallashga loyiq san‘atkoridir. U 1941 yilda vafot etgan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Po‘lkan hayoti va ijodi haqida so‘zlang.*
2. *“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonini o‘qing.*
3. *Po‘lkan dostonlaridan parchalar yodlang.*

Adabiyotlar:

1. Пулкан шоир. Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб. - Т.: Фан, 1976.
2. Афзалов М. Пулкан. - Т.: Фан, 1955. - Б. 10-14.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - Москва: ОГИЗ, 1947. - С. 46-49.
4. Гўрўғлининг туғилиши. - Т., 1967.

⁹⁷ Уша жойда. - Б. 6.



ISLOM SHOIR

Nazar o'g'li

Baxshi oddiy hayotda qanday odam bo'lganini bilish uchun quyidagi lavhani e'tiboringizga havola qilamiz. Yodgor baxshi Is'hoqov sartarosh do'sti Tillayev yordamidan foydalanib, Islom otaga shogird tushgani uyiga borganida mezbon unga:

Juda soz, qidirib keldingmi ustoz? Lekin shoirlik qiyin-da bir oz, agar shoir bo'lsang, bir o'lib tirilishing rost. Turqingga qarasam, o'zing yaxshi, yuzlaring qizil gulning naqshi, sendan ham chiqib qolsa edi-ya baxshi, ma, do'mbirani bir chertib boq-chi, Narpay arig'iday bir sharqirib oq-chi, – deb do'mbirani unga uzatadi.

Kunlardan bir kuni Yodgorning mashq she'rini o'qib:

She'rni bunday bo'sh qilib, qip-qizil go'sht qilib, dumi yulingan qush qilib, she'r yuragini qish qilib yozma! She'rni soz qilib, qomatini g'oz qilib, qo'lini daroz qilib, kelinchakdek serparдоз qilib, xuddi dor ustida o'yin ko'rsatayotgan dorboz qilib, ohangini do'mbiraga mos qilib, shirasini ko'p, suvini oz qilib, she'r ko'nglini bahor-yoz qilib, burgutdek baland parvoz qilib yozgin, she'r qudug'ini yurak bilan qazgin, – deydi⁹⁸.

Biz - oddiy odamlarni hayratga soladigan tarafi shundaki, Islom shoir tasodifiy holatda, maxsus tayyorgarliksiz “soz, ustoz, bir oz, rost; yaxshi, naqshi, baxshi; boq-chi, oq-chi” qofiyasidagi so'zlarni osongina topgan, undan ham ajoyibligi bu qofiyadosh so'zlarni shu zahoti tuzilgan izchil jumlar tarkibiga joylagan va muayyan maqsadni bayon qilishga qarata olgan. Baxshilardagi yashin tezligida fikrlash, fikrni aksari qofiyali so'zlar ishtirokida gap tuzilgan holda bildirish fazilati ularni oddiy odamlardan ajratib turadi. Chori baxshi Xo'jamberdiev, Qahhor baxshi Rahimov,

⁹⁸ Ёдгор бахши Исҳоқов. Устозим ҳақида / Ислому шоир замондошлари хотирасида. – Т.: Фан, 1981. – Б. 51-52.

Shomurod baxshi Tog‘ayev bilan bo‘lgan suhbatlarimizda bu vaziyatni bir necha marta kuzatganmiz, guvoh bo‘lganmiz. Shubhasiz, Islom otaning suhbatlari o‘ta nozik va nafis iqtidor egasi sifatida zamondoshlari xotirasida o‘chmas taassurot qoldirgan bo‘lishi tabiiy.

Islom shoir Nazar o‘g‘li 1874-yilda Narpay tumani Oqtosh hududidagi Gala Qassob qishlog‘ida kambag‘al cho‘pon oilasida tug‘ildi. Oiladagi iqtisodiy nochorlik oqibatida yoshligidan otasining yonida ishlashga majbur bo‘ldi. 1884-yildan Islom cho‘ponlikdan boxabar inson sifatida mustaqil ish olib bora oldi. Bu kasb Po‘lkanda bo‘lgani kabi Islomda do‘mbira chertish zaruratini paydo qildi. Uning betakror yoqimli ovozi hamqishloqlariga ma‘qul bo‘ladi va ko‘p o‘tmay do‘mbirani turli qo‘shiqalar aytib cherta boshlaydi. Islom shoir o‘zining xotiralarida shunday deydi: “Bir kun o‘z qishlog‘imda bir o‘tirishda do‘mbira chertib, baland tovush bilan qo‘shiq aytib o‘tirsam, Ernazar shoir ham kelib eshitib o‘tirgan ekan. Mening tovushim unga ma‘qul tushibdi, shekilli, shoirlikka bo‘lgan havasimni payqab, darrov otam qoshiga borib, meni u kishidan so‘rabdi”⁹⁹. Shu voqea ro‘y beradi-yu, Islomning havaskorlik mashqlari yakuniga yetadi. Ernazar shoir butun hayoti davomida baxshilik san‘ati yo‘lida to‘plagan tajribasini, ustozlik sirlarini samimiy niyati bilan Islomga o‘rgata boshladi. Ernazar shoir Shahrisabz maktabi ustozlari yo‘lini yaxshi bilardi, ammo Qo‘rg‘on dostonchiligi vakili Jumanbulbuldan ham mashq olgan edi. Shuning uchun Islom shoir ijrosida Shahrisabz va Qo‘rg‘on baxshilaridagi eng ibratli xususiyatlar uyg‘unlashdi.

Islom Nazar o‘g‘li 26 yoshda mustaqil baxshi darajasiga yetishdi. Baxshi o‘z xotiralarida Jumanbulbul bilan uchrashganini eslaydi. Ulkan dostonchi Ernazar baxshiga qarab: “Siz shogirdning aslini topib olibsiz, ishqivozligi ham ancha zo‘rga o‘xshaydi”¹⁰⁰, – degan ekan. Haqiqatan ham, Islom shoir, birinchidan, xotirasi kuchli va badihago‘y edi; ikkinchidan, ovozi nihoyatda yoqimli va eshitishli edi; uchinchidan, har safar doston aytishdan oldin tinglovchini do‘mbira chertib, sel qilib olar ekan, sozning bu jo‘rligi doston ijrosi davomida ham davraga zavq berib turar edi. Xullas, Islom shoirning doston aytish mahorati olimlarning eslashiga qaraganda, musiqiyli, mayinligi, voqealarning aniq va sodda tarzda aks ettirilishi, badihago‘yiligi, o‘mi kelganda kulgili ifodasi bilan ajralib turar ekan. Ovozning shirasi doston fayziga fayz bag‘ishlar ekan. Shuning uchun

⁹⁹ Ислом шоир Назар ўғли. Танланган асарлар. – Т., 1953. – Б. 4.

¹⁰⁰ Ўша жойда. – Б. 4.

Islom shoir aytgan 28 ta doston va son-sanoqsiz termalarini hamqishloqlari, qo‘shni hududdan kelgan ishqibozlar maroq bilan tinglaganlar.

Baxshi o‘z zamondoshlarining qalbalaridagi fikr-mulohazalarini oshkor qiluvchi satrlarni topa bilmasa u mashhur bo‘lolmaydi. Doston kechalari yig‘ilgan muxlislar faqat doston yoki terma eshitish uchun kelmaydilar. U hamisha baxshidan dunyodagi voqealar, qo‘shni viloyat, tuman, juda bo‘lmaganda qishloqlardagi yangiliklarga ham chanqoq bo‘ladi. Radio, televidenie, matbuotning boshqa turlari rivoj topmagan paytlarda baxshi ham jurnalist, ham notiq, ham boshlovchi, ham siyosiy sharhlovchi, ham taniqli ustoz ziyoli sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Bir necha taniqli ustoz baxshilar ishtirokidagi suhbat kechalari o‘ziga xos ommaviy axborot vositalari vazifasini bajargan. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Islom shoir kabi iqtidorli baxshilar esa matbuot markazining ish yurituvchilari bo‘lishgan. Ular orasida Islom shoirning munosib o‘rni bor. Chunki Islom shoir “Orzigul”, “Gulixiromon”, “Zulfizar bilan Avaz”, “Xirmondali”, “Kuntug‘mish”, “Sohibqiron”, “Erali va Sherali”, “Tohir va Zuxra”, “Nigor va Zamon” kabi o‘nlab dostonlarini aytish jarayonida yurtidagi ijtimoiy o‘zgarishlarni, yangiliklarni, ayrim shaxslar haqidagi tanqidiy mulohazalarni ham bayon etgan. Har bir xonandaning alohida o‘rinli ashulasi, qo‘shig‘i, shoirning she‘ri bo‘lgani kabi baxshilarda ham muhabbat qo‘ygan dostonlari bo‘ladi. Ergash shoir “Ravshan”, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Alpomish”, Po‘lkan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlarini qiyomiga etkazib aytishgan. Islom shoir Nazar o‘g‘lining bunday go‘zal ijro etadigan dostoni sifatida “Orzigul”ni ko‘rsatish mumkin. Bu dostonni Islom shoir boshqacha bir mehr bilan kuylagan. Dostonda jahon adabiyoti tarixida asrlar bo‘yi adiblar asarlariga an’anaviy mavzu hisoblangan otaning bexabar holda o‘z farzandi, qiziga oshiq bo‘lish voqeasi bayon etiladi. Orzigul sovchi yuborgan shoh o‘zining otasi ekanini bilgani zahoti boqib olgan otasi Ernazar yordamida Xosxona mamlakatidan bosh olib chiqib ketadi. Doston markazida inson ma’naviy dunyosi pokligi, yo‘l qo‘yilgan har qanday xatoning jazosiz qolmasligi masalasi turadi. Qarama-qarshi ruhiy kechinmalar tasviriga boy bu dostonda baxshi tinglovchi yodida saqlanib qoladigan bir qator obrazlar yarata olgan. Ayniqsa, Orzigulning bog‘bon xonadonidan chiqib ketish lavhasida ichki kechinmalar ifodasi e‘tiborga loyiq:

Jasadimda jonim bo‘lgandi g‘arib,
O‘lganim yaxshidir chetlarga borib,

Ushbu savdolarga jonimni berib,
Ketarman yurtimdan, otadan kechib.
Puxta bilgin, ota-ena, ketarman,
O'zga eldan borib, makon tutarman.
Qaytib otam bilan birga turarman,
Quloq soling, Orzugulning zoriga,
Turgilik qilmadi ushbu shahriga
Qaytib¹⁰¹ ota lozim qizning bag'riga?!¹⁰²

Dostonda inson, ota, farzand, oila burch kabi falsafiy masalalar oddiy xalq nuqtai nazaridan tahlil etiladi, salbiy xususiyatlar qoralanadi.

Islom shoir Nazar o'g'li 1953-yilda 79 yoshida vafot etdi. Uning hayoti va ijodi atoqli folklorshunos olimlar Hodi Zarifov, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov tomonidan o'rganilgan. Islom shoiridan yozib olingan, nashr etilgan badiiy asarlar, uning ijodiga bag'ishlab nashr qilingan kitoblar, maqolalar soni uch yuzdan ko'p. Baxshidan meros bo'lib qolgan dostonlarni xalqimiz hamon sevib o'qimoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. *Islom shoir haqidagi Yodgor baxshi Is'hoqov xotirasini qismlarga bo'lib tahlil qiling.*
2. *Baxshi mehr bilan ijro qilgan "Orzigul" dostonini o'qing.*
3. *Islom shoirning o'zbek xalq baxshilari qatoridagi o'rmini izohlang.*

Adabiyotlar:

1. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – С. 52-53.
2. *Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan ўрни / Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар.* – Т.: Фан, 1978.
3. *Собиров О. Атоқли халқ шоири / Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan ўрни.* – Т.: Фан, 1978. – Б. 3-9.
4. *Афзалов М. Талантли куйчи / Islom shoir Nazar ўғли. Танланган асарлар.* – Т., 1953. – Б. 3-13.
5. *Орзигул дostonи.* – Т.: Фан, 1956.

¹⁰¹ Qaytib – qanday qilib.

¹⁰² Орзигул. Дoston. Айтувчи: Islom shoir Nazar ўғли. – Т.: Фан, 1956. – Б.12.

BOLALAR FOLKLORI

Bolalar folklori xalqimiz og‘zaki ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Uning o‘zi topishmoq, tez aytish, sanamachiq kabi ko‘p janrlardan tashkil topgan. Kattalar folkloridagi qo‘shiq, ertaklar bolalar folklorida farzandlarga moslashtirilgan holda yaratilgan bo‘ladi. Ammo, doston, maqol, askiyalar mazmunan murakkab hayotiy muammolar bilan bog‘liq bo‘lgani sabab bolalar folklorida uchramaydi. Olimlar bolalar folklorini kimlar yaratadi, degan savolga javob berishga uringanlar. O‘zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov bilan bir kuni ilmiy suhbatda nima uchun bolalar folklori haqida maqola yozmaganlarini so‘radik. Shunda ustoz bu og‘zaki ijod namunalari o‘ta sirli va murakkab ekanini aytdilar va mazkur asarlar haqida maqola yozishga jur‘at etmasliklarini tushuntirdilar. Ularning fikricha, ayrim qo‘shiqlardagi sirli ifodani izohlash juda mushkul ekan. Masalan:

Chori chamber
Bori anbar.
Ona qiz qayda?
Ola-bula tog‘da! –

Qo‘shiqning mohiyat mazmuni aza bilan bog‘liqqa o‘xshaydi. Birinchi va ikkinchi misrada tobut tasviri bordek. “Chambar” doira ma’nosini beradi. Ammo chori chamber deganda, to‘rt burchak holda chegaralanish tushuniladi. Bu esa tobutga aloqador bo‘lishi mumkin. Endi “anbar”ni olaylik. Anbar “Erkaklar tobutining to‘rt burchagida tik qoqilgan tayoqlarga o‘ralgan gazlama, surp; shuningdek, ayollar tobutining tepasiga ishkam tarzida egib o‘rnatilgan tol yog‘ochlari ustiga yopilgan malla bo‘z”¹⁰³. Qo‘shiqning 3 va 4-misralarida “Ona qizi” so‘rallyapti va “Ola-bula tog‘” tilga olinmoqda. Bu esa ustoz izohiga ko‘ra go‘rni eslatadi. “Xo‘sh, - degan edilar ustoz, - bu qo‘shiq harakat bilan aytiladi.

¹⁰³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жылдли. Биринчи жылд. - Т.: 2006. - Б. 82.

Ohangi sho‘x. Unda odamni ko‘mish bilan bog‘liq mazmun nima qilib yuribdi. Buni izohlash o‘ta mushkul”. Zero, bolalar folklori yuzasidan fikr yuritganda, juda ehtiyotkorlik bilan har bir so‘z, har bir ifodaning mohiyatini hisobga olish lozim. 1988-yilda Farg‘ona viloyatining Buvayda tumaniga folklor ekspeditsiyasiga borganimizda talabalarimizning bitta guruhi nihoyatda gapga chechan 9-10 yoshlardagi bir bola bilan uchrashib qolgan. Undan qo‘shiq, topishmoq janrlariga mansub matnlar yozib olishgan. Suhbatning oxirida bola o‘zi o‘ylab topgan topishmoqni topishni so‘ragan. Topishmoq quyidagi matndan iborat edi: “Bitta daraxt. Daraxtning to‘qqizta shoxi bor. Har bir shoxning o‘ng tarafida sakkizta, chap tarafida sakkizda barg bor - shuni toping”. Talabalar daftarlarini nazorat qilayotganda, shu topishmoq hammamizni o‘ylashga majbur qildi. Oxiri topishmoq matnidagi raqamlarni yozib, uni topishga qaror qildik. Raqamlar yozilganda esa 1988 raqami aniq ko‘rindi va jumboq joriy yil ekani aniq bo‘ldi. Bunga o‘xshash misollar ekspeditsiya davomida tez-tez uchrab turadi. Aytmoqchimizki, bolalar folklori matnini ijod qilishda bevosita yoshlarning o‘zi ishtirok etishi inkor qilinmaydi. Lekin bolalar folklorining salmoqli qismi asosan kattalar tomonidan yaratiladi. Bizningcha, yozma adabiyotda o‘z asarlarini bolalar uchun yozadigan adiblar: Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imomberdiyev kabi shoir va yozuvchilarning asarlari o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan. Zamon o‘zgarib, kitoblar nashr qilingani bois asarlar mualliflari o‘z ismlari bilan yozgan she‘r, ertaknamo romanlar, topishmoqlarni nashr ettirmoqdalar. Kitoblarni nashr qilish imkoni yo‘q qadim zamonlarda esa ular yodga olingan va avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tgan. Shunday qilib, bolalar folklori deb atalgan sirli javohirlar sandig‘i yaratilgan. Masalan, Tohir Mullaboyevning bitta topishmog‘ini olaylik:

Yog‘ochdan silliq tani,
Ilma teshik badani,

Bag‘ridan o‘tsa havo
Taralar mayin navo¹⁰⁴.

Shoirning nay - musiqa asbobiga bag‘ishlangan topishmog‘i bolalarga ma‘qul bo‘lgani uchun ular yodlagan matnlarini bir-birlariga aytadilar.

¹⁰⁴ Муллабоев Т. Тоғлиқмоқлар. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 24.

Har kim o‘z farzandining aqliy va jismoniy jihatdan komil bo‘lib yetishishini xohlaydi. Bola yoshligidan ertak va qo‘shiqlar ta‘sirida ulg‘ayar ekan, uning ma‘naviy qiyofasi shakllanadi. Quvlashmachoq, bekinmachoq, chillak, varrak uchirish esa uni jismonan chiniqtiradi. Bino-barin, asrlar davomida xalq bolani aql, farosat, xotira mashqlari va turli jismoniy harakatlar orqali balog‘at yoshiga yetganida hayotga har jihatdan yetuk insonni tayyorlash rejasi asosida ish olib borgan. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, dunyo ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan o‘nlab allomalarning aynan bizning millatimiz va yurtimizdan chiqishida bolalar folkloridagi qo‘shiq, ertak, chandish, topishmoq, tez aytishlar hissasi ham yo‘q emas.

Qadim zamonlardan oq hayot tajribasini yetuk olimlardek tahlil qila olgan xalqimiz bolalar folklori asarlarini jahon pedagogikasi talablari asosida yaratishga erishdi. Bu talablarning eng muhimi mazkur namunalar tilidagi soddalik, mazmundagi yorqinlik bilan belgilangan. Shuningdek, bu asarlar, albatta, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlarga, ajdodlariga hurmat ruhini shakllantirishi kerak edi. Bola hayot haqidagi dastlabki tajribalarga ega bo‘lganidan uy hayvonlarining tabiati va xususiyatlari, vahshiy hayvonlardagi asosiy belgilar bilan ertaklar vositasida tanishib oladi. Ayni paytda, go‘zallik qadriga yetish, his-tuyg‘ularni ifodalay olish yo‘llarini o‘rganadi.

Bola go‘dakligidan onasining allasini eshitadi. Sevimli shoirimiz Cho‘lpon ona allasidagi sehrli dunyo ifodasini shunday ta‘rif etadi: “Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur”. Bola ruhiga qilinadigan ta‘sir, avvalo, ona mehri, ona qalbidagi muhabbat bilan yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Keksalarimiz alladagi bola ruhiga iymon, vatanga muhabbat, xalqiga hurmat, o‘zi tug‘ilgan oilaga izzat singdirish fazilatini ko‘p qayd qilganlar. “Alla” lug‘aviy jihatdan “charxpalak bo‘lmoq”, “yiqilmoq” ma‘nosini ham beradi. Ayni paytda bu so‘zning “Alloh”dan olingani ham olimlar tomonidan qayd etilgan. Xalq qo‘shiqlarining bu turi deyarli hamma xalq og‘zaki ijodida bor. Uni ruslar “kolibelnaya”, gruzinlar “nanina” deb atashadi. Hatto Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida “beshik” so‘zi bor. Beshik bo‘lganidan so‘ng mantiqan bolani ovutish qo‘shig‘ining bo‘lishini tabiiy hol deb qabul qilish lozim.

Alla qo‘shiqlari mazmunan bir necha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. Onaning farzand ko‘rganiga shukr qilishi.
2. Farzandga baxt tilashi, uning kelajagini Yaratgandan so‘rashi.

3. Yosh onaning his-tuyg‘ularini ifodalashi, ba‘zan turmushdan hasrat qilishi. Ammo allaning mazmuni qanday ma‘noni ifodalashidan qat‘i nazar onaning farzandiga bo‘lgan muhabbati ustuvorlik qiladi.

Asrlar davomida millatimizning ijodkor vakillari tomonidan yaratilgan xalq qadriyatlaridan biri bo‘lgan alla momodan onaga o‘tayotgan ma‘naviy merosdir. Akademik G‘afur G‘ulom Hazrat Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni beshinchi bobidagi:

Beshik davrida chiniyu xitoyi,
Bo‘lib yuz no‘sh lab dastonsaroyi.
Ko‘zining nozi eldin eltib uyqu,
Anga uyqu keturmakka navogo¹⁰⁵.

baytlarida: “Beshik atrofiga chinliklar va xitoyliklar yig‘ilib, yuz ohang bilan alla aytar edilar. Bolaning ko‘zidagi noz boshqalarning ko‘zidan uyqusini qochirar va ular Farhodning uyqusini keltirish uchun alla aytar edilar”¹⁰⁶ – deb izoh beradi. Farhodning ulg‘ayganida buyuk Navoiy havas qilarli darajada barkamol inson bo‘lib yetishishida ana shu allalar ta‘sirini kim inkor etadi. Axir dunyo tanigan olimlarimiz, g‘azalu dostonlar bitgan adiblarimiz go‘dakligida alla eshitib ulg‘aygan-ku. Tibbiyot ilmining buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino inson sog‘ligida tovush va ohangning, allaning juda muhim ahamiyat kasb etishini qayta-qayta ta‘kidlagan edi.

Allani ona juda berilib aytadi. Ba‘zan allani eshitgan odam onaning o‘zi allaga aylanib ketdi, shekilli, deb o‘ylaydi. Ammo shu paytda ona bolasining allani tushunmasligini xayoliga ham keltirmaydi. Qolaversa, buning ahamiyati ham yo‘q, chunki muayyan lahzada ona xayollar olamida sayr qilayotgan bo‘ladi. Bola uchun esa beshikning bir maromda tebranishi va alla kuyi ahamiyatlidir.

O‘zbek bolalar folklori taniqli olim G‘ani Jahongirov va professor Oxunjon Safarov tomonidan o‘rganilgan. Xususan, O.Safarov ona ayta-digan allalar mazmun va kompozitsiya jihatdan turlarga bo‘linishini ko‘rsatadi: parokanda, voqeaband, maishiy, tarixiy allalar mavjud bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi. Har biri mustaqil mazmun bildiruvchi to‘rtlik allalar parokanda hisoblanadi:

¹⁰⁵ Алипёр Навоий. Фарход ва Ширин. – Т.: 1956. – Б. 78.

¹⁰⁶ Уша жойда. – Б. 79

Men seni alla qilay, alla,
Ko'tarib katta qilay, alla.
Alla jonning rohati, alla,
Uyqu ko'zning rohati, alla.

O'rik yog'och beshiging, alla,
O'rgilib ketsin onang.
Tut yog'ochdan beshiging, alla,
Termulib o'tsin onang, alla.

Parokanda – tartibsiz, tarqatilgan ma'nosini ifodalaydi. Binobarin, parokanda allalarning har birini alohida aytish mumkin.

Voqeaband allalarda misralardagi mazmun bir-biriga bog'lanadi, ya'ni voqeasi bandlangan, bog'langan bo'ladi. Ularni oldinma-keyin aytish mumkin emas:

Past-pastgina tepadan,
Toydim tushdim-o, alla.
Qo'linga qaychi olib-o,
Senga - qo'g'irchog'im-o,
Chopon bichdim-o, alla.

Yenglari tor kelmasin, deb
Qo'linga qarab-o, alla.
Chopon bichgan qo'limni-yo,
Mening toylog'im-o, alla,
Oyi bordir-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.

Ma'lum bo'ladiki, voqeaband allalarning mazmunan birligi ularni aralash yoki almashtirib ijro etishga yo'l qo'ymaydi.

Maishiy allalarda lirik yo'nalish yetakchi bo'ladi. Agar avvalgi tur allalarda ona maqsadi, asosan, alla aytishga qaratilgan bo'lsa, maishiy turda ona endi alla aytishdan ham ko'proq o'zining ichki g'amini, dard-hasratni aytmqochi bo'ladi. Endi alla faqat vosita vazifasini o'taydi. Bosh maqsad esa, his-tuyg'uni ifodalashga qaratilgan bo'ladi:

Shaftoli shoxiga zar, alla,
G'aynoli bargiga zar, alla.

Men dadangga intizor, alla,
Ko'z tikarman beqaror, alla.

Bu allani ko'proq eri urushga ketgan, uzoq va xavfli safarlarda qatnashayotgan va oila erkaksiz qiynalayotgan paytlarda aytishgan. Ular lirik asarlar sifatida aytuvchi ichki kechinmalarini ifoda etgan.

Tarixiy allalar nisbatan kam aytilgan. Ularda muayyan davr, voqea-hodisa aks etgan:

Afg'oniston tog'ligi-yo, alla,
Yaltillaydi balig'i-yo, alla.
Kundan-kunga ortadi-yo, alla,
Amirlikning solig'i-yo, alla.

Shunday qilib, bolalar folkloriga nisbat beriladigan allalar onaning qalb qo'shig'i hisoblangan. Bola allaning so'zini tushunmagan, kuyidan rohat olgan. Ona bo'lsa, bir tomondan, quvonchini, ikkinchidan, alami va dardini aytib ko'nglini bo'shatgan. Natijada, har ikki taraf: ona ham, bola ham yutuqda qolgan.

Bolalar folklorining yana bir janri ertaklardir. Bolalarga mo'ljallab yaratilgan ertaklar syujetdagi yaxlitlik, tildagi soddalik, voqealar bayonidagi takroriylik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Matnlar hajmi cheklangan bo'ladi. Ko'proq ma'rifiy mazmundagi hayvonlar haqidagi ertaklardan tashkil topadi. Laylakning tumshug'i uzunligi, burgutning erkinligi, bo'ringaning vahshiyliги, o'tning sezgir jonivor ekanligi haqida ertaklar yaratiladi. Bola ularni eshitish bilan ham hayot tajribasini o'zlashtiradi, ham sokin bir vaziyatda uyquga moyillik sezadi. Ko'pincha, bu tur ertaklarda bir xil voqeaning biroz farq bilan takrorlanishi kuzatiladi. Masalan: "Qarg'a bilan qo'zi" ertagida qarg'a qo'zini yemoqchi bo'ladi. Qo'zi qarg'aga tumshug'ini halollab yeyishni maslahat beradi. Qarg'a daryo bo'yiga tumshug'ini halolash uchun keladi. Daryo suv olish uchun ko'za kerakligini aytib, uni kulolga jo'natadi. Kulol ko'za qilish uchun tuproq olib kelishni aytadi. Ertak davomida turli sabablar bilan uni kiyikka, it egasi Po'latvoy akaga, sigirga, Toshvoy akaga, o'tga, ustaga, ko'mirga jo'natishadi. Oxiri qarg'a o'roqni olib kelayotganida, o'roq qarg'aning qanotini kesib ketadi va qarg'a maqsadiga yeta olmaydi. Ammo ertakning oxiridagi qarg'aning so'zlari bu hayotda hamma narsa bir-biriga bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Ertak mazmunini juda boyitib yuboruvchi matn monologdan iborat ekanligi oydinlashadi:

Qarg'a bu yerdan ham uchib, o'shal ko'mirchilarning oldiga borib:

– Ko'mirchi aka, ko'mirchi aka, bering ko'mir, qilsin o'roq, o'ray quroq, yesin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvsin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, qilsin ko'za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a'lo, yeyman qo'zi, - debdi.

Ertakdagi qarg'a nutqiga diqqat qilsak, ko'zani kulol, o'roqni temirchi qilishi haqida ma'lumot olamiz. Ayni paytda, butun ertak mazmuni shu jumlada mujassamlashgan. Daryo, temirchi, kulol, kiyik, dala - hammasi qo'zi tarafida. Qo'zi esa ezgulik timsoli. Qarg'a nima uchun maqsadiga yeta olmagan ertak mohiyatidan anglashiladi.

Ma'lumki, "Mohistara", "Suv qizi" kabi ertaklar, asosan, balog'at yoshiga yetganlar uchun yaratilgan. Ammo bu ertaklar qatoridagi ayrim namunalarni bolalar uchun ham aytilganligini taxmin qilish mumkin. Xususan, biz bu o'rinda "Uch og'a-ini botirlar" mazmuni va bayon uslubiga o'xshash asarlarni nazarda tutmoqdamiz. Chunki "Uch og'a-ini botirlar"da asosiy maqsad yosh farzanddagi iroda, zehn, aql, farosat fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Otaning nasihatiga diqqat qilaylik:

1. To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz.
2. Maqtanchoq bo'lmang, uyatga qolmaysiz.
3. Dangasa bo'lmang, baxtsiz bo'lmaysiz.

Ota nasihatida inson hayotining mazmuni mujassamlashgan. Uchta maslahatga amal qilgan farzand xavotirsiz yashasa, uyatga qolmasa, baxtsiz bo'lmasa, unga yana nima kerak? Ya'ni ertak bevosita bolalar folkloriga mansub bo'lmasa ham uni mohiyat va bajarish vazifasiga ko'ra bu tur qatorida tasavvur qilish mumkin. Chunki bu ertak nihoyatda hayotiyli va voqealar tizimining samimiyligi bilan e'tiborimizni qozongan.

Bolalar qo'shiqlari ham ertaklar kabi muayyan farqlarga ega. Avvalo, bolalar qo'shiqlari ko'pincha o'yin va jismoniy harakatlar bilan aytiladi. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Oq terakmi, ko'k terak", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Yomg'ir yog'aloq" kabi o'nlab qo'shiqlar bolalar ijrosining repertuarini tashkil etadi. E'tibor bergan bo'lsangiz, ularning deyarli hammasi yil fasllari bilan bog'liqdir. Ular mazmuniga ko'ra bahor va yoz kunlari aytiladi. Xususan, "Boychechak" qish bo'yi qora qor ostida sovuqdan zerikkan yerning quyosh nurlaridan bahra olib bag'ridan chiqargan birinchi chechakka bag'ishlanadi. Uni bitta yakkaxon qo'shiqchi boshlaydi, bolalar naqarotga qo'shiladilar:

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondi.

Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog'ing vayroni.

Naqarot:

Qattiq yerdan qaqalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Professor O.Safarov bolalar folklorining taniqli mutaxassisi sifatida juda ko'p qo'shiq namunalarini yozib olgan. Ana shu yozilgan asarlar qatorida quyidagilar qayd etilgan:

Shaftoli pishdi,
Tagiga tushdi.
Xomini uzdim
Dadam urishdi.

yoki:

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqani op qochaylik,
El boshiga sochaylik.
Elning murodi kulsin,
Laylak balandroq uchsini.

Nisbatan kam bo'lsa-da, qish fasli bilan bog'liq qo'shiqlar ham uchraydi:

Qor yog'di gupillatib,
Qor buva to'qqillatib,
Kirib keldi maktabga
Soqolin selkillatib.

Bolalar qo'shiqlarida bulbul, chumchuq, qirg'iy, qarg'a, kaklik, musicha kabi qushlarga va echki, qo'zi, quyon, it kabi hayvonlarga atab to'qilganlari ham bor:

Ag'am-bag'am tishini ko'rdim,
Yugurganda tilini ko'rdim.
U chopardi dukur-dukur,
Quyong ekan harom o'lgur.

Shunday qilib, og'zaki ijodimizdagi xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi bolalar qo'shiqlari yil fasllariga, qush va hayvonlarga, tabiatdagi o'zgarishlarga bag'ishlangan bo'lib, mazkur narsa-predmetlar va vatan manzaralariga nisbatan munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida baholanadi. Bu qo'shiqlardagi misralar bo'g'in soniga ko'ra 6-8 tadan oshmaydi. Qo'shiqdagi misralar soni 6, 8, 10 tani tashkil etadi. Bu xususiyat ularni o'ynab ijro etish imkonini beradi.

Olimlar fikricha, tez aytishlar bolalar folkloriga nisbatan keyin qo'shilgan janr hisoblanadi. Ular avval "tural", "chalg'ituv", "chalish", "adashish" atamallari bilan mashhur bo'lgan. "Tez aytish" esa keyin qo'llangan. Vaqt o'tgani sari bu janr kattalardan bolalar folkloriga o'tgan. Qadimgi qoidalarga binoan tez aytishni bir nafas olish bilan aytish talab qilingan. Qadimgi tez aytishlarda esa talaffuz qilish oson bo'lmagan so'zlar soni ko'p bo'lgan. Shuning uchun ularni avvallari kattalar folkloriga mansub beradilar. Yosh bola ularni bir nafasda ayta olmagan. Hozirgi kunda bunday namunalar bolalarning ayrim tovushlarni talaffuz qilishi qiyinligiga ko'ra tanlanadi. Masalan, "r", "l", "s", "sh", "ch" tovushlarini aniq aytish mo'ljallangan tez aytishlar ko'proq qo'llanadi:

Charxim chakalak,
Tanobi charxim chakalak,
Charximda gunoh yo'g'u.
O'zim hakalak.

"R" tovushi talaffuziga bag'ishlangan quyidagi tez aytishga e'tibor bering:

"Bir tup tut. Bir tup turp.

Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.

Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi.

Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

Bir tup tutning tomirini turtib turgan bir tup turpning tomirini bir tup tutning tomiri turtib turibdi.

Bir tup turpning tomirini turtib turgan bir tup tutning tomirini bir tup turpning tomiri turtib turibdi”.

Biz yuqorida tez aytish kattalar folkloriga mansub bo‘lgan deganimizda ana shu matnni nazarda tutgan edik.

Bu janr ko‘proq bolalar o‘rtasida aytiladigan bo‘lganidan so‘ng matn hajmi qisqargan. Xususan, quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan:

Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq.

Qishda kishmish pishmasmish,
Pishsa kishmish, qishmasmish.

Ba‘zan tez aytishlarda o‘ziga xos shirin kulgili vaziyatlar ham aks etishi mumkin: “Namanganda bor ekan bir usta Musa puch pistapurush. O‘sha usta Musa puch pistapurushning oltmish qop puch pistasi bor ekan. Oltmish qop puch pistasi bo‘lsa ham o‘sha usta Musa puch pistapurush. Oltmish qop puch pistasi bo‘lmasa ham o‘sha usta Musa puch pistapurush”.

Aytish mumkinki, xalq ijodidagi tez aytish shoirlarimizga ham ta‘sir qildi. Ko‘p shoirlarning tez aytishlari televideniye, radio, kichik sinflar uchun tuzilgan darslik va qo‘llanmalardan o‘rin olmoqda.

Yosh yigit-qizlar o‘rtasida sanamalarni bilmaydiganlar bo‘lmasa kerak. Yoshligimizda o‘ynagan quvlashmachoq, bekinmachoq va boshqa o‘yinlarda kimdir xizmatda qolishi kerak bo‘lgan. Guruh ikkiga bo‘linganda, xolislik talab qilingan. Ana shunday vaziyatlarda sanamalarga murojaat qilganmiz. Sanamalar matnlarida esa biz e‘tibor qilmaganimiz holda bir necha maqsadlar nazarda tutilgan. Avvalo, kichikroq yoshda ekanimizda sanashni o‘rganganmiz. Undan tashqari qofiyalar, istioralar, sifatlashlar yodimizda saqlanib qolgan.

Olimlarning ma‘lumot berishicha, sanamalar turli xalqlar og‘zaki ijodida keng tarqalgan janrdir. Ruslarda “schitalka”, tojiklarda “shumurak”, turkmanlarda “sanavoch”, tatarlarda “sanashu” deb ataladi. Ulardagi umumiylik sanash bilan bog‘liqlikda va matndagi qofiyaga rioya qilishda namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat ularni yodlashda qo‘l keladi:

Qovun palak,
Guvak otdi.

Guvak emas,
Chuvak otdi.
Chuvak qovun
Shirin ekan,
Safdan chiqsin
Qo‘lim tekkan.

O‘zbek bolalar folklori tadqiqotchisi O.Safarov ma’lumotiga qaraganda, 800 misraga yaqin hajmda 150 dan ortiq sanamalar aniqlangan. Yuqoridagi raqamlardan o‘zbek folklorining bu turi ham naqadar boy va rang-barang ekani ma’lum bo‘ladi.

Bolalar folkloridagi yashirin til janri o‘n-o‘n besh yoshdagi o‘g‘il-qizlarimizning ijod qilish zavqi qanchalar kuchli ekanini dalillaydi. Avvalo, bu yoshda ruhiy jihatdan bolada hayot romantikasi taraqqiy etgan ko‘rinishda bo‘lishini ta’kidlash zarur.

Bu davr sirli imo-ishoralarga, sirli sayohatlarga chiqish rejalariga, sirli kelishuvlarga boy bo‘ladi. Shulardan bir ko‘rinishi yoki shakli sifatida sirli tillashuvni esga olish mumkin. Haqiqatan ham, odam o‘ylab ko‘rsa, ikki kishi so‘zlashsa-yu, hech kim ularning suhbatini tushunmasa, qanday maroqli. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanidagi “Kumushning so‘z o‘yini” bobida Otabek bilan Kumush suhbatini sirli parda ostida tasvirlagan. Zaynab Kumushning Otabekka aytgan dil so‘zlarini mutlaqo tushunmaydi. Bu bilan yozuvchi o‘zbek tabiatidagi yana bir go‘zal fazilat haqidagi o‘z tasavvurini kitobxonga yetkazgan edi. O.Safarov tomonidan “Yashirin til” deb shartli ravishda nomlangan janr ham o‘ziga xos kashfiyotlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Olimning ta’kidlashicha, yashirin tilning vujudga kelishida 3 yo‘nalish mavjud:

1. Bo‘g‘indan so‘ng bo‘g‘in qo‘shish negizida so‘zni sun‘iy ravishda sindirgan holda cho‘zish hisobiga hosil qilingan yashirin tillar.

– Mazan Qozodizirni o‘zortozog‘izim dezeyaza ozolmazaymazan.

– Nezegaza?

– Xazabazarkazashlizik qizilazadizi.

(– Men Qodirni o‘rtog‘im deya olmayman.

– Nega?

– Xabarkashlik qiladi).

2. Bo‘g‘in yoki tovush oldidan tovush qo‘shish asosida hosil qilingan yashirin tillar.

– Chmen chga chdaf chta chring chni chbe chrib chtur.

- Cho‘z chimchga chkerchak.
- (– Menga daftaringni berib tur.
- O‘zimga kerak).
- 3. So‘zni teskari aytish.
- Inamirak imgnidro‘k?
- Qo‘y.
- (– Karimani ko‘rdingmi?
- Yo‘q)¹⁰⁷.

Yuqorida qayd qilingan asosiy usullar ichki kelishilgan tartib bilan boshqacha qoidalar bilan boyishi natijasida yangi-yangi yashirin til ko‘rinishlarini kasb etishi mumkin.

Bolalar folklori haqida avvalgi sahifalarda yuritilgan munosabatlar xalqimizning farzand tarbiyasiga, xalq va yurt kelajagiga o‘ta mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘usi qanchalar kuchli ekanini dalillaydi. Ikkinchi tomondan, avlod ham voyaga yetganidan so‘ng ajdodlar xotirasiga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. Chunki xalq qadriyatlarini e‘zozlash, tariximizga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish alla ohangi bilan jismimizga singib ketgan. Ertaklar, tez aytish, topishmoq, sanamalar, qo‘shiqalar bilan ovunganmiz. Oxir-oqibat bu asarlar bizning ruhan, tabiatan o‘zbek bo‘lib voyaga yetishimizga xizmat qilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Bolalar folklorining kattalar folkloridan farq qiluvchi va o‘xshash janrlarini alohida-alohida ayting, izohlang.*
2. *Bolalar folkloriga mansub asarlar qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak? Nima uchun?*
3. *Bu janrga oid asarlardan namunalar yozib oling. Yodlang.*

Adabiyotlar:

1. Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1975.
2. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985.
3. Сафаров О. Фольклор – бебаҳо бойлик. – Т.: Муҳаррир, 2010. – Б. 231-284.
4. Бойчечак. Қўшиқлар. – Т.: 1984.

¹⁰⁷ Сафаров О. Болаларнинг яширин тиллари / Фольклор – бебаҳо хазина. - Т.: Муҳаррир, 2010. – Б. 275-284.

“Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to‘kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o‘tkaziladigan, xalq orasida qat‘iy an‘anaga aylanib qolgan xatti-harakatlar marosim”¹⁰⁸ – deyiladi. Taniqli olim Bahodir Sarimsoqovning ta‘rifidan ma‘lum bo‘ladiki, marosim xalq orasida qat‘iy an‘anaga aylangan tadbir hisoblanar ekan.

Inson tug‘ilganidan to hayotdan ko‘z yumguniga qadar o‘nlab marosimlar guvohiga aylanadi. Gohida uning markaziy qahramoni, gohida ishtirokchi, gohida oddiy kuzatuvchi bo‘ladi. Ammo marosimlar hayotning ajralmas qismi sifatida hamisha hamrohlikda sodir bo‘laveradi.

Marosim arab tilidagi “marsum” (مرسوم) so‘zidan olingan bo‘lib, 1 - chizilgan; 2 - rasm qilingan; 3 - odat bo‘lgan ma‘nolarini anglatadi. Muayyan qoidalar asosida chizilgan, millat tomonidan rasm qilingan va odat tusiga kirgan tadbirlarni esa shartli ravishda uch turga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

1. Oilaviy marosimlar. Ular, odatda, biror shaxs yoki oila a‘zosi hayotidagi muhim voqealar munosabati bilan amalga oshiriladi. Oilaviy marosimlar ishtirokchilari qarindoshlar, quda-andalar, do‘stlar, tanish-bilishlar, qo‘shnilar va mahalladoshlar ishtirokida o‘tadi.

2. Tabiatda ro‘y bergan o‘zgarishlar, muayyan odat, rasm-rusum bilan aloqador va ma‘lum darajada zarurat oqibatida tashkil qilinadigan marosimlar. Bunday marosimlar bahor, yoz, kuz, qish fasllarida uyushtiriladi. Ularda biror qishloq, mahalla, tuman aholisi qatnashadi. “Shox moylar”, “Sust xotin”, “Choy momo”, “Darvishona” kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

3. Umumxalq bayramlari munosabati bilan tantanali ravishda o‘tkaziladigan marosimlar. Bunday marosimlarga Mustaqillik bayrami, Navro‘z bayrami, Iydi Ramazon, Iydi Qurbon, Hosil bayramlari nisbat beriladi. Umumxalq bayramlari butun mamlakat miqyosida nishonlanadi. Har bir oila bunday marosimlarga o‘zining hissasini qo‘shishga harakat qiladi.

Oilaviy marosimlar. Xalq tajribasidan o‘tib, an‘anaviy tus olgan oilaviy marosimlar, asosan, uch turdan iborat bo‘ladi. Ularni to‘y, motam, biror oila a‘zosi hayotidagi muhim voqea (kasaldan tuzalish, ilmiy daraja olish, haj safarini bajo keltirish va boshqalar)ning ro‘y berishi munosabati bilan o‘tkaziladigan yig‘inlar tashkil etadi.

¹⁰⁸ Саримсоқов Б. Маросим фольклори. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 116.

Odatda, yangi oilaning paydo bo'lishi nikoh to'ylari bilan boshlanadi. Qizni turmushga berish harakatini oilasiga sovchi kelish belgilagan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida "sav" so'zining xabar berish ma'nosi borligi qayd etilgan. Shu ma'lumotga asoslanib "sovchi" milliy tilimizdagi eng qadimgi so'zlardan emasmikan, degan fikrga borish mumkin. Chunki sovchi bo'lajak kelin oilasiga kuyov haqida, uning shu qizga uylanish niyati borligi haqida, kuyovga esa kelinning rozi, rozi emasligi haqida xabar beruvchi elchi hisoblanadi. To'y marosimi ham to'y olib kelish, indovchi yuborish, ziyofat berish, yor-yor aytish, tortishmachoq, ayrim viloyatlarda kampir o'ldi, qo'l silatdi kabi qator kichik sahnali marosimlardan iborat bo'ladi. Aslini olganda, har bir to'y kelin va kuyov yashaydigan hudud aholisi tomonidan yillar davomida o'ylab topilgan sahna – ssenariy asosida o'tkaziladi. Uning ishtirokchisi boshqa bo'ladi, xolos. Ya'ni iqtisodiy ta'minlanish, el-yurtdagi hurmati, uy xarajatiga munosabati to'yning uyushtirish sifatini belgilaydi. To'y marosimlarining shartlari hayotning o'tishi bilan o'zgarib turadi. Masalan, uzoq qadimgi zamonlar kuyov bo'lmish yigit uylanajak qizni jismoniy jihatdan yengishi lozim bo'lgan. Keyinchalik bu shart qizga talab chiqayotgan yigitlar o'rtasidagi kurashga ko'chgan. Yana ham keyinroq bu shartlar ham o'zgargan. Har bir harakatda so'z ishtirokidagi udumlar bo'lgan. Hozir bu udumlar ko'proq sovchilarning so'zga ustaligi bilan kelin tarafni ko'ndirish, kuyov do'stlariga sarpolar berish, qiz kuyovnikiga kelganida, yangalarning qizni kuyov tarafga topshirish lavhalarida saqlanib qolgan. Ayrim hududlarda yor-yor, kelin salom odatlaridan tashqari o'lan aytishadi. Qizlar bir taraf, yigitlar bir taraf bo'lib, lirik mazmundagi tortishuv o'tadi. Masalan, Toshkent viloyatining Angren tumanida o'lan aytish odatiga alohida e'tibor beriladi. Respublika o'lan aytish tanlovining doimiy o'tkazilishi esa bu janr rivojiga turtki bo'ldi, deyish mumkin.

Yigit:

O'yna turib deganda, o'yna turib,
O'rtanaman - kuyaman seni ko'rib,
O'rtanganda - kuyganda seni ko'rib,
Ermaklaysan - kulasan, labing burib.

Qiz:

Kiygan to'ning yarashgan bo'yginangga,
Men bilmadim ne so'z bor o'yginangga,
Ermaklasam ermaklay labim burib,
Indamasdan borib yot uyginangga.

To‘y davomida kelin gulxan atrofida aylantiriladi. Bu udum payti yor-yor aytib turiladi. Yor-yor tugagach, navbat kelin salomga keladi. Toshkent va ayrim boshqa hududlarda kelin salom to‘yning ertasiga aytiladi.

Oilaviy marosimlar qatoridan o‘rin olgan yana bir to‘y bolaning tug‘ilishi bilan bog‘lanadi va beshik to‘y deb yuritiladi. Odatda, bola tug‘ilganidan keyin 7-21 kun orasida aqiqqa marosimi o‘tkaziladi. Undan keyin beshik to‘yi qilinadi. Beshik to‘yi yangi tug‘ilgan farzandning birinchi beshikka belanishi bilan boshlanadi. Beshik to‘yida surnay, doira va boshqa tomoshalar ko‘rsatiladi. Quloq cho‘zdi o‘yinlari o‘tkaziladi. Hamma tomoshalar tugaganidan so‘ng ko‘p farzand ko‘rgan, piri badavlat kayvoni ona bolani maqtaydigan, unga yaxshi tilak tilaydigan qo‘shiq aytadi. Beshik jhozlari tayyor bo‘lganida, kayvoni ona bolani “shunday belaymizmi?” deb teskari yotqizadi. Hamma xotinlar “yo‘q, yo‘q” – deb javob beradilar. Shu yo‘sinda bola bir necha marta beshikka nobop yotqiziladi va “shunday belaymizmi?” deb so‘raladi va yana “yo‘q, yo‘q” javobi olinadi. Oxiri “Ha” bilan bu marosim tugaydi. Shundan so‘ng bolaga onalik qilayotgan ayol chaqaloqni beshikka belab turib, qo‘shiq aytadi:

Qoch-qoch babasi,
Keldi beshikning egasi.
Ota-onang gapirishsa,
Qichqirishsa, yana qo‘rqma!

Qo‘shiqning davomida it, mushuk, eshak va boshqa hayvonlar ovoz chiqarsa, qo‘rqmasligi kerakligi aytilgan. Bola belanib bo‘lgandan so‘ng beshik ustidan sochqi sochiladi va isiriq tutatiladi. Uning aytimi quyidagicha:

Isiriq, isiriq,
Chatnasin, isiriq,
Tutasin isiriq.
Bolamga ko‘z tegmasin.
Kim qo‘zimga ko‘z qilsa,
Ko‘zlari oqib tushsin.

Shundan keyin beshikdagi bola maxsus xonaga olib chiqiladi, mehmonlarga osh tarqatiladi, xotinlar turli matolar, kiyimliklar bilan chorlanadi.

O‘zbeklarda esda qoladigan to‘ylardan biri xatna (sunnat) to‘yi hisoblanadi. Bu to‘y xatna, sunnat, chupron, chukron, qo‘lini halolash kabi nomlar bilan atab kelingan.

To‘y egasining qo‘li ochiqligi, ko‘pincha, shu to‘yda aniqlangan. Ona taraf toy va kuyov tarafni sarpolar bilan siylagan. Ota taraf yurtga osh bergan, qarindosh-urug‘ va tanishlarga dasturxon yozgan. Chorva bilan shug‘ullanadigan hududlarda, albatta, ko‘pkari, uloq uyushtirilgan. Qadimgi an‘analarga ko‘ra, Xorazmda “Oltin qovoq”, Andijon, Farg‘onada “Quloq cho‘zma”, Toshkentda “Bola mast”lar o‘tkazilgan. Masalan, Toshkentdagi odatga ko‘ra to‘y bolaga zarar qilmaydigan turli ichimliklar berilib mast holatga keltirishgan. Shundan so‘ng bola tog‘asi, amakisi yoki qo‘shni yigitlardan birining yelkasiga opichilgan. Ziyofat to‘yxonadan ma‘lum masofada uyushtirilgan. Belgilangan vaqtga bolani uyga yetkazishdan avval xonadonma-xonadon kirib chiqilgan. Bu paytda mana shunday qo‘shiq aytilgan:

Masjid bo‘lsa, madrasa,
Ho yallo, yallo, yallo.
Bir odil poshsho bo‘lsa,
Ho yallo, yallo, yallo.
Har kim sevganin olsa,
Ho yallo, yallo, yallo.

Professor B.Sarimsoqovning yozishicha: “Chorqarsak xatna to‘yining eng qiziq va hal qiluvchi nuqtasi sanaladi. To‘y ishtirokchilari katta doira shaklida turadilar. Ichki qatordagilar tiz cho‘kishib turishadi. O‘rtaga bir yoki ikki yigit tushib chalinayotgan qarsak ritmi asosida chorqarsakning birinchi (chaqiriq) bo‘limi “Yallama yorim” qo‘shig‘iga o‘ynashadi”¹⁰⁹

Qo‘shiq matni:

Bundan bordim, yotibsiz,
Par yostiqqa botibsiz.
Par yostiqni ko‘tarsam,
Gulday toza yotibsiz.

Naqarot:

Yallama yorim, yallola,
Yallolashaylik, yallolashaylik.

¹⁰⁹ Саримсоқов Б. Маросим фольклори. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 116.

To'rtta-beshta bir bo'lib,
Hasratlashaylik.

Hasrat bog'ingdan,
Quralay ko'zingdan.
O'ldira bersang, kuydira ber,
Shakkar so'zingdan.

O'zbekistonimizning viloyat, tumanlari ko'p. Har bir hudud to'y marosimlarini o'tkazishda o'z udumlariga ega. Shuning uchun uylanish, qiz uzatish, beshik, xatna to'ylarida umumiy milliy odatlar asos bo'lsa-da, ular-dagi kichik, juz'iy tadbirlarda bir qator farqlarning kuzatilishi tabiiydir.

Xalq marosimlari qatoridagi motamlar eng qadimiylaridan hisoblanadi. Yaratilganiga qariyb 3000 yil bo'lgan "Avesto"da ham vafot etgan odamni dafn qilish bo'yicha ma'lumotlar bor. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida esa motam marosimida aytiladigan qo'shiq-marsiyalardan misollar keltirilgan.

O'zbek motam marosimlari juda ko'p turli hajmda o'tkaziladigan yig'inlardan iborat. Uch, yetti, yigirma, qirq kunliklar; qor yog'di, gul, shir oshi, qovoq kabi movliyatlar shular jumlasidandir.

Marsiyalarda hayotdan ko'z yumgan odamning hayotligidagi fazilat-lari, uning mehribonligi, iymonli ekanligi esga olinadi:

Baland tog'lar past bo'ldimi, voy otam,
O'lganingiz rost bo'ldimi, voy otam.
Shamol kelmay o'chdi chirog'im, voy otam,
Kuz kelmay xazon bo'ldi bog'im, voy otam.

Shu tarzda ota, ona, bola, aka, uka, umuman, qarindosh nomlari tilga olinadi. Amaki, tog'a, xola, ammalar ham ota, ona nomi bilan atalaveradi. Bunday qo'shiqlar marsiya deyiladi. "Marsiya" arab tilidan olingan bo'lib (مرثية), "motam she'ri" ma'nosini anglatadi. Xalq orasida marsiyani "aytib yig'lash" deb ham atashgan. Zavqiyning "Yuzingni ko'rsatib" so'zlari bilan boshlanadigan muxammasida: "Sani dardi firoqing aytib-aytib yig'lay o'lguncha" misrasida ham aytib yig'lash ma'nosi yo'q emas. Odatda, motam marosimi hayotdan ko'z yumgan shaxs vafotiga yillik ma'rakalar o'tkazish bilan yakunlangan.

Mavsumiy marosim folklori

O'zbek xalqi qadim zamonlardan dehqonchilik, bog'bonlik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik ham, chorvachilik ham mutlaq tabiat muruvvati va injiqliklari bilan bog'liqdir. Erta bahordan kech kuzgacha dehqon dalada mehnat qiladi. Qishda esa yerga iloji boricha ko'proq nam singdirish choralari ko'radi. Chorvador esa yil davomida chorvani semirtirish, ko'paytirish bilan band bo'ladi. Binobarin, yil fasllarining qulay kelishi dehqon xirmoniga xirmon qo'shadi, chorvador mehnati samarasini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun yomg'ir chaqirish, yomg'ir to'xtatish, shamol chaqirish va to'xtatish tajribasini ipidan ignasigacha keyingi avlodga meros qilib qoldirishga odatlangan. Natijada, o'nlab marosimlar kashf etilgan. Marosimlar esa, albatta, so'zning sirliligi bilan yashagan, amalga oshirilgan.

Professor Mamatqul Jo'rayevning "O'zbek mavsumiy marosim folklori"¹¹⁰ kitobini o'qigan kitobxon o'zbeklarda yilning 365 kunidagi deyarli har bir kun dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik kasbi bo'yicha o'zining maxsus nomi, marosim bilan bog'liq jihatlari borligiga ishonch hosil qiladi.

O'zbek mavsumiy marosim folklori yil fasllarida o'tkaziladigan marosimlardan iborat. Bahorgi mavsum marosimlari loy tutish, shox moylash, Navro'z, yomg'ir chaqirish, darvishona; yozgi marosimlar choy momo; kuzgi marosimlar shamol chaqirish; qishki marosimlar yas-yusunlardan iboratdir. Yuqorida qayd etilganlardan tashqari yozgi to'qson, chilla, qishki to'qson, chilla, ayamajuz, hut-yut deb nomlanadigan o'nlab udumli muddatlar ham ma'lum darajada marosim ko'rinishlariga ega.

Masalan, loy tutish marosimida muayyan hududda yashaydigan aholi ariqlarni tozalash, dalaga suv chiqarishni osonlashtirish uchun hasharga chiqadi. Xotiralardan birida baxshi Bo'ri Ahmedov Sherobod tumanida shunday marosim o'tkazilayotganda, hasharchilar yonidan o'tib qolgan. Unga loy tutishgan. Shunda baxshi:

Hojakam hajga ketdi,
Bilmadim kujo ketdi.
O'n ikki jumurtqadan
Qirq sakkiz jo'ja ketdi

¹¹⁰ Жураев М. Узбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008.

topishmog'ini aytgan. Ishlayotganlar bir yil, o'n ikki oy, qirq sakkiz mehnat haftasi yashiringan topishmoqni topa olmaganlar va baxshi ariq tozalash ishidan ozod qolgan. Shox moylar marosimi bahorda qo'sh chiqarish bilan bog'liq bo'lgan. Dehqonlar yil davomida ekin-tikin mo'l-hosil berishiga umid qilib birinchi qo'sh haydaydigan ho'kiz shoxiga zig'ir moyi surganlar. Marosimda dehqonchilik piri – bobodehqondan mo'l hosil bo'lishini tilab niyat qilishgan.

Yomg'ir chaqirish marosimi, asosan, bahorda yomg'ir yog'magan yillarda o'tkazilgan. Qadimda muqaddas Yada toshi bo'lgan ekan. Mana shu tosh yordamida yomg'ir chaqirishgan. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk" asarida shaxsan o'zi yoz kunlarida yomg'in bo'lganda, bu tosh mo'jizasi bilan yomg'ir chaqirilib, yomg'in o'chirilganiga guvoh bo'lganini yozadi. Keyinchalik yomg'ir chaqiriladigan hududlarda "Sust xotin" marosimi o'tkazilgan. Bu marosim bir joyda ayollar, bir joyda erkaklar ishtirokida o'tkazilgan:

Sust xotin - sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Suv xotin - suvsiz xotin,
Ko'ylaklari bo'z xotin.

Hosillar mo'l bo'lsin, suv xotin,
Dehqonning uyi to'lsin, suv xotin.
Kazzobning uyi kuysin, suv xotin,
Suv xotin - suvsiz xotin.

Yuqorida keltirilgan matnga o'xshagan qo'shiqlar kichik hududlarda yomg'ir chaqirib lalmi yerlarda ekilgan bug'doylarning unish va o'sishi uchun imkon yaratilishiga urinilgan.

Yozgi marosimlardan biri "Choy momo" bo'lgan. "Choy momo" be-mahal ko'tarilgan shamolni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan. B.Sarimsoqov bu marosimning Janubiy Qozog'istonda yashovchi o'zbeklar orasida o'tkazilgani haqida yozadi. 2009-yil Qashqadaryo viloyatidagi Qozoq qishlog'ida o'tkazilgan ekspeditsiya davomida bu yerlik qariyalar "Choy momo" marosimini eshitganliklari haqida ma'lumot topdik. Ammo bu yangilikni aytgan qariyalarimiz marosim tafsilotlarini eslay olmadilar. Marosimda quyidagi matnli qo'shiq kuylangan:

Choy momo, choy momo,
Choy momosi o'libdi.
O'g'li yetim qolibdi.
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin bu shamol.
Ucha-ucha beringlar,
Uchilib qolsin quv shamol.
Oblo-hu, Oblo-hu...

B.Sarimsoqovning ma'lumotiga ko'ra, Sayram atroflarida marosimni, asosan, kekxa ayollar boshlaganlar. Ikkita kampir eski ust-bosh kiyib, yuzlariga qorakuya surtib, qo'llariga hassa olib, bittadan kaltakni yog'och ot qilib minib, "Choy momo" qo'shig'ini aytishib, qishloq ko'chalari bo'ylab yurishadi. Ularning ortidan boshlariga qizil sholcha yopingan beshta bo'yi yetgan qizlar qo'shiqqa jo'r bo'lib borishadi. Ulardan keyinda esa yetti-sakkiz yoshlardagi bola eshakka minib olib, xonadonlardan berilgan xayr-sadaqalarni xurjunga solib yuradi. Eshakda o'qloq, keli sopi va supurgi qo'shib bog'langan bo'ladi. Shu tariqa ishtirokchilar qishloqdagi barcha ko'chalarni aylanib qo'shiq aytishadi¹¹¹.

Kuzgi marosimlarda shamol chaqirish odati bor. Agar yoz faslida yetilgan bug'doyni yerga egib qo'ymasin uchun shamol to'xtatilgan bo'lsa, kuzda donli ekinlarni shopirish uchun shamol chaqirilgan:

Haydar, ota-onang o'libdir,
Moli senga qolibdir.
Bolang suvga oqibdir,
Shamolingni qo'yvor.

Bu to'rtlikdagi Haydar hazrati Alining nomlaridan biri deb belgilangan.

Qish faslida Yas-yunus marosimlari o'tkazilgan. Unda mahalladagi yigitlar yoki ulfatlar yig'ilishib, qimizxo'rlik, bo'zaxo'rlik uyushtirganlar. Marosimda bo'za ichish, davrada o'tirish, davradan turib ketish, jo'ra boshi (marosim biyi) buyrug'ini so'zsiz bajarish qoidalariga rioya qilingan. Marosimda qimizni yoki bo'zani kosagul kosaga quyib to'rt misrali qo'shiq aytgan:

¹¹¹ Саримсоков Б. Маросим фольклори / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 123.

Alyor bo'lsin-ay,
Xo'jam yor bo'lsin-ay.
Xo'jam bergan bu davlatga
Dushman zor bo'lsin-ay.

Qo'shiqqa kosa olgan ishtirokchi javob qaytargan:

Oyga o'xshaydir yuzing,
Cho'lponga o'xshaydir ko'zing.
Shuncha ham yaxshi bo'lurmi,
Xalq ichida yulduzing.

O'zbek xalqi hayoti bilan yaqindan tanishgan odam mavsumiy marosimlarning juda ko'p ko'rinishlariga ega ekaniga guvoh bo'ladi. Mavsumiy marosimlar xalq hayotining tarkibiy qismini tashkil qilgan. Asrlar davomida o'zbeklarda ko'ngil ochish, tabiatga umid bilan qarash, yaxshilikka intilish niyatining badiiy ifodasi bo'lib kelgan.

Bayram marosimlari

O'zbek xalqining bayram marosimlari ham ko'p. Ularda O'zbekistonda yashovchi butun aholi ishtirok etadi. Xususan, umumxalq bayramlarining eng azizi Mustaqillik bayramidir. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1-sentabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. 1991-yil 1-sentabrdan boshlab har yili butun O'zbekiston mustaqil yurt sifatida o'zining ozodlikka erishganini nishonlab kelmoqda. Mamlakatning poytaxti Toshkentda, Qoraqalpog'iston poytaxti Nukusda, hamma viloyatlar markazlarida, tumanlar markazlarida katta tantanalar uyushtirildi. Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov butun o'zbek xalqiga, O'zbekistonda yashovchi hamma millat vakillariga qarata nutq so'zlaydi. Yurtimizdagi boshqa hududlarda ham mahalliy rahbarlar O'zbekiston mustaqilligi sharafiga nutq so'zlaydilar. Katta bayram konserti uyushtiriladi. Bu konsertlarda xalq qo'shiqlari, rasm-rusumlari, dostonlardan parchalar, askiyalar, xalq raqslari, amaliy san'at namunalari namoyish etiladi. Kuzgi ekinlar sayillari o'tkaziladi. O'zbekiston Milliy bog'idagi tantanalar televidenie orqali butun dunyoga ma'lum qilinadi.

O'zbek xalqining eng qadimgi bayramlaridan biri Navro'z hisoblanadi. Navro'z – yangi kun ma'nosini ifodalaydi. Abu Rayhon Beruniy o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Navro'z bayrami Jamshidning taxtga o'tirgan kunidan boshlab nishonlangani haqida ma'lumot beradi. Bahorgi kun va tunning teng kelish kunini 3-4 ming yil oldin kashf qilish, 21-martni yangi yil bayrami sifatida tantanali nishonlashning o'zi yurtimizda ilm taraqqiyoti qanchalar rivojlangani haqida ma'lumot beradi. Quyoshning hamal burjiga kirishini aniq belgilash astronomiya fani kashfiyoti hisoblanadi. Firdavsiyning “Shohnoma”, Umar Xayyomning “Navro'znoma”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarlarida bayramni o'tkazish tarixi, odatlari haqida tafsilotlar bor. Masalan, Umar Xayyom Navro'z kuni bosh kohin podshoh oldiga may to'la oltin jom, uzuk, dirham, dinor, arpa niholi, qilich, o'q-yoy, dovot va qalamdan iborat sovg'a olib kelishini va tabriklar izhor qilishini yozadi¹¹².

Navro'z kuni, shu kun atrofida odamlar ko'k somsa, ko'k chuchvara, ko'k varaqi – somsa, sumalak va boshqa turli taomlar tayyorlaganlar. Toshkentda halim pishirish odati bo'lgan. Navro'zda maxsus xalq qo'shiqlarini aytish odati bo'lgan. Ulardan jarchilar qo'shig'i, Navro'z keldi, yoz keldi, Navro'z o'lanlari mashhur bo'lgan. Xususan, “Navro'z olqishi”da shunday deyilgan:

Eski yil ketdi,
Yangi yil keldi.
Doshqozonlar tizilsin,
Sumalaklar suzilsin.
Bug'doylar pishib chosh bo'lsin,
Yeganimiz osh bo'lsin.

Sumalak pishirishda esa boshqacha qo'shiq aytilgan:

Bahorning sen elchisi
Yaxshilikning belgisi,
Navro'zning sen singlisi,
Sumalakjon, sumalak.
Sumalakjon, sumalak.
Sumalakka yig'ilar,
Katta-kichik, hamma ham,

¹¹² Умар Хайём. Наврўзнама. Таржимон Урфон Отажон. – Т.: Мехнат, 1990.

Pishib chiqsa, totisang,
Ko'ngillar quvna biram.
Sumalakjon, sumalak.
Sumalakjon, sumalak.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zining lirik ijodida Navro'z bayrami haqida diqqatga loyiq ma'lumotlar beradi. Xususan, shoir Navro'z kuni taqdir og'ir sinovdan o'tkazayotgan odamlarni ziyorat qilish savobli ekanini ta'kidlagan. Navoiy va Ogahiy an'anasi keyinchalik Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Oybek, H.Olimjon ijodida davom ettirildi. Sobiq sho'ro tuzumida Navro'z bayramiga qayta-qayta hujumlar uyushtirilgan. Harakatning eng og'ir payti 1986-yilga to'g'ri keldi. Bu yili Navro'z bayrami nishonlanmagan. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi Navro'zga bo'lgan munosabatda aniq ko'rinadi. 1990-yilda Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Navro'z umumxalq bayrami sifatida keng nishonlandi. Shundan buyon Navro'z bayrami o'zbek xalqining orziqib kutadigan shodiyonasiga aylandi.

Umumxalq bayramlari qatoridan munosib o'rin olganlari sifatida Ramazon hayiti va Qurbon hayiti bayramlarini ham ko'rsatish mumkin. Yurtimiz mustaqil bo'lganidan beri islom dini bilan bog'liq bu ikki bayram alohida nishonlana boshladi. Har yili ramazon oyida islom diniga e'tiqod qiluvchilar 30 kun davomida ro'za tutishadi. Og'iz ochar payti bo'lganidan so'ng 30 kun yosh bolalar ramazon aytishadi. Qadim zamonlarda ramazon aytish o'spirin yigitlar zimmasida bo'lgan. Qishloq yo shahar ko'chasining o'rtasida yakkaxon qo'shiqchi atrofida 5-6 ta do'stlari bilan ramazon aytgan. Davraning ikki chekkasida xurjun - xalta bilan ikki yigit eshik oldiga borib davraga qaytgan. Xonadon egalari ramazonchilarga hadya - ehsonlar chiqarib berishgan. Marg'ilon shahridagi qariyalarning eslashicha, bu marosimlar o'z vaqtida juda fayzli va orziqib kutilgan daqiqalardan iborat bo'lgan ekan:

Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga.
Ramazon yo ramazon, may ramazon,
Muhammad ummatiga may ramazon.

Makkada bir yog'och bor, boshi qora,
Xudoyim o'g'il bersin, qoshi qora.

Ramazon yo ramazon, may ramazon, Muhammad ummatiga may ramazon.

Odatda, ramazon oyi ramazon hayiti bilan yakunlangan. Ammo yil davomida ramazon aytuvchilar ham bo'lgan. Toshkent viloyati Angren tumanida yashagan marhum Oltivoy ota yil – o'n ikki oy otda qishloqma-qishloq ramazon aytgan. Har xil yaxshi niyat qilgan odamlar unga sovg'a-salomlar berganlar. Ota ehsonchiga bitta non berib, duo qilib ketavergan, ramazonni aytavergan.

Xullas, islom dinimiz bilan bog'liq umumxalq bayrami yiliga ikki marta: Ramazon va Qurbon hayiti sifatida nishonlangan. Bu davrda qurbi yetgan odamlar iqtisodiy qiynalgan yurtdoshlariga zakot, fitr ehsonlarini berishgan.

Shunday qilib, o'zbek xalqi qadim zamonlardan o'z hayoti davomida turli marosimlar o'tkazgan va bu marosimlarda Yaratgan Tangridan yaxshi orzu-istaklarning ro'yobga chiqishini so'ragan. Marosimlar xalq hayotining tarkibiy qismi sifatida milliy urf-odatlar sifatida qadrlangan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Marosimlarning xalq hayotida tutgan o'rni haqida gapiring.*
 - 2. Marosimlarning turlari, o'tkazilish qoidalariga izoh bering.*
 - 3. O'zingiz bilgan va qatnashgan marosimlar haqida gapiring.*
- Ularning o'tkazilish tartibini qariyalardan so'rang va yozib oling.*
- 4. Badiiy adabiyotda xalq marosimlarining o'rnini aniqlang.*

Adabiyotlar:

1. Саримсоқов Б. Маросим фольклори / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 116-141.
2. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986.
3. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008.
4. Жўраев М. Наврўз байрами. – Т.: Фан, 2009.
5. Шодиев Б. Наврўз байрами. – Т.: ЎЗМЭ, 2001.
6. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Т.: Ўқитувчи, 1991.
7. Наврўз (қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва примлар). Тузувчилар: Т. Мирзаев, М. Жўраев. – Т.: Фан, 1992.

MUNDARIJA

<i>Muallifdan</i>	3
Kirish.....	5
Xalq og'zaki ijodi haqida umumiy ma'lumot.....	7
Xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati.....	8
Xalq og'zaki ijodi va qadriyatlari davlat maqomida.....	16
Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari.....	23
Eng qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari. Miflar.....	36
Xalq og'zaki ijodi janrlari.....	47
Afsona va rivoyatlar.....	55
Maqollar.....	64
Topishmoqlar.....	77
Askiya.....	89
Latifa va loflar.....	96
Ertaklar.....	106
Xalq qo'shiqlari.....	121
Termalar.....	154
Xalq dostonlari.....	160
"Alpomish" dostoni.....	173
Ergash Jumanbulbul o'g'li.....	188
Fozil Yo'ldosh o'g'li.....	193
Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan.....	199
Islom Shoir Nazar o'g'li.....	203
Bolalar folklori.....	207
O'zbek marosim folklori.....	219
Mavsumiy marosim folklori.....	224
Bayram marosimlari.....	227

Adabiy-ilmiy nashr

Omonulla Madayev

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI

Muharrir: Mahkam Mahmudov
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev
Musahhiha: Shahnoza Nazarova

“MUMTOZ SO‘Z”
mas’uliyati cheklangan jamiyati nashriyoti
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.
Tel.: 241-60-33

Bosishga ruxsat etildi: 27.11.2010.
Qog‘oz o‘lchami 60x84 1/32. Offset qog‘oz. Times New Roman garnituras.
Shartli bosma tobog‘i 15,0. Nashriyot-hisob tobog‘i 14,5.
Adadi 1000. Buyurtma 28. Bahosi kelishilgan narxda.

“MUMTOZ SO‘Z”
mas’uliyati cheklangan jamiyati
matbaa bo‘limida chop etildi
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69
Tel.: 241-81-20



Omonulla Madayev

1942 yili Toshkent shahrida tug'ilgan.

1964 yilda Toshkent davlat universiteti Filologiya fakultetini tugatgan.

1973 yilda "Xorazm xalq dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1982 yildan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

O'z faoliyati davomida o'ndan ortiq darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy kitoblar yozdi. Ulardan "Alpomish bilan suhbat" (1998), "Xalq og'zaki poetik ijodi" (2001, 2003)larni ajratib ko'rsatish mumkin.



ISBN 978-9943-363-90-8



9 789943 363908